**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Samarqand davlat universiteti**
**Pedagogika FAKULTETI**
**Boshlang`ich ta'lim metodikasi kafedrasi**

«Tasdiqlayman»
Pedagogika fakulteti dekani
___________ dots.T.Qurbonov
«_____» ________2013 yil

«Tasdiqlayman»
SamDU o'quv ishlari
bo'yicha prorektor
_______ prof.N.Eshqobilov
«______» __________2013 yil

# ONA TILI (morfologiya) fanidan

# O`QUV-USLUBIY MAJMUA

**5111700 – Boshlang`ich ta'lim va tarbiyaviy ish bakalavr ta'lim yo`nalishi II - kurs talabalari uchun**

**Tuzuvchilar: o'qit.M.Hazratqulov**
**o'qit.S.Rahmonov**

**Samarqand-2013**

**FANLAR BO'YICHA O'QUV-METODIK KOMPLEKS TUZILMASI.**

1. Titul varag'i.
2. Mundarija.

**I qism. Oliy o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlangan o'quv-metodik hujjatlar va adabiyotlar**

**1.1. O'quv-me'yoriy hujjatlar.**

1.1.1. Davlat ta'lim standarti.
1.1.2. O'quv rejasi.
1.1.3. O'quv dasturi.
1.1.4. Moddiy-texnik va o'quv-metodik ta'minotga qo'yiladigan talablar.
1.1.5. Malakaviy amaliyot dasturi

**1.2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi grifini olgan o'quv adabiyotlari**

1.2.1. Darslik.
1.2.2. O'quv qo'llanmasi.
1.2.3. Metodik qo'llanmalari.

**II qism. Joriy o'quv-metodik taminot**

**2.1. Joriy o'quv-me'yoriy hujjatlar.**
2.1.1. Ishchi o'quv rejasi.
2.1.2. Ishchi o'quv dasturi.
2.1.3. Kalendar-tematik reja.

**2.2. Joriy o'quv-metodik ta'minot.**

**2.2.1. Leksiyalar matni.**
2.2.2. Laboratoriya, amaliyot va seminar mashg'ulotrining ishlanmalari, tarqatma materiallar, ularni o'tkazish va qo'llash bo'yicha metodik tavsiyanomalari.
2.2.3. JN, ON, YaN bo'yicha ballar taqsimoti va topshiriqlar mazmuni, baholash mezonlari ON va YaN savolnomalari (intellektual tizim, testlar, yozma ish va og'zaki so'rov variantlari).
2.2.4. Mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha metodik tavsiyanomalari.
2.2.5. Mashg'ulotlarning pedagogik texnologiyasi va texnologik xaritalari.
2.2.6. Kurs ishlari mavzulari, ularni baholash mezonlari.
2.2.7. Bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki va uni bajarish bo'yicha metodik tavsiyanoma.
2.2.8. Malakaviy (pedagogok) amaliyotini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyanoma.
2.2.9. Fan bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy ishlari va ularni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyanoma.



**MA’LUMOTNOMA**
**Hazratqulov Mutallib Rashidovich**

2011 yil 1 noyabrdan:
**Samarqand davlat universitetining «Boshlang’ich ta’lim metodika kafedrasi o’qituvchisi**

**Tug’ilgan yili:**
07.03.1975

**Tug’ilgan joyi:**
Samarqand viloyati, Urgut tumani

**Millati:**
o’zbek

**Partiyaviyligi:**
yo’q

**Ma’lumoti:**
oliy

**Tamomlagan:**
1997 yil, Samarqand davlat universiteti

**Ma’lumoti buyicha mutaxassisligi:** filolog

**Ilmiy darajasi:**
yo’q

**Ilmiy unvoni:**
yo’q

**Qaysi chet tillarini biladi:**
rus tili

**Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):**
yo’q

**Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a’zosimi (to’liq ko’rsatilishi lozim)**
yo’q

## MEHNAT FAOLIYATI

1992-1997 yy. - Samarqand davlat universiteti talabasi.

1997-2005 yy. - Samarqand viloyati, Urgut tumani 105-maktab o’qituvchisi

2005-2011 yy. - Samarqand davlat universiteti «Gumanitar fanlar va ularni o’qitish uslubiyati» kafedrasi o’qituvchisi

2011 y. h.v. - Samarqand davlat universiteti «Boshlang’ich ta’lim metodikasi» kafedrasi o’qituvchisi

**1-QISM. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan o'quv –metodik hujjatlar va adabiyotlar.**

**Qayd raqami**

_________________________

**Ў З Б Е К И С Т О Н Д А В Л А Т С Т А Н Д А Р Т И**

**Ўзбекистон узлуксиз таълимининг**
**Давлат таълим стандартлари**

**Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти**

***5111700 – Бошлангич таълим ва спорт-тарбиявий иш*** **таълим йўналиши бўйича бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган**

**ТАЛАБЛАР**

**Расмий нашр**

***Г О С У Д А Р С Т В Е Н Н Ы Й С Т А Н Д А Р Т У З Б Е К И С Т А Н А***

**Государственные образовательные стандарты**
**непрерывного образования Узбекистана**

**Государственный образовательный стандарт высшего образования**

**ТРЕБОВАНИЯ**

**к необходимому содержанию и уровню**
**подготовленности бакалавра по направлению**
***5111700 – Начальное образование и спортивно-воспитательная работа***
**Издание официальное**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Toshkent

**O' Z B E K I S T O N D A V L A T S T A N D A R T I**

**O'zbekiston uzluksiz ta'limining**
**Davlat ta'lim standartlari**

**Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti**

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan**

# TALABLAR

**Rasmiy nashr**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

**Toshkent**

## SO’Z BOShI

1 IShLAB ChIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi;
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

2 TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:
O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2011 yil 16 sentyabrdagi 387 - sonli buyrug’i asosida.

*O’zbekiston Respublikasi hududida mazkur standartni amalga kiritilishi (amal qilishining to’xtatilishi) va unga o’zgartirishlar kiritilishi to’g’risidagi ma’lumotlar «O’zstandart» agentligi tomonidan nashr etiluvchi ko’rsatkichlarda chop etiladi.*

O’zbekiston Respublikasi hududida mazkur standartni rasmiy chop etish huquqi O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir

## *MUNDARIJA*


| | | bet |
|---|---|---|
| **1** | **Qo’llanilish sohasi …………………………………………….........** | **1** |
| **2** | **Atamalar, ta’riflar, qisqartmalar …….....................................** | **2** |
| **3** | **Ta’lim yo’nalishining tavsifi …………………………......….** | **3** |
| **4** | ***5111700 – Boshlang’ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish*** **ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi** | **3** |
| **5** | Bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan talablar......................................................................................... | **4** |
| **6** | **Ta’lim dasturining mazmuni va komponentlari …..........….......** | **11** |
| **7** | **Bakalavriatning asosiy ta’lim dasturlarini o’zlashtirish bo’yicha amalga oshiriladigan sharoitlarga belgilangan talablar...................................................................................** | **16** |
| 7.1 | Bakalavriatning asosiy ta’lim dasturlari o’zlashtirilishiga belgilangan umumiy talablar …………....……................................. | 16 |
| 7.2 | Ta’lim dasturini amalga oshirish talablari ……………………… | 17 |

7.3 Malakaviy amaliyotni tashkil etishga qo'yiladigan talablar..…..... 17

7.4 O'quv jarayonini pedagogik kadrlar bilan ta'minlashga talablari 18

7.5 Ta'lim jarayonini o'quv-metodik va axborot resurslari bilan ta'minlashga talablar........................................................................... 18

7.6 O'quv jarayonining moddiy-texnika bazasiga qo'yilgan talablar …. 19

**8 Bakalavr tayyorlash sifatini baholash .......................................... 19**

**9 Eslatma ……………………………………………………………….. 20**

**10 Davlat ta'lim standartining amal qilish muddati .................. 21**

**11 Ilova ……………………………………………………………….. 22**

**12 Bibliografik ma'lumotlar ………………………………………… 23**

**Ў З Б Е К И С Т О Н   Д А В Л А Т   С Т А Н Д А Р Т И**

**Ўзбекистон узлуксиз таълимининг**
**Давлат таълим стандартлари**
**Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти**
***5111700 – Бошланғич таълим ва спорт-тарбиявий иш* таълим йўналиши бўйича бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган**
**ТАЛАБЛАР**

**Государственные образовательные стандарты**
**непрерывного образования Узбекистана**
**Государственный образовательный стандарт высшего образования**
**ТРЕБОВАНИЯ**
**к необходимому содержанию и уровню подготовленности бакалавра по направлению *5111700 – Начальное образование и спортивно-воспитательная работа***

**State Educational Standards of Continuous Education of Uzbekistan**
**State Educational Standards of Higher Education**
**REQUIREMENTS**
**Necessary for content and level of Bachelors in *5111700 – Primary education and sporting educational work***

**Амал қилиш муддати «__» __________201_йилдан**
**«__» __________201_йилгача**

## I Qo'llanish sohasi

**1.1** Oliy ta'limning mazkur davlat ta'lim standarti (OT DTS) ***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashda asosiy ta'lim dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun majburiy talablar majmuini ifodalaydi.

**1.2** Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda Oliy ta'lim muassasasi uning asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

**1.3** OT DTSning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi va tayyorgarlik darajasi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda asosiy ta'lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilashga mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchi jamoalari;
- ta'lim yo'nalishining asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlar va talabalar;

- oliy ta'lim muassasalarining o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi va dekanat);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasining baholashnishini amalga oshiruvchi Davlat attestasiya va imtihon komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

-oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

## 2 Atamalar, ta'riflar, qisqartmalar

Mazkur standartda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hujjatlarga mos ravishda atamalar va ta'riflardan foydalanilgan:

**bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlari (bakalavriat dasturi) –** talabalarning tarbiyasi va tayyorgarlik darajasi sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv rejasi, o'quv kurslari, fanlari (modullari)ning dasturlarini qamrab olgan o'quv-uslubiy majmualari hamda malakaviy amaliyotlar dasturlari, o'quv jarayoni jadvali va mos ravishdagi ta'lim texnologiyalarini amalga oshirilishini ta'minlovchi metodik materiallar;

**Integrallashgan kurs** – ta'lim dasturidagi o'quv fanlari mazmun jihatdan o'zaro bog'langan, lekin o'z mustaqil faniga ega bo'lgan fanlar moduli.

**kasbiy faoliyat sohasi** – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

**kasbiy faoliyat obyekti** – kasbga yo'naltirilgan predmetlar, voqyeliklar, jarayonlar va tizimlar;

**kasbiy faoliyat turi** – ta'lim yo'nalishiga o'zgartishlar kiritish maqsadida kasbiy faoliyat obyektiga ta'sir qilish tavsifi metodlari va usullari;

**kompetentlik -** shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati.

**kompetensiya** – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

**modul** – ta'lim va tarbiyaning muayyan maqsadi va natijasiga erishish bo'yicha o'zaro bog'langan hamda mantiqiy tugallikka ega bo'lgan o'quv fanlari va ularning tarkibiy qismlari.

**yo'nalish** – asosiy ta'lim dasturining kasbiy faoliyatning muayyan turi va yoki obyektiga yo'nalganligi;

**ta'lim dasturi** – muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligida majburiy va tanlab o'qitiladigan fanlar tizimi, o'tkaziladigan amaliyot turlari va ularning mazmuni.

**ta'lim yo'nalishi** – bitta kasbiy faoliyat doirasidagi turli darajadagi ta'lim dasturlarining majmui;

**ta'lim natijalari** – o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan kompetensiyalar;

**o'quv turkumi** – asosiy ta'lim dasturining ilmiy va (yoki) kasbiy faoliyatning tegishli sohasida bilim, malakalarni o'zlashtirish va kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlaydigan fanlar (modullari) yig'indisi;

**ARM-** axborot resuruslar markazi;

**ITI –** ilmiy tadqiqot ishlari;

**OTM-** oliy ta'lim muassassasi;

**O'MM –** o'quv metodik majmua.

## 3 Ta'lim yo'nalishining tavsifi

**3.1** Ushbu ta'lim yo'nalishini qamrab oluvchi oliy ta'limning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestasiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

**3.2** Asosiy ta'lim dasturining me'yoriy muddati va mos malaka (daraja)si 1-jadvalda keltirilgan.

*1-jadval*

**Asosiy ta'lim dasturining muddati va bitiruvchilarning malakasi**

| Ta'lim dasturining nomi | Malaka (daraja) | Ta'lim dasturini o'zlashtirishning me'yoriy muddati |
|---|---|---|
| Bakalavriat ta'lim dasturi | Bakalavr | 4 yil |

## 4 *5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

**4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi**

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** – umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari uchun o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

**Bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

– *Kasbiy ta'lim didaktikasi;*

– *Kasbiy ta'lim pedagogikasi va tashxis texnologiyasi;*

– *O'qitishning didaktik vositalari;*

– *Ta'limning elektron vositalari;*

– *Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar ta'lim tizimidagi o'rni va roli.*

**4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari**

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** ta'lim yo'nalishi bakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari –** umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari.

**4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari**

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- *o'qituvchilik*;
- *tarbiyachilik*;
- *o'quv-metodik*;
- *ilmiy-tadqiqot*.

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi**.**

**4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari**

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

– ***o'qituvchilik:*** umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlash;

– ***tarbiyachilik:*** umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlaridan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;

– ***o'quv-metodik***: mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

– ***ilmiy-tadqiqot*** muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.

**4.5 Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari**

Bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin turdosh ta'lim yo'nalishlarining magistraturada mutaxassisliklari bo'yicha ta'limning vakolatli davlat organi tomonidan aniqlanadigan ikki yildan kam bo'lmagan muddatda magistraturada o'qishni davom ettirishi mumkin

Pedagogik faoliyatni olib borganda o'z malakasini har uch yilda oshirib turishi kerak.

## 5 Bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

**5.1** ***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi quyidagi **umumiy malakaviy kompetensiyalarga** ega bo'lishi lozim:

**a) umumiy malakaviy kompetensiyalar:**

- intellektual, madaniy, axloqiy, jismoniy va kasbiy o’z-o’zini rivojlantirish va takomillashtirish yo’nalishiga ko’ra va amalga oshira olish;
- tarixiy meros va madaniy an’analarga hurmat bilan munosabatda bo’lish, ijtimoiy va madaniy tafovutlarni bag’ri kenglik bilan qabul qila olish;
- tarixiy jarayonning harakatlantiruvchi kuchlari va qonuniyatlarini; tarixda zo’ravonlikning roli, insonning tarixiy jarayondagi, jamiyatning siyosiy tuzilishidagi o’rnini tushuna bilish;
- dunyoqarash, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo’lgan falsafiy muammolarni tushunish va ularning tahlil qilish;
- o’z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;
- axloqiy va huquqiy me’yor hamda majburiyatlarni hisobga olgani holda maqsadga erishish yo’lida qat’iyatni namoyon qilish;
- og’zaki va yozma hamda fikrlash madaniyatiga asosli, aniq bayon qilish qobiliyatini egallash;
- to’plangan tajribani tanqidiy qayta anglash, zarur hollarda o’z kasbiy faoliyat turi va xarakterini o’zgartira olish;
- hayotiy faoliyat xavfsizligi sharoitlarini umumiy baholay olish, ishlab chiqarish xodimlari va aholini tasodifiy halokat, tabiiy ofatlardan va zamonaviy qurol vositalarini qo’llash oqibatlaridan himoya qilish, ularning asoratlarini bartaraf qilish bo’yicha chora-tadbirlarni qo’llay olish;
- zamonaviy axborotlashgan jamiyatda axborotning mohiyati va ahamiyatini tushunish bu jarayonda yuzaga keladigan tahdid va xavflarni anglay olish, axborot xavfsizligi bo’yicha asosiy talablarga rioya qilish, jumladan davlat sirini saqlash;
- axborotni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metod, usul va vositalarini egallash, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko’nikmalariga ega bo’lish;
- global kompyuter tarmoqlarida axborot bilan ishlash qobiliyatiga ega bo’lish;
- chet tillardan birini so’zlashuv darajasidan past bo’lmagan darajada egallash;
- ishlab chiqarish xodimlari va aholini tasodifiy halokat, tabiiy ofatlardan himoya qilishning asosiy metodlarini egallash;
- jismoniy tarbiya va salomatlikni mustahkamlashning mustaqil, metodik jihatdan to’g’ri vositalarini egallash, to’laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta’minlash uchun jismoniy tayyorgarlikning zarur darajasiga erishishga tayyor bo’lish.

***b) kasbiy kompetensiyalar, jumladan:***

**<u>Umumkasbiy kompetensiyalar:</u>**

***nazariyani amaliyotga tatbiq etish bo’yicha:*** ona tili, matematika, bolalar adabiyoti va folklor, xusnixat, mehnat, tabiatshunoslik va tarbiyaviy ishlar metodikasi fanlaridan bilimlarni egallash, fanlarning dolzarb masalalarini seza olish va o’quvchilarga yetkaza olish;

– ***metod va texnologiyalarni o’quv jarayoniga tatbiq etish bo’yicha:*** an’anaviy va noan’anaviy metodlar, ilg’or ta’lim texnologiyalarni fan va mavzularni o’rgatish vaqtida tanlay olish, o’z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo’llay olish, faktlarni tahlil qilish, umumlashtirish, shu asosda xulosa chiqara olish;

– ***ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish bo'yicha:*** har bir mavzuning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, psixologik xususiyatlarini yorita olish, o'qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borish, metodik birlashmalarda umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunida fanning o'rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo'yicha pedagogik o'qishlarda leksiyalar o'qish, umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlarida differensial ta'limni yo'lga qo'ya olish, o'quv jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlarni yurita olish;

– ***ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha:*** har bir o'quvchining ruhiy, ahloqiy holatini bilish, yakka tartibda o'quvchilar bilan va guruh bilan ishlay olish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, diniy ekstremizmga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

– ***o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha:*** dars tiplarini bilish va ularni maqsadga muvofiq tashkil etish, o'quv reja va fan dasturi, tematik rejani tayyorlay olish, ta'lim muassasasi metodik birlashmasi ishini rejalashtirish va rahbarlik qila olish, dars jadvalining tuzilish tamoyillarini bilish, ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishni **bilish kerak.**

***Kasbiy mahorat bo'yicha*** o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga va kasbiy layoqat talablariga **javob berishi kerak.**

**5.2** Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha talablar

**5.2.1 *Matematik kommunikativ kurs***

**Bakalavr:**

- algebraik va transsendent funksiyalar;
- turli axborotlar, ularni saqlash, qayta ishlash va ularni uzatish metodlari;
- jamiyatning rivojlanishida axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati;
- ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyasidan foydalanish ***to'g'risida tasavvuriga ega bo'lishi;***
- elementar funksiyalarning ta'rifi, formulalari, xossalari va grafiklari;
- funksiyalarning limiti va uzluksizligi;
- hosila tushunchasi, hosilaning geometrik va mexanik ma'nolari, funksiyalarni hosila yordamida tekshirish;
- aniqmas va aniq integral tushunchalari;
- vektorlar va ular ustida amallar;
- matematik statistikaning asosiy tushuncha va metodlari;
- pedagogik dastur vositalari;
- texnologik tarmoqlar (internet, elektron pochta va boshqalar);
- matnlarga ishlov berish, tahlil qilish va grafik axborotlarni tayyorlash texnologiyasini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***
- funksiyalar grafiklarini yasash;
- funksiyaning limitini hisoblash, hosila va integralini topish;
- pedagogik dastur vositalarini ishlab chiqish;
- yangi axborot texnologiyasi vositalari bilan ishlash;
- tarmoq texnologiyalari (internet, elektron pochta va boshqalar) bilan ishlash;

- axborot texnologiyasining dasturiy vositalaridan foydalanib, turli hujjatlarni tayyorlash va ishlab chiqish ***ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.***

**5.2.2** ***Tabiiy-ilmiy kurs***

**Bakalavr:**

- materiya tuzilishining biologik shakli xususiyati, tirik sistemalarni qayta tiklash va rivojlantirish tamoyillari;
- biosfera va uning evolyusion yo'nalishi;
- tirik sistemalar yaxlitligi va gomeostazi;
- organizm va atrof-muhitning o'zaro ta'siri, organizmlar hamjamoasi, ekotizimlar;
- tabiatni muhofaza qilishning ekologik tamoyillari, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiatni asrashga qaratilgan texnologiyalar yaratish istiqboli;
- tabiatshunoslikdagi eng yangi kashfiyotlar, ulardan texnik qurilmalar yaratishda foydalanish istiqbollari;
- odam biosferasi va ijtimoiy biologiyasi birligi tabiati nuqtai nazardan ularning kasbiy faoliyatdagi oqibatlari;
- yosh fiziologiyasi ilmi va gigiyena talablari;
- bolalik fiziologiyasi, yosh fiziologiyasi, gigiyena asoslari va tamoyillari ***to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;***
- bola organizmining yosh xususiyatlari, organlari va tizimlarining turli vazifalari;
- organizmning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi;
- bola organizmining o'sishi va rivojlanish xususiyatlari;
- organizmning sog'lom o'sishida ovqatlanish, kun tartibi va boshqa faktorlarning ahamiyati;
- shaxsiy gigiyena talablari va normalarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***
- atrof-muhit va odamni zaharli moddalardan muhofaza qilish;
- gigiyena talablariga rioya qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

**5.2.3 Umumkasbiy fanlar bloki bo'yicha talablar**

***psixologiya va pedagogika kursi***

**5.2.3.1 Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti**

**Bakalavr:**

- psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi;
- psixologiyaning sohalari;
- psixologiya va falsafaning o'zaro aloqasi;
- psixologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot;
- pedagog faoliyatida psixologiyaning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi ***to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;***
- psixika tirik mavjudodning obyektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi;
- psixika va ong munosabati;
- ulug' mutafakkirlarning psixologik qarashlari;
- psixologiyaning o'rganish metodlari;
- faoliyat va motivlar, faoliyatning asosiy turlari;
- refleksiya nazariyasi;

-odam psixikasining paydo bo’lishi;
-odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti;
-yuksak psixik funksiyalarining tarkib topishi;
-motivasiya sohalari;
-irodaviy harakatlar va uni boshqarish;
-individ, shaxs, individuallik;
-shaxs faoliyati;
-shaxsni eksperimental tadqiq qilish metodlari;
-muloqot va uning ko’p maqomli xarakteri;
-nutq va uning funksiyalari;
-diqqat, uning fiziologik mexanizmlari, turlari;
-sezgi va idrokning fiziologik asoslari;
-xotira nazariyasi;
-xayol va uning turlari;
-tafakkur va hissiy bilish;
-temperament nazariyasi, tiplari;
-xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog’liqligi;
-qobiliyatning sifat va miqdor xarakteristikasini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo’llay olishi****;*
-shaxs (o’quvchi)ning psixologik xususiyatlarini o’rganuvchi metod va texnologiyalar;
-o’quv jarayonini boshqarish;
-eksperimentlar o’tkazish;
-shaxs (o’quvchi) psixikasining o’ziga xos xususiyatlarini kuzatish;
-o’quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo’llay olish;
-psixologik ma’rifiy ishlarni tashkil etish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim***.

*Yosh va pedagogik psixologiya*

**Bakalavr:**

-umumiy psixologiya va yosh psixologiyasi;
-umumiy psixologiya va pedagogik psixologiya;
-fiziologik va psixologik rivojlanish jarayoni;
-yosh va pedagogik psixologiyaning o’qituvchi faoliyatida tutgan o’rni ***to’g’risida tasavvurga ega bo’lishi;***
-iqtidorli bolalar va ularni tanlash;
-yosh psixologiyasining paydo bo’lishi;
-yosh psixologiyasini o’rganish metodlari;
-ta’limning yosh psixologiyasi taraqqiyotida tutgan o’rni;
-maktabgacha yosh davrining o’ziga xos xususiyatlari;
-kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;
-o’smir va o’spirinlar psixologiyasi;
-ta’lim va aqliy taraqqiyot;
-pedagogik qobiliyat va uning turlari;
-o’qituvchi shaxsiga qo’yiladigan psixologik talablarni ***bilishi malaka hosil qilishi va amalda qo’llay olishi****;*

-bolalarning psixologiyasiga xos xususiyatlarni o'rganish bo'yicha eksperimentlar o'tkazish;

-bolalarning maktabga tayyorgarligi bo'yicha xulosa bera olish;

-insonning rivojlanish bosqichlaridagi psixologik o'zgarishlarini tadqiq qilish;

-pedagogik faoliyatda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo'yicha maslahatlar olib borish;

-yosh psixologiyasi bo'yicha olib borilgan eksperiment va kuzatuvlarni rasmiylashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim***.

**5.2.3.2 Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti**

*Pedagogika nazariyasi va tarixi*

**Bakalavr:**

-ilmiy tadqiqot obyektlari va metodlari;

-pedagogikaning ijtimoiy fan ekanligi;

-pedagogika fanining metodologiyasi;

-pedagogikaning jamiyatdagi o'rni;

-ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uning uzviyligi, uzluksizligi;

-pedagogika fanining asosiy rivojlanish bosqichlari.

-o'tmish va zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari;

-ilg'or pedagogik qarashlar;

-jahon ta'lim tizimi;

-pedagogikaning maqsadiga ko'ra turlari;

-pedagogik jarayondagi integrasiyalar ***to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;***

-O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli;

-ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, birligi, differensiasiyasi, yagona pedagogik jarayon;

-XXI asr pedagogi obrazi;

-pedagogik antropologiya;

-ta'lim nazariyasi(didaktika)ning asosiy komponentlari: konsepsiyalari, paradigmalari;

-ta'lim prinsiplari;

-ta'lim metodlari, texnologiyalari;

-ta'lim turlari va bosqichlari;

-ta'limni tashxis qilish;

-tarbiya nazariyasining mohiyati;

-tarbiyaning mazmuni, prinsiplari;

-tarbiyada muhit (sosium), ruhiyat(psixologiya);

-tarbiya metodlari va texnologiyalari;

-maxsus pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari;

-tarbiya turlari;

-jamoada, oiladagi tarbiya hamda o'z-o'zini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari;

-O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi;

-ta'limni boshqarish shakllari;

-shaxsga ta'lim va tarbiya berish g'oyasining paydo bo'lishi;

-ta'lim va tarbiya to'g'risida Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari;

-tarbiya, maktab va pedagogik fikrning taraqqiy etish tarixi;

-jahon pedagogik jarayoni;

-O'zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***

-ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish;

-o'z pedagogik faoliyatini rejalashtirish;

-ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llash;

-o'quvchini rag'batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste'dodi, iqtidorini ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

-o'quvchilar bilimini baholash;

-ota-onalar, jamoa, o'quvchilar bilan yakka va guruh bo'lib ishlash;

-o'quvchilar guruhlarini boshqarish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim***.

*Pedagogik mahorat*

**Bakalavr:**

- pedagog kasbning o'ziga xos xususiyatlari;
- pedagog shaxsi, uning jamiyatda tutgan o'rni;
- pedagog faoliyatining asosiy yo'nalishlari;
- kasbiy mahorat tushunchasi;
- pedagog va ta'lim sohasidagi axborot texnologiyalar;
- XXI asr pedagogiga qo'yiladigan asosiy talablar ***to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;***
- pedagogik fikr tarixida mahorat masalalari;
- pedagogik qobiliyat, uning turlari;
- pedagogning kommunikativ qobiliyati, uning vositalari;
- pedagogning muloqot madaniyati va psixologiyasi;
- pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari;
- pedagogik nazokat va odob-ahloq me'yorlari;
- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari;
- ta'lim jarayonidagi pedagogning mahorati;
- pedagog mahoratini takomillashtirish shart-sharoitlarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***
- tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish;
- ta'lim va tarbiya jarayonida talab qilingan irodani namoyish qilish, sabr-toqat, qat'iyat, kayfiyatni o'zgartira olish, javobgarlikni his qilish;
- yuz bergan noxush vaziyatdan chiqib keta olish;
- pedagogik jarayonda har qanday nizolarning oldini olish;
- o'z xatti-harakatlarini boshqara olish va bunda go'zallikka erishish;
- o'z pedagogik nazokati va odobini takomillashtirib borish;
- nazokat bilan so'zlash texnikasiga rioya qilish;

- ta’lim va tarbiya jarayonida san’atkorlik unsurlaridan foydalanish;
- o’z mehnatini rasmiy va ijodiy tashkil eta olish: vaqtdan unumli foydalanish;
- o’z mahoratini tinmay oshirib borish;
- ilg’or tajribalarni o’z faoliyatiga singdirish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim***.

**5.2.3.3** ***Umumiy-nazariy kursi***

**Bakalavr:**

-ona tili va uning jamiyatda tutgan o’rni;
-ona tilining o’rganilish darajasi;
-jahon bolalar adabiyotida o’zbek bolalar adabiyotining o’rni;
-o’zbek folklorining o’ziga xos xususiyati;
-dunyoni bilishning maxsus usuli bo’lgan matematika, uning tushunchalari va tasavvurlarining yaxlitligi;
-boshlang’ich va o’rta maktab matematik bilimlar sistemasi;
-nazariyaning aksiomatik qurilishi va aksiomalar sistemasiga qo’yiladigan talablar;
-turli sanoq sistemalari;
-sonlar tushunchasini kengaytirish masalasining qo’yilishi ***to’g’risida tasavvuriga ega bo’lishi;***
-ona tilining strukturasi va sistemasi;
-ona tili fonetik tizimi va grafikasi;
-ona tili lug’at tarkibi;
-ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasi;
-ona tilining grammatik tuzilishi;
-ona tili orfografiyasi va punktuasiyasi;
-bolalar adabiyotining o’ziga xos xususiyatlari;
-xalq og’zaki ijodi turlari;
-jahon va chet el bolalar adabiyoti namoyandalarining ijodi;
-ikkinchi til va uning jamiyatdagi o’rni;
-rus(o’zbek) tilining fonetik, leksik va grammtik tuzilishi;
-to’plamlar va ular ustida amallar;
-moslik va munosabatlar;
-Binar algebraik operasiyalar;
-kombinatorika elementlari;
-matematik mantiq elementlari;
-boshlang’ich sinflardagi algoritm tushunchasi va xossalari;
-nomanfiy butun sonlar to’plamini qurishga turli yondoshuvlar;
-nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallar ta’rifi va xossalari;
- turli sanoq sistemalarida natural sonlarning yozilishi va ular ustida arifmetik amallarni bajarish algoritmi;
-nomanfiy butun sonlarning bo’linishi nazariyasi;
-butun, rasional, haqiqiy va kompleks sonlar to’plamlarining tuzilishi va xossalari, bu to’plamlardagi sonlar ustida arifmetik amallar ta’riflari va xossalari;
-sonli ifoda va uning qiymati;
-harfli ifoda va ayniyat;
-tenglama va tengsizliklar, ularning sistemalarini yechish yo’llari;

-geometrik figuralar ta’rifi, xossa va alomatlari;

-yasashga va hisoblashga doir geometrik masalalarni yechish bosqichlarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo’llay olishi;***

-ona tilida savodli yozish;

-ona tilida fonetik, leksik va grammatik tahlil qilish;

-bolalar adabiyotini, folklor asarlarini tahlil qila olish;

-ikkinchi til darslarini o’qitish;

-obyektlar orasidagi miqdoriy va boshqa munosabatlarni ifodalashda matematik belgilardan foydalanish;

-og’zaki va yozma hisobni qo’llash ***ko’nikmasiga ega bo’lishi lozim.***

**5.2.3.4 *Ta’lim metodikalari kursi***

**Bakalavr:**

- boshlang’ich sinf fanlarini o’qitish metodikalarining o’ziga xos xususiyatlari;
- ona tili, matematika, mehnat, tabiatshunoslik o’qitish metodikalarining tarixi va hozirgi vaqtdagi holati;
- taraqqiy etgan mamlakatlarda o’qitish tajribasi;
- umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari tarbiya maskanlarida tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining ish tizimi ***to’g’risida tasavvurga ega bo’lishi;***
- boshlang’ich sinflarda ona tili mazmuni;
- boshlang’ich sinflarda matematika mazmuni;
- boshlang’ich sinflarda tabiatshunoslik mazmuni;
- boshlang’ich sinflarda mehnat ta’limi mazmuni;
- boshlang’ich sinfdagi ta’lim metodlari va texnologiyalari;
- boshlang’ich sinflarda o’qitishning psixologik-pedagogik asoslari;
- husnixat shartlari, metod va prinsiplari;
- ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar uchun nazariy materiallar yig’ish;
- umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarda tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari;
- tarbiyaviy ishning ta’sirchanligini baholash mezonlari;
- tarbiya jarayonini boshkarish;
- o’z-o’zini boshqarish;
- pedagogik improvizasiya;
- oilada tarbiyaning mazmuni, metodlari, vositalari va an’analari;
- oila, mahalla va maktabning o’zaro hamkorligini tashkil qilish;
- sinf rahbari ishini tashkil etish, bolalar jamoasini uyushtirish;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish va o’tkazishni ***bilishi, malaka hosil qilishi va qo’llay olishi;***
- ona tili, husnixat, o’qish, matematika, mehnat, tabiatshunoslikdan dars va darsdan tashqari ishlarni rejalashtirish;
- ta’lim vositalarini tanlash va qo’llay olish;
- boshlang’ich sinf o’quvchilarining individual va mustaqil ishlarini tashkil qilish;
- boshlang’ich sinfda fanlar bo’yicha yillik va kundalik ish rejasi tuzish;
- tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, o’tkazish va tahlil qilish;
- bolalar jamoasini uyushtirish ***ko’nikmasiga ega bo’lishi lozim***.

**5.2.4 Ixtisoslik fanlari bloki bo'yicha talablar**

**Bakalavr:**

- ixtisoslikka mos texnika sohasining mos texnika sohasining asosiy ilmiy-texnikaviy muammolari va rivojining istiqbolini hamda ularning turdosh sohalar bilan o'zaro aloqasini tushunishi;
- ixtisoslikning muayyan sohasi bilan bog'liq bo'lgan asosiy obyektlarni, hodisa va jarayonlarni bilishi, ularni ilmiy-tadqiqot qilish usullaridan foydalana bilishi;
- loyihalarni kompyuterlardan foydalanib bajarishi va tuzilgan loyiha natijalarini himoya qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'rganilayotgan texnikaviy obyektlarga qo'yiladigan texnikaviy-iqtisodiy talablarni ta'riflab berishni uddalashi, ularni amalga oshirishning mavjud ilmiy-texnikaviy vositalarini ***bilishi kerak.***

Bakalavr ixtisosligiga qo'yiladigan muayyan talablar kadrlar buyurtmachi-larining talablari va bakalavrlar tayyorlashning ushbu yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

## 6 Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari

**6.1** ***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlash ta'lim dasturi ta'limning kunduzgi shakli bo'yicha 4 yil o'qishga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi vaqt taqsimotiga ega:

| | |
|---|---|
| Nazariy va amaliy ta'lim | 136 hafta |
| Malakaviy amaliyotlar | 15 hafta |
| Bitiruv malakaviy ishi | 4 hafta |
| Joriy va davlat attestasiyalari | 17 hafta |
| Ta'tillar | 32 hafta |
| **Jami** | **204 hafta** |

**6.2** Talaba haftalik o'quv yuklamasining maksimal hajmi 54 soat, shundan auditoriyadagi o'quv yuklamasi – 30 soatgacha, qolgan soatlar hajmi mustaqil ta'lim uchun ajratiladi.

**6.3** Joriy, oraliq va yakuniy attestasiyalarni hisobga olgan holda ta'lim dasturining umumiy hajmi 4 yillik o'quv davri uchun xaftalik o'quv yuklamalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**6.4** Ta'lim dasturini o'zlashtirishda bir qator masalalar yoki integrallashtirilgan kurslar muammolari bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi ko'zda tutiladi.

**6.*5 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining zaruriy mazmuni**

**6.5.1 Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar**

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning zaruriy mazmuni «Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar» bloki bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

**6.5.2 Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar**

***Matematik kommunikativ kurs***

**6.5.2.1 Informatika va axborot texnologiyalari:**

axborotlarni yig'ish jarayoni, uzatish, qayta ishlash va to'plash haqida umumiy tavsifnoma; axborotlarni tarqatish jarayonida texnik va dasturlash vositalari. Texnologiya tushunchasi. Axborot texnologiyalari, ularning ko'rinishlari va klassifikasiyasi. Yangi axborot texnologiyalari. Yangi axborot texnologiyalari vositalari. Shaxsning o'qishida, tarbiyalanishida va rivojlanishida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar. Matn va grafik axborotlarni tayyorlash, tahlil qilish va qayta ishlash texnologiyasi. Multimedia texnologiyasi. Tarmoq texnologiyalari. Internet texnologiyasi. Masofadan o'qitish.

**6.5.2.2 Oliy matematika asoslari:**

funksiya tushunchasi, elementlar funksiyalar xossa va grafiklari, differensial va integral hisob elementlari, algebra va analitik geometriya elementlari, vektorlar va chiziqli akslantirishlar, ehtimollar nazariyasining matematik asoslari, tasodifiy hodisalar modellari, gipotezalarni tekshirish, eksperiment natijalariga statistik ishlov berishda ayni o'xshashlik prinsiplari.

***Tabiiy-ilmiy kurs***

**6.5.2.3 Yosh fiziologiyasi va gigiyena:**

organizmning yosh xususiyatlari va organlar hamda tizimlarning turli vazifalari. Organizm-yaxlit bir tizim. Odamning o'sish va rivojlanishi. Organizmning atrof-muhit bilan aloqadorligi. Irsiy kasalliklarning genezisi va ularni profilaktika qilish masalalari. Yosh organizmning o'sishi va rivojlanishining o'ziga xosligi. Ichki sekresiya bezlarining faoliyati. Garmonlar muhim biostimulyator va regulyator sifatida. To'qima, organ va organizmlar vazifalarining gumoral boshqaruvi, organizmlar hayot faoliyatida nerv tizimining ahamiyati. Har tomonlama taraqqiy etgan shaxsni tarbiyalashda sog'lom turmush tarzining ahamiyati. Bolalar sog'lig'ini himoya qilishda oilaning o'rni. Sog'lom organizmni ta'minlashda ovqatlanish kun rejimi va boshqa omillarning ahamiyati. Inson organizmining jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishida gigiyenaning ahamiyati. Shaxsiy gigiyenaga qo'yiladigan talablar va gigiyena me'yorlari.

**6.5.2.4 Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish:**

*odam va biosfera:* biosferaning tuzilmasi, ekosistemalar, organizm va muhitning o'zaro munosabatlari, odamning sog'lomligi va ekologiya. Atrof-muhitning global muammolari.

*tabiatdan foydalanish:* tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ekologik tamoyillari va tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanishning iqtisodiy asoslari. Atrof-muhitni muhofaza qilish texnika va texnologiyalari. Ekologik huquq asoslari va kasbiy mas'uliyat. Atrof-muhit sohasida xalqaro aloqalar.

**6.5.3 Kasbiy fanlar bo'yicha**

***Pedagogika va psixologiya kursi***

**6.5.3.1 Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti:**

*umumiy psixologiya*: umumiy psixologiyaning obyekti, vazifalari. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy fan sifatida. Psixika haqida tushuncha, psixikaning oriyentirovka qiluvchanlik va boshqaruvchanlik vazifasi. Bosh miya va psixika. Psixika va ong.

Psixologiya va falsafa. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari. Psixika va ongni tahlil qilish prinsiplari. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilmasi va uning prinsiplari. Psixologiyaning sohalari. Psixologiyaning metodlari va uning tahlili. Faoliyatning psixologik tahlili. Motivlar va faoliyat. Psixikaning taraqqiyoti. Motivasiya va emosiya psixologiyasi. Iroda psixologiyasi. Shaxs psixologiyasi. Shaxs, individ, individuallik tushunchalari. Frustrasiya va shaxsning istiqbol rejalari. Konformizm. Dunyoqarash va e'tiqod. Muloqot psixologiyasi va nutq. Diqqat va uning turlari. Sezgi va idrok. Xotira va xayol. Tafakkur. Muammoli vaziyat va uni hal qilish. Temperament, uning o'ziga xos xususiyatlari.

*Yosh va pedagogik psixologiya:* yosh va pedagogik psixologiyaning predmeti, uning rivojlanish tarixi, Sharq mutafakkirlarining qarashlari. Yosh psixologiyasidagi maktablar. Yosh psixologiyasini o'rganish metodlari. Ta'lim mazmuni va psixik taraqqiyot. Yoshning umumiy xarakteristikasi. Yosh taraqqiyotini davrlashtirish. Maktabgacha yosh davri xarakteristikasi. Kichik maktab yoshi davri psixologiyasi. O'smir psixologiyasi, o'spirin psixologiyasi. Ta'limni va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish psixologiyasi. Ta'lim va aqliy taraqqiyot. Tarbiya metodlari va formalari. Bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatlari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot.

**6.5.3.2 Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti:**

*Pedagogika nazariyasi va tarixi:* pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obyekti, metodlari.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta'lim. Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlari, boshqa fanlar, shu jumladan falsafa, psixologiya fanlari bilan aloqasi. Pedagogik antropologiya. Shaxs, ta'lim va tarbiya. Xorijiy mamlakatlardagi tarbiyaga qisqacha izoh. Yagona pedagogik jarayon. Didaktika – ta'lim nazariyasi. Didaktikaning vazifalari. Ta'limning rivojlanish yo'nalishlari (konsepsiyasi): uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, texonologizasiya konsepsiyasi, ta'lim paradigmalari.

Didaktik prinsiplar(tamoyillar). O'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari. Ta'limning psixologik, fiziologik asoslari. Ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar. Ta'lim jarayonida motivasiya.

Ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari. Umumiy va xususiy metodlar. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga qaratilgan metod va texnologiyalar. Metod tanlash va motivasiya. O'quv adabiyotlari va ularning turlari. Elektron o'quv adabiyotlari.

Ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik texnologiyalar. Ta'lim shakllari. Ta'limni tashxis etish.

Tarbiya nazariyasi. Tarbiya jarayoni, muhiti(sosium), tarbiya prinsiplari, tarbiyaga qo'yiladigan talablar. Tarbiya metod va texnologiyalari. Milliy tarbiya masalasi. Tarbiya turlari. Tarbiya va milliy g'oya. Tarbiya va ma'naviyat. Oila tarbiyasi.

Ta'lim tizimini boshqarish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari. Ta'lim muassasasi, uni boshqarish. Boshqaruvda vasiylik va homiylik masalalari.

Maxsus(korreksion) pedagogika, uning maqsad va vazifalari, uning pedagog faoliyati uchun ahamiyati.

Pedagogika tarixi. Ta’lim, tarbiya va ta’lim muassasasi to’g’risidagi g’oyaning paydo bo’lishi. Eng qadimgi, o’rta, yangi va eng yangi davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlash taraqqiyoti. Islom madaniyati va tarbiya. Tarbiya to’g’risida Sharq mutafakkirlarining qarashlari. Turkistonda ta’lim va tarbiya. O’zbekistonda maktab, maorif, ta’lim va tarbiyaning rivojlanish tarixi. Mustaqillik davrida ta’lim va tarbiya. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogik fikrlarning xususiyatlari.

*Pedagogik mahorat:* pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya, pedagogik mahoratning nazariy asoslari. Pedagog shaxsi ta’lim amaliyotida va pedagogik fikr tarixida pedagogning mahorati masalalari. Pedagogik qobiliyat. Pedagogning kommunikativ qobiliyati. Muloqot madaniyati va ta’lim oluvchining psixologik faoliyati. Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari. O’quv va tarbiya jarayonida pedagog mahorati. Pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari. Pedagogik tajriba orttirish tizimi, tadqiqot metodlari, hozirgi ta’lim muassasalarida ilg’or pedagogik g’oyalar, tajribalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo’llari. Pedagogik mahorat taraqqiyot tarixi. Mustaqil malaka oshirish va o’z-o’zini nazorat qilish. O’quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, pedagog faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslari.

***Umumiy-nazariy kursi***

**6.5.3.3 Ona tili:**

ona tili fanining predmeti, maqsadi va vazifalari; tilshunoslik haqida umumiy ma’lumot, tilning paydo bo’lishi va rivojlanishi, xalq tili va adabiy til haqida ma’lumot, dunyo tillarining tasnifi, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya haqida ma’lumot, hozirgi zamon ona tilining lug’at tarkibi, ona tili fonetikasi haqida ma’lumot, hozirgi zamon ona tilining fonetik tizimi, nutqning fonetik o’zgarishi, nutq tovushlarining fonetik o’zgarishi, hozirgi zamon ona tilining grafikasi, orfografiyasi, orfoepiyasi, hozirgi zamon ona tilining grammatik qurilishi, morfologiya haqida ma’lumot, so’zning grammatik ma’nosi va grammatik formasi, grammatik kategoriyasi, mustaqil so’z turkumlari, ularning xususiyatlari, yordamchi so’z turkumlari, modal so’zlar, undov, taqlid so’zlar, hozirgi zamon ona tili sintaksisi, gap va uning turlari, gap bo’laklari va ularning tasnifi, gapning uyushiq va ajratilgan bo’laklari haqida ma’lumot, ko’chirma gaplar, matn sintaksisi.

**6.5.3.4 Matematika:**

to’plamlar va ular ustida amallar, munosabat, moslik, kombinatorika elementlari, matematik mantiq elementlari, algoritmlar nazariyasi, nomanfiy butun sonlar to’plamini qurishga turli yondoshuvlar, nomanfiy butun sonlar arifmetikasi nazariy asoslari, sanoq sistemasi tushunchasi, turli asosli sanoq sistemalarida sonlarning nomlanishi, yozilishi va ular ustida arifmetik amal bajarish algoritmlari, bo’linish nazariyasi, son tushunchasini kengaytirish masalasi, butun rasional, haqiqiy va kompleks sonlar, ularning yig’indisi, ayirmasi, ko’paytmasi va bo’linmasi ta’rifi, arifmetik amallar xossalari, sonli to’plamlar xossalari, sonli va algebraik ifodalar, tenglamalar, tengsizliklar, planimetriya va stereometriya elementlari, skalyar miqdor va uni o’lchash tushunchalari, ularning xossalari, kesma uzunligi, yuza, hajm,

ularning o'lchov birliklari, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan boshqa kattaliklar, ularning o'lchov birliklari, o'lchov birliklar orasidagi bog'lanishlar.

**6.5.3.5 Bolalar adabiyoti va folklor:**

bolalar adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, yosh avlod tarbiyasida alla, ertak, topishmoq, maqol, hikmatli so'z va afsonalarning ahamiyati, o'zbek bolalar adabiyoti va jahon bolalar adabiyoti; o'zbek va chet el bolalar yozuvi va shoirlari A.Navoiy, Z.Diyor, Q.Muhammadiy, X.To'xtaboyev, P.Mo'min, H.Olimjon, Q.Hikmat, H.Nazir, Sh.Perro, D.Defo, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, S.Ya.Marshak, B.Kerbabayevlar asarlarini o'rganish.

**6.5.3.6 Hozirgi rus (o'zbek) tili:**

hozirgi zamon rus (o'zbek) tili fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, tilshunoslikning umumiy tushunchalari; leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya haqida ma'lumotlar, hozirgi rus (o'zbek) tilining tarkibi; rus (o'zbek) tili fonetikasi haqida umumiy ma'lumotlar, hozirgi rus (o'zbek) tilining grafika, orfografiya va orfoepiyasi, hozirgi rus (o'zbek) tilining grammatik tuzilish, so'zning grammatik ma'nosi va grammatik shakli, grammatik kategoriyalar, morfologiya haqda umumiy ma'lumot; rus (o'zbek) tili sintaksisi haqida umumiy ma'lumot, matn sintaksisi.

***Ta'lim metodikalari kursi***

**6.5.3.7 Ona tili o'qitish metodikasi:**

boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida; ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifasi va ilmiy negizlari, boshqa fanlar bilan aloqasi; boshlang'ich sinflarda ona tili dasturining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilishi; savod o'rgatish metodikasi; ona tili o'qitish metodikasining psixo-lingvistik asoslari, metodlar tasnifi; savod o'rgatishda analitik-sintetik metod; savod o'rgatishda nutq o'stirish, sinfda va sinfdan tashqari o'qishga o'rgatish metodikasi, o'qish darsliklarining maqsad va vazifalari, to'laqonli o'qish malakasini baholash mezonlari, o'qish malakasini oshirish yo'llari; badiiy asar ustida ishlash bosqichlari, o'qish darslarida o'quvchilar fikrlashi va og'zaki nutqini rivojlantirish, sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish, oz komplektli maktablarda ona tili o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, fonetika, grammatika, so'z yasash va orfografiyani o'qitish metodikasi asoslari; o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi; ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi.

**6.5.3.8 Matematika o'qitish metodikasi:**

maktab boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish metodikasi; boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodlari va o'qitish vositalari, oz kompaktli maktablarda matematika o'qitishning xususiyatlari; butun nomanfiy sonlarni nomerlashga o'rgatish metodikasi, arifmetik amallarni o'rgatish, miqdorliklarni o'rgatish, kasrlar va ulushlar bilan tanishtirish metodikasi, algebra va geometriya elementlarini o'rgatish, masalalar yechishni o'rgatish, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini takomillashtirsh maqsadlari.

**6.5.3.9 Husnihat o'qitish metodikasi:**

husnixatga o'rgatishning ahamiyati va vazifasi husnixat tarixi, husnixatga o'rgatishning shartlari, metodlari va tamoyillari; boshlang'ich sinflarda husnixat darslarida ko'rgazmalilik va didaktik o'yinlar, boshlang'ich sinflarda husnixat

darslari; grafik xatolar ustida ishlash, talabalarning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish.

**6.5.3.10 Mehnat va uni o'qitish metodikasi:**

boshlang'ich sinf mehnat ta'limi va uni o'qitish metodikasining maqsadi va vazifasi, mazmuni, shakl va metodlari, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat faoliyati turlari, qog'ozdan buyumlarni loyihalash, karton, tabiat materiallari, gazlamalar bilan ishlash, turli xil materiallar bilan ishlash, modellashtirish elementlari, boshlang'ich sinflarda qishloq xo'jalik mehnati, boshlang'ich politexnik ta'lim elementlarini o'rgatish va shakllantirish metodlari hamda boshqa fanlar bilan bog'lab o'rgatish, bilish malakasini shakllantirish, boshlang'ich sinf mehnat dasrlarini rejalashtirish va tashkil etish, sinfdan tashqari ishlarda mehnat mazmunini tashkil etishni o'rganish.

**6.5.3.11 Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi:**

tabiatshunoslik o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida; tabiatshunoslik o'qitishning metod, usul va vositalari, tabiatshunoslikni o'qitishda integrasiya va innovasiya; atrofimizdagi olamni o'rganish; tabiatshunoslikni o'qitishning tarbiyaviy xususiyatlari; ekskursiya, kuzatuv, tajriba, amaliy ish, jonli burchak va maktab o'quv-tajriba maydonida ishlashni tashkil etish metodikasi, tabiatshunoslik va atrofimizdagi olamni o'rganishda ekologik ta'lim va tarbiya, tabiatshunoslik, estetik va ekologik mazmundagi dars, tarbiyaviy tadbirlar rejasi, konspekt-rejasi va ssenariysini tuzishning metodikasi, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar bilan ishlash, uy vazifasini bajarishni tahlil qilish; eksperimentni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi.

**6.5.3.12 Tarbiyaviy ishlar metodikasi:**

tarbiyaviy ishlar metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari, tarbiyaviy ishlarda sistemalilik, tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligini baholash tamoyillari, maktabda o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish metodikasi, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tahlil qilish; tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash texnologiyasi; oilaviy tarbiyaning mazmuni, an'analari, metod va vositalari; oila va maktabning o'zaro hamkorligi, oilani pedagogik tomondan qo'llab-quvvatlash, madaniy-ma'rify ishlar bo'yicha direktor muovini ishini tashkil qilish, sinf rahbari ishining mazmuni va metodlari, «Kamolot» yoshlar harakatini uyushtirish metodikasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida turli o'yinlar, konkurs, musobaqa va boshqa tadbirlarni tashkil qilish metodikasi.

**6.5.4 Ixtisoslik fanlari**

***Oliy o'quv yurti tomonidan o'rnatiladigan ixtisoslik fanlari.***

Ixtisoslik fanlari ro'yxati va mazmuni kadrlar buyurtmachilarining talablari va bakalavrlar tayyorlashning ushbu yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

**6.5.5 Malakaviy amaliyot**

***pedagogik amaliyot:*** umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim dasturi

bo'yicha olgan nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq etish malakalarini hosil qiladi. Uning mazmuni maxsus Nizom bilan belgilanadi. Pedagogik amaliyot jarayonida boshlang'ich ta'lim dasturiga kirgan fanlar bo'yicha dars o'tiladi.

***o'quv amaliyoti:*** umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkaziladi, uning mazmuni tegishli fanlar o'quv dasturlarida keltiriladi va uning mazmuni maxsus Nizom bilan belgilanadi.

#### 6.5.6 Bitiruv malakaviy ishi

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi ta'lim muassasasining bitiruvchilarini chiqaruvchi kafedralari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining talablari, shuningdek zamonaviy fan, texnika, texnologiyalar yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlarining mavzusi ilmiy-metodik yoki ilmiy-tadqiqot yo'nalishida bo'lishi mumkin.

Talabaga bitiruv malakaviy ish topshirig'i, odatda, u uchinchi kursni tugatgandan so'ng beriladi. Bitiruv malakaviy ish kasbiy va maxsus fanlarni talaba o'zlashtirib borgani sari to'rtinchi kurs mobaynida, shuningdek, mazkur standartda bajarish uchun ajratilgan vaqt mobaynida bajariladi.

Oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashi qarori asosida bitiruv malakaviy ishlarining himoyasini ixtisoslik fanlari bo'yicha davlat attestasiyasi sinoviga almashtirilishi mumkin.

## 7 Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan sharoitlarga belgilangan talablar

### 7.1 Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlari o'zlashtirilishiga belgilangan umumiy talablar

**7.1.1** Ta'lim dasturini ishlab chiqishda OTM asosiy ta'lim dasturining ham tarbiya, ham ta'lim sohasidagi, o'ziga xosligi, ta'lim yo'nalishi va ixtisosligi, ilmiy maktablar xususiyatlari, mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan, bosh maqsadini belgilab olishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalari asosiy ta'lim dasturini fan, texnika, madaniyat, iqtisodiyot, texnologiyalar va ijtimoiy soha rivojlanishini hisobga olgan holda muntazam yangilab borishi kerak.

**7.1.2** Bakalavriat dasturini ishlab chiqishda OTM bitiruvchilarining umummadaniy kompetensiyalarini (ijtimoiy hamkorlik, o'z-o'zini tashkil qilish va boshqarish, tizimli-faoliyatli xarakterlarini) shakllantirish imkoniyatlari belgilab olinishi kerak.

OTM o'quv jarayonining ijtimoiy-tarbiyaviy komponentini rivojlantirish ta'lim oluvchilarning jamoat tashkilotlari, sport, ijodiy klublar, talabalar jamiyatlari ishida ishtirokini rivojlantirishga ko'maklashishi lozim.

**7.1.3** Ta'lim oluvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida kompetentli yondashuvni amalga oshirish o'quv jarayonida mashg'ulot o'tkazishning faol va interfaol shakllarini (kompyuterli simulyasiya, ish o'yinlari, aniq vaziyatlar tahlili va sh.k.), dunyo pedagogik amaliyotida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalar, o'qitishning strategiyalari, metodlari va usullarini auditoriyadan tashqari ishlar bilan birgalikda ko'zda tutishi

lozim.

Faol va interfaol shakllarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning yalpi ulushi dasturning asosiy maqsadi, ta'lim oluvchilar kontingentining o'ziga xosligi, aniq fanlar mazmuni bilan belgilanadi. Talabalarning tegishli guruhlari uchun leksiya mashg'ulotlari auditoriya mashg'ulotlarining 50%idan oshmasligi lozim.

**7.1.4** Ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamasi, jumladan, asosiy ta'lim dasturini va OTM tomonidan ta'lim dasturiga qo'shimcha tarzda kiritiladigan fanlarni o'zlashtirish bo'yicha auditorii va auditoriyadan tashqari (mustaqil) o'quv ishlarining barcha turlarining maksimal hajmi haftasiga 54 akademik soatdan oshmasligi lozim.

**7.1.5** OTM ta'lim oluvchilarga o'z ta'lim dasturini uchun, jumladan, yakka tartibdagi ta'lim dasturlarini shakllantirishda ishtirok etish uchun real imkoniyatlarni ta'minlashi lozim.

**7.1.6** OTM ta'lim oluvchilarni ularning ta'lim dasturini shakllantirishdagi huquq va majburiyatlari bilan tanishtirishi, ta'lim oluvchilar tomonidan tanlangan fanlar (modullar, kurslar) ular uchun majburiy bo'lishini tushuntirishi lozim.

**7.1.7** OTM bakalavriati dasturi ta'lim oluvchilarda fizika, informatika va ta'limda axborot texnologiyalari hamda amaliy chet tili sohasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan fanlar (modullar) bo'yicha laboratoriya praktikumlari va yoki amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olishi kerak.

**7.2 Ta'lim dasturini amalga oshirish talablari**

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash ta'lim dasturi bo'yicha akkreditasiya qilingan oliy ta'lim muassasalarida rivojlantiruvchi ta'lim, axborot texnologiyalari va o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanib amalga oshirilishi lozim.

Talabalarning chet tilini o'zlashtirishi, o'qituvchilarning chet tilini o'qitishi, shuningdek, buning uchun zarur sharoitlarni yaratish bakalavrlar tayyorlashda ustivor sanalishi lozim.

Malakaviy amaliyotlar zamonaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkaziladi, ular talabalarni amaliyot dasturlarida ko'zda tutilgan ish o'rinlari bilan ta'minlashi lozim.

Ta'lim davri mobaynida talaba kamida ikkita Davlat attestasiyasi (gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy va chet tili fanlaridan) topshiradi va bitiruv malakaviy ishini himoya qiladi. Davlat attestasiyasi tegishli integrasiyalashtirilgan kurs bo'yicha o'quv jarayoni tugashi bilan o'tkaziladi.

**7.3 Malakaviy amaliyotni tashkil etishga qo'yiladigan talablar**

Malakaviy amaliyot talabani kasbiy tayyorlashga yo'llaydigan o'quv jarayonining uzviy qismidir. Uning mazmuni maxsus o'quv fan dasturlaridagi maxsus bo'limlarda yoki malakaviy amaliyot Nizomida aks ettiriladi.

Malakaviy amaliyot talabaning auditoriyada olgan bilimlarini pedagogik jarayonda sinab ko'rish, dastlabki malaka va ko'nikma hosil qilish hamda provard natijada kadrning kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi. U namunali, tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkaziladi.

Pedagogik amaliyotga bitiruvchi kafedralar va pedagogik amaliyot bo'limi hamda fakultet o'quv-metodik komissiyalari tashkilotchiligida hisobot konferensiyasi yoki taqdimot shaklida yakun yasaladi.

Amaliyotni o'tkazish muddatlari o'quv rejasi bilan aniqlanadi. Amaliyot tugagandan so'ng talabalar bajarilgan ish haqida amaliyot o'qituvchilari-rahbarlari va qabul qiluvchi tashkilot vakillaridan tarkib topgan komissiya oldida hisobot berishadi. Baholash shakli o'quv rejasida belgilanadi.

**7.4 O'quv jarayonini pedagogik kadrlar bilan ta'minlash talablari**

Bakalavriat asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish o'qitilayotgan fanning ixtisosliligiga mos, odatda, bazaviy ta'limga ega bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlar bilan va tizimiy ravishda ilmiy yoki ilmiy-metodik faoliyat bilan shug'ullanayotgan kadrlar bilan ta'minlanishi kerak.

Ixtisoslik fanlari o'qituvchilari o'qitilayotgan fan ixtisosligiga mos bazaviy ta'limga yoki ilmiy darajaga ega bo'lishlari kerak. Ta'lim jarayoniga amaldagi tegishli tarmoq tashkilotlari, korxonalari va muassasalarining rahbarlari va yetakchi mutaxassislari o'qituvchilikka jalb etilishi mumkin.

**7.5 Ta'lim jarayonini o'quv-metodik va axborot resurslari bilan ta'minlashga talablar**

Asosiy ta'lim dasturining barcha kurslari, fanlari (modullari) bo'yicha o'quv-metodik hujjatlar va materiallar bilan ta'minlanishi lozim.

Ta'lim oluvchilarning auditoriyadan tashqari ishlari metodik ta'minlanishi va uni bajarishga sarflanadigan vaqtga asoslanishi lozim.

Asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish har bir ta'lim oluvchining asosiy ta'lim dasturi fanlari (modullari) to'liq ro'yxat bo'yicha shakllantiriladigan ma'lumotlar bazasi va ARM fondlariga kirishi bilan ta'minlanishi lozim.

Har bir ta'lim oluvchi asosiy ta'lim dasturiga kirgan kasbiy turkumning har bir fani bo'yicha o'quv va o'quv-metodik bosma yoki elektron nashrlar (jumladan, vaqtli nashrlar elektron bazalari) bilan belgilangan me'yorlarga muvofiq ta'minlangan bo'lishi lozim.

Axborot-resurs markazining asosiy fondi oxirgi 10 yilda (gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy siklning bazaviy fanlari uchun – oxirgi 5 yilda) chop etilgan hamma sikllarning bazaviy qismi fanlari bo'yicha o'quv adabiyotining chop etilgan yoki elektron nashrlari bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak.

Qo'shimcha adabiyotlar fondi o'quv adabiyotlaridan tashqari rasmiy ma'lumot-bibliografik va davriy nashrlarni o'z ichiga olishi kerak.

Ta'lim dasturini to'liq amalga oshirish uchun OTMning ARMda ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida keltirilgan fanlar bo'yicha yaratilgan o'quv-uslubiy adabiyotlar va chet elda chop etilgan hamda internet tizimidagi axborot manbalari har bir talabaga yetarli darajada bo'lishi kerak.

Ta'lim oluvchilar uchun mahalliy va xorijiy OTM, korxona va tashkilotlar bilan tezkor axborot almashish imkoniyati, zamonaviy kasbiy ma'lumotlar bazalari, axborot va izlash tizimlariga kirishni ta'minlanishi lozim.

Talabalarning bilish faoliyatini samarali boshqarish uchun pedagogik texnologiya talablari va qoidalari asosida mashg'ulotlarni rejalashtirishning quyidagi izchilligi tavsiya qilinadi:

- o'qishning kutiladigan natijalari va talabalarning bilish, talaba qo'yilgan maqsadlarga erishgandan keyin yoki B.Blumning taksonimiyasiga muvofiq bilish sohasidagi o'quv maqsadlarining 6 asosiy kategoriyasi (bilish, tushunish, qo'llash,

tahlil, sintez, baholash) orqali harakat (xulq)ga mos keladigan fe'l yordamida namoyon bo'ladigan o'quv maqsadlari shaklidagi psixomotor va affektiv sohalardagi vazifalarini shakllantirish;

- o'qituvchining mazkur mashg'ulotdagi o'quv-tarbiyaviy maqsadlarini belgilash;

- tayanch o'quv savollarini aniqlash;

- har bir kutiladigan natijaga muvofiq trening uchun o'quv va nazorat topshiriqlarini (savol, masala, test topshiriqlari), o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun zarur hajmda mashqlarni ishlab chiqish;

- mashg'ulotdan kutiladigan natijani kafolat uchun ishchi dastur, o'qituvchining maqsadlari, talabalarning vazifalari va nazorat tpshiriqlari mazmuniga muvofiq mazmunini ishlab chiqish;

- mashg'ulotning jarayonini o'qituvchi faoliyati (asosiy o'rinlar) va u bilan o'zaro bog'liq talabalarning faoliyat tavsifi asosida, shu mashg'ulot uchun tobora samarali (jumladan, interfaol) metodlar, didaktik vositalar va jihozlarni tanlash bilan loyihalashtirish.

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrni tayyorlash jarayonida asosan quyidagi ta'lim texnologiyalar va o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

o'qitishning interfaol metodi,

muammoli o'qitish texnologiyasi,

o'yinli texnologiyalar,

tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari,

shaxsiy yo'naltirilgan ta'lim,

tabaqalashtirilgan ta'lim,

dasturlashtirilgan ta'lim,

o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi,

o'qitishning kompleks metodlari (loyihalash metodi, tarmoqli rejalashtirish metodi, aqliy hujum, assosiogrammalar metodi va h.k.)

**7.6 O'quv jarayonining moddiy-texnika bazasiga qo'yilgan talablar**

Bakalavrlar tayyorlash asosiy ta'lim dasturini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasasi fanlar bo'yicha va fanlararo tayyorgarlikning barcha turlarini (laboratoriya, amaliy va ilmiy-tadqiqotchilik ishini) ta'lim oluvchilarning OTM o'quv rejasida ko'zda tutilgan va sanitariya hamda amaldagi yong'in xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga muvofiq o'tkazishni ta'minlaydigan moddiy-texnik bazaga ega bo'lishi kerak.

Bakalavrlik dasturini amalga oshirish uchun minimal zarur moddiy-texnik ta'minot ro'yxati:

- leksiya (potok va guruh) auditoriyalari;

- seminar mashg'ulotlari uchun auditoriyalar;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish uchun laboratoriyalarni o'z ichiga oladi.

Mavjud moddiy baza:

- leksiyalar o'tkazishni – illyustrativ materialni namoyish etish uchun turli jihozlar;

- asosiy fanlarning amaliy-laboratoriya ishlarini bajarish uchun–laboratoriya ishlari dasturiga muvofiq jihozlar;

- ixtisoslik fanlarining laboratoriya ishlari uchun–laboratoriyalarning amalga oshirilayotgan ilmiy tematikasiga muvofiq jihozlar;

- seminar mashg’ulotlarini o’tkazish uchun–hisoblashlar va axborot tizimlaridan foydalanish uchun kompyuterlar hamda chet tili mashg’ulotlari uchun–lingafon xonalari bilan ta’minlashi kerak.

## 8 Bakalavr tayyorlash sifatini baholash

**8.1** Oliy ta’lim muassasasi tayyorgarlikning kafolatli sifatini, jumladan:

- ish beruvchilar vakillarini jalb qilish bilan bitiruvchilarning tayyorgarlik sifatini ta’minlash bo’yicha strategiyani ishlab chiqish;
- ta’lim dasturlari vaqt-vaqti bilan taqrizlash, monitoringi;
- ta’lim oluvchilarning bilim va malakalari darajasini, bitiruvchilarning kompetensiyalarini baholashning obyektiv jarayonini ishlab chiqish;
- o’qituvchilar tarkibi kompetentligini ta’minlash;
- faoliyatni (strategiyani) kelishtirilgan mezonlar bo’yicha baholash uchun muntazam tahlillar va boshqa ta’lim muassasalari bilan ish beruvchilar vakillarini jalb qilgan holda taqqoslash yo’li bilan ta’minlashi lozim.

**8.2** Bakalavriat yo’nalishlari bo’yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilardan iborat:

***ichki nazorat*** – oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta’limning boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi tomonidan tasdiqlangan nazorat reyting tizimi to’g’risidagi Nizom asosida o’tkaziladi;

***yakuniy davlat nazorati*** davlat ta’lim standartlariga muvofiq fanlar bo’yicha Davlat attestasiyalari va bitiruv malakaviy ishi himoyasini o’z ichiga oladi;

***davlat-jamoat nazorati*** oliy ta’limning boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

***tashqi nazorat*** Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat test markazi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalarini attestasiya qilish Boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tayyorlangan kadrlar sifatini baholash kadrlar iste’molchilari tomonidan ularning mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

**8.3** Har bir fan bo’yicha bilimlarni joriy va oraliq nazorat qilishning muayyan shakli va o’quv jarayoniga tadbiq etilishi OTM tomonidan mustaqil ishlab chiqiladi va talabalar e’tiboriga o’qishning birinchi oyi davomida yetkaziladi.

**8.4** Talabalarning o’zlashtirishi joriy nazorati va oraliq attestasiyasi dasturlari ularning bo’lajak kasbiy faoliyati sharoitlariga maksimal yaqinlashtirilishi uchun sharoitlar OTM tomonidan yaratilishi kerak. Buning uchun muayyan fan o’qituvchilaridan tashqari tashqi ekspertlar sifatida ish beruvchilar, turdosh fanlardan dars beruvchilar va boshqalar bu jarayonga faol jalb qilinishi kerak.

**8.5** Yakuniy davlat attestasiyasi bakalavr bitiruv malakaviy ishi himoyasini o’z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining mazmuni, hajmi va tuzilmasiga bo'lgan talablar bitiruvchilarning yakuniy davlat attestasiyasi o'tkazish haqidagi Nizom asosida oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

**8.6** Oliy ta'lim muassasasi:

- oliy ta'lim muassasalari davlat attestasiyasi va akkreditasiyasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq ushbu standart talablariga va bakalavr tayyorlash sifatiga rioya qilish;
- professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv-yordamchi xodimlar saviyasining malaka talablariga mos kelishi;
- har bir integrasiyalashtirilgan fanni o'quv dasturigida ko'zda tutilgan o'quv-metodik adabiyotlar, O'MM, shuningdek, mustaqil ta'lim va mustaqil tayyorgarlik uchun materiallar bilan ta'minlash;
- o'quv jarayonining moddiy-texnikaviy ta'minlanganligi uchun to'la mas'uldir.

## 9 Eslatma

**9.1** Oliy ta'lim muassasasiga:

- ushbu standartda nazarda tutilgan minimal mazmunni ta'minlagan holda talabaning haftalik maksimal yuklamasini oshirmasdan o'quv materialini o'zlashtirishga ajratilgan soatlar hajmini o'quv fanlari bloklari uchun 5% oralig'ida, blokga kiruvchi o'quv fanlari uchun 10% oralig'ida o'zgartirish;
- o'quv fanlari mazmuniga, texnika va texnologiyalarning yutuqlarini hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritish huquqi beriladi;
- Bitiruv malakaviy ish mavzusi oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan rasmiylashtiriladi.

**9.2** Kurs ishlari muayyan o'quv faoliyatining bir turi sifatida qaraladi va ushbu o'quv fanini o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlar doirasida bajariladi.

**9.3** Davlat ta'lim standartini bilish professor-o'qituvchilar tarkibini tanlov asosida saralash shartlaridan biri hisoblanadi.

## 10 Davlat ta'lim standartining amal qilish muddati

**10.1** Davlat ta'lim standarti o'rnatilgan tartibda tasdiqlanib, "O'zstandart" agentligida davlat ro'yxatidan o'tgandan keyin amal qilish muddati – 5 yil.

**10.2** Davlat boshqaruvining vakolatli ogranlari tomonidan davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy etish to'g'risida yangi tartib-qoidalar qabul qilinsa DTSlarning amal qilish muddati o'zgarishi mumkin.

**Ilova**

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi**

| **T.r** | **O'quv fanlari, integrallashtirilgan kurslar va bloklarining nomlari** | **Umumiy yuklamaning hajmi** |
|---|---|---|
| | | **soatlarda** |
| **1.00.** | **Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar** | **1704** |
| **2.00.** | **Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar** | **858** |
| | *Matematik kommunikativ kurs* | *584* |
| 2.01 | Informatika va axborot texnologiyalari | 206 |
| 2.02 | Oliy matematika asoslari | 378 |
| | *Tabiiy-ilmiy kurs* | *274* |
| 2.03 | Yosh fiziologiyasi va gigiyena | 70 |
| 2.04 | Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish | 136 |
| 2.05 | Tanlov fanlari | 68 |
| **3.00** | **Umumkasbiy fanlar** | **3672** |
| | *Psixologiya va pedagogika kursi* | ***516*** |
| 3.01 | **Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti** | 240 |
| 3.02 | **Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti** | 276 |
| | ***Umumiy-nazariy kursi*** | ***1328*** |
| 3.03 | **Ona tili** | 506 |
| 3.04 | **Matematika** | 570 |
| 3.05 | **Bolalar adabiyoti va folklor** | 126 |
| 3.06 | **Hozirgi rus (o'zbek) tili** | 126 |
| | ***Ta'lim metodikalari kursi*** | ***1828*** |
| 3.07 | **Ona tili o'qitish metodikasi** | 380 |
| 3.08 | Matematika o'qitish metodikasi | 380 |
| 3.09 | Xusnixat o'qitish metodikasi | 152 |
| 3.10 | Mehnat va uni o'qitish metodikasi | 264 |
| 3.11 | Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi | 192 |
| 3.12 | Tarbiyaviy ishlar metodikasi | 304 |
| 3.13 | Tanlov fanlar | 156 |

| | | |
|---|---|---|
| 4.00 | Ixtisoslik fanlari | **660** |
| 5.00 | Qo’shimcha fanlar | 450 |
| | Jami | **7344** |
| | Malakaviy amaliyot | 810 |
| | Bitiruv malakaviy ishi | 216 |
| | Joriy va davlat attestasiyalari | 918 |
| | Jami | 1944 |
| | Jami: | 9288 |

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so’zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, yo’nalish, o’rganish natijalari, kasb ta’limi, psixologiya, kasbiy pedagogika, ta’limda axborot texnologiyalar, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar, metodika, oliy ta’limning davlat ta’lim standarti, bakalavriat, magistratura, malakaviy talablar, ta’lim dasturi, ta’lim fanlari bloki, o’quv reja, o’quv fani, malakaviy amaliyot, standartlar kategoriyasi, umumiy malakaviy talablar, yakuniy davlat attestasiyasi, ta’lim sifatini nazorat qilish, ta’lim dasturining mazmuni va komponentlari, yo’nalishning umumiy tavsifi.

**IShLAB ChIQILGAN:**
O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini
rivojlantirish markazi

Direktor ____________ **prof. Raximov B.H.**

201_ yil «___» ____________
M.O'.

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Rektor _____________ **prof. Inoyatov U.I.**

201_ yil «___» ____________
M.O'.

KELIShILGAN:

Xalq ta'limi vaziri

Vazir____________**prof. Shirinov T.**

201_y. «___»___________
M.O'.

Guliston davlat universiteti

Rektor _______________**prof. Eminov A.**

201_ y. «___» _____________
M. O'.

Samarqand davlat universteti

Rektor _______________**prof. Tashkenbayev.U.**

201_ y. «__» _____________
M. O'.

## 1.1.2. O'QUV REJASI

## A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

**TASDIQLAYMAN**
**SamDU rektori**
**________prof. U.Tashkenbayev**

**2013 - yil «__»________ m.o'.**

**Ta'lim yo'nalishi:**

***5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish***

**Akademik daraja - BAKALAVR**
**O'qish muddati - 4 yil**
**Ta'lim shakli - kunduzgi**

## O'QUV JARAYONI JADVALI

| Kurs | Haftalar | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | O'quv jarayoni | | | | | Ta'tillar | Hammasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Sentyabr | | | | | Oktyabr | | | | Noyabr | | | | | Dekabr | | | | Yanvar | | | | | Fevral | | | | Mart | | | | | Aprel | | | | May | | | | Iyun | | | | Iyul | | | | Avgust | | | | JAMI | shundan | | | | | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 | 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 36 | 37 | 38 | 39 | 40 | 41 | 42 | 43 | 44 | 45 | 46 | 47 | 48 | 49 | 50 | 51 | 52 | | Nazariy va amaliy ta'lim | davlat attestasiyalar | Malakaviy amaliyot | malakaviy | | |
| I | | | | | | | | | | | | | | | | | | T | T | | | A | A | | | | M | | | | | | | | | | | | | | | | | A | A | T | T | T | T | T | T | T | 43 | 38 | 4 | 1 | | 9 | 52 |
| II | | | | | | | | | | | | | | | | | | T | T | | | A | A | | | | M | | | | | | | | | | | | | | | | | A | A | T | T | T | T | T | T | T | 43 | 38 | 4 | 1 | | 9 | 52 |
| III | | | | | | | | | | | | | | | | | | T | T | | | A | A | | | | M | M | | | | | | | | | | | | | | | | | A | A | T | T | T | T | T | T | 44 | 38 | 4 | 2 | | 8 | 52 |
| IV | | | | | | | | | | | | | | | | | | T | T | | | A | A | M | M | M | M | M | M | M | M | M | M | M | | | | D | D | B | B | B | B | D | T | T | T | T | | | | | 42 | 22 | 5 | 11 | 4 | 6 | 48 |
| Jami | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | **172** | **136** | **17** | **15** | **4** | **32** | **204** |

| | Nazariy va amaliy ta'lim | A | Attestasiyalar | M | Malakaviy amaliyot | D | Davlat attestasiyasi | B | Bitiruv malakaviy ishi | T | Ta'til |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

| T/r | O'quv fanlari, integrallashgan kurslar va bloklarining nomlari | Talabaning o'quv yuklamasi (soatlarda) | | | | | | | | | Soatlarning kurs, semestr va haftalar bo'yicha taqsimoti | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Umumiy yuklamaning hajmi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda) | | | | | | Mustaqil Ta'lim | 1-kurs | | 2-kurs | | 3-kurs | | 4-kurs | |
| | | | | Jami | Ma'ruza | Amaliy | Laboratoriya | Seminar | Kurs loyihasi (ishi) | | Kurslardagi haftalar soni | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | 38 | | 38 | | 38 | | 22 | |
| | | | | | | | | | | | Semestrlar | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| | | | | | | | | | | | Semestrdagi auditoriya mashg'ulotlari haftalarining soni | | | | | | | |
| | | soat | % | | | | | | | | 19 | 19 | 19 | 19 | 19 | 19 | 19 | 3 |
| **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** | **7** | **8** | **9** | **10** | **11** | **12** | **13** | **14** | **15** | **16** | **17** | **18** | **19** |
| **1.00.** | **Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar** | **1704** | **23,2** | **1038** | **272** | **482** | | **284** | | **666** | **10** | **10** | **9** | **9** | **6** | **7** | **4** | **6** |
| 1.01 | O'zbekiston tarixi | 116 | | 58 | 28 | | | 30 | | 58 | 3 | | | | | | | |
| 1.02 | Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi | 116 | | 58 | 28 | | | 30 | | 58 | | 3 | | | | | | |
| 1.03 | Falsafa (etika.estetika, mantiq) | 148 | | 96 | 48 | | | 48 | | 52 | | | 2 | 3 | | | | |
| 1.04 | Ma'naviyat asoslari. Dinshunoslik | 92 | | 58 | 28 | | | 30 | | 34 | | | 3 | | | | | |
| 1.05 | Madaniyatshunoslik | 56 | | 38 | 18 | | | 20 | | 18 | | | | 2 | | | | |
| 1.06 | Iqtisodiyot nazariyasi | 116 | | 64 | 32 | | | 32 | | 52 | | | | | 2 | 2 | | |
| 1.07 | Sosiologiya | 56 | | 38 | 18 | | | 20 | | 18 | | | | | 2 | | | |
| 1.08 | Pedagogika. Psixologiya | 120 | | 52 | 26 | | | 26 | | 68 | | | | | | 2 | | |
| 1.09 | Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar | 60 | | 38 | 18 | | | 20 | | 22 | | | | | | | 2 | |
| 1.10 | Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti | 112 | | 56 | 28 | | | 28 | | 56 | | | | | | | 2 | 6 |
| 1.11 | Rus (o'zbek) tili | 116 | | 76 | | 76 | | | | 40 | 2 | 2 | | | | | | |
| 1.12 | Chet tili | 360 | | 254 | | 254 | | | | 106 | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | | |
| 1.13 | Jismoniy madaniyat va sport* | 236 | | 152 | | 152 | | | | 84 | 2 | 2 | 2 | 2 | | | | |
| **2.00.** | **Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar** | **858** | **11,68** | **474** | **166** | **228** | **80** | | | **384** | **2** | **4** | **6** | | **2** | **2** | **9** | |
| 2.01 | **Informatika va axborot texnologiyalari** | 206 | | 114 | 30 | 24 | 60 | | | 92 | | | 6 | | | | | |
| 2.02 | Oliy matematika asoslari | 378 | | 208 | 70 | 138 | | | | 170 | | | | | 2 | 2 | 7 | |
| 2.03 | **Yosh fiziologiyasi va gigiyena** | 70 | | 38 | 18 | 20 | | | | 32 | 2 | | | | | | | |
| 2.04 | Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish | 136 | | 76 | 30 | 26 | 20 | | | 60 | | 4 | | | | | | |
| 2.05 | Tanlov fanlari | 68 | | 38 | 18 | 20 | | | | 30 | | | | | | | 2 | |
| **3.00** | **Umumkasbiy fanlar** | **3672** | **50,0** | **1996** | **856** | **884** | **120** | **136** | **4** | **1676** | **15** | **14** | **12** | **18** | **22** | **17** | **7** | |
| | ***Psixologiya va pedagogika kursi*** | 516 | | 284 | 130 | | 40 | 414 | | 232 | 4 | 8 | | | **3** | | | |
| 3.01 | Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti | 240 | | 132 | 60 | | | 72 | | 108 | | 4 | | | 3 | | | |
| 3.02 | Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti | 276 | | 152 | 70 | | 40 | 42 | | 124 | 4 | 4 | | | | | | |
| 3.03 | **Ona tili** | 506 | | 304 | 142 | 162 | | | 7 | 202 | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | **3** | |
| 3.04 | **Matematika** | 570 | | 342 | 160 | 182 | | | | 228 | 4 | 4 | 6 | 4 | | | | |
| 3.05 | **Bolalar adabiyoti va folklor** | 126 | | 76 | 40 | 36 | | | | 50 | | | | 4 | | | | |
| 3.06 | **Hozirgi rus (o'zbek) tili** | 126 | | 76 | | 76 | | | | 50 | | | | | | 4 | | |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3.07 | **Ona tili o'qitish metodikasi** | 380 | | 190 | 80 | 70 | 40 | | 6 | 190 | | | 2 | 4 | 2 | 2 | | |
| 3.08 | **Matematika o'qitish metodikasi** | 380 | | 190 | 80 | 70 | 40 | | 6 | 190 | | | 2 | 2 | 2 | 4 | | |
| 3.09 | **Xusnixat o'qitish metodikasi** | 152 | | 76 | 36 | 40 | | | | 76 | 4 | | | | | | | |
| 3.10 | **Mehnat va uni o'qitish metodikasi** | 264 | | 132 | 54 | 78 | | | | 132 | | | | | 5 | 2 | | |
| 3.11 | **Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi** | 192 | | 96 | 42 | 54 | | | | 96 | | | | | 5 | | | |
| 3.12 | **Tarbiyaviy ishlar metodikasi** | 304 | | 152 | 54 | 76 | | 22 | 6 | 152 | | | | 2 | 3 | 3 | | |
| 3.13 | **T.f. Matematika darslarida innovasion texnologiyalar** | 156 | | 78 | 38 | 40 | | | | 78 | | | | | | | **4** | |
| 4.00 | Ixtisoslik fanlari | 660 | 9,0 | 344 | 120 | 224 | | | | 316 | | | | | | 4 | 9 | 24 |
| **4.01** | **Boshlang'ich sinfda integrasiyalashgan ta'lim** | **146** | | **76** | **16** | **60** | | | | **70** | | | | | | | **4** | |
| **4.02** | **Jismoniy madaniyat asoslari va metodikasi** | **146** | | **76** | **30** | **46** | | | **7** | **70** | | | | | | | **4** | |
| **4.03** | **Boshlang'ich ta'limni o'qitishda innoqasion pedagogik texnologiyalar** | **74** | | **38** | **18** | **20** | | | | **36** | | | | | | **2** | | |
| **4.04** | **T.F.Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish.** | **98** | | **82** | **26** | **56** | | | | **16** | | | | | | **2** | **1** | |
| **4.05** | **T.F.Ilmiy tadqiqot asoslari.** | **196** | | **72** | **30** | **42** | | | | **124** | | | | | | | | **24** |
| 5.00 | Qo'shimcha fanlar | 450 | 6,13 | 228 | 80 | 74 | | 74 | | 222 | 3 | 2 | 3 | 3 | | | 1 | |
| **5.01** | **Darslik bilan ishlash (ona tili )** | **130** | | **56** | **20** | **18** | | **18** | | **74** | **3** | | | | | | | |
| **5.02** | **Darslik bilan ishlash (matematika )** | **86** | | **38** | **14** | **12** | | **12** | | **48** | | **2** | | | | | | |
| **5.03** | **Tibbiy bilim asoslari** | **130** | | **56** | **20** | **18** | | **18** | | **74** | | | **3** | | | | | |
| **5.04** | **Boshlang'ich sinflarda milliy harakatli o'yinlar** | **104** | | **78** | **26** | **26** | | **26** | | **26** | | | | **3** | | | **1** | |
| | JAMI | 7344 | 100 | 4080 | 1494 | 1892 | 200 | 494 | 4 | 3264 | 30 | 30 | 30 | 30 | 30 | 30 | 30 | 30 |
| | Malakaviy amaliyot | 810 | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Bitiruv malakaviy ishi | 216 | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Joriy va davlat attestasiyasi | 918 | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | JAMI | 1944 | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | HAMMASI: | 9288 | | | | | | | | | | | | | | | | |

**II. O'QUV REJASI**

Davlat attestasiyasi: 1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan biri; 2.Chet tili;
3. Bitiruv malakaviy ishi;

Kurs ishi 6-semestrda metodika fanlarini tanlash asosida talabalar guruxga ajraladi.

O'quv ishlari prorektori: prof. N.Eshqobilov

O'quv bo'limi boshlig'i: dots. H.Qurbonov.

Fakultet dekani: dots.T.Qurbonov

## 1.1.3. O'QUV DASTURI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

«Ro’yxatga olindi»
№ BD-5111700-3.03

2011 yil «17» noyabr

Vazirlikning 2011_ yil “17” ... dagi “467”-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan

# ONA TILI

## FAN DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – | Gumanitar |
| Ta'lim sohasi: | 140000 – | Pedagogika |
| Ta'lim yo`nalishi: | 5111700 - | Boshlang`ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish |

Toshkent – 2011

Fan dasturining shakli Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo’nalishlari bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi kyengashining 2011 yil “__”_______dagi “___”-son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkyent Davlat pedagogika univyersityetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta’lim muassasalari bilan kelishildi.

**Tuzuvchilar:**

G`ulomova X. - Toshkent Davlat Pedagogika universityeti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti

Yo`ldoshyeva Sh - Toshkent Davlat Pedagogika univyersityeti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi, pedagogika fanlari nomzodi dotsyent

Suyunov M. - Navoiy viloyati pedagogika instituti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:**

Ro’ziboyeva O’. - Guliston davlat universiteti Boshlang’ich ta’lim uslubiyoti kafedrasining dotsent v.b., pedagogika fanlari nomzodi

G’ulomov M - Toshkent viloyati o’qituvchilar malakasinin oshirish instituti pedagogika fanlari nomzodi, professor

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Ilmiy-metodik kengashida tavsiya qilingan (2011 yil “__”_______dagi “___”-sonli bayonnoma).

## KIRISH

Mazkur fan dasturi umumiy tilshunoslik fani haqida qisqacha ma’lumot, o‘zbek tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, leksikografiyasi, hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibi, fonetik tizimi, grafikasi, orfografiyasi, orfoepiyasi, grammatik qurilishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi, o‘zbek tili uslublari haqidagi ma’lumotlarni qamrab olgan.

## O‘quv fanining maqsad va vazifalari

Mazkur fanni o‘qitishdan **maqsad -** bo’l g‘usi bog‘cha tarbiyachilariga ona tilimizning fonetik xususiyatlari, talaffuz me’yorlari, lu g‘at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, talabalarning o g‘zaki va yozma nutqini o’stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish (bunda lotin yozuviga asoslangan imloni ham o’zlashtira borish) yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.

Fanning vazifasi – ona tilining barcha bo`limlari yuzsasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotda qo`llashga o`rgatish.Ona tilining davlat tili maqomini olishi hamda “Ta’lim haqida” gi qonun materiallariga tayanish bilan bo g‘liq bo’lgan o’zgartishlar yetkazish.

## Fan bo‘yicha talabalar bilbmiga, ko‘nikma va malakasiga qo’yiladigan talablar

Ona tili fanini o‘zlashtirish jarayonida talaba quyidagilarni ***bilishi kerak:***

- tilning ijtimoiy mohiyati va uning tarkibiy qismlarini, dunyo tillarining tasnifini, o‘zbek tilining qaysi til oilasiiga va turkumiga kirishini; nutq a’zolarini, o‘zbek tiliga xos unli va undosh tovushlarni, bo‘ g‘in va ur g‘uni, tovush o‘zgarishlarini, o‘zbek tili grafikasini, imlo va talaffuz qoidalarini; hozirgi o‘zbek adabiy tilining lu g‘at tarkibini, ma’no ko‘chish usullarini, so‘zlarning shakl va ma’no xususiyatga ko‘ra turlarini, faol va nofaol, o‘z va o‘zlashgan qatlamni, o‘zbek tili frazeologiyasini, milliy til tarkibiga kirgan guruhlarni (sheva, atama, eskirgan va yangi so‘zlarni, jargon va argolarni, uyadosh va olinma so‘zlarni); o’zbyek tilidagi so‘z yasalish usullarini, morfemik tarkibni, mustaqil va yordamchi so‘zlarni, modal, undov va taqlid so‘zlarni; o‘zbek tilidagi so‘z birikmasi sintaksisini, gap sintaksisisini, matn sintaksisini; o‘zbek tili tinish belgilari tizimini, nutq uslublarini, uslubiyat turlarini.

Mazkur kursni o‘rganish jarayonida talaba quyidagi ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:***

- unli va undosh tovushlarni tasniflay bilish; so‘zlarni bo‘ g‘inlarga ajrata bilish va ur g‘ularini to‘ g‘ri qo‘ya olish; o‘zlashtirilgan qoidalarga asoslangan holda ma’nosi ko‘zchgan so‘zlarning ma’nolarini, omonim, sinonim, antonym va paronimlik xususiyatlariga ega bo‘lgan so‘zlarning ma’nolarini, atama, sheva, eskirgan va yangi so‘zlarning ma’nolarini izohlay bilish; gap ichidagi yasama so‘zlarni aniqlay bilish; so‘z turkumlarining xususiyatlarini farqlay olish; gap

tarkibidagi so‘z birikmalari va gap bo‘laklarini aniqlay bilish; tinish belgilarining qo‘yilish sabablarini anglay olish; muayyan gaplarning qaysi uslubga tegishli ekanligini farqlay olish.

Ona tili kursini o‘zlashtirgan talaba quyidagi **malakalarga** ega bo‘lishi kerak:

- berilgan matndagi gaplarni fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan to‘liq tahlil qilish; mavjud tinish belgilarining qo‘yilish o‘rinlarini aniqlay olish va qo‘yilish sabablarini to‘liq tushuntira olish; tildagi mavjud birliklardan to‘ g‘ri va o‘rinli foydalana olish.

## Ona tili fanining o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bo g‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Ona tili fanini chuqur o’rganish uchun falsafa, tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlaridan xabardor bo’lish talab etiladi. Tilning rivojlanish tarixi millat tarixi bilan chambarchas bo g‘liqdir. Tilning lu g‘at boyligida yuz beradigan o’zgarishlar jamiyat, xalq tarixida yuz bergan o’zgarishlar asosida amalga oshadi.

Badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, shuning uchun talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o’rgatish lozim.

## Ona tili fanining ishlab chiqarishdagi o‘rni

Ona tili fanining amaliy ahamiyati quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- har bir inson, ayniqsa, ziyoli inson o‘z ona tilisining imkoniyatlaridan mumkin qadar unumli foydalana bilishi kerak;
- ona tili har bir millatni millat sifatida farqlantiradigan, shakllantiradigan buyuk ne’mat ekanligini tushunishimiz kerak;
- ona tili fani milliy til va uning tarkibiga kiruvchi adabiy tilning an’anaviy vazifalaridan tashqari, kompyuter lingvistikasining keng imkoniyatlarini hayotga tatbiq etishda katta rol o‘ynaydi.

## Fanni o‘qitishda qo’llanadigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Ona tilini puxta o’rgatish maqsadida o’qituvchning dars jarayonida slaydlar, proyektor, diaproyektorlar kabi zamonavaiy texnologik vositalardan mohirona foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Texnik vositalar talabalarga o’qitilayotgan fanning mohiyatini chuqur anglashga imkon beradi, mash g‘ulotning qiziqarliroq bo’lishiga, o’tilgan mavzuni eslab qolishga, vaqtni tejab qolishga yordam beradi.

## ASOSIY QISM

## Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

## Kirish

**Punktuatsiya (ishorat qoidalari).**

O’zbek tili punktuatsiyasining asosiy tamoyillari (mantiqiy-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, differensiatsiya tamoyili). O’zbek tilida tinish belgilari va ularning tasnifi; tinish belgilarining qo’llanish o’rinlari.

**Uslubiyat va uslubshunoslik.**

Nutq uslublari haqida ma’lumot. Uslubiyat turlari: leksik, fonetik va grammatik uslubiyat haqida.

## Tilshunoslikdan umumiy ma’lumot.

Til ijtimoiy, doim o’zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. O’zbek tili - O’zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi. Hozirgi o’zbek adabiy tilining tuzilish uzvlari (elementlari): tovushlar tizimi, leksikasi (yoki lu g‘at tarkibi), grammatik qurilishi. Milliy va adabiy til. O’zbek adabiy tili va uning tayanch dialekti (lahjasi). Adabiy tilning o g‘zaki va yozma shakllari.

Tilning paydo bo’lishi, tillarning taraqqiyoti, tillarning tasnifi.

## Fonetika

Fonetika haqida umumiy ma’lumot, uning nutq tovushlarini o’rganadigan soha ekanligi. Hozirgi o’zbek tilining fonetik tizimi (sistemasi) haqida ma’lumot. O’zbek tilining fonetik vositalari: nutq tovushlari, ur g‘u, ohang (intonatsiya). Fonema, uning so’z ma’nosini farqlashdagi roli. Hozirgi o’zbek tilining fonemalari. Nutq a’zolari va ularning vazifasi. Nutq apparati. Artikulyatsiya. Artikulyatsiya o’rni va artikulyatsiya usuli. Fonetik akustika, tovush balandligi, kuchi, tembri, tempi va cho’ziqligi.

Nutq tovushlari va ularning tasnifi. Unli va undosh tovushlar. Unli tovushlar, tilning gorizontal, vertikal harakatiga ko’ra hamda lablarning ishtirokiga ko’ra unli tovushlar tasnifi. Undosh tovushlar, ularning artikulyatsiya (hosil bo’lish) o’rniga, usuliga ko’ra hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko’ra tasnifi.

Nutqning asosiy fonetik birliklari: fraza (jumla), takt (sintagma), fonetik so’z, bo’ g‘in, tovush. Ur g‘u va uning turlari: so’z ur g‘usi (leksik ur g‘u), gap ur g‘usi (mantiqiy ur g‘u); bo g‘liq va erkin ur g‘u. Ur g‘u olmaydigan Nutqning asosiy fonetik birliklari: fraza (jumla), takt (sintagma), fonetik so’z, bo’ g‘in, tovush. Ur g‘u va uning turlari: so’z ur g‘usi (leksik ur g‘u), gap ur g‘usi (mantiqiy ur g‘u); bo g‘liq va erkin ur g‘u. Ur g‘u olmaydigan birliklar. Ur g‘uning so’z ma’nosini farqlashdagi roli.

**Amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar**

Ona tili fani bo`yicha tashkil etiladigan amaliy mashg`ulotlarda o`quvchilar nazariy olgan bilimlarini amalga tadbiq etish bo`yicha izlanishlar olib boradilar. Amaliy mashg`ulotlarning mavzulari quyidagicha:

Ona tilining orfoepik me’yorlari. O’zbek tili adabiy talaffuz me’yorlarini bilish. Ayrim orfoepik me’yorlarning orfografik me’yorlarga mos kelish-kelmaslik holatlarini aniqlay bilish. Ayrim grammatik shakllarning talaffuzidagi variantlarini aniqlay bilish. Matnning fonetik tahlili. Fonetik tahlil elementlarini bilish va fonetik tahlil ko’nikmasini hosil qilish.

**Grafika va orfografiya (imlo).**

O’zbek yozuvi tarixini, hozirgi o’zbek alifbosini bilish: harflarning nomini, ularning ketma-ket joylashish tartibini bilish. Berilgan so’zlarni alfavit (alifbo) tartibida yozish: berilgan matndagi so’zlarni bosh shaklga keltirish va ularni alfavit tartibida yozib chiqish ustida mashqlar va testlar.

Matnni imlo tomondan tahlil qilish;

a) negiz va qo’shimchalar ustida ishlash;

b) ayrim harflar imlosi ustida ishlash;

d) qo’shib, ajratib va chiziqcha bilan yoziladigan so’zlar ustida ishlash;

e) bo’ g‘in ko’chirilishi va bosh harflarning yozilishi bo’yicha mashqlar va testlar. Muayyan so’zlarda orfogrammalarni topa bilish va harflarning yozilishi asosida orfografiyaning qanday tamoyillari yotganligini aniqlay bilish yuzasidan mashqlar va testlar.

**Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya.**

Bir ma’noli va ko’p ma’noli so’zlar. So’zlarning bir ma’noli yoki ko’p ma’noli ekanligini aniqlay bilish. Ko’chma ma’noli so’zlarni aniqlash, o’z ma’nosi (asl ma’nosi) bilan qiyoslash, ma’no kuchiga xususiyatlarini va ma’no ko’chish turlarini izohlashga doir mashqlar va testlar.

Omonimiya hodisasining mohiyatini bilish. Omonimlarni topib, ularning ma’nolarini aniqlash. Omonimiyani polisemizdan ajrata bilish. Omonimlar turlarini aniqlash ustida mashqlar va testlar.

Sinonimiya. Sinonimiya hodisasining mohiyatini bilish. Sinonimlarni aniqlash. Berilgan so’zlar ichidan sinonimlarni topib, sinonimiya qatorini tuzish va sinonimiya qatoridan dominantani aniqlash. Berilgan so’zlarni dominanta tarzida olib, ularning sinonimlarini keltirish ustida mashqlar va testlar.

Antonimiya. Antonimiya hodisasining mohiyatini bilish. Turli so’zlarga ularning antonimini topa bilish. Antonimlarning leksik-semantik xususiyatlarini izohlash, turlarini aniqlash ustida mashqlar va testlar.

O’z qatlam va o’zlashgan qatlamga doir so’zlar. O’zlashgan so’zlarni matnlardan topa bilish va lu g‘atlardan ularning qaysi tillardan o’zbek tiliga kirib kelganini (o’zlashganini) aniqlay bilish yuzasidan mashqlar va testlar.

Ijtimoiy-dialektal tarkibiga ko’ra o’zbek tili leksikasi. Dialektizmlar, ularning turlari; kasb-hunarga oid so’zlar; atamalar (terminlar) va ularning qaysi sohaga oid ekanligi, jargon va argolarni aniqlash bo’yicha mashqlar va testlar.

Nofaol leksika. Berilgan matndan tarixiy so’zlar, arxaik so’zlar va neologizmlarni topa bilish, ularning ma’nolarini aniqlash va izohlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Frazeologiya. Frazeologik iboralarning o’ziga xos xususiyatlarini bilish, frazeologizmlarning turlarini aniqlash, ularning omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyatlarini izohlash bo’yicha mashqlar va testlar.

Leksikografiya. Turli lu g‘atlarning xususiyatlarini bilish. Lu g‘at tiplari: ensiklopedik (qomusiy) va lingvistik, bir tilli va ko‘p tilli lu g‘atlardan foydalanish yuzasidan mashqlar va testlar.

**Morfemika va so’z yasalishi.**

So’zning morfologik tarkibi. O’zbek tili morfem tarkibini, uning xususiyatlarini bilish, so’zlarni morfemalarga (o’zak va affikslarga), affikslarni vazifalariga ko’ra turlarga ajratish; shakldosh va ma’nodosh affikslarni ajrata bilish yuzasidan mashqlar va testlar. Affiks qo’shish bilan so’z tarkibida bo’ladigan fonetik o’zgarishlarni tahlil qila bilish.

So’zlarning tarkibiga ko’ra (morfemik) tahlili. So’z yasash usullari, matndan tub va yasama so’zlarni ajrata bilish, yasama so’zlarning yasalish usulini aniqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

**Grammatika.**

Berilgan matndagi so’zlarni so’z shakllari jihatdan tahlil qilish: so’zlarning sintetik, analitik, juft va takroriy, nol ko’rsatkichli shakllarini aniqlash ustida mashqlar va testlar.

Morfemika, so’z yasalishi, grammatikaga kirish materiallari yuzasidan kollokvium o’tkazish.

**Morfologiya. So’z turkumlari. Ot.**

So’zlarni turkumlarga ajratish tamoyillarini bilish.

Ot - so’z turkumi sifatida. Otning ma’no turlari (atoqli va turdosh, aniq va mavhum, yakka va jamlovchi)ni aniqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Otlarda son kategoriyasi. Mazkur kategoriyaning mohiyatini bilish. Otlarning birlik va ko’plikda qo’llanishi; ko’plik qo’shimchasining ishlatilish o’rinlari va vazifalarini belgilash ustida mashqlar va testlar.

Otlarda egalik kategoriyasi. Ushbu kategoriyaning mohiyatini bilish. Otlarning egalik qo’shimchalari bilan o’zgarishi bo’yicha mashqlar va testlar.

Otlarda kelishik kategoriyasi. Mazkur kategoriyaning mohiyatini bilish. Otlarning kelishik qo’shimchalari bilan o’zgarishi ustida mashqlar va testlar.

Otlarning yasalishi va tuzilish jihatdan turlari, affiksatsiya. kompozitsiya, abbreviatsiya usullari bilan yasalgan otlar: ularning sodda, qo'shma, juft, qisqartma otlar singari tuzilish jihatdan turlari yuzasidan mashqlar va testlar.

Ot yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

**Sifat.**

Sifat - so'z turkumi sifatida. Sifat darajalari va modal shakllari, ularning ma'no xususiyatlarini aniqlash ustida mashqlar va testlar.

Sifatlarning yasalishi, qo'shma, juft, murakkab sifatlarning imlosi yuzasidan mashqlar va testlar.

Sifatlar ustida umumiy morfologik tahlil o'tkazish.

**Son.**

Son - so'z turkumi sifatida. Sonning turlarini aniqlash, bu turlarning qanday yasalganini izohlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Sonlarning turlanishi va numerativ so'zlar bilan qo'llanishi, juft va tarkibli sonlarning imlosi ustida mashqlar va testlar.

Son yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

**Olmosh.**

Olmosh - so'z turkumi sifatida. Olmoshning ma'no turlarini aniqlash, har bir turning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.

Olmoshning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi; juft va qo'shma olmoshlarning imlosi ustida mashqlar va testlar.

Olmosh yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

**Fe'l.**

Fe'l - so'z turkumi sifatida. Bo'lishli va bo'lishsiz, o'timli va o'timsiz fe'llarni aniqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Fe'l nisbat (daraja)lari, ularni hosil qiluvchi affikslarni aniqlash bo'yicha mashqlar va testlar.

Fe'l mayllari: ijro, buyruq - istak, shart (yoki shart - istak) mayllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan mashqlar va testlar.

Fe'l zamonlari, ularning turlari, hosil bo'lishi yuzasidan mashqlar va testlar.

Fe'lning tuslanishi, tuslovchi affikslarning turlari yuzasidan mashqlar va testlar.

Fe'lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarini aniqlash, bu shakllarni yasovchi affikslar, ularning imlosi ustida mashqlar va testlar.

Fe'lning yasalishi, uning tuzilish jihatdan turlari, qo'shma va juft fe'llarning imlosi ustida mashqlar va testlar.

Fe'l yuzasidan umumiy morfologik tahlil o'tkazish.

**Ravish**

Ravish va uning ma'no turlari yuzasidan mashqlar va testlar.

Ravishning yasalishi, darajalari yuzasidan; qo'shma va juft ravishlarning imlosi bo'yicha mashqlar va testlar.

Ravish yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

Mustaqil so'zlar (ot, sifat, son (olmosh, fe'l, ravish) yuzasidan umumiy morfologik tahlil o'tkazish.

Mustaqil so'zlar, ularning turlari va o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan kollokvium o'tkazish.

**Bo g'lovchi, ko'makchi, yuklama.**

Bo g'lovchi, ko'makchi va yuklamalarni aniqlash, ularning turlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.

**Modal so'z, undov, taqlid so'z**

Modal so'z, undov va taqlid so'zlar, ularning turlari ustida mashqlar va testlar.

So'z turkumlarini aniqlash va ularni morfologik jihatdan to'liq tahlil qilish.

**Sintaksis.**

So'zlarning teng va ergash bo g'lanishi (aloqasi), ergash bo g'lanishning turlari (boshqaruv, bitishuv, moslashuv) yuzasidan mashqlar va testlar.

So'z birikmasi, uning turlari, birikma tarkibidagi so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatini aniqlash ustida mashqlar va testlar.

Gap, uning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajratish; gaplarning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari yuzasidan mashqlar. Berilgan gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra o'zgartirishga oid mashqlar va testlar.

Yi g'iq va yoyiq gaplarni, ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarni aniqlash bo'yicha mashqlar va testlar.

Gapning bosh bo'laklarini aniqlash (ega va kesimni aniqlash); sodda va tarkibli kesimlar; kesimning ega bilan moslashuvi. ularning ba'zan sonda mos kelmaslik hollari; yozuvda ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishiga ustida mashqlar  va testlar.

Ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, turlarga ajratish yuzasidan mashqlar.

To'ldiruvchi, aniqlovchi, hollarning turlari, ifodalanishi ustida mashqlar va testlar.

Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash va ularni umumiy sintaktik tahlil qilish.

Gapning uyushiq bo'laklarini, qanday bo'lak uyushganini aniqlash, uyushiq bo'laklarning shakllanishi, bo g'lovchili, bo g'lovchisiz birikkanini, umumlashtiruvchi birliklar qatnashgan holatlarni, tinish belgilarning ishlatilishini belgilash yuzasidan mashqlar o'tkazish.

Ajratilgan bo'laklar va ularning turlarini belgilash, bunday gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan mashqlar va testlar.

Gap bo'lagi sanalmaydigan undalma, kirish so'z va kirish birikmalar hamda kiritma gaplarni aniqlash. Kirish so'z va kirish birikmalarining ma'nolarini aniqlash; undalma va kiritma gaplarning qo'llanish o'rni, ularda ishlatiladigan tinish belgilari yuzasidan mashqlar va testlar ishlash.

Bir bosh bo'lakli gap, uning turlari, bo'laklarga ajralmaydigan gap (so'z-gap), to'liq va to'liqsiz gaplarni aniqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Sodda gap va so'z birikmasi yuzasidan kollokvium o'tkazish.

Sodda va qo'shma gaplarni aniqlash, ularni farqlash yuzasidan mashqlar va

testlar.

Qo’shma gap qismlari va ularning o’zaro bo g‘lanishi, mazmun munosabatini aniqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Bo g‘langan qo’shma gap qismlarining o’zaro bo g‘lanish yo’llari, ularni bo g‘lovchi vositalar yuzasidan mashqlar va testlar.

Ergashgan (ergash gapli) qo’shma gap tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlash, ergash gaplarning turini ajrata bilish yuzasidan mashqlar va testlar ishlash. Bo g‘langan va ergashgan qo’shma gap qismlarining bo g‘lanishini sxema (chizma) orqali ko’rsata bilish.

Bo g‘lovchisiz qo’shma gap tarkibidagi qismlarning mazmun munosabati, tinish belgilar ishlatilishini aniqlash bo’yicha mashqlar va testlar. Bo g‘lovchisiz qo’shma gap qismlarining bo g‘lanishi sxema (chizma)da ko’rsatish.

Murakkab (ko’p komponentli) qo’shma gap qismlarining o’zaro bo g‘lanishi, mazmun munosabatini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar. Murakkab qo’shma gap qismlarining o’zaro bo g‘lanishini sxema (chizma) orqali ko’rsata bilish.

O’zga gap, uning turlari: ko’chirma gap, o’zlashtirma gaplarni aniqlash; ko’chirma gapli qo’shimchalarning qismlari (ko’chirma gap va muallif - avtor gapi), ularning o’zaro bo g‘lanishi, joylashish o’rnini belgilash; ko’chirma gapli qurilmada tinish belgilarining ishlatilishi, ko’chirma gapni o’zlashtirma gapga (va aksincha, o’zlashtirma gapni ko’chirma gapga) aylantirish yuzasidan mashqlar va testlar.

Matnni yoki tanlangan gaplarni sintaktik jihatdan to’liq tahlil qilish.

**Punktuatsiya va umumiy takror**

Tinish belgilarini o’z o’rnida qo’llash qoidalarini o’zlashtirish yuzasidan mashqlar va testlar.

Matnda yoki undan olingan parchada ishlatilgan tinish belgilarining qo’yilishi sababini aniqlash va izoxlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Butun kurs materiallarini o’z ichiga olgan yalpi grammatik tahlil o’tkazish.

**Uslubiyat va uslubshunoslik.**

Nutq uslublari yuzasidan mashqlar va testlar.

Leksik, fonetik va grammatik uslubiyat yuzasidan mashqlar va testlar.

## Mustaqil ta`limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Talabalarga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

-mustaqil ravishda darslik , o`quv qo`llanmalari va metodik qo`llanmalarda byelgilab byerilgan mavzularni o`rganish;

-tarqatma matyeriallar bo`yicha auditoriyada o`rganilgan ma'ruza qismlarini o`zlashtirish;

-axborot tyexnologiyalaridan foydalanib, nazorat tizimlari bilan ishlash;

-maxsus adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari bilan ishlash;

- zamonaviy tyexnologiyalarni o`rganish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq qilish usullarini o`rganish;
- muammoli o`qitish usullari;
-masofaviy ta'lim.

Mustaqil ishning mazmuni:

1. Ona tili o`qitish metodikasining ilmiy asoslari, o`zaro bogliq fanlarni dalillash.
2. Boshlang`ich ta'lim davlat standarti mazmuni nyegizini byelgilovchi ko`rsatkichlar o`quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan minimal talablar
3. Savod o`rgatish metodlariga qiyosiy-tanqidiy tahlil
4. Boshlang`ich ta'limda yaratilgan barcha «Alifbye», «Yozuv daftari»ni qiyosiy-tanqidiy tahlili
5. Savod o`rgatishdan yaratilgan metodik qo`llanmalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili
6. Savod o`rgatishda pyedagogik tyexnologiyalarni qo`llash
7. O`qish dasturi tahlil
8. O`qish kitoblari (1,2,3,4-sinf) tahlili.
9. O`qish darslarida qo`llanadigan metodlarga tavsif
10. O`qish darslari taqvim ryejasini tuzish
11. To`g`ri o`qishga o`rgatish usullari
12. Tyez o`qishga o`rgatish usullari
13. Ongli o`qishni ta'minlash usullari
14. Ifodali o`qishga o`rgatish
15. Badiiy asar tahlilida pyedagogik tyexnologiyalardan foydalanish
16. Hikoya matni tahlili
17. Ertak matni tahlili
18. Shye'r matni tahlili
19. Masal matni tahlili
20. Ilmiy- ommabop asarlar matni tahlili. Topishmoq matni ustida ishlash
21. Sinfdan tashhari o`qish darslari taqvim ryejasini tuzish
22. STO`ning noan'anaviy shakllaridan foydalanish
23. STO` uchun mavzular bo`yicha badiiy asarlar ro`yxatini tuzish
24. STO` o`qish bo`yicha o`quvchilar bilimini, faoliyatini nazorat qilish yo`llarini ishlab chiqish
25. O`qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish
26. O`qishdan umumlashtiruvchi takrorlovchi darslarni noan'anaviy shaklda tashkil etish
27. Fonyetika va grafika asoslarini o`rganishda pyedagogik tyexnologiyalarni qo`llash
28. Unli va undosh tovushlarni o`rganishda lyeksik mashqlarni tashkil etish
29. Unli va undosh tovushlarni o`rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish
30. So`z tarkibini pyedagogik tyexnologiyalarni o`rganishda qo`llash
31. So`z tarkibini o`rganishda lyeksik mashqlarni tashkil etish
32. So`z tarkibini o`rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish
33. Ona tili darsliklarini qiyosiy-tanqidiy tahlili
34. 1-4-sinflar uchun nashr etilgan metodik qo`llanmalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili
35. Ona tili darslarida qo`llanadigan samarali metodlar

36. Ona tili darslarida foydalaniladigan jadvallar syeriyasini tuzish
37. Ona tili darslarida ta'limiy o`yinlarni qo`llash
38. Boshlang`ich sinflarda ot turkumini o`rganishdagi uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishini tahlil qilish
39. Ot so`z turkumini o`rganishda qo`llanadigan ko`rgazmalar
40. Ot so`z turkumini o`rganishda qo`llanadigan mustaqil ishlarni ishlab chiqish
41. Otlardan kyelishik katyegoriyalari yuzasidan byerilgan mashqlarni tahlil qilish
42. Sifat so`z turkumini o`rganishda intyerfaol usullarni qo`llash
43. Sifat so`z turkumini o`rganishdagi lyeksik-syemantik mashqlar
44. Sifat so`z turkumini o`rganishdagi lyeksik-syemantik mashqlar
45. Son so`z turkumi yuzasidan darslikdagi byerilgan ma'lumotlarni tahlil qilish
46. Son so`z turkumini o`rganishda grammatik o`yinlardan foydalanish
47. Olmosh so`z turkumini o`rganishda ta'limiy o`yinlardan foydalanish
48. Son so`z turkumini o`rganishdagi mashqlar tizimini tahlil qilish
49. Fye'l so`z turkumini o`rganishda qo`llanadigan ta'limiy o`yinlarni tayyorlash
50. So`z turkumlarini o`rganishda hosil qilinadigan orfografik bilimlar
51. So`z turkumlarini o`rganishga oid adabiyotlar ro`yxatini tuzish
52. Intyernyetdan Boshlang`ich sinflarda so`z turkumlarini o`rganishga oid ma'lumotlarni yig`ish
53. 1-4-sinf darsliklaridagi orfografiyaga oid mashqlarni tahlil qilish
54. O`quvchilardagi tipik orfografik xatolarni aniqlash
55. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining bilim, ko`nikma va malakalarini tyekshirish uchun matyeriallar tayyorlash
56. Boshlang`ich sinf darsliklarida fye'lga oid mashqlarni tasnif qilish
57. Boshlang`ich sinfda gap ustida ishlashdagi izchillik
58. Gap ustida ishlashga oid mustaqil ishlar
59. Boshlang`ich sinf darsliklarida punktuatsiyaga oid byerilgan matyerialar tahlil qilish
60. 1-4-sinf ona tili darslari o`qituvchi kitobini tahlil qilish
61. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini nutqini o`stirishga oid mashq turlarini ishlab chiqish
62. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini morfologik tahlilga o`rgatish
63. Ona tili darslarida o`tkaziladigan lyeksik-syemantik ishlar
64. Ona tili darslarida o`tkaziladigan lyeksik-syemantik ishlar
65. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini nutqini o`stirishga oid mashq turlarini ishlab chiqish
66. Bayon uchun matyerial to`plash
67. Darsliklardagi insho uchun byerilgan matyeriallarni tahlil qilish
68. O`quvchilar nutqidagi xatolarni aniqlash va bartaraf qilish

**Kurs ishini tashkil etish bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar.**

Boshlang`ich ta'lim yo`nalishida kunduzgi va sirtdan o`qiydigan har bir talaba oxirgi kursda ona tili o`qitish metodikasidan yoki matyematika o`qitish metodikasidan kurs ishi yozadi.

Kurs ishi yordamida talabalarning bilimi, ko`nikma va malakalari, shuningdyek, pyedagogik tayyorgarligi, ilmiy-metodik fikrlashi, amalda ko`rgan va bilganlarini umumlashtirish ko`nikmalari sinab ko`riladi.

Kurs ishini bajarish jarayonida talaba:

1. Tanlagan kurs ishi mavzusi bilan bog`liq nazariy bilimlarini mustaqil ravishda puxta o`zlashtirib oladi.
2. Tilshunoslikka, psixologiyaga, pyedagogikaga oid, xususan, metodikaga oid adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qiladi va ularga munosabat bildiradi, adabiyot ro`yxatini tuzishga o`rganadi.
3. O`zining shaxsiy pyedagogik tajribalariga asoslanadi. Ilg`or o`qituvchilar tajribalarini o`rganadi, ularni tajriba-sinovdan o`tkazishadi.
4. Mavzuni yoruvchiga, ryeja tuzishga, kichik tajriba o`tkazishishga, zarur didaktik matyeriallar va ko`rgazmali qurollar tanlash va tayyorlashga, tajriba natijalarini sistyemaga solishga va shu asosda kyerakli xulosalar chiqarishga o`rganadi.

Kurs ishi kunduzgi va sirtqi bo`limi talabalariga pyedagogik mahoratni egallash va takomillashtirishga yordam byeradi.

Kurs ishi talabalarni ilmiy-ijodiy ishga qatnashtirish vositalaridan biridir. U bitiruv malakaviy ishini bajarishga tayyorlov bosqichi bo`ladi. Kurs ishini bajarish vaqtida metodika sohasida ijodiy qobiliyatini namoyish qila olgan talaba kurs ishi mavzusi bo`yicha tadqiqot ishlarini davom ettirish va uni malakaviy bitiruv ishi darajasiga olib chiqishi mumkin.

Kurs ishi yozayotgan talaba oldiga quyidagi talablar qo`yiladi:

1. Mavzuni mukammal yoritish.
2. Mavzuga oid adabiyotlarni bilganligini ko`rsata olish; ilmiy-metodik manbalardan asosiy nazariy qoida-qonunlarni va amaliy tavsiyalarni bilib olganligini ifodalash.
3. Tanlangan mavzu bilan bog`langan eng muhim masalalarni ifodalash.
4. Kurs ishini bajarayotganda mustaqillikka amal qilish.
5. Maktab va o`qituvchilarning ilg`or tajribalarini umumlashtirish.
6. Matyeriallarni uslubiy va imlo jihatdan savodli bayon etish.

Kurs ishini bajarish uchun o`n oy vaqt ajratiladi.

**Kurs ishlari mavzusi:**

1. Savod o`rgatish va nutq o`stirishdan mavzular:

1. O`quvchilarni savod o`rgatishga tayyorlov («Alifbye» gacha bo`lgan davr) davrida nutq o`stirish
2. Savod o`rgatish tayyorlov davri yozuv darslarini tashkil etish
3.Savod o`rgatish tayyolov davrida o`yinlardan foydalanish
4. Alifbye davrida yozuv ko`nikmalari shakllantirish
5. Savod o`rgatish davridagi dars tiplari, ularning maqsadi, mazmuni va ko`rilishi.
6. Savod o`rgatish darslarida ko`rgazmali vositalardan foydalanish.
7. «Alifbye» darslarida nutq tovushlarini tahlil va tarkib qilish priyomlarining qo`llanishi.
8.Savod o`rgatish darslarida o`quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
9.Savod o`rgatish davri darslarini pyedagogik tyexnologiyalardan foydalanish

10.Savod o`rgatish davrida sinfdan tashhari o`qish mashg`ulotlari.
11.Savod o`rgatish davrida sinfdan tashqari ishlar («Alifbye» bayrami va shuning kabilar) ni uyushtirish.
12. Savod o`rgatish davrida gap ustida ishlash.
13. Savod o`rgatish sinfdan tashhari o`qishni tashkil etish.
14. Savod o`rgatish davrida bo`g`in ustida ishlash.
13. Savod o`rgatish davrida gap ustida ishlash.
15. Savod o`rgatish davrida sinfdan tashhari o`qishni tashkil t etish.
16. Savod o`rgatish davri yozuv darslarida o`tkaziladigan diktantlar.
17.Savod o`rgatish davri yozuv darslarida imlo ustida ishlash.
18.Savod o`rgatish davri yozuv darslarida nutq o`stirish.
19.Savod o`rgatish davri yozuv darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.
20.Savod o`rgatish darslarida axborot tyexnologiyalardan foydalanish.
21.Savod o`rgatish darslarida lug`at ustida ishlash.
22.Savod o`rgatish darslarida dam olish daqiqalarini tashkil etish.
23.Savod o`rgatish darslarida o`quvchilarni ongli o`qishga o`rgatish.
24.Bolalarning saod o`rgatish jarayoniga tayyorgarligini o`rganish.
25.Savod o`rgatish darslarida mantiqiy mashqlarni tashkil etish.
26.Savod o`rgatish mashqlarini tashkil etish.
27.Savod o`rgatish davrida o`qish va yozuv faoliyatining bog`liqligi
28.Savod o`rgatish tajribalarini tadbiq etish.

**Sinfda o`qish va sinfdan tashhari o`qish metodikasidan mavzular:**
1. Sinfdan tashhari tayyorlov bosqich darslarini tashkil etish .
2. Sinfdan tashhari asosiy bosqich darslarini tashkil etish
3. Sinfdan tashhari asosiy bosqich darslarini tashkil etish.
4. Sinfdan tashhari Boshlang`ich bosqich darslarini tashkil etish
5. O`qish darslarida qaytahikoyalashturlaridan foydlanish.
6. O`qish darslarida hikoya o`tish uslubiyoti
7. O`qish darslarida ertak o`tish uslubiyoti.
8. O`qish darslarida masal o`tish uslubiyoti
9. O`qish darslarida shye'r o`tish uslubiyoti.
10. O`qish darslarida lirik shye'r o`tish uslubiyoti.
11.O`qish darslarida epik shye'r o`tish uslubiyoti.
12. O`qish darslarida ilmiy – ommabop asarlarni o`tish uslubiyoti.
13. 1 – 2 sinf o`quvchilarining o`qish malakalarini takomillashtirish
14. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ifodali o`qishga o`rgatish.
15. O`qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.
16. O`qish darslarida matn ustida ishlash.
17. O`qish darslarida savol – topshiriqlar ustida ishlash.
18. O`qish darslarida «Ajdodlarimiz - faxrimiz» mavzusini o`rganish.
19. O`qish darslarida «Xalq og`zaki ijodi» mavzusini o`rganish.
20. O`qish darslarida «Nima yaxshi-yu, nima yomon» mavzusini o`rganish.
21. O`qish darslarida ta'limiy vositalardan foydlanish.
22. Sinfdan tashhari o`qish darslarida Sh.Sa'dulla ijodini o`rganish.

23. Sinfdan tashhari o`qish darslarida Q.Hikmat ijodini o`rganish.
24. Sinfdan tashhari o`qish darslarida A.Obidjon ijodini o`rganish.
25. Sinfdan tashhari o`qish darslarida P.Mo`min ijodini o`rganish.
26. Sinfdan tashhari o`qish darslarida K.Muhammadiy ijodini o`rganish.
27. Sinfdan tashhari o`qish darslarida R.Tolib ijodini o`rganish.
28. Sinfdan tashhari o`qish darslarida T.Adashboyev ijodini o`rganish.
29. Sinfdan tashhari o`qish darslarida A.Abdurazzoq ijodini o`rganish.
30. Sinfdan tashhari o`qish darslarida qardosh xalq yozuvchilari ijodini o`rganish.
31. Sinfdan tashhari o`qish darslarida xorijiy xalq bolalar yozuvchilari ijodini o`rganish.
32. Umumlashtiruvchi o`qish darslarini tashkil etish.
33. O`qish darslarida ko`rgazmali vositalardan foydalanish.
34. O`qish darslarida o`quvchilar nutqini o`stirish.
35. O`qish darslarida badiiy til vositalari ustida ishlash.
36. O`qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.
37. O`qish darslarida maqollarni o`rganish uslubiyoti.
38. O`qish darslarida topishmoqlarni o`rganish uslubiyoti.
39. O`qish darslarida shye'riy asarlarni o`rganish uslubiyoti.
40. O`qish darslarida ongli o`qishni ta'minlash usullari.
41. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini to`g`ri o`qishga o`rgatish.
42. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining o`qish sur'atini oshirish.
43. O`qish darslarida «Kumush qish» mavzusini o`rganish.
44. O`qish darslarida «Zumrad bahor» mavzusini o`rganish.
45. O`qish darslarida «Oltin kuz» mavzusini o`rganish.
46. O`qish darslarida «Oltin kuz – xosiling yuz» mavzusini o`rganish
47. O`qish darslarida «Tabiatni syeving va asrang» mavzusini o`rganish
48. O`qish darslarida «Go`zal fazilat – inson qusni» mavzusini o`rganish
49. O`qish darslarida «9-may Xotira va qadrlash kuni» mavzusini o`rganish.
50. O`qish darslarida «Bahor manzarasi va myehnat» mavzusini o`rganish

**Grammatika, imlo va nutq o`stirishdan mavzular:**

1. Boshlang`ich sinflarda «So`z tarkibi» mavzusini o`rgatish metodikasi.
2. Boshlang`ich sinflarda «Ot» mavzusini o`rgatish metodikasi.
3. Boshlang`ich sinflarda «Sifat» mavzusini o`rgatish metodikasi.
4. Boshlang`ich sinflarda «Gap» mavzusini o`rgatish metodikasi.
5. Boshlang`ich sinflarda tinish byelgilarini o`rgatish metodikasi.
6. Boshlang`ich sinflarda grammatik razborni o`tkazish metodikasi.
7. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini yozilishi qiyin so`zlarni yozishga o`rgatish.
8. Boshlang`ich sinf grammatika, imlo va nutq o`stirish darslarida ko`rgazmali qurollardan foydalanish.
9. Boshlang`ich sinflarda bayon yozishga o`rgatish.
10. Boshlang`ich sinflarda insho yozishga o`rgatish.
11. Boshlang`ich sinflarda rasmga qarab insho yozish yo`llari.
12. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yozma ishlarida yo`l qo`yadigan xatolari ustida ishlash.

13. Boshlang`ich sinf ona tili darslarida tyexnika vositalaridan foydalanish.
14. Grammatika va imlo o`rgatish jarayonida muammoli ta'lim elyemyentlaridan foydalanish.
15. Boshlang`ich sinf grammatika va imlo darslarida qiziqarli o`yinlardan foydalanish.
16. Oz komplyektli maktab Boshlang`ich sinflarida ona tilidan o`quvchilarning mustaqil ishlarini uyushtirish.
17. Boshlang`ich sinflarda ona tilidan o`quvchilarning mustaqil ishlari.
18. 2 – sinfda jarangli va jarangsiz undoshlarni o`rganish uslubiyoti.
19. Ona tili darslarida tinish byelgilarga doir bilimlarni shakllantirish.
20. Unli tovushlarni o`rganish jarayonida o`quvchilarda imloviy savodxonlikni shakllantirish.
21. Boshlang`ich sinf ona tili darslarida «Gapning bosh bo`laklari» mavzusini o`rganish.
22. Ona tili darslarida «Gap va uning turlari» mavzusini o`rganish.
23. Ona tili darslarida o`quvchilar nutqini o`stirish.
24. Boshlang`ich sinflarda imloviy syezgirlikni o`stirish.
25. 1 – 2 sinfda «Ot» turkumini o`rganish.
26. Boshlang`ich sinflarda «Sifat» so`z turkumini o`rganish.
27. Ona tili darslarida noan'anaviy usullardan foydalanish.
28. 1 – 2 sinfda «Fye'l» turkumini o`rganish.
29. Ona tili darslarida didaktik matyeriallardan foydalanish.
30. Ona tilidan dars tiplari va ularga qo`yiladigan talablar.
31. Sifat so`z turkumini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish.
32. Ot so`z turkumini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish.
33. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.
34. Boshlang`ich sinflarda ta'limiy diktant va uni tashkil etish.
35. Boshlang`ich sinflarda tyekshiruv diktanti va uni tashkil etish.
36. 4 – sinfda otlarning kyelishik qo`shimchalari bilan turlanishi mavzusini o`rganish.
37. 4 – sinfda otlarning egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi mavzusini o`rganish.
38. 3 – sinfda «So`z tarkibi» mavzusini o`rganish.
39. 4 – sinfda «Fye'llarning shaxs – son qo`shimchalari bilan tuslanishi» mavzusini o`rganish.
40. 4 – sinfda «Fye'l zamonlari» mavzusini o`rganish.
41. Boshlang`ich sinfda kishilik olmoshlarini o`rganish uslubiyoti.
42. Boshlang`ich sinfda son turkumini o`rganish uslubiyoti.
43. 4 – sinfda uyushiq bo`laklarni o`rganish uslubiyoti.
44. 4 – sinfda undalmali gaplarni o`rganish uslubiyoti.
45. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini bayon yozishga o`rgatish. (2 – 4 sinflar)
46. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini insho yozishga o`rgatish(3-4 sinflar).
47. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ona tilidan bilimini tyekshirish usullari.
48. Boshlang`ich sinf ona tili darslariga qo`yiladigan talablar.
49. Boshlang`ich sinfda «2 – darajali bo`laklar» mavzusini o`rganish.

**Pedagogik amaliyotni tashkil etishning shakli va mazmuni**

1. Dasturda ko`rsatilgan bo`limlar bo`yicha taqvim ryeja tuzish va u asosida darslar o`tish.
2. Boshlang`ich sinflarda ona tili darslarini kuzatish va tahlil qilish.
3. Boshlang`ich sinflarda ona tilidan sinfdan tashhari ishlarni tuzish va ularni o`tkazish.
4. Har bir darsga mos ko`rgazmalar tayyorlay olish va darsda ulardan unumli foydalanish.

## Dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti

Ona tili o`qitish metodikasini o`qitish jarayonida zamonaviy pyedagogik tyexnologiyalarni, axborot kommunikativ tyexnologiyalarni qo`llash nazarda tutiladi.

Savod o`rgatish metodikasini o`quvchida kompyutyer tyexnologiyalaridan, elyektron darsliklardan , kyesma harf va kyesma bo`g`inlardan foydalaniladi.

Sinfda o`qish va sinfdan tashhari o`qish metodikasini o`quvchida axborot tyexnologiyalaridan, kichik guruhlarda ishlash, blits tyexnologiyasi, zig-zag usuli, aqliy hujum, T tizimidan, guruhli fikrlash, izlanish, mustaqil ish, bahs-munozara usullaridan foydalaniladi.

Grammatika va imlo metodikasini o`quvchida muammoli o`qitish, aqliy hujum, Vyen diagrammasi, blits tyexnologiyasi, izlanish, mustaqil ish, so`zsiz jadvallardan, sayohat darsi, axborot tyexnologiyasi va boshqa ta'limiy vositalardan foydalaniladi.

O`quvchilarning bog`lanishli nutqini o`stirish metodikasini o`quvchida axborot tyexnologiyalaridan, kichik guruhlarda ishlash, blits tyexnologiyasi, zig-zag usuli, aqliy hujum, T tizimidan, guruhli fikrlash, izlanish, mustaqil ish, bahs-munozara usullaridan foydalaniladi.

## Foydalaniladigan asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar, elektron ta’lim resurslari hamda qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati

### Asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar.

1. Qosimova K., Matjonov S., G’ulomova X., Yo’ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.

### Qo`shimcha adabiyotlar

1. I.A.Karimov . “O`zbyekiston buyuk kyelajak sari”. T., O`zbyekiston, 1998 yil.
2. I.A.Karimov . “Barkamol avlod-O`zbyekiston taraqqiyotining poydyevori”. T., Sharq. 1999 yil.
3. Ta'lim taraqqiyoti. (Umumiy o`rta ta'lim davlat ta'lim standarti. Boshlang`ich ta'lim. Ona tili dasturi.) T., Sharq 1999 yil.
4. Boshlang`ich ta'lim bo`yicha yangi taxrirdagi Davlat ta'lim standarti. T., “Boshlang`ich ta'lim”, 2005 yil. 5- soni.
5. O`zbyekiston Ryespublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod-O`zbyekiston taraqqiyotining poydyevori”. T., 1998 yil.

6. O`zbyek maktablarida ona tili ta'limi Konsyepsiya G`G`Til va adabiyotG`G` ta'limi jurnali, 1994 yil 1-2-son.
7. Abdullayeva Q. va boshqalar. “O`qish kitobi” 2-sinf “O`qituvchi ” 2004 yil.
8.. Saparova R. va boshqalar. «Alifbye», T., «Ma'naviyat», 2005 yil.
9.Abdullayeva q. va boshqalar. Savod o`rgatishdarslari. T., “O`qituvchi ”, 1996 yil.
10. Abdullayeva K. Diktantlar to`plami. To`rt yillik Boshlang`ich maktablar uchun. T., “O`qituvchi ”, 1997-yil.
11. Boshlang`ich sinflarning darsliklari. Sharafiddinov O., Abdullayeva K. va boshqalar. “Alifbye” (“Shodlik”); “Ona tili” (“Gulshan”). T. “O`qituvchi ”, 1999-yil
12.Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o`stirishdan tarqatma matyeriallar. T., “O`qituvchi ”, 1993-yil.
13. Maqulova B. va boshqalar. Sinfdan tashhari o`qishmashg`ulotlari. T., “O`qituvchi ”, 1996-yil.
14. Umarova M., Xudoybyerganov M. Bayonlar to`plami. T. “O`qituvchi ”, 1992.
15. www/pedagog/uz
16. w.w.w.ziyo.net

## 1.1.4. Moddiy – texnik va ukuv – metodik ta’minotga kuyiladigan talablar.

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

Ro’yxatga olindi

___________________

____________________

«__» _________20 __ yil

Tasdiqlandi
O’zR OO’MTV

«__» ________20__ yil

**Kadrlar tayyorlash yo’nalishlari bo’yicha o’quv jarayonining o’quv-uslubiy, moddiy-texnik ta’minotiga qo’yiladigan TALABLAR**

**A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti “Pedagogika” fakulteti**

**5141600 – Boshlang’ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish yo’nalishi**

**Samarqand– 2013**

## 1.1.5. MALAKAVIY AMALIYOT DASTURI

«Tasdiqlayman»
Pedagogika fakulteti dekani
____________ dots.T.Qurbonov
«_____» ________2013 yil

«Tasdiqlayman»
Institut o'quv ishlari
bo'yicha prorektor
_______ prof.N.Eshqobilov
«______» __________2013 yil

A.Navoiy nomidagi SamDU pedagogika fakulteti

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi”
kafedrasi o'qituvchilarining
pedagogik amaliyot jarayonida olib
boradigan ishlari

R E J A S I

Samarqand-2013

«BTN va A» kafedrasi o'qituvchilarining institutdagi pedagogik amaliyot jarayonida talabalar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy ishlari yuzasidan tuzgan ish

R E J A S I

| № | Ish mazmuni | Vaqti | Ma’sul shaxs |
|---|---|---|---|
| 1 | Biriktirilgan talabalar bilan fakultetda o’tkaziladigan ilg’or o’qituvchilar ishtirokidagi pedagogik amaliyotga bag’ishlangan dastlabki anjumanga qatnashish, talabalarni maktablarga taqsimlash. | Ped.amaliyot davrida | |
| 2 | Biriktirilgan amaliyotchi talabalar bilan maktabda uchrashish va ularni maktab ma’muriyati, o’quv xonalari, o’quv-tarbiyaviy ishlar jarayoni, uni tashkil etish hamda maktab tarbiyaviy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari bilan suhbat. | Ped.amaliyot davrida | |
| 3 | Dastlabki xaftada maktabdagi ilg’or o’qituvchilar darslarida qatnashish, ularning darslarini kuzatish, ulardan o’rganish va kuzatilgan darslarini tahlil qilish. | Ped.amaliyot davrida | |
| 4 | Amaliyotchi talabalarni o’z mutahassisligi bo’yicha dars o’tish va muayyan bir sinfga rahbarlik qilish maqsadida ularni sinflarga taqsimlash. | Ped.amaliyot davrida | |
| 5 | Talabalarga o’z mutaxassisligi bo’yicha kalendar ish rejasi tuzish va sinf rahbari sifatida tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish bo’yicha uslubiy yordam berish. | Ped.amaliyot davrida | |
| 6 | Talabalarning o’z fanlari bo’yicha va sinf rahbari sifatida o’tkazadigan tarbiyaviy soatlari yuzasidan sinov darslarining jadvalini tuzish hamda mavzularini aniqlash. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 7 | Dars o’tish va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo’yicha har bir talabaga individual uslubiy yordam ko’rsatish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 8 | Talabalar tomonidan kuzatilgan tarbiyaviy tadbirlarni tahlil qilish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 9 | Talabalarning darsga tayyorgarligi, ya’ni o’tadigan darsiga reja matn tuzish bo’yicha uslubiy yordam berish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 10 | Darsda va darsdan tashqarii ishlar jarayonida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo’yicha uslubiy yordam berish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 11 | Seminar, bahs, munozara darslarini tashkil etish bo’yicha uslubiy yordam berish. | | |
| 12 | Talabalar o’tgan darslari bo’yicha ularga qo’yilgan baholar hamda ularning darsda erishgan yutuqlari va yo’l qo’yilgan kamchiliklarini tahlil qilish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 13 | Har bir talabaning pedagogik amaliyot jarayonidagi faoliyatini tahlil etish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 14 | Pedagogik amaliyot davomida talabalarning | Ped.amaliyot | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | rasmiylashtirilgan hujjatlarini nazorat qilish va uslubiy yordam berish. | Davrida | |
| 15 | Amaliyotchi talabalarning sinf o'qituvchilari ota-onalar maktab ma'muriyati bilan o'tkazgan muloqotlarini tahlil qilish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 16 | Har bir talabaga o'ziga biriktirilgan sinfdagi ikki o'quvchi yoki butun sinf jamoasiga pedagogik psixologik xarakteristika yozishni o'rgatish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 17 | Ularning o'z sinflari uchun tuzgan tarbiyaviy ish rejalarini va ularning bajarilish holatini tekshirish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 18 | Talabalar tomonidan o'tkazilayotgan tarbiyaviy soatlarda va tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish, tahlil qilish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 19 | Talabalar sinov darslarini o'tkazilishini nazorat qilish va sinov darsida qatnashish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 20 | Har bir talaba bilan sinov darslarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha maslahatlar berish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 21 | Sinov darslari bo'yicha talabalar bilan fikr almashish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 22 | Talabalarning sinf rahbari sifatida o'quvchilarning ota-onalari bilan o'tkazgan muloqotlarini va ularning rasmiylashtirilgan xujjatlarini nazorat qilish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 23 | Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va ularning amaliyot davomida to'plagan tajribalarini umumlashtirish va rag'batlantirish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 24 | Sinov darslari asosida talabalarning nazariy-amaliy va metodik tayyorgarliklarini tahlil qilish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 25 | Pedagogik amaliyot jarayonida noan'anaviy darslarni o'tkazish bo'yicha maslahatlar berish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 26 | Dars rejasi va konspekt asosida ko'rgazmali qurollar tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 27 | Maktabda o'tkaziladigan bayram tadbirlarida qatnashish va talabalarning fikr mulohazalarini tahlil qilish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 28 | Pedagogik amaliyot jarayonida Fan to'garaklari, ularning yillik ish rejalari va ularning bajarilishi. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 29 | Talabalarning maktab o'quvchilari bilan ekskursiya darslarini tashkil etish. | Ped.amaliyot Davrida | |
| 30 | Amaliyotchi talabalarning pedagogik amaliyot | Ped.amaliyot | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | jarayonida bajargan ishlarining yakuni. Shu yuzasidan hisobot tayyorlash. | Davrida | |

Baxo me'yori: Jami-100 ball.

1. Mutaxassis bali: 80 %  5-
   4-
   3-
2. Pedagogika kafedrasi:15 %  5 (12,9-15,0)
   4 (10,6-12,8)
   3 (8,4-10,5)

3. Psixologiya kafedrasi: 5 %  5 (4,3-5,0)
   4 (3,5-4,2)
   3 (2,8-3,4)

**Kafedra mudiri:  dots. F.Shodiyev**

## 1.2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi grifini olgan o'quv adabiyotlari

### 1.2.1. Darslik

**Karima Kosimova, Safo Matchonov, Xolida Gulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharof Sariyev**

# ONA TILI O'QITISh METODIKASI

Toshkent – 2007

Karima Kosimova, Safo Matchonov, Xolida Gulomova,
Sharofat Yo'ldosheva, Sharof Sariyev

# ONA TILI O'QITISh METODIKASI
## Boshlangich ta'lim metodikasi fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent – 2007

**Foydalanish uchun adabiyotlar**


1.Karimov I.A. Barkamol avlod Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. T.: 1998.

2. Karimov I.A.Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.

3. Uzbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Konuni. T.: 1997

4. Uzbekiston Respublikasining Milliy dasturi.T.: 1998.

5. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son .

6. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son

7. Abdullayeva K. Nazarov K. Yo'ldosheva Sh. Savod urgatish darslari . T.: Ukituvchi .1996 .

8. Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdiyeva G. Alifbe .( Savod .) " T .: "Ukituvchi "1999 yil

9. Safarova R . va boshkalar "Alifbe " T ., 2006 .

10. Gulomov M. Yozuv daftari. T., Ma'naviyat. 2006

11. Safarova R. Va b. Savod o'rgatish. T.: Ma'naviyat. 2003.

12. Gafforova T. Gulomova X. Eshturdiyeva G. 1- sinfda savod o'rgatish. T.: Sharq. 1996.

13 Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdiyeva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T .: Ukituvchi .1999.

14 Abdullayeva K. va boshkalar . Ona tili . T.: Ukituvchi .1999.

15 Gapparova T., Shodmonov E., Gulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun. T .:Sharq. 2005.

16 Gulomova X. Gafforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: Sharq. 2003.

17 . Kosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.: Cho'lpon. 2005.

18 Kosimova K. Ne'matova A. 2- sinfda ona tili darslari T.: Cho'lpon. 2004.

19 Fuzailov S. , Xudoberganova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: Ukituvchi .2005.

20. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.: Ukituvchi .2005.

21. Ikromova R. Gulomova X. Yo'ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona tili . 4- sinf uchun T.: Ukituvchi . 2007

22. Gulomova X. Yo'ldosheva Sh.Shermatova U. 4- sinfda ona tili darslari. T.: Ukituvchi . 2003

23. Gaffarova T. va boshkalar . Ukish kitobi . 1-sinf uchun. T. : 2006

24. Gaffarova T. va boshkalar. 1-sinfda ukish darslari . T. : 2003 .

25. Abdullayeva K. va boshkalar. Ukish ktobi . 2- sinf uchun. T.: 2006.

26. Abdullayeva K. va boshkalar. 2- sinfda ukish darslari , T.: 2004

27. Umarova M. , Xakimova Sh. Ukish kitobi . 3- sinf uchun, T.: 2006 .

28. Umarova M . 3- sinfga ukish darslari , T.: Uqituvchi. 2004 .

29. Matchonov S. Shojalilov A. Gulomova X. Sariyev Sh. Ukish kitobi . 4- sinf uchun. T.: 2007.

30. .Matchonov S. va boshkalar 4- sinfga ukish darlari , T., 2007.

24. Xudoberganova M. “ Bayonlar tuplami ” Toshkent 1995
25. Rojdestvenskiy N.S. Kustareva V.A. Metodika nachalnogo obucheniya russkomu yazыku. Prosvehyeniye. M.: 1965.
26.Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnalogiyalarning tadbikiy asoslari. T.: Fan.. 2006.
27. Yuldoshev J.. G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari ., T.: Ukituvchi. 2004.
28. Umumiy psixologiya. T.: Uqituvchi. T.: Uqituvchi. 1999.
29. Uquvchi ma’naviyatini shakllantirish. T.: Sharq. 2000.
30. Kudryashov N.I. Vzaimosvyaz metodov obucheniya na urokoax literaturы. M.: Prosvesheniye. 1981.

**Qo`shimcha adabiyotlar**

2. 1. Abdullayeva K. Diktantlar to`plami. To`rt yillik Boshlang`ich maktablar uchun. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1997.
3. Abdullayeva K. va boshqalar. Savod o`rgatish darslari. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1996.
4. Abdullayeva q. va b. O`qish kitobi. 2- sinf. - Toshkyent:, Ijod dunyosi, 2007.
5. Abdullayeva q. va b. 2- sinfda o`qish darslari. - Toshkyent:, Ijod dunyosi, 2004.
6. Alifbye («Shodlik»); Ona tili («Gulshan»). - Toshkyent:, O`qituvchi, 1999.
7. Boshlang`ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang`ich ta'lim. 5-son, 2005.
8. Boshlang`ich ta'lim takomillashtirilgan O`quv dasturi, Boshlang`ich ta'lim, 2005, 5-son
9. Gapparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. Alifbye darslik. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1999.
10. G`afforova T. va b. Ona tili . 1- sinf uchun. - Toshkyent:, Sharq, 2007.
11. G`afforova T. va b. O`qish kitobi. 1- sinf. - Toshkyent:, Sharq, 2007.
12. G`afforova T. va b. 1-sinfda o`qish darslari. - Toshkyent:, Sharq, 2003.
13. G`ulomov M. Yozuv daftari, - Toshkyent:, Ma'naviyat, 2007.
14. G`ulomova X. va b. 4- sinfda ona tili darslari. - Toshkyent:, O`qituvchi, 2003.
15. G`ulomova X, Gapporova T, 1-sinfda ona tili darslari, - Toshkyent:, Sharq, 2003.
16. Zunnunov A. Badiiy asar tahlili metodikasi. - Toshkyent:, O`qituvchi. 1989.
17. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o`stirishdan tarqatma matyeriallar. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1993.
18. Ikromova R. va boshqalar. Ona tili, 4-sinf uchun. - Toshkyent:, O`qituvchi, 2007.
19. qosimova K., Fuzailov S., Nye'matova A. Ona tili, 2-sinf uchun. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1997.
20. qosimova K. va b. 2- sinfda ona tili darslari. - Toshkyent:, Cho`lpon, 2004.
21. Maqulova B., Sa'diyeva S. Birinchi sinflarda sinfdan tashqari o`qish metodikasi.- Toshkyent.:, O`qituvchi 1999.

22.Maqulova B., Abduvaitov A. Kitobim-oftobim 3-sinf uchun, - Toshkyent:, O`qituvchi 2001 .
23.Maqulova B., Matchonoov S. Kitobim –oftobim , - Toshkyent:, O`qituvchi, 2001.
24.Maqulova B. va b. Kitobim oftobim. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1996.
25.Matchon S. Kitob o`qishni bilasizmi. - Toshkyent:, O`qituvchi. 1993.
26.Matchonov S., Vohidova N., Odamboyeva U. 4-sinfda o`qish darslari, - Toshkyent:, O`qituvchi, 2004.
27.Matchonov S. va b. O`qish kitobi. 4- sinf. - Toshkyent:, Yangiyo`l poligraf syervis, 2007.
28.Matchonov S. va b. 4- sinfda o`qish darslari. - Toshkyent:, Yangiyo`l poligraf syervis, 2007.
29. Ma'qulova B. va boshqalar. Sinfdan tashqari o`qish mashG`ulotlari. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1996.
30.Mirqosimova M. Badiiy tahlil usullari. - Toshkyent:, RO`MM, 1993.
31.Safarovam va boshkalar. Alifbye, - Toshkyent:, Ma'naviyat, 2007.
32.Umarova M ..va b. O`qish kitobi. 3- sinf. - Toshkyent:, O`qituvchi, 2007.
33.Umarova M. 3- sinfda o`qish darslari. - Toshkyent:, O`qituvchi, 2004.
34.Umarova M., Xudoybyerganov M. Bayonlar to`plami. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1992.
35.O`zbyek tilining izohli luG`ati. 1-2-3-qism. T.2007.
36.Fuzailov S., Xudoybyerganova M. Ona tili, 3-sinf uchun. - Toshkyent:, O`qituvchi, 1999.
37.Hojimatov N. Adabiyot darslarida luG`at ustida ishlash. G`G` Til va adabiyoti ta'limi. 1998. №3
38.Xudoybyerganova M. va b. 3- sinfda ona tili darslari. - Toshkyent:, O`qituvchi, 2004.
39.Sharafiddinov O., Abdullayeva K. va b.Boshlang`ich sinflarning darsliklari.

**“Ona tili” fani bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar ro`yxati.**

1. G`ulomova X., Yuldoshyeva Sh. Kurs ishlari yuzasidan metodik tavsiyalar. TDPU, 2007.
2. G`ulomova X., Yo`ldoshyeva Sh. Malakaviy pyedagogik amaliyotni tashkil etish yuzasidan ko`rsatmalar. TDPU, 2007.
3. G`ulomova X., Yo`ldoshyeva Sh. Mustaqil ishlar yuzasidan ko`rsatmalar. TDPU, 2007.
4. G`ulomova X., Yo`ldoshyeva Sh. Amaliy mashG`ulotlar o`tkazish bo`yicha metodik ko`rsatmalar. TDPU, 2007.
5. G`ulomova X., Yo`ldoshyeva Sh. Syeminar mashG`ulotlarini o`tkazish bo`yicha metodik ko`rsatmalar. TDPU, 2007.

**“Ona tili” fani bo`yicha internet manbalari**

1. www.pedagog.uz
2. www.ZiyoNET.uz
3.www.edu.uz

**2.1.3.Kalendar –tematik reja**

| **MA’RUZA MASHG’ULOTLARI (2-kurs)** | | | |
|---|---|---|---|
| **I YARIM YILLIK** | | | |
| № | **Mavzuning nomi** | **Ma’ruza** | **Foydalanilgan adabiyotlar** |
| 1 | Grammatika haqida umumiy ma’lumot. | **2** | 1.71-72<br>5.55-66<br>8.70-76<br>11.206-210 |
| 2 | Morfologiya qismi haqida umumiy tushincha. | **2** | 1.73-74<br>8.79-81<br>11.206-215 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | 13.45-48 |
| 3 | Otlarning grammatik xususiyatlari hamda vazifaviy shakillari | **2** | 1.74-90<br>8.81-100<br>11.220-251 |
| 4 | Sifat va uning grammatik, morfolik xususiyatlari hamda sintaktik vazifalari | **2** | 1.96-99<br>8.100-107<br>11.251-256 |
| 5 | Son va olmosh so'z turkumlari | **2** | 8.100-107<br>11.251-256 |
| | **Jami** | **10 soat** | |

| **II YARIM YILLIK** | | | |
|---|---|---|---|
| **№** | **Mavzuning nomi** | **Ma'ruza** | **Foydalanilgan adabiyotlar** |
| 1 | Fe'l – so'z turkumi. | 2 | 1.117-141<br>6.70-89<br>8.118-139<br>11.325-372 |
| 2 | Fe'l nisbatlari, mayllari, zamonlari va ularning turlari. | 4 | 1.117-141<br>6.70-89<br>8.118-139<br>11.225-372 |
| 3 | Ravish – so'z turkumi | 2 | 1.117-147<br>6.89-94<br>13.85-86 |
| 4 | Yordamchi – so'z turkumlari | 2 | 1.19-151<br>6.95-95<br>8.146-148<br>11.405-406 |
| 5 | Alohida xususiyatga ega bo'lgan so'z turkumlari. | 2 | 1.155-156<br>6.99-101<br>8.149-151<br>11.432-438 |
| | **Jami** | **10 soat** | |

| **AMALIY MASHG'ULOTLARI (2-kurs)** | | | |
|---|---|---|---|
| **I YARIM YILLIK** | | | |
| **№** | **Mavzuning nomi** | **amaliy** | **Foydalanilgan adabiyotlar** |
| 1 | Grammatika haqida ma'lumot. So'zning sintetik, analitik va takroriy shakllariga oid mashqlar ishlash | 2 | 1.71-72<br>5.55-66<br>8.70-76<br>badiiy asarlardan |
| 2 | Morfologiya haqida ma'lumot. So'zning morfologik tuzilishi. O'zbek tilida so'z turkumlari va ularni o'rgatish | 2 | 1.73-74<br>8.79-81<br>11.206-215 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | tamoyilllariga doir mashqlar bajarish | | badiiy asarlardan |
| 3 | Ot, otlarning grammatik ma’nosi, morfologik belgilari, sintaktik vazifalari yuzasidan mashqlar bajarish | 2 | 1.74-90<br>8.81-100<br>badiiy asarlardan |
| 4 | Sifat, uning morfologik xususiyati, sintaktik vazifalariga doir mashqlar bilan ishlash | 2 | 8.100-107<br>11.251-256 |
| 5 | Sonning grammatik ma’nosi, morfologik va sintaktik vazifalari bo‘yicha mashqlar bajarish. Olmoshlarning grammatik ma’nosi | 2 | 1.104-107<br>8.109-112<br>11.257-258<br>badiiy asarlardan |
| | **Jami** | **10 soat** | |

| **AMALIY MASHG’ULOTLARI (2-kurs)** | | | |
|---|---|---|---|
| **II YARIM YILLIK** | | | |
| № | **Mavzuning nomi** | **amaliy** | **Foydalanilgan adabiyotlar** |
| 1 | Fe’l, fe’lning grammatik xususiyatlari va<br>bo’lishli va bo’lishsiz fe’llarga oid mashqlar bajarish, tahlil qilish | 2 | 1.117-141<br>6.70-89<br>8.118-139<br>badiiy asarlardan |
| 2 | Fe’l nisbatlari. Fe’l mayllari va ularning o’ziga xos xusustyalari. Fe’l zamonlari va ularning turlari. Fe’lning tuslanishiga oid mashqlarni ishlash | 4 | 1.117-141<br>6.70-89<br>8.118-139<br>badiiy asarlardan |
| 3 | Fe’llarning yasalishi va tuzilishi yuzasidan mashqlar ishlash va tahlil qilish | 2 | 8.118-139<br>11.225-372<br>badiiy asarlardan |
| 4 | Fe’lning vazifadosh shakllari.<br>Ravishdosh sifatdosh, harakat nomiga doir mashqlar ishlash | 2 | 1.117-141<br>6.70-89<br>badiiy asarlardan |
| 5 | Ravish, ravishdoshning grammatik ma’nosi, morfologik belgilari va vazifalari. Ravishning yasalishi, ravishlarning tuzilish jihatdan turlariga oid mashqlar ishlash | 2 | 1.117-147<br>6.89-94<br>13.85-86<br>badiiy asarlardan |
| 6 | Ko’makchi, bog’lovchi, yuklama yuzasidan mashqlar bajarish | 4 | 1.19-151<br>6.95-95<br>8.146-148<br>badiiy asarlardan |
| 7 | Modal so’zlar, undov so’zlar, taqlid so’zlarga oid mashqlar ishlash | 4 | 1.155-156<br>6.99-101<br>8.149-151<br>badiiy asarlardan |
| | **Jami** | **20 soat** | |

Tuzuvchilar: o’qit. M. Hazratqulov

o’qit.S.Rahmonov

**Kafedra mudiri:** **dots. F. Shodiyev**

“TASDIQLAYMAN»
FAKULTET DEKANI
____________-
«___»________2013-y

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi S.Rahmonovning BT yo’nalishi 2 – kurs talabalariga
Ona tili fanidan 2013-2014 o’quv yili uchun

**KALENDAR ISH REJASI**

| **№** | **O’tiladigan mavzu (ma’ruza)** | **Soat** | **O’tkazi** | **Ijro** | **Izoh** |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | sh sanasi | belgisi | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Grammatika haqida umumiy ma’lumot. | 2 | | | |
| 2 | Morfologiya qismi haqida umumiy tushincha. | 2 | | | |
| 3 | Otlarning grammatik xususiyatlari hamda vazifaviy shakillari | 2 | | | |
| 4 | Sifat va uning grammatik, morfolik xususiyatlari hamda sintaktik vazifalari | 2 | | | |
| 5 | Son va olmosh so’z turkumlari | 2 | | | |
| | **Jami** | 10 | | | |

**Kafedra mudiri: dots.F.Shodiyev**

“TASDIQLAYMAN»
FAKULTET DEKANI
_____________-
«___»________2013-y

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi M.Hazratqulovning BT yo’nalishi 2 – kurs talabalariga
Ona tili fanidan 2013-2014 o’quv yili uchun

**KALENDAR ISH REJASI**

| № | O’tiladigan mavzu (ma’ruza) | Soat | O’tkazi | Ijro | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | sh sanasi | belgisi | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Grammatika haqida umumiy ma’lumot. | 2 | | | |
| 2 | Morfologiya qismi haqida umumiy tushincha. | 2 | | | |
| 3 | Otlarning grammatik xususiyatlari hamda vazifaviy shakillari | 2 | | | |
| 4 | Sifat va uning grammatik, morfolik xususiyatlari hamda sintaktik vazifalari | 2 | | | |
| 5 | Son va olmosh so’z turkumlari | 2 | | | |
| | **Jami** | 10 | | | |

**Kafedra mudiri:** **dots.F.Shodiyev**

“TASDIQLAYMAN»
FAKULTET DEKANI
____________-
«___»________2013-y

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi M.Hazratqulovning BT yo’nalishi 2 – kurs talabalariga
Ona tili fanidan 2013-2014 o’quv yili uchun

**KALENDAR ISH REJASI**

| № | O’tiladigan mavzu (ma’ruza) | Soat | O’tkazi | Ijro | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | sh sanasi | belgisi | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Fe'l – so'z turkumi. | 2 | | | |
| 2 | Fe'l nisbatlari, mayllari, zamonlari va ularning turlari. | 2 | | | |
| 3 | Ravish – so'z turkumi | 2 | | | |
| 4 | Yordamchi – so'z turkumlari | 2 | | | |
| 5 | Alohida xususiyatga ega bo'lgan so'z turkumlari. | 2 | | | |
| | **Jami** | 10 | | | |

**Kafedra mudiri:** **dots.F.Shodiyev**

"TASDIQLAYMAN»
FAKULTET DEKANI
_____________-
«___»_________2013-y

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi S.Rahmonovning BT yo'nalishi 2 – kurs talabalariga
Ona tili fanidan 2013-2014 o'quv yili uchun

**KALENDAR ISH REJASI**

| № | | Soat | O'tkazi | Ijro | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|

| | O'tiladigan mavzu (ma'ruza) | | sh sanasi | belgisi | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Fe'l – so'z turkumi. | 2 | | | |
| 2 | Fe'l nisbatlari, mayllari, zamonlari va ularning turlari. | 2 | | | |
| 3 | Ravish – so'z turkumi | 2 | | | |
| 4 | Yordamchi – so'z turkumlari | 2 | | | |
| 5 | Alohida xususiyatga ega bo'lgan so'z turkumlari. | 2 | | | |
| | **Jami** | 10 | | | |

**Kafedra mudiri: dots.F.Shodiyev**

"TASDIQLAYMAN»
FAKULTET DEKANI
____________-
«___»________2013-y

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi M.Hazratqulovning BT yo'nalishi 2 – kurs talabalariga
Ona tili fanidan 2013-2014 o'quv yili uchun

**KALENDAR ISH REJASI**

| № | O'tiladigan mavzu (amaliy) | Soat | O'tkazi | Ijro | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | sh sanasi | belgisi | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Grammatika haqida ma'lumot. So'zning sintetik, analitik va takroriy shakllariga oid mashqlar ishlash | 2 | | | |
| 2 | Morfologiya haqida ma'lumot. So'zning morfologik tuzilishi. O'zbek tilida so'z turkumlari va ularni o'rgatish tamoyilllariga doir mashqlar bajarish | 2 | | | |
| 3 | Ot, otlarning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari, sintaktik vazifalari yuzasidan mashqlar bajarish | 2 | | | |
| 4 | Sifat, uning morfologik xususiyati, sintaktik vazifalariga doir mashqlar bilan ishlash | 2 | | | |
| 5 | Sonning grammatik ma'nosi, morfologik va sintaktik vazifalari bo'yicha mashqlar bajarish. Olmoshlarning grammatik ma'nosi | 2 | | | |
| | **Jami** | 10 | | | |

**Kafedra mudiri: dots.F.Shodiyev**

"TASDIQLAYMAN»
FAKULTET DEKANI
____________-
«___»________2013-y

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi S.Rahmonovning BT yo'nalishi 2 – kurs talabalariga
Ona tili fanidan 2013-2014 o'quv yili uchun

**KALENDAR ISH REJASI**

| № | O'tiladigan mavzu (amaliy) | Soat | O'tkazish | Ijro belgisi | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | sanasi | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Fe'l, fe'lning grammatik xususiyatlari va bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga oid mashqlar bajarish, tahlil qilish | 2 | | | |
| 2 | Fe'l nisbatlari. Fe'l mayllari va ularning o'ziga xos xusustyalari. Fe'l zamonlari va ularning turlari. Fe'lning tuslanishiga oid mashqlarni ishlash | 4 | | | |
| 3 | Fe'llarning yasalishi va tuzilishi yuzasidan mashqlar ishlash va tahlil qilish | 2 | | | |
| 4 | Fe'lning vazifadosh shakllari.<br>Ravishdosh sifatdosh, harakat nomiga doir mashqlar ishlash | 2 | | | |
| 5 | Ravish, ravishdoshning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va vazifalari. Ravishning yasalishi, ravishlarning tuzilish jihatdan turlariga oid mashqlar ishlash | 2 | | | |
| | Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama yuzasidan mashqlar bajarish | 4 | | | |
| | Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlarga oid mashqlar ishlash | 4 | | | |
| | **Jami** | 10 | | | |

**Kafedra mudiri: dots.F.Shodiyev**

**2-bosqich 01, 02, 03- guruh talabalariga "Ona tili" fani bo'yicha reyting nazoratlar jadvali**

**J A D V A L I**

Ta'lim yo'nalishi: 5111700 «Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish»
Umumiy o'quv soati: 80, ma'ruza: 20, amaliy: 30, mustaqil ish: 30

3-semestr

| T/r | Ishchi dastur bo'yicha mavzular tartibi | Ma'ruza | Amaliy | Laboratoriya | Seminar | Mustaqil ish | Jami | Baholash shakli | Nazorat shakli | Ball: Maksimal ball | Ball: Saralash ball | Muddati (hafta) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | | |
| 1. | 1-5 | 10 | 10 | - | - | 15 | 35 | 1.J.B | Kundalik | 35 | | Dars jarayonida |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Qo‘shim-cha mavzular bo‘yicha referat | | | | | | | O.B. | nazorat, davomat, uy ishi Yozma | 35 | | Jadval asosida |
| | | | | | | | | JB+OB | | 70 | 39 | |
| | | | | | | | | Ya.B. | Yozma | 30 | | jadval asosida |
| | ***Jami:*** | 10 | 10 | - | - | 15 | 35 | ***JB+OB +YaB*** | | ***100*** | ***55*** | |

4-semestr

| **T/r** | **Ishchi dastur bo’yicha mavzular tartibi** | **Ma’ruza** | **Amaliy** | **Laboratoriya** | **Seminar** | **Mustaqil ish** | **Jami** | **Baholash shakli** | **Nazorat shakli** | **Ball** | | **Muddati (hafta)** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | **Maksimal ball** | **Saralash ball** | |
| | | | | | | | | | | | | |
| 1. | 6-10 Qo‘shim-cha mavzular bo‘yicha referat | 10 | 20 | - | - | 15 | 45 | 1.J.B<br>O.B. | Kundalik nazorat, davomat, uy ishi<br>Oraliq nazorat ishi | 35<br>35 | | Dars jarayonida<br>Jadval asosida |
| | | | | | | | | JB+OB | | 70 | 39 | |
| | | | | | | | | Ya.B. | Yozma | 30 | | jadval asosida |
| | ***Jami:*** | 10 | 20 | - | - | 15 | 45 | ***JB+OB +YaB*** | | ***100*** | ***55*** | |

**Tuzuvchi:** **o‘qit. M.Hazratqulov**
**o’qit.S.Rahmonov**

**Kafedra mudiri:** **dots. F.Shodiyev**

| **JNlar uchun ajratilgan maksimal ballning taqsimlanishi:** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **№** | **Baholanadigan ish turlari** | **35** | **1-JB (18)** | **2-JB (17)** |
| **1** | Darsga nazariy tayyorgarlik bilan kelish va faol ishtirok etish | 10 | 5 | 5 |
| **2** | Umumiy va yakka tartibdagi uy vazifalarini bajarish | 10 | 5 | 5 |
| **3** | Mustaqil ta’limga | 15 | 8 | 7 |
| **ONlar uchun ajratilgan maksimal balning taqsimlanishi:** | | | | |
| **№** | **Yozma ish** | **35** | **1-OB (35)** | |
| **1** | 1-nazariy savol | 14 | 14 | |
| **2** | 2-nazariy savol | 14 | 14 | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **3** | 3- savol (mustaqil ta’lim) | 7 | 7 | |
| **YaN uchun ajratilgan maksimal balning taqsimlanishi:** | | | | |
| **№** | **Yozma ish yoki og’zaki** | **YaB (30)** | | |
| **1** | 1-nazariy savol | 6 | | |
| **2** | 2-nazariy savol | 6 | | |
| **3** | 3-nazariy savol | 6 | | |
| **4** | 4-nazariy savol | 6 | | |
| **5** | 5-savol (mustaqil ta’lim) | 6 | | |

**Kafedra mudiri:** **dots. F.Shodiyev**

***Mustaqil ta'lim***.

| *№* | *Mavzuning nomi* | *Soat* | *Foydalanilgan adabiyotlar* |
|---|---|---|---|
| 1 | Badiiy asarlardan kishi va shahar nomini bildirgan otlarga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.<br>a) Atoqli otlar haqida umumiy tushuncha yozing.<br>b) Atoqli otlar qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling. | 4 | *1.3-5*<br>*6.5-10*<br>*7.4-8,11.7-8* |
| 2 | Quyidagi matnlardan aniq va mavhum otlarni belgilang.<br>a) Aniq va mavhum otlar haqida umumiy tushuncha yozing.<br>b) Aniq va mavhum otlar qatnashgan ikkita gap tuzing, morfemik tahlil qiling. | 4 | *6.5-10*<br>*7.4-8*<br>*11.8-13*<br>*7.5-9,11.8-13* |
| 3 | Odil Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar" romanidan qo'shma otlarga o'nta misol toping.<br>a)Otlarning tuzilishi haqida umumiy tushuncha yozing .<br>b) Juft otlar ishtirok etgan ikkita gap tuzing va morfimik tahlil qiling. | 4 | *6-5-10*<br>*8.5-12* |
| 4 | "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasidan sonning tuzilishi jihatidan turlariga oltita misol toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart)<br>a) Sonning tuziliushi jihatdan turlari haqida umumiy tushuncha yozing .<br>b) Sodda va qo'shma sonlar ishtirok etgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling. | 4 | *1.37-48*<br>*7.18-80*<br>*8.50-70* |
| 5 | Badiiy asarlardan sifatning tuzilishi jihatdan turlari va otlashgan sifatlarga misollar toping. (Olingan manbaning muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart .<br>a) Sifatning tuzilishi jihatdan turlari va otlashgan sifat haqida umumiy tushuncha yozing<br>b) Qo'shma sifat va otlashgan sifat qatnashgan ikkita gap tuzing . | 4 | *1.3-5*<br>*6.5-10*<br>*7.4-8,11.7-8* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6 | Badiiy asarlardan belgili qaratqich kelishigidagi so'zning qaralmish bilan birga ishtirok etgan o'nta gap topib yozing. (Olingan manba, uning muallifi, sahifasi ko'rsatilishi lozim)<br>a) Kelishik qo'shimchalari, belgili va belgisiz qaratqich kelishigi haqida umumiy tushuncha yozing.<br>b) Belgisiz qaratqich kelishigidagi so'z ishtirok etgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling . | 4 | *6.5-10*<br>*7.4-8*<br>*11.8-13*<br>*7.5-9,11.8-13* |
| 7 | Badiiy asarlardan madal, undov va taqlid so'zlarga misollar toping. (Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart)<br>A) Modal, undov va taqlid so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.<br>B) Modal, undov va taqlid so'zlari qatnashgan uchta gap tuzing va morfologik tahlil qiling. | 4 | *6-5-10*<br>*8.5-12* |
| 8 | Badiiy asarlardan o'nta so'z toping va morfemalarga ajrating. (Olingan manba va muallifi ko'rsatilishi shart)<br>a) Morfema haqida umumiy tushuncha yozing.<br>b) Badiiy asardan olingan so'zlarni morfemik tahlil qiling. | 2 | *1.37-48*<br>*7.18-80*<br>*8.50-70* |
| | ***Jami:*** | ***30*** | |

**Kafedra mudiri:** **dots.F.Shodiyev**

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi

# ONA TILI

**fanidan**

# MA`RUZALAR MATNI

5111700-Boshlang’ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish bakalavr yo’nalishi
II-kurs talabalari uchun

Tuzuvchi: o’qit.S.Rahmonov
o'qit.M.Hazratqulov.

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100 000 – ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 140 000 – o’qituvchilar tayyorlash va pedagogik fan |
| **Bakalavriat yo’nalishi:** | 5111700 – boshlang’ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish |

**Samarqand - 2013**

## Annotatsiya

Ushbu majmua 5111700- Boshlang'ich talim va tarbiyavay ish yo'nalishi 2-bosqich talabalari uchun tuzilgan. Uslubiy majmuada asosiy e'tibor fan dasturiga kiritilgan mavzularni bevosita qamrab olgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni ushbu mavzularga oid bilim va ko'nikmalarini kengroq tushuntirib berish uchun mo'ljallangan. Har bir mavzudan so'ng topshiriqlar berilgan bo'lib, bu topshiriqlarni keng va mukammal o'rganish uchun amaliy ishlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

| | |
|---|---|
| **1-Mavzu** | **Grammatika. Morfologiya qismi haqida umumiy tushincha.** |

(Ma’ruza-2soat)

**1.1Maruzani olib borish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Axborat ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1.Grammatik ma’no, grammatik forma,grammatik kategoriya.<br>2.So’zning morfologik tuzilishi.<br>3.So’z turkumlari haqida tushuncha<br>4.So’z turkumlari va ularni o’rgatish tamoyillari. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | “Ona tili”faning eng katta bo’limlaridan biri grammatika va uning morfologiya qismi haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Grammatik ma’no Grammatik shakl(forma) Grammatik kategoriya | So’zning u yoki bu turkumga mansubligini ko’rsatuvchi, shuningdek so’zning ma’lum bir grammatik shakli ifodalaydigan ma’no haqida ma’lumot . O’zbek tilida so’z shakliuning sintetik, analitik, juft va takroriy formalari haqida ma’lumot . Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq,grammatik ma’no bilan shu ma’noni ifodalaydigan forma birgalikda grammatik kategoriyani hosil qilishi haqida ma’lumot berish. |
| So’zning morfologik tuzilishi | So’zning morfologik tuzilishi so’z formasining yasalioshida qatnashadigan qismlardan iboratligi haqida ma’lumut aytish. |
| So’z turkumlari haqida tushuncha | O’zbek tioilidagi so’z turkumlari va ularning tarixda qanday turlarga bo’linganligi to’g’risida ma’lumot. |
| So’z turkumlari va ularni o’rgatish tamoyillari | O’zbek tilida so’z turkumlari qanday tamoyillarga bo’linishi haqida ma’lumot. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki savollar blis – so’rov |

**Grammatika. Morfologiya qismi haqida umumiy tushincha mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi 4 ta reja va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo'lim (50 min) | 2.1-reja bo'yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma'lumot beriladi.<br>2.3-reja bo'yicha tushincha beriladi.<br>2.4-reja bo'yicha ma'lumot aytiladi. | "Klaster" usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan blis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O'.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a s i:** Grammatika, morfologiya, so'z shakli, grammatik ma'no, grammatik kategoriya.

## Grammatika

Grammatika – tilning grammatik qurilishini o`rganuvchi tilshunoslikning bo`limi. Grammatika so`zlarning gapda o`zgarishi va ularning o`zaro birikib, so`z birikmasi, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar to`plamidir.

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so`z turkumlari va ularga xos bo`lgan shakllar haqida baxs yuritilsa, sintaksisda so`zlarning bir-biri bilan bog`lanib, gap, so`z birikmasi hosil qilishi tekshiriladi.

Ko`rinadiki, grammatika ham leksikologiya singari so`zni o`rganadi. Ammo leksikologiya leksik so`zni – leksemani o`rgansa, grammatika grammatik so`zni – so`zning shaklini, so`z shaklini tekshiradi.

## So`z shakl va grammatik ma'no

Leksik so`z yoki leksema ma'no va ifoda birligidan iborat bo`lganidek («kitob» leksemasining ma'nosi, yoki mazmun plani - «o`qish quroli» tushunchasini anglatishi, ifodasi yoki ifoda plani k, i, t, o, b tovushlaridan tashkil topishidir), grammatik so`z, yoki so`z shakl ham grammatik ma'no ham grammatik ifoda (shakl) birliogidan iboratdir. Jumladan, kitob so`zi «o`qish quroli» tushunchasidan tashqari ot, birlik son, bosh kelishik

tushunchalarini ham bildiradi. Bunda kitob so`zining «o`qish quroli» tushunchasini ifodalashi uning leksik ma’nosi sanaladi va shu so`zning otga mansubligi, birlik son va bosh kelishikda ekani uning grammatik ma’nosidir.

So`zning grammatik ma’nosi uning leksik ma’nosi bilan belgilanmaydi. Masalan, suv, havo, shamol, bulut kabi so`zlarning leksik ma’nolari turlicha, lekin grammatik ma’nolari bir xil, ya’ni bularning barchasi birlik, bosh kelishikdagi otlardir. Aksincha, birgina leksik so`z, leksema, ma’lum leksik ma’no anglatgani holda turli shakllarda qo`llanib, har xil grammatik ma’noni ifodalashi mumkin. Masalan, o`qimoq fe’lining tuslanishli shakllari turli grammatik ma’nolarni bildiradi: o`qiyapman so`z shakli hozirgi zamon davom fe’lining I shaxs birlik ma’nosini, o`qiyapsan so`z shakli hozirgi zamon davom fe’lining II shaxs birlik ma’nosini va h.k.

Demak, so`zning ma’lum turkumga mansubligini ko`rsatuvchi, so`zning ma’lum bir grammatik shaklini ifodalaydigan ma’no grammatik ma’no hisoblanadi. Ko`rinadiki, grammatik ma’no o`z xususiyatiga ko`ra ikki xil bo`ladi: 1) ma’lum bir so`z turkumi uchun umumiy bo`lgan ma’no, ya’ni kategorial grammatik ma’no; 2) xususiy grammatik ma’no so`zining kategorial grammatik ma’nosi ma’lum so`z turkumlari uchun xos bo`lgan umumiy grammatik ma’nolardir. Masalan, non, suv, uy, dala so`zlarining har biriga xos bo`lgan ma’no – leksik ma’no. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo`lgan ma’no ya’ni predmet ma’nosi grammatik ma’nodir. Ayni shu umumiy grammatik ma’no ularni bir turkumga, ya’ni ot turkumiga birlashtiradi. SHuningdek, chiroyli, dono, fozil, kamtarin so`zlari uchun umumiy bo`lgan belgi ma’nosi va o`qi, o`rgan, mehnat qil, bor, kel so`zlari uchun umumiy bo`lgan harakat ma’nosi kategorial grammatik ma’no sanaladi.

So`zning xususiy grammatik ma’nosi ma’lum bir so`z turkumi uchun mansub bo`lib, bunday ma’noga otlarga xos bo`lgan son, egalik, kelishik ma’nolari, fe’llarga xos bo`lgan nisbat, mayl, zamon, shaxs-son, bo`lishli – bo`lishsizlik kabi ma’nolar kiradi.

## Grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari.

O`zbek tilida grammatik ma’no quyidagi vosita va usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya. Bunda grammatik ma’no so`zning negiziga turli shakl yasovchi affikslarni qo`shish bilan ifodalanadi: maktablar, maktabga, oddiyroq, ishlandi va h.k.

2. Yordamchi so`zlardan foydalanish. Mustaqil ma’noli so`zlar yordamchi so`zlar orqali grammatik ma’noga ega bo`lishi mumkin: daraxt mevasi bilan ko`rkam, odam - mehnati bilan. (maqol)

3. Takrorlash. So`zlarni takrorlash ham grammatik ma’noni ifodalashga xizmat qiladi: dasta-dasta gul, xirmon-xirmon paxta kabi. Bunda dasta, xirmon so`zlarini takrorlash bilan ko`plik, mo`llik ma’nosi ifodalangan.

4. Suppletivizm. Bu - o`zaro bog`langan, ma’lum bir tizimni tashkil qilgan grammatik ma’nolarni ifodalash uchun alohida-alohida so`zdan foydalanish usuli. Masalan, o`zbek tilida bir grammatik tizimni hosil qiladigan I va II shaxs kishilik olmoshlarining birligi men va sen so`zlari orqali, ko`pligi biz va siz so`zlaori orqali ifodalanadi.

5. Urg`u. so`zining grammatik ma’nosini ifoda qilish uchun xizmat qilishi mumkin: akade’mik (ot), - akademi’k (sifat), yangi’ (sifat) – ya’ngi (ravish), terma’ (sifat) – te’rma (fe’l)ning bo`lishsiz shakli.

6. So`z tartibi. So`zlarning gapda oldinma-keyin kelish ham ba’zan grammatik ma’no ifodalashga yordam beradi. Masalan: 1. Ajoyib odamlar. 2. Odamlar ajoyib. Birinchi gapda ajoyib so`zi otdan oldin kelib sifatlovchi vazifasini, ikkinchi gapda ushbu so`z otdan keyin kelib kesim vazifasini bajargan.

7. Intonatsiya ham grammatik ma'no ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda grammatik ma'no so`zlarning gap sifatida shakllanishi bilan bog`liq. Masalan: Hamma keldi. (Darak gap) - Hamma keldi? (so`roq gap) - Hamma keldi! (undov gap).

**4-§. So`zning grammatik shakli.**

So`zning biror grammatik ma'no ifodalaydigan ko`rinishi uning grammatik shakli deyiladi. Grammatik shakl grammatik ma'noni ifodalashning eng zaruriy sharti, tilda ular biri ikkinchisiz mavjud bo`lmaydi. Masalan, otlardagi ko`plik ma'nosi –lar affiksli shakl orqali ifodalanadi: gullar; tushum kelishigi ma'nosini –ni affiksli shakl ko`rsatadi va h.k.

O`zbek tilida so`zlar bir grammatik ko`rsatkichli, ko`p grammatik ko`rsatkichli yoki grammatik ko`rsatkichsiz shaklda bo`lishi mumkin. Masalan: mamlakat – grammatik ko`rsatkichsiz so`z shakli; mamlakatlari – bir grammatik ko`rsatkichli so`z shakli; mamlakatlarida – ko`p grammatik ko`rsatkichli so`z shakl.

Hozirgi o`zbek tilida so`zlarning grammatik shakllari affikslar, yordamchi so`zlar vositasida, so`zlarni juftlash yoki takrorlash orqali hosil qilinadi. SHunga ko`ra so`zlarning quyidagi grammatik shakllari farqlanadi:

1. Sintetik shakl. Bu shakl shakl yasovchi affikslar vositasida hosil bo`ladi: kitobning, kitobni, kitobga, kitobda; o`qimoqdaman, o`qimoqdasan, o`qimoqdamiz, o`qimoqdasiz kabi.

2. Analitik shakl. Mazkur shakl yordamchi so`zlar orqali yuzaga keladi: bolalar uchun, zavq bilan, o`qib tur, o`qib ko`r kabi.

3. Juft va takroriy shakl. Ikki so`zni juftlash yoki bir so`zni takrorlash bilan ham grammatik shakl yasaladiki, bunday shakl juft va takroriy shakl deb yuritiladi: tog`-tosh, katta-kichik juft shakli umumlashtirish ma'nosini, savat-savat (non), tog`-tog` (paxta) takrorlash shakli ko`plik, mo`llik ma'nosini ifodalaydi, katta-katta, tez-tez takroriy shakl ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Demak, so`zning u yoki bu shakli maxsus vosita va usullar yordamida yuzaga keladi. Ammo o`zbek tilida so`zlarning maxsus grammatik ko`rsatkichga ega bo`lmagan shakllari ham mavjud. Masalan:

institutlar – institut Ø (birlik son);
institutda – institut Ø (bosh kelishik);
ishlama – ishla Ø (bo`lishli fe'l shakli) kabi.

So`zning shakllari tizimida ko`rsatkichga ega bo`lmagan so`zning maxsus ko`rinishi nol ko`rsatkichli (Ø ko`rsatkichli) shakl deb yuritiladi. So`zning bunday ko`rinishi so`z shakllari tizimida belgilanadi.

So`zning grammatik shakllari tizimi paradigma (yunoncha paradeima – «namuna») deyiladi.

Paradigma o`z xususiyatiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) xususiy paradigma, 2) to`liq paradigma.

Bir turkumga oid so`zning muayyan shakllari tizimi xususiy paradigmani yuzaga keltiradi. Masalan, otlardagi son paradigmasi (kitob-kitoblar), otlardagi kelishik paradigmasi (kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan) va boshqalar xususiy paradigmalar hisoblanadi.

Bir turkumga xos xususiy paradigmalar yig`indisi to`liq paradigmani hosil qiladi. Masalan, otga xos to`liq paradigma: kitob-kitoblar-kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan-kitobim-kitobing-kitobi-kitobimiz-kitobingiz...

**5-§. Grammatik kategoriya**

Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik ma’no bilan shu ma’noni ifodalovchi grammatik shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi.

Grammatik kategoriya so`zlarni, so`z shakllarni, so`z o`rinlarini, so`z qurilmalarini birlashtiradi, umumlashtiradi. SHunga ko`ra grammatik kategoriyalarning to`rt turi farqlanadi: 1) so`zning grammatik kategoriyalar; 2) so`z shakllarning grammatik kategoriyalari; 3) so`z o`rinlarining grammatik kategoriyalari; 4) so`z qurilmalarining grammatik kategoriyalari.

So`z va so`z shakllarning grammatik kategoriyalari tizimi tilning morfologiyasini tashkil etsa, so`z o`rinlari va so`z qurilmalarining grammatik kategoriyalari tizimi tilning sintaksisini tashkil etadi.

Demak, grammatik kategoriyalarni morfologik kategoriyalarga va sintaktik kategoriyalarga ajratish mumkin.

Morfologik grammatik kategoriyalarga, birinchidan, so`z turkumlarining o`zi, ya’ni ot, sifat, son, fe’l kabilar kirsa, ikkinchidan, ma’lum bir turkumga xos bo`lgan kategoriyalar, ya’ni otlarga xos bo`lgan son, egalik, kelishik kategoriyalari, fe’llarga xos bo`lgan bo`lishli-bo`lishsizlik, nisbat, mayli, zamon, shaxs-son kategoriyalari kiradi.

Sintaktik grammatik kategoriyalar deyilganda, gap, gap bo`laklari: ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabilar nazarda tutiladi.

**So`z turkumlari**

\

Nutqimizda mavjud so`zlar bir-biridan ma’no va grammatik xususiyatlari jihatidan farq qiladi. SHu jihatdan so`zlar ayrim-ayrim leksik-grammatik guruhlarga, turkumlarga ajratiladi. So`zlarning ma’no va grammatik belgilarining o`xshashligiga qarab guruhlarga bo`linishi so`z turkumlari deyiladi. So`zlarni turkumlarga ajratish uch tamoyilga tayanadi:

1) leksik-semantik tamoyil;
2) morfologik tamoyil;
3) sintaktik tamoyil.

Leksik-semantik tamoyilga ko`ra so`zlarni guruhlarga ajratishda, so`zning leksik ma’nosiga e’tibor beriladi. Masalan: tuz, non, tinchlik, daryo, tog`, osmon kabi so`zlar predmet yoki predmetlik tushunchasini (bunday so`zlar ot so`z turkumi deb nomlangan); katta ko`cha, shirin olma, tiniq osmon, ko`k ko`ylak kabi ajratilgan so`zlar predmetning belgisini (bunday so`zlar sifat deb nomlangan), beshta daftar, yuzlab odam, o`ntadan o`quvchi, ikkinchi kurs kabilarda ajratilgan so`zlar predmetning miqdorini, tartibini (bunday so`zlar son deb nomlangan); ayrim so`zlar bormoq, kelmoq, yozmoq, kulmoq, uxlamoq kabi harakat va holat tushunchasini (bunday so`zlar fe’l deb nomlangan); asta o`qidi, do`stona gapirdi, piyoda yurdi kabi ajratilgan so`zlar esa ish-harakatning belgisini (bunday so`zlar ravish deb nomlangan) bildiradi.

CHunonchi, ayrim so`zlar predmet, belgi, miqdor ma’nosini nomlab ko`rsatmasa ham, ularning mavjudligiga ishora qiladi: men, sen, bu, shu, qancha, har kim, qandaydir kabi (bunday so`zlar olmosh deb nomlangan).

Tilda shunday so`zlar ham (bilan, va, ammo, uchun, chunki, albatta, yo`q, -mi, -chi, eh, oh, dupur-dupur, yalt-yult kabi) borki, ular mustaqil holda leksik ma’no ifoda etmaydi, biror tushunchaning atamasi bo`la olmaydi. Bunday so`zlar hozirgi o`zbek tilida ko`makchi, bog`lovchi, yuklama, modal, undov, taqlid so`zlar deb yuritiladi.

Morfologik tamoyilga ko`ra so`zlarni guruhlarga ajratishda ularning morfologik xususiyatlari asos qilib olinadi. So`zlarning qanday morfologik shaklda kelishi uning ma’no xususiyati bilan bog`liq. Masalan: predmet tushunchasini anglatadigan so`zlar (otlar) son, egalik, kelishik kabi grammatik shakllarga; predmetning, ish-harakatning belgisini bildiradigan so`zlar (sifat va ravishlar) daraja shakliga; harakat yoki holat ma’nosini bildirgan so`zlar (fe’l) nisbat, zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik shakllarga ega.

Predmet yoki shaxsga ishora qiluvchi so`zlar (olmosh) ham morfologik jihatdan o`zgarib, son, egalik, kelishik shaklida kela oladi.

Predmetning miqdori va tartibini anglatuvchi so`zlar (son) morfologik jihatdan o`zgarmaydi. SHuningdek, leksik ma’no anglatmaydigan so`zlar (ko`makchi, bog`lovchi, yuklama, modal so`z, undov va taqlid so`zlar) ham morfologik shakllarga ega emas.

Sintaktik tamoyilga ko`ra so`zlarni guruhlarga ajratish esa uning sintaktik tomoni, ya’ni qanday so`zlar bilan grammatik munosabatga kirishi, gapda bajaradigan sintaktik vazifasiga ko`ra belgilanadi. Masalan: predmet ma’nosini anglatuvchi so`zlar (ot) bosh kelishik shaklida ega va kesim vazifasini, qaratqich kelishigi shaklida aniqlovchi, tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigi shakllarida to`ldiruvchi va hol vazifalarida keladi: dars boshlandi, odamning ko`rki, xatni yozdi, universitetda o`qiydi kabi.

Belgi bildiradigan so`zlar (sifat, son, ravish) predmet yoki harakat ifodalovchi so`zlar bilan grammatik munosabatga kirishib, gapda aniqlovchi yoki hol vazifalarida keladi (to`g`ri so`z, o`z, beshta bola, ko`p kitob, yaxshi o`qiydi, birinchi keldi kabi).

Predmet, belgi, miqdorning mavjudligiga ishora qiluvchi, ular o`rnida almashinib qo`llanuvchi so`zlar (olmoshlar) gapda nimaga ishora qilishi va qanday so`zlar bilan birikishiga ko`ra gapda ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi (men gapirdim, maqsadim – shu, bu bino, nimani o`qiding, qaerda yashaydi kabi).

Tilda mavjud leksik ma’no ifoda etmaydigan so`zlar esa (ko`makchi, bog`lovchi, yuklama) leksik ma’no ifodalovchi so`zlar orasidagi grammatik munosabatni shakllantiradi, ga pyoki uning tarkibidagi ayrim so`zlarga qo`shimcha ma’no qo`shadi. Bunday so`zlar sintaktik vazifa bajarmaydi.

SHuningdek, leksik ma’no ifodalamay, biror hodisaning atamasi (nomi) bo`lmasa ham, leksik gap bo`lagi sifatida yoki mustaqil holda so`z-gap sifatida qo`llana oladigan so`zlar (modal, undov, taqlid so`zlar) ham mavjud (kerak, zarur, bor, oh, eh, uf, ey, gup-gup, dupur-dupur kabi).

Demak, so`zlarning gapda qanday gap bo`lagi bo`lib kelishi, uning qanday so`zlar bilan aloqaga kira olishi, ma’nosiga va grammatik shakliga bog`liqdir.

O`zbek tili lug`at tarkibidagi so`zlar leksik-semantik, morfologik va sintaktik tamoyilga tayangan holda quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) mustaqil so`zlar, 2) yordamchi so`zlar, 3) modal, undov va taqlid so`zlar.

Mustaqil holda leksik ma’no ifoda eta oladigan biror morfologik shaklda kelib, gap bo`lagi vazifasini bajaradigan so`zlarga mustaqil so`zlar deyiladi. Mustaqil so`zlarga ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish kabi so`z turkumlari kiradi.

Mustaqil holda leksik ma’no ifoda etmay, gap bo`lagi vazifasini bajarmaydigan, faqat so`zlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan yoki ularga qo`shimcha ma’no qo`shishga xizmat qiladigan so`zlar yordamchi so`zlar deyiladi. YOrdamchi so`zlarga ko`makchi, bog`lovchi, yuklama kiradi.

Modal so`zlar modal ma’no ifodalashi jihatidan yuklamalarga o`xshasa-da, lekin undan farqli ravishda gapda gap bo`lagi (kesim, sostavli kesim tarkibida) vazifasida, butun bir gap tarzida kela oladi.

Undov va taqlid so`zlar mustaqil so`zlar kabi biror hodisaning nomi bo`la olmaydi, lekin gap bo`lagi vazifasida so`z-gap vazifasida kela oladi. SHuning uchun ham bunday so`zlar alohida guruhni tashkil etadi.

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Grammatik ma'noni ifodalash vositalari haqida gapiring.
2. "Grammatika" va "morfologiya" so`zlarining ma'nolarini izohlang.
3. "So`z turkumlari" deganda nimani tushunasiz?
4. Mustaqil so`zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.
5. YOrdamchi so`zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.

# KLASTER

**(**Klaster-tutam, bog'lam**)**-axborot xaritasini tuzish yo'li-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

# KLASTERNI TUZISH QOIDASI

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing



| **2-Ma'vzu** | **Otlarning grammatik xususiyatlari hamda vazifaviy shakillari** |
|---|---|

(Ma'ruza-2soat)

| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Axborat ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1.Ot va uning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari sintaktik vazifalari.<br>2. Otlarning ma'no jihatdan turlari.<br>3. Otlarda son (birlik va ko'plik).<br>4. Otlarda erkalash va kichraytirish qo'shimchalari. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | "Ot va ning ma'no jihatdan turalari birlik va ko'plikda qo'llanilishi, otlarda son haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Ot va uning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari sintaktik vazifalari. | Ot so'z turkumininig grammatik ma'nosi, mofologik belgisi, sintaktik vazifalari haqida ma'lumot . |
| Otlarning ma'no jihatdan turlari. | Otlarning atoqli, turdosh shuningdek aniq va mavhum otlarga bo'linishi haqida ma'lumut aytish. |
| Otlarda son (birlik va ko'plik). | O'zbek tilida ot so'z turkumining birlik va ko'plikda qo'llanilishi to'g'risida ma'lumot. |
| Otlarda erkalash va kichraytirish qo'shimchalari. | O'zbek tilida ot so'z turkumining erkalash va kichraytirish qo'shimchalari bilan qo'llanilishi haqida ma'lumot. |
| **O'qitish vositalari** | O".U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og'zaki savollar blis – so'rov |

**Otlarning grammatik xususiyatlari hamda vazifaviy shakillari mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | B/BX/B jadvali usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a s i:** Ot so’z turkumininig grammatik ma’nosi, mofologik belgisi, sintaktik vazifalari, atoqli, turdosh, aniq va mavhum otlar erkalash va kichraytirish qo’shimchalari.

**Ot**

Predmetning nomini (keng ma’noda) bildiruvchi mustaqil so`z turkumiga ot deyiladi. Ot so`z turkumiga oid so`zlar kim? nima? kimlar? nimalar? savollaridan biriga javob beradi: o`qituvchi, xonanda, tilshunos – kim?, er, suv, tuz, non – nima? kabi.

Keng ma’noda predmet ma’nosini ifodalash otning leksik xususiyatidir. Predmetlik ma’nosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabi), er va osmonga oid narsalarning nomi (quyosh, oy, tog`, tosh, daryo kabi), kundalik turmushga oid narsalarning nomi (tuz, non, choynak, qatiq kabi), o`simliklarning nomi (paxta, sholi, jo`xori, beda kabi), voqea-hodisa, belgi, xususiyat va munosabatlarning nomi (to`y, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash kabi), o`rin va vaqt nomlari (yoz, kuz, pastlik, tepalik kabi), shuningdek atab qo`yilgan shaxs va predmet nomlari (Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, «O`qituvchi» nashriyoti kabi) ifoda etadi.

Ot shu ma’no xususiyati jihatidan ikki turga bo`linadi: turdosh otlar va atoqli otlar. Kitob, daftar, tinchlik – turdosh otlar; Samarqand, Akmal, «Qora ko`zlar» (roman), «Fan» (nashriyot) - atoqli otlar.

Ot o`ziga xos morfologik xususiyatlarga ega, ya’ni:

1) Ot son kategoriyasiga ega, ya’ni predmet anglatuvchi so`zlar birlik va ko`plik sonda qo`llanadi. Otlar birlik sonda yakka bir predmetni ifodalaydi: daraxt – yakka bir predmet, birlik son shaklida kelgan; daraxtlar - noaniq ko`plik son shaklida kelgan;

2) ot egalik kategoriyasiga ega, ya’ni predmetning uch shaxsdan biriga (so`zlovchi, tinglovchi, o`zga shaxsga) taalluqliligini, qarashliligini, maksubligini bildiradi: mening daftarim, sening ukang, uning quvonchi kabi;

3) ot kelishik kategoriyasiga ega. Otlar oltita kelishik ma’nosiga ega bo`lib, bu kelishik shakllari otning boshqa so`zlarga bo`lgan sintaktik munosabatini ifodalaydi (Barnoning kitobi, kitobni o`qidi, kitobdan foydalandi kabi);

Ot o`ziga xos sintaktik belgilarga ham ega:

1) ot ot bilan bog`lanadi. Bosh va qaratqich kelishigidagi otlar ana shunday xususiyatga ega: paxta g`ururimiz, farzandning baxti kabi;

2) ot fe’l bilan bog`lanadi, ya’ni tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar fe’l bilan birikadi: xatni o`qidi, xatga qaradi, xatda yozilgan, xatdan ko`chirdi kabi;

3) ot ba’zan sifat, ravish, son, olmosh, taqlid va undov so`zlar bilan ham birika oladi: osmon tiniq, uylar ko`p, beshta bola, maqsadim shu, dupur-dupur ovoz, holiga voy kabi;

4) bosh kelishik shaklidagi ot gapda asosan, ega va kesim, ba’zan sifatlovchi-aniqlovchi, izohlovchi kabi gap bo`laklari vazifasida, shuningdek, undalma, nominativ gap tarzida keladi. Masalan: O`zbekiston – kelajagi buyuk davlat (I.Karimov). Olim kishi o`zining ilmi va odobiga tayanadi. (Oz-oz o`rganib dono bo`lur). Seni ulug`layman, ey ona xalqim (A.O.) Subhidam. Quyosh yotog`idan bosh ko`tardi (P.Q.);

5) Qaratqich kelishigidagi ot qaratuvchi-aniqlovchi vazifasida keladi: Sen Pushkinning sevgan malagi (A.O.);

6) tushum, jo`nalish, o`rin-payt va chiqish kelishigi shaklidagi otlar to`ldiruvchi, hol, ba’zan kesim vazifasini bajaradi. Masalan: Bayramni munosib mehnat tortiqlari bilan nishonlashdi (S.A.). Bog`chada daraxtlar oltin rang bilan tovlanardi (O.). Oltin o`tda bilinadi, odam mehnatda. (Maqol).

Demak, otning qanday sintaktik vazifada kelishi uning qaysi kelishik shaklida kelishi bilan bog`liqdir.

SHuningdek, ot so`z turkumi so`z yasalish xususiyatiga ega. Ot so`z turkumi faol so`z yasalish usullari morfologik, sintaktik va faqat ot so`z turkumi yasaydigan abbreviatsiya usuli bilan yasaladi: xizmatchi, kulgi, taroq, gulzor, sevinch (morfologik usul bilan); belbog`, ko`zoynak, baxt-saodat, ota-ona (sintaktik usul); DAN, ToshDPU (abbreviatsiya usuli bilan) kabi.

Otlarda modal shakl yasalishi ham mavjud. Otlarda modal ma’no otning leksik ma’nosiga kengaytirish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik, kesatiq, ta’kid, umumlashtirish kabi qo`shimcha ma’nolarni qo`shish bilan hosil qilinadi: qizcha, qo`zichoq, bo`taloq, bolagina, Karimjon, Ra’noxon, un-pun, non-pon kabi.

## Otlarning ma’no turlari

Otlar ma’no jihatdan ikki turga bo`linadi: **atoqli otlar va turdosh otlar.**

Bir xildagi predmet (shaxs) yoki hodisalardagi birinchi ayirib ko`rsatadigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar atab qo`yilgan nomlardir. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi:

1) kishilarning ismi va familiyalari: Murod, O`ktam, O`tkir, Mahmudov, Ahmedov kabi;

2) yozuvchi va shoirlarning taxalluslari: Oybek, Uyg`un, Muqimiy, Furqat kabi;

3) uy hayvonlariga atab qo`yilgan nomlar: Olapar, To`rtko`z, Mosh kabi;

4) planeta, yulduzva sayyoralarning nomi: Er, Zuhra, Etti qaroqchi, Mirrix kabi.

5) geografik nomlar (shahar, qishloq, tog`, daryo, ko`l, cho`l, qit’a nomlari): Samarqand, CHotqol, Pomir, Ohangaron, CHirchiq, Osiy kabi;

6) oliy davlat va yuqori tashkilotlarning nomlari: O`zbekiston Vazirlar Mahkamasi, O`zbekiston Oliy Kengashi kabi;

7) ilmiy muassasalar, oliy o`quv yurtlari, vazirliklar va korxonalar nomi: Paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent Davlat Pedagogika universiteti, Moliya vazirligi, Davlat banki kabi;

8) yuqori mansab, oliy faxriy unvon nomlari: O`zbekiston Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi raisi, Bosh Qo`mondon kabi;

9) turli anjuman, hujjat va rezolyutsiyalar, tarixiy voqealar nomi: Ulug` Vatan urushi, Mustaqillik kuni, Toshkent anjumani kabi;

10) fabrika, zavod, jamoa xo`jaligi, sport jamiyatlari, kino, teatr, kitob, gazeta, jurnal nomlari: «SHarq yulduzi» xo`jaligi, «O`rtoq» konditer fabrikasi, «YOsh kuch» sport jamiyati, «Turkiston» kontsert zali, «YUlduzli tunlar» romani, «Ma’rifat» gazetasi, «Guliston» jurnali kabi.

Atoqli otlar, odatda, bosh harf bilan yoziladi, shuningdek, ko`plik son shaklida qo`llanmaydi. SHu xususiyatlari bilan turdosh otlardan farq qiladi.

Bir turdagi predmet, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi turdosh ot deyiladi: stol, kitob, tanbur, baxt, g`oya, anjuman kabi. Turdosh otlar atoqli otlarga nisbatan ko`p miqdorni tashkil etadi. Turdosh otlar kichik harf bilan yoziladi.

Atoqli otlar turdosh otlarga yoki aksincha, turdosh otlar atoqli otga o`tishi mumkin. Masalan, frantsiyalik ustaning nomi Batist (atoqli ot) so`zi turdosh otga (matoning nomi) aylangan bo`lsa, muhabbat turdosh oti (abstrakt ot) atoqli otga (ismga) aylangan.

Turdosh ot ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko`ra konkret (aniq) va abstrakt (mavhum) otlarga ajratiladi. Bevosita predmet anglatadigan otlar konkret otlar deyiladi: qalam, daftar, bola, tog` kabi. Konkret otlarni bevosita sanash va ko`rish mumkin: o`nta daftar, beshta bola kabi. Birlik va ko`plik shaklida kela oladi: bola (birlik) – bolalar (ko`plik) kabi.

Mavhum tushunchani, belgini predmet sifatida ifodalaydigan otlar abstrakt ot deyiladi: tinchlik, iroda, baxt, quvonch kabi.

Abstrakt otlarni sanash va ko`rish mumkin emas. Ko`plik son shaklida qo`llanmaydi.

Turdosh otlar birlik shakldа kelib yakka bir predmetni yoki predmetlarning to`dasini ifodalashi mumkin. SHu xususiyatga ko`ra turdosh otlarning ikki turi mavjud: yakka ot va jamlovchi ot.

Birlik shaklda kelib bir turdagi predmetlardan bittasini ifodalaydigan ot yakka ot deyiladi: daraxt, stol, kishi, daryo kabi.

Birlik shaklda kelsa ham, lekin bir turdagi predmetlarning jamini, to`dasini ifodalaydigan ot jamlovchi ot deyiladi: xalq, lashkar, to`da, olomon, ko`pchilik, ozchilik kabi.

## BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Ot turkumining ta’rifi va so`roqlarini ayting, misollar keltiring.
2. Otlarning xususiyatlari va gapdagi vazifalarini ayting.
3. Turdosh otlar deb qanday otlarga aytiladi?
4. Qanday tushunchani ifodalashiga ko`ra turdosh otlarning turlari haqida gapiring.
5. Birlik shaklda ko`plikni ifodalash-ifodalamasligiga ko`ra turdosh otlarning turlari haqida gapiring.
6. Atoqli otlarning ta’rifi va turlari haqida gapiring.
7. Turdosh otlarning atoqli otlarga, atoqli otlarning turdosh otlarga o`tishiga misollar keltiring.

# B/BX/B JADVALI

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
| --- | --- | --- |
| | | |

| **3-Ma’vzu** | **Otlarning grammatik kategoriyalari, tuzilishi va yasalishi** |
|---|---|

(Ma’ruza-2soat)

| | |
|---|---|
| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Axborat ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1.Egalik va kelishik kategoriyasi.<br>2. Otlarning tuzilishi jihatdan turlari.<br>3. Otlarning yasalishi. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Otlarning egalik, kelishik tuzilishi jihatdan turlari, shuningdek, yasalishi haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Egalik va kelishik kategoriyasi. | Otlarning egalik va kelishik kategoriyalari haqida ma’lumot . |
| Otlarning tuzilishi jihatdan turlari. | Otlarning tuzilish jihatdan turlari to’g’risida ma’lumut aytish. |
| Otlarning yasalishi. | Otlarning yasalishi haqida ma’lumot berish. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki savollar blis – so’rov |

**Otlarning grammatik kategoriyalari, tuzilishi va yasalishi mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich.<br>Mavzuga kirish<br>(20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |

| | | |
|---|---|---|
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

T a ya n ch i b o r a s i: Otlarda son egalik, kelishik kategoriyasi, otlarda modal shakl yasalishi, tuzilish jihatdan turlari.

## Otlarda son kategoriyasi

Otlarga xos morfologik xususiyatlardan biri son kategoriyasidir. Otlarda son kategoriyasini bir-biriga qarama-qarshi qo`yilgan birlik son shakli va ko`plik son shakli tashkil etadi.

Birlik son shaklida qo`llanuvchi otlar yakka bir predmetni yoki yakkalikni ajratilmaydigan predmetni anglatadi: qalam, daftar, tog`, uy, talaba kabi. Birlik son shaklida qo`llangan ot maxsus grammatik ko`rsatkichga ega emas. SHuning uchun otning bunday qo`shimcha olmagan shakli (nol ko`rsatkichli shakl) grammatik jihatdan birlik son shakli deb qaraladi.

Ko`plik son shaklida qo`llanuvchi otlar ikki yoki undan ortiq predmetni (yoki noaniq ko`plikni) anglatadi: qalamlar, daftarlar, tog`lar, uylar, talabalar kabi.

Otlarda grammatik ko`plik son shakli –lar affiksi bilan hosil qilinadi.

Ko`rinadiki, otlardagi birlik ma’nosi va ko`plik ma’nosi hamda bularni ifoda etuvchi shakllar yig`indisi son kategoriyasini hosil qiladi.

Otlarda son kategoriyasini birlik va ko`plik ma’nosida qo`llana oladigan otlarga xosdir. Sanash mumkin bo`lgan, bevosita predmetni anglatadigan konkret turdosh otlar birlik shakli bilan birga ko`plik son shaklida ham qo`llanadi: xona – uchta xona – xonalar; bola – besh bola – bolalar kabi.

O`zbek tilida birlik va ko`plik son shakliga ega bo`lgan otlar bilan bir qatorda faqat birlik shaklida qo`llanadigan otlar ham mavjud.

Bunday otlarga abstrakt otlar (sevgi, ishonch, ko`ngil kabi), donalab sanalmaydigan predmetlarni anglatuvchi otlar (un, suv, yog`, guruch kabi), yakka bir predmetni anglatuvchi otlar (til, bosh, yurak kabi), juft predmetni anglatuvchi otlar (ko`z, qosh, qo`l, etik, paypoq kabi), atoqli otlar (Zulfiya, Toshkent, Sirdaryo kabi) kiradi. Ayrim hollarda bu otlarga –lar ko`plik affiksi qo`shila oladi. Bunday holda –lar ko`plik ma’nosini emas, balki quyidagi ma’nolarni ifodalab keladi:

1. Abstrakt otlar, yakka bir predmetni anglatuvchi otlar, juft predmetni anglatuvchi otlarda –lar affiksi qo`shilganda ma’noni kuchaytiradi yoki ta’kidlaydi: Kumushning qoshlari chimirildi (A.Qodiriy).

2. Donalab sanalmaydigan predmetni anglatuvchi otlarga –lar affiksi qo`shilganda, shu predmetning turi, navi, yoki mo`llik kabi ma’nolarni bildiradi: Zilol suvlar, eram kabi bog`u-bo`stonlar (G`ayratiy).

3. Atoqli otlarga qo`shilganda esa umumlashtirish, birgalik kabi ma’nolarni bildiradi: Saidalar kelishdi kabi.

SHuningdek, qarindosh-urug`lik munosabatini bildiruvchi (ota, ona, buvi, aka, opa kabi) otlarga egalik qo`shimchasidan keyin –lar affiksi qo`shilganda, bu otlar hurmat ma’nosini anglatadi: otamlar, opamlar, buvimlar kabi.

Otlarda ko`plik ma’nosi turli xil usullar bilan ifodalanadi.

1. Otlarda ko`plik ma’nosi , asosan, -lar affiksini qo`shish bilan hosil qilinadi. Ko`plik ma’nosining bunday maxsus grammatik ko`rsatkich bilan ifodalanishi ko`plikning morfologik usul bilan ifodalanishi sanaladi: eshiklar, ko`chalar kabi. Bunday otlarga grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham ko`plik son shaklida deb qaraladi. Otlarda ko`plik ma’nosi, asosan shu usul bilan ifodalanadi.

2. Otlarda ko`plik ma’nosi leksik ma’nosi ko`p predmetni bildiradigan otlar orqali ham anglashiladi. Bunday otlar birlik shaklida bo`lsa ham, bir turdagi predmetlarning to`dasini, jamini bildiradi: to`da, gala, aholi, xalq, olomon kabi. Ko`plik ma’nosini bunday jamlovchi otlar orqali ifodalanishi leksik-semantik usul deyiladi. Bunday ma’nodagi otlarga grammatik jihatdan birlik shakldа, lekin semantik jihatdan ko`plikda deb qaraladi.

3. Otlarda ko`plik ma’nosi ot oldidan miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, gumon olmoshlarini keltirish, so`zlarni takrorlash bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan ko`plik ma’nosining ifodalanishiga sintaktik usul deyiladi: ko`p bola, uchta kitob, bir necha qiz, dasta-dasta gul, to`da-to`da odam kabi.

**Otlarda egalik kategoriyasi**

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (ba’zan predmetga) taalluqli ekanligini ko`rsatuvchi umumiy ma’nolar va bu ma’nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga egalik kategoriyasi deyiladi.

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga, ya’ni so`zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o`zga (III shaxs) shaxsga taalluqliligini ifodalaydigan affikslar egalik affikslari deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma’nosi bilan birga uning sonini (birlik yoki ko`plik ma’nosini) ham ifodalaydi. Egalik affikslari quyidagi jadvalda berilgan.

| SHaxs | Birlik | Ko`plik |
|---|---|---|
| I shaxs | *-(i)m* | *-(i)miz* |
| II shaxs | *-(i)ng* | *-(i)ngiz* |
| III shaxs | *-i, -si* | *-i, -si* |

Jadvaldan ko`rinadiki, III shaxs egalik affiksi birlik va ko`plik son uchun umumiy. Predmetning bir shaxsga yoki ko`p shaxsga taalluqliligi egalik affiksi olgan ot bog`lanib kelgan so`zning grammatik son shakliga qarab aniqlanadi: uning kitobi – birlik, ularning kitobi – ko`plikdir.

SHuningdek, egalik affikslari ot negizining unli yoki undosh tovush bilan tugashiga qarab ikki xil shaklda qo`llanadi.

| SHaxs | Birlik | Ko`plik |
|---|---|---|

| | unlidan so`ng | undoshdan so`ng | unlidan so`ng | undoshdan so`ng |
|---|---|---|---|---|
| I shaxs | *sovg`a+ -m* | *daftar+ -im* | *sovg`a+ -miz* | *daftar+ -imiz* |
| II shaxs | *sovg`a+ -ng* | *daftar+ -ing* | *sovg`a+ -ngiz* | *daftar+ -ingiz* |
| III shaxs | *sovg`a+ -si* | *daftar+ -i* | *sovg`a+ -si* | *daftar+ -i* |

Egalik affikslari odatda, ko`plik affiksidan keyin qo`shiladi: kitob+ -lar+ -im kabi.

Egalik affiksi qo`shilgan ot, odatda, qaratqich kelishigidagi (belgili va belgisiz shakldagi) boshqa ot, olmosh va otlashgan so`z bilan bog`lanadi: daraxtning bargi, ipak qurti, mening vazifam, yaxshining so`zi kabi. Bu bog`lanish egalik affiksini olgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigida kelgan so`zga qaramli ekanligini ko`rsatadi.

Egalik affiksini olgan ot ba’zan chiqish kelishigidagi ot bilan ham bog`lanishi mumkin. Masalan: talabalardan bir guruhi kabi. Bunday bog`lanishda egalik affiksini olgan ot yuqoridagi kabi qarashlilik ma’nosini emas, balki aloqadorlik, mansublik ma’nosini ifodalaydi. Demak, bu holda faqat grammatik egalik (aloqadorlik, mansublik) ma’nosi mavjud.

Egalik affiksi I va II shaxsda predmetning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniq ko`rsatadi. CHunki bu shaxslar har vaqt kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: mening burchim, sening burching, bizning burchimiz, sizning burchingiz kabi. III shaxsda esa egalik affiksini olgan ot qaratqich kelishigida kelgan olmosh bilan ham, ot va otlashgan so`zlar bilan ham bog`lana oladi: uning burchi, farzandning baxti, ko`plarning orzusi kabi.

Ba’zan uslub talabi nuqtai nazaridan shaxs va egalik affiksini olgan ot orasidagi munosabat o`zgacha bo`lishi mumkin, ya’ni II shaxs birlik sondagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning ko`pligi uchun qo`llanishi mumkin: senlarning maqsading kabi. YOki, aksincha, otning II shaxs ko`plik shaklidagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning birligi uchun qo`llanishi mumkin: sizning opangiz kabi. Birinchi holda kamsitish, kesatiq kabi ma’nolar, ikkinchi holda esa hurmat ma’nosi ifodalanadi.

Ot ko`plik son shaklida kelib, ko`plik ma’nosini ifodalaganda, egalik affiksi –lar qo`shimchasidan keyin qo`shiladi: opalarim kabi. Lekin hurmat ma’nosi ifodalanganda, egalik affikslari –lar qo`shimchasidan oldin qo`shiladi: opamlar, akamlar kabi.

Egalik affikslari otning gapdagi sintaktik vazifasini ko`rsatmaydi.

Ba’zi otlarga  egalik affikslari qo`shilganda, so`z tarkibida turli fonetik o`zgarishlar ro`y beradi. Bular quyidagilar:

1. ***k, q*** undoshi bilan tugagan ko`p bo`g`inli so`zlarga, shuningdek, bek kabi ayrim bir bo`g`inli so`zlarga egalik affikslari qo`shilganda, k undoshi g undoshiga, q undoshi g` undoshiga aylanadi va bu holat yozuvda ham saqlanadi: tilak – tilagi, yurak – yuragi, bek – begi, kubok – kubogi, qishloq - qishlog`i kabi. Lekin ko`p bo`g`inli o`zlashma so`zlarga, bir bo`g`inli so`zlarga (ko`p hollarda) egalik affikslari qo`shilganda k, q undoshi asliga mos holda aytiladi va yoziladi: ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherking, erk – erki; huquq - huquqim, zavq - zavqi kabi.

2. O`rin, qorin, burun, o`g`il, bo`yin, ko`ngil, singil kabi otlarga egalik affikslari qo`shilganda, ikkinchi bo`g`indagi i, u unlilari talaffuzda aytilmaydi va yozilmaydi: o`rin - o`rnim, qorin - qornim, burun – burning, o`g`il - o`g`lim, ko`ngil – ko`ngli, singil – singlim kabi.

3. Parvo, obro`, mavqe, avzo, mavzu so`zlariga I va II shaxs egalik affikslari qo`shilganda, so`z tarkibida bir y tovushi qo`shim aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying, obro`yim, obro`ying kabi; III shaxsda esa parvo, obro`, mavqe, avzo so`zlari parvoyi, obro`yi, mavqeyi, avzoyi kabi, mavzu so`zi esa mavzusi tarzida aytiladi va yoziladi.

**Otlarda kelishik kategoriyasi**

Ot (yoki otlashgan so`z)ning boshqa so`zlarga bo`lgan sintaktik munosabatini ko`rsatuvchi ma’nolar va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllar tizimiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltita grammatik ma’no va uni ifoda etuvchi shakllarni o`z ichiga oladi. Bularga bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishik, jo`nalish kelishik, o`rin-payt kelishik va chiqish kelishik kabi grammatik ma’nolar hamda bu ma’nolarni ifodalovchi –ning, -ni, -ga (-ka,-qa), -da, -dan kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik o`z nomi, ifoda shakliga ega, ma’lum bir so`roqlarga javob beradi.

| Kelishiklar | Turlanishi | So`roqlari |
|---|---|---|
| Bosh kelishik | *Saida, kitob, Toshkent* | *kim? nima? qaer?* |
| Qaratqich kelishik | *Saidaning, kitobning, Toshkentning* | *kimning? nimaning? qaerning?* |
| Tushum kelishik | *Saidani, kitobni, Toshkentni* | *kimni? nimani? qaerni?* |
| Jo`nalish kelishik | *Saidaga, kitobga, Toshkentga* | *kimga? nimaga? qaerga* |
| O`rin-payt kelishik | *Saidada, kitobda, Toshkentda* | *kimda? nimada? qaerda* |
| CHiqish kelishik | *Saidadan, kitobdan, Toshkentdan* | *kimdan? nimadan? qaerdan?* |

Otlarda kelishik affikslari turlovchi affikslar deb ham yuritiladi. Otlarning kelishiklar bilan o`zgarishi turlanish deb yuritiladi.

Kelishik affiksi yo`q holat bosh kelishik bo`lib, bunday shakldagi ot ko`pincha boshqa so`zni o`ziga tobelaydi. SHuning uchun ham bosh kelishik deb yuritiladi. Qaratqich, tushum, jo`nalish, o`rin-payt chiqish kelishigi shaklidagi ot gapda boshqa so`zlarga grammatik jihatdan tobe bo`ladi. Bu kelishiklar vositali kelishiklar deyiladi. Masalan: *Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi (U.Mahkamov)*. Bu gapda aql so`zi bosh kelishikda bo`lib, affiksi bo`lmagan shaklda qutqaradi fe’liga nisbatan hokim holatda; insonni so`zi –ni tushum kelishigi shakli vositasida, ayb (-dan), kamchiliklardan so`zlari –dan chiqish kelishigi vositasida qutqaradi fe’liga tobe bo`lib kelgan.

Kelishik shaklidagi otlar boshqa so`zlar bilan o`zaro sintaktik munosabatga kirishadi.

Qaratqich va qisman bosh kelishik shakli ot bilan otning, tushum, jo`nalish, o`rin-payt va chiqish kelishiklari, odatda, ot bilan fe’lning sintaktik munosabatini ko`rsatadi: oilaning ko`rki, onani ardoqlamoq, sayohatga bordi, maktabdan qaytdi.

Ba’zan kelishik shaklidagi otlar sifat, son, olmosh, ravish, undov bilan ham bog`lanib, ularga tobe bo`lib keladi: ipakdan mayin, talabalardan beshtasi, Barnoning o`zi, xonada ko`p, holiga voy kabi.

Kelishik shaklida kelgan otning ma’nosi va vazifasi uning leksik grammatik ma’nosi, qanday so`zlar bilan (fe’l, ot) bog`lanishiga qarab aniqlanadi. Masalan: jo`nalish

kelishigining asosiy ma’nosi harakatning yo`nalish o`rnini ko`rsatishidir: maktabga bordi. Bu ma’nodan tashqari jo`nalish kelishigida kelgan ot vosita, payt, atash, maqsad ma’nolarini ifoda qiladi: rasmga qaradi, kuzga qoldirildi, singlisiga oldi, o`qishga keldi kabi. Lekin kelishik ma’nolaridan biri asosiy ma’no sanaladi, kelishik nomi shu asosiy ma’noga ko`ra nomlanadi.

Bosh kelishikdagi ot shaxs, predmet, voqea-hodisalarning nomini ataydi. Kim? nima? qaer? kabi so`roqlardan biriga javob beradi. Bu kelishikning ko`rsatkichi yo`q, ya’ni nol ko`rsatkichli shaklda keladi. Bunday shakl tahlilda Ø belgisi bilan ifodalanadi.

Bosh kelishik shaklida kelgan otning asosiy sintaktik vazifasi ega vazifasida kelishdir. Masalan: Himmatlilik o`zining saxovati bilan odamlar qalbiga singib ketadi. (O`.Mahkamov)

Nutqda oz uchrasada, ega vazifasidagi so`z qaer? so`rog`iga ham javob bo`lib keladi, bunday holda o`rin predmeti ma’nosi anglashiladi. Masalan: Toshkent – tinchlik shahri.

O`zbek tilida bosh kelishikdagi ot yana bir necha sintaktik vazifani bajaradi.

1.Kesim vazifasida keladi: Ilm – insoniyat gavhari (Bedil).

2.Izohlovchi vazifasida keladi: Navro`zda Ona tabiat uyg`onadi.

3.Sifatlovchi vazifasida keladi: Po`lat pichoq qinsiz qolmas (Maqol). Bunda bosh kelishik shaklida kelgan ot boshqa ot oldida kelib, qanday? qanaqa? so`roqlaridan biriga javob beradi.

4.Hol vazifasida keladi: YUlduzlar chaman-chaman yonadi (O).

5.Undalma vazifasida keladi: YAxshilik qil, bolam, yomonlikni ot! Undalma vasifasida kelgan bosh kelishikdagi ot gap bo`laklari bilan grammatik jihatdan bog`lanmaydi.

6.Nominativ (atov) gap vazifasida keladi: *Subhidam. Quyosh yotog`idan bosh ko`tardi (T.Q.).*

Bundan tashqari bosh kelishikdagi otlar ko`makchi shakldа kelib to`ldiruvchi va hol vazifasini ham bajaradi. Masalan: Igna bilan quduq qazib bo`lmas (Maqol). YUksak quyosh kabi, yuksak oy kabi. Sep bilan bezalsin yurtning fazosi (Uyg`un).

Qaratqich kelishigi biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga yoki shaxsga qarashli ekanligini ifodalaydi. Qaratqich kelishigida kelgan ot kimning? nimaning? qaerning? kabi so`roqlardan biriga javob beradi. –ning affiksi bilan shakllanadi. Masalan: Bilim va donishmandlik insonning bezagidir (A.Navoiy).

Ba’zan she’riyatda qaratqich kelishigi egalik affiksidan so`ng –n shaklida ham qo`llanadi: Har bolam ufurgan nafasin atrii. SHe’rimning eng etuk, eng yaxshi satri (G`.G`ulom).

Qaratqich kelishigidagi ot egalik affiksini olgan ot bilan grammatik jihatdan bog`lanib, gapda aniqlovchining turi qaratuvchi vazifasida keladi. Qaratqich kelishigidagi so`z qaratuvchi, unga bog`lanib kelgan egalik affiksini olgan ot esa qaralmish sanaladi. Masalan: Guruchning kurmagi bor, yomonning to`g`mog`i bor (Maqol).

Qaratqich kelishigi ikki xil – belgili yoki belgisiz shaklda qo`llanadi.

Qaratqich kelishigi –ning (-n) affiksi bilan qo`llansa, belgili sanaladi. Belgili qaratqich kelishigidagi ot aniq qarashlilik ma’nosini ifodalaydi: daraxtning ildizi, onaning baxti kabi.

Qaratqich kelishigi –ning affiksi bilan qo`llanmasa, belgisiz sanaladi: umid uchquni, bahor fasli kabi. Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot o`zi bog`lanib kelgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigidagi ot anglatgan predmetga aloqador hodisa ekanligini ifodalaydi.

Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot o`zi bog`langan ot bilan ma'no va grammatik jihatdan juda zich bog`langan bo`lib, ular orasiga boshqa so`z kiritish mumkin emas.

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgili qo`llanadi:

1.Qaratqich kelishigidagi ot shaxs otlari bo`lganda: Zulfiyaning xati, talabaning bahosi kabi.

2.Butunning qismini anglatgan otlar: uzukning ko`zi, stolning oyog`i kabi.

3.Qaratqich kelishigidagi so`z o`zi bog`latgan otdan anglashilgan predmet bilan o`zaro genetik aloqada bo`lsa: buvining nevarasi, sherning bolasi kabi.

4.Qaratqich kelishigidagi so`z manba ma'nosini ifodalaganda: olimning ma'ruzasi, talabaning fikri kabi.

5.Qaratqich kelishigidagi so`z bilan qaralmish o`rtasida boshqa so`zlar kelganda: shaharning baland imoratlari, yozning issiq shamoli kabi.

6. Qaratqich kelishigida ot o`zining maxsus aniqlovchisiga ega bo`lganda: alo'chi o`quvchining hulqi kabi.

7. Qaratqich kelishigidagi so`z tarkibida –lar ko`plik affiksi qo`llanganda: qizlarning raqsi, gullarning hidi kabi.

8. Qaralmish otlashgan so`zlar bilan ifodalanganda: olmaning shirini, so`zning ozi, do`stlarning uchtasi kabi.

Qaratqich  kelishigi quyidagi hollarda belgisiz qo`llanadi:

1. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot abstrakt otlar bilan ifodalanganda: muhabbat sehri, bilim manbai, ilm ahli, tafakkur gulshani kabi.

2. Qaratqich va qaralmish munosabatidagi otlar payt ma'nosini anglatganda: bahor fasli, oqshom payti, tong chog`i, yakshanba kuni kabi.

3. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot ifodalagan predmetning qaralmish ifodalagan predmetga umumiy xosligini bildirganda: ipak qurti, er islohoti kabi.

4. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot nomiga qo`yilgan, atab qo`yilgan otlar bilan ifodalanganda: Navoiy teatri, Orol dengizi, Toshkent shahri kabi.

5. Qaratqich kelishigi shaklidagi otlar bir-biriga tobe holda birin-ketin kelganda, eng so`nggisidagi oldingilari belgisiz shaklda qo`llanadi: Toshkent Davlat pedagogika universiteti, boshlang`ich ta'lim va defektologiya fakulteti boshlang`ich ta'lim bo`limining talabasi kabi.

Tushum kelishigi ot ish-harakatni o`z ustiga olgan predmetni anglatadi. Tushum kelishigidagi ot, odatda, ish-harakatni o`z ustiga olgan predmetni, ya'ni ob'ekt ma'nosini ifodalaganda kimni? nimani? so`rog`iga javob beradi: Hayot harakatni talab qiladi (Arastu).

Tushum kelishigidagi otning negizi o`rin ma'nosini anglatsa, qaerni? so`rog`iga javob beradi: Hujrani yasatganmisan? (A.Qahhor). To`rtta karnay, oltita surnayning shovqini ko`kni tutdi (O.).

Tushum kelishigi –ni affiksi bilan shakllanadi: Ulug` kishilarni mehnat etiltiradi («Tafakkur gulshani»).

Ba'zan she'riyatda egalik affiksidan so`ng –n shaklida ham uchraydi: Olmazorlar gulin to`kadi, Meva bog`lab shoxin bukadi (H.O.).

Tushum kelishigida kelgan ot fe'l bilan bog`lanadi va gapda asosan, vositasiz to`ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Tushum kelishigi ham qaratqich kelishigi singari 2 xil shaklda qo`llanadi: belgili tushum kelishigi va belgisiz tushum kelishigi.

Beligili tushum kelishigi shaklidagi ot –ni (-n) affiksini olgan holda keladi: Xushro`yning rahmsiz muhokamasidan oqqan bu haqiqatlar Zaynabni yig`latdi (A.Qodiriy).

Belgisiz tushum kelishigi shaklidagi otda esa –ni affiksi qo`llanmaydi: Gul tufayli tikan suv ichar (Maqol).

Tushum kelishigining ham belgili va belgisiz shaklda qo`llanishi ma'no talabi va grammatik holatga ko`ra belgilanadi. Belgisiz tushum kelishigidagi otning tushum kelishigida ekanligi uning mazmunidan va fe'lga bog`lanishidan bilinib turadi.

Belgisiz tushum kelishigidagi ot fe'l kesim bilan juda zich bog`langan bo`lib, ular orasiga boshqa so`zni kiritib bo`lmaydi: Nazira singlisiga xat yozdi.

Tushum kelishigi quyidagi hollarda faqat beligili qo`llanadi:

1.Tushum kelishigi shaklidagi ot atoqli ot bilan ifodalangan holda: Saidani o`z qanoti ostiga oldi (A.Qahhor).

2.Tushum kelishigidagi ot payt bildiruvchi otlar bilan ifodalansa: Zulfiya ta'tilni yaxshi o`tkazdi.

3.Tushum kelishigidagi ot o`z aniqlovchisiga ega bo`lsa: Buk uchli irodani, bu jahoniy qudratni har kimki mensimasa, o`ziga-o`zi zolim (G`.G`ulom).

4.Tushum kelishigidagi ot bilan uni boshqargan fe'l o`rtasida boshqa so`zlar kelsa: Bog`ni bir bog`bon yaratadi, Ming odam bahramand bo`ladi (Hikmatlar xazinasi).

5.Tushum kelishigi shaklidagi ot, ya'ni kelishik affiksidan oldin egalik affiksi bo`lsa, belgili qo`llanadi: ... Uzoq vaqt hayotda yo`lini topolmay yuribdi (A.Qahhor).

SHuningdek, boshqa so`z turkumlari (olmosh, fe'lning harakat nomi shakli, otlashgan so`zlar) faqat belgili tushum kelishigi shaklida keladi.

Jo`nalish kelishigidagi ot ish-harakat yo`nalgan predmetni, shuningdek, harakatning bajarilish payti, ish-harakatning bajaralishida vosita bo`lgan predmetni anglatadi. Otlarda jo`nalish kelishigining asosiy ma'nosi harakatning yo`nalish nuqtasini ifodalashdir. Ob'ekt, payt, sabab, maqsad kabi ma'no xususiyatlarining ifodalanishi bu kelishik shaklini olgan va uni boshqargan so`zning leksik ma'nosiga bog`liq. SHu ma'nolariga ko`ra jo`nalish kishilik shaklidagi ot kimga? nimaga? qaerga? qachon? kabi so`roqlarga javob beradi.

Jo`nalish kelishigi –ga affiksi bilan shakllanadi: daftarga, osmonga kabi. Lekin so`z negizi k tovushi bilan tugasa, -ka shaklida: q tovushi bilan tugasa, -qa shaklida qo`shiladi: terak-terakka, qishloq-qishloqqa kabi.

Jo`nalish kelishigidagi otlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1.Harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni anglatganda, kimga? yoki nimaga? so`rog`iga javob bo`ladi va gapda vositali to`ldiruvchi vazifasida keladi: Mahmadona, valdirovchi odam ochiq bir maktubga o`xshaydi (Oz-oz o`rganib dono bo`lur).

2.Harakatning yo`nalish o`rnini anglatganda, qaerga? so`rog`iga javob bo`ladi va o`rin holi vazifasida keladi: Qishloqqa shahar tutash, ikkov birga hamnafas (G`.G`ulom). Inson agar jahl qilsa osmonni ham erga olib tushadi (Bedil).

3.Harakatning bajarilishi vaqtini anglatganda qachon? so`rog`iga javob bo`ladi va payt holi vazifasida keladi: To`y ko`klamga belgilandi.

SHuningdek, jo`nalish kelishigi shakli fe'lning harakat nomi, otlashgan sifatdoshlarga qo`shilib harakatning bajarilish sababi va maqsadini anglatib, nega? nima maqsadda? so`roqlariga javob beradi va gapda sabab, maqsad holi vazifasini bajaradi: Men Farg`onadan ataylab siz bilan ko`rishishga, rozi bo`lsangiz, otpuska ichida to`y qilishga kelgan edim (Oydin). Turmushning qaynab turgan joyiga tushib qolganimga xursandman (A.M.).

O`rin-payt kelishigidagi ot ish-harakatning bajarilish o`rnini, paytini va ish-harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni anglatadi. Bu kelishik shaklidagi ot qanday leksik ma'noni anglatishiga qarab o`rin, payt, ob'ekt ma'nolari haqida gapiriladi. SHu ma'nolariga ko`ra o`rin-payt kelishigi shaklidagi ot kimda? nimada? qaerda? qachon?

kabi so`roqlarga javob beradi. O`rin-payt kelishigi –da affiksi bilan shakllanadi: Sada tagidagi hovuzning zilol suvida yaproqlar suzadi (S.Z.). Ayvonda bosma guli bo`z ko`rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o`tiradi (O.). SHavvozlarda shuncha hunar bor ekan-ku, bilmay yurgan ekanmiz (H.N.).

O`rin-payt kelishigidagi ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1.Ish-harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni anglatib, kimda? nimada? so`rog`iga javob beradi va gapda vositali to`ldiruvchi vazifasini bajaradi: Bolaga otaning mehnati singgan bo`lsa, so`ng u bolaning hulq-atvorida bilinadi (YUsuf Xos Hojib).

2.Ish-harakatning bajarilish o`rnini anglatib, qaerda? so`rog`iga javob beradi va gapda o`rin holi vazifasini bajaradi: Vohidlarning qishlog`ida boshqa erlarda juda kam uchraydigan halim va shirin olma bor. (O.YO.)

3.Ish-harakatning bajarilish paytini anglatib, qachon? so`rog`iga javob beradi va gapda payt holi vazifasini bajaradi: Bahorda shaftoli gullari ko`m-ko`k maysalar ustida to`kilib qoladi (M.I.).

4.Ish-harakatning bajarilish holatini anglatib, qanday? so`rog`iga javob beradi va gapda ravish holi vazifasini bajaradi: Ular musiqani chuqur sukutda tinglar edi (O.).

Ba’zan predmet yoki hodisaning bo`lish o`rnini, yoshini, holatini ifodalab, qaerda? nechada? kimda? nimada? so`roqlaridan biriga javob berib, gapda kesim vazifasini bajaradi: Singlim uyda. Barno yigirma yoshda. Kuch birlikda.

CHiqish kelishigi shaklidagi ot ish-harakatning kelib chiqish o`rni, manbai, payti, sababi, holati yoki ish-harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni anglatadi. SHu ma’nolariga ko`ra chiqish kelishigi shaklidagi ot kimdan? nimadan? qaerdan? qachondan? kabi so`roqlardan biriga javob beradi. CHiqish kelishigi –dan affiksi bilan shakllanadi: Insonga bilimdan durustroq biror narsa topilmaydi («Hikmatlar xazinasi»).

CHiqish kelishigidagi ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1.Harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni, bir predmetni boshqa bir predmet bilan chog`ishtirish ma’nolarini anglatib, kimdan? nimadan? so`rog`iga javob beradi va gapda vositali to`ldiruvchi vazifasini bajaradi:

Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on,
SHunda bilursankim, ilm bepoyon (Firdavsiy).

2.Harakatning boshlanish o`rni, payti, harakatning bajarilish holati, sababini anglatib, qaerdan? qachondan? qanday? nega? kabi so`roqlardan biriga javob beradi va gapda o`rin, payt, holat, sabab holi bo`lib keladi: Ulug` musavvir Kamoliddin Behzod hali yoshlikdan Hazrat Mirning tarbiyalari bilan ulg`aydilar (P.Q.). Zumrad ignani palakka to`g`nadi-da, o`rnidan turdi (O.) Umaralining yurakdan yozgan iliq so`zlari uning ko`nglini shodlikka to`ldirib yubordi (O.). El tikilar va sevinchidan javdiraydi ko`zlarida yosh (H.O.).

3.Kimdan? yoki nimadan? kabi so`roqlarga javob berib, gapda kesim vazifasida keladi: SHaxnoza, zerikmaydigan bo`ldingiz, bu onangiz havaskor alpinistlardan ekan (S.Abdullaeva).

**Otlarning yasalishi**

Hozirgi o`zbek tilida ot so`z turkumi lug`at tarkibida mavjud bo`lgan so`zlarning miqdorini tashkil qiladi. CHunki ot so`z turkumi boshqa so`z turkumlariga nisbatan yangi so`zlar hisobiga tez boyib boradigan turkumdir.

O`zbek tilida ot morfologik, sintaktik va abbreviatsiya usullari bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasash. Bu usulga ko`ra so`z negiziga maxsus ot yasovchi affikslarni qo`shish bilan yangi ot yasaladi. Ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe’l

va ravish kabi mustaqil so`z turkumlari, shuningdek, modal va taqlid so`z negizlaridan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasovchi affikslar ma'no jihatdan quyidagi guruhdagi otlarni yasaydi:

1.Shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi affikslar.

2.Narsa, qurol, o`lchov birligi otlarini yasovchi affikslar.

3.O`rin-payt otlarini yasovchi affikslar.

4.Abstrakt ot yasovchi affikslar.

Shaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qo`shilib, negizdan anglashilgan predmet bilan bog`liq shaxs otlarini va ma'lum bir soha, kasb bilan shug`ullanuvchi kasb-hunar otlarini yasaydi.

Bu affikslarga quyidagilar kiradi:

-chi: tarbiyachi, terimchi, sportchi, tijoratchi, navbatchi

-dosh: fikrdosh, kursdosh, zamondosh, suhbatdosh, muallifdosh

-gar,-kor: zargar, kimyogar, g`allakor, san'atkor

-bon:,-boz: bog`bon, darvozabon, darboz, bedanaboz

-paz: oshpaz, somsapaz, kabobpaz

-kash: suratkash, aravakash, mehnatkash

-dor: chorvador, mulkdor

-shunos: tilshunos, tuproqshunos, tabiatshunos

-xon: kitobxon, gazetxon, g`azalxon

-soz: mashinasoz, traktorsoz, soatsoz

-do`z: do`ppido`z, etikdo`z, mahsido`z, gilamdo`z

-xo`r: choyxo`r, oshxo`r.

SHaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslardan –chi eng mahsuldor ot yasovchi affiks sanaladi.

YUqorida qayd etilgan –kash, -xo`r, -paz, -do`z, -boz, -gar, -soz, -xon, -shunos so`z yasovchi affikslari tojik tilida fe'l o`zaklari bo`lib, o`zbek tilida so`z yasovchi affiks vazifasini bajaradi.

Narsa, qurol, o`lchov birligi otlarini yasovchi affikslari, asosan, fe'l negiziga qo`shilib negizdan anglashilgan ish-harakat va holatning natijasi bo`lgan yoki ish-harakatni bajarish uchun qo`llaniladigan narsa, qurol otini yasaydi. Kam hollarda ot, sifat, taqlid so`z negizlari narsa, qurol, o`lchov birligi otlarini yasashga asos bo`la oladi. Bu affikslar quyidagilar:

-k (-ik), -ak, -q (-iq, -uq), -oq: elak, kurak, teshik, pirpirak, bo`lak, bo`yoq, so`roq, chopiq, topshiriq, yutuq, o`roq kabi.

-gich (-g`ich, -kich, -qich): suzgich, o`chirg`ich, qirg`ich, ko`rsatkich, tutqich, qisqich.

-gi (-ki,-qi,-g`i,-g`u): supurgi, kulgi, tepki, chopqi, tutatqi, yoqilg`i, cholg`u.

-m (-im,-um): to`plam, tishlam, chimdim, kiyim, unum.

-ma: qiyma, qatlama, dimlama (mahsulot nomi), tenglama, ayirma (matematik terminlar), isitma, jamg`arma.

-don: qalamdon, guldon.

-indi: yuvindi, chirindi, qirindi.

-qin (-qun, -g`in, -g`un): to`lqin, toshqin, uchqun, yong`in, yulg`un.

-in (-un, -on): yig`in, tugun, to`zon.

-ak (-oq): qarsak, varrak, qaltiroq.

-a: sharshara, jizza.

-os: gulduros, chuvvos.

-gak (-kak): ilgak, eshkak.

-doq: qovurdoq.

-moq (-mak): quymoq (ovqat turi), chertmak.

-cha: qizilcha, olacha.

-chiq: yopinchiq.

-ildoq: shaqildoq.

-machoq: bekinmachoq, tortishmachoq.

-noma: taklifnoma, tashakkurnoma, vasiyatnoma.

YUqorida sanalgan affikslardan –a, -os, -gak, -doq, -moq, -cha, -chiq, -ildoq, -machoq affikslari ot yasashda kam unum so`z yasovchi affikslar sanaladi.

O`rin-payt oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qo`shilib, negizdan anglashilgan predmet mavjud bo`lgan, ekiladigan, dam oladigan, yashaydigan o`rin-joy otini yasaydi. Bu affikslarga quyidagilar kiradi:

-zor: olmazor, gulzor, bug`doyzor

-loq: o`tloq, toshloq, qumloq

-iston: O`zbekiston, guliston, qabriston

-goh: oromgoh, sayilgoh

-xona (affiksoid): choyxona, oshxona, yotoqxona, sartaroshxona

-qoq: botqoq (fe’l negizidan yasalgan o`rin-joy oti).

Abstrakt ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish, ba’zan modal so`z negizlariga qo`shilib, negiz anglatgan tushuncha bilan bog`liq abstrakt ma’nodagi ot yasaydi. Bular quyidagilar:

-lik (-liq): go`zallik, mardlik, yaxshilik (ot negizidan yasalgan); ko`plik, tezlik (ravish negizidan); birlik, yuzlik (son negizidan); qarindoshlik, bolalik (ot negizidan); o`zlik, manmanlik (olmosh negizidan); yo`qlik, borliq (modal so`z negizidan).

-ch (-inch): sevinch, quvonch, tayanch, qo`rqinch (fe’l negizidan yasalgan)

-chilik, -garchilik: pillachilik, temirchilik, ipakchilik, odamgarchilik (ot negizidan), xursandchilik (sifat negizidan), yo`qchilik (modal so`z negizidan yasalgan).

-gilik, -kilik: ko`rgilik, ichkilik (fe’l negizidan yasalgan).

Sintaktik usul bilan ot yasash. Bu usulga ko`ra ikki va undan ortiq so`z shakllari Biron qolipda birikib, bir predmetni anglatadigan yangi ot yasaladi.

Sintaktik usulga ko`ra qo`shma va juft otlar yasaladi.

Qo`shma ot ikki va undan ortiq so`zning birikishidan hosil bo`lib, bir predmetni anglatadigan yangi ot. Qo`shma ot tarkibidagi so`zlar dastlab ma’no va grammatik jihatdan tobelanish yo`li bilan (qo`shimcha aniqlovchi+aniqlanmish) tuzilgan so`z birikmasi bo`lib, keyinchalik shu sintaktik munosabatning yo`qolishi natijasida bir tushunchani, yangi bir predmetni ifoda etadi: ko`zoynak, belbog`, o`rinbosar kabi. Qo`shma ot bir bosh urg`u bilan aytiladi.

Qo`shma ot qismlari orasidan quyidagi sintaktik munosabatlarning yo`qolishi natijasida hosil bo`ladi:

1.Aniqlovchi+aniqlanmish: bilaguzuk, achchiqtosh, oshqozon, toshko`mir, bedapoya, so`z boshi, Beshariq, Kattaqo`rg`on.

2.Ega+kesim: Soykeldi, Qoryog`di.

3.To`ldiruvchi+kesim: dunyoqarash, kungaboqar, muzyorar, otboqar, ish tashlash.

4.Hol+kesim: besh otar, iskabtopar, bosvoldi.

5.Kesim+undalma: YOriltosh, ochildasturxon.

O`zbek tilida rus, tojik va boshqa tillardan o`zlashgan parovoz, aeroport, dushanba, chorshanba, obdasta kabi otlar kelib chiqishiga ko`ra qo`shma ot bo`lsa-da, o`zbek tilida qo`shma ot ekanligi anglashilmaganligi tufayli sodda ot deb qaraladi.

Juft ot bir xil grammatik shaklda kelgan ikki so`zning grammatik jihatdan teng bog`lanishidan tuzilgan jamlovchi, bir umumiy ma’noni anglatadigan yangi ot. Juft ot qismlari orasidagi tenglik munosabati yozuvda chiziqcha bilan ko`rsatiladi. Bunday juft otning qismlari 2 xil bog`lanadi: a) bog`lovchilarsiz: ota-ona, gul-lola; b) bog`lovchi vazifasidagi –u, -yu yuklamalari yordamida: tog`-u tosh, olma-yu o`rik kabi.

Juft ot qismlari bir so`z turkumiga oid bo`lib, qismlarining har biri o`z urg`usiga ega bo`ladi. Juft otlarning ma’nosi qismlar ma’nosining yig`indisidan kelib chiqadi: kuch-quvvat, aql-xush, ota-ona.

Juft ot tarkibidagi qismlar quyidagi ma’no munosabatlarini ifodalaydi:

1.Qismlar o`zaro ma’no jihatdan bir-biriga yaqin so`zlardan tuziladi: qovun-tarvuz, baxt-saodat, qozon-tovoq, gap-so`z kabi.

2.Qismlar o`zaro ma’nodosh (sinonim) so`zlardan tuziladi: baxt-saodat, orzu-havas, kuch-quvvat, asbob-uskuna.

3.Qismlari bir-biriga antonim bo`ladi: o`g`il-qiz, er-osmon, aka-uka, er-xotin.

Juft otlar quyidagicha yasaladi:

1.Juft otning har ikala qismi mustaqil ma’noli so`zlardan tuziladi: o`yin-kulgi, opa-singil

2.Juft otning bir qismigina mustaqil ma’noga ega bo`ladi: kiyim-kechak, bozor-o`char

3.Juft otning har ikki qismi mustaqil ma’noga ega bo`lmagan so`z bo`lishi mumkin: g`ala-g`ovur, dali-g`uli.

Juft otlar takrorlangan holda kelishi mumkin, lekin bunday ot yasama ot sanalmaydi: choy-poy, ish-pish, don-dun kabilar. Bunday juft otlar modal ma’no ifodalaydi.

Abbreviatsiya usuliga ko`ra turg`un so`z birikmalarini turli usullar bilan qisqartish orqali qisqartma ot hosil qilinadi. Qisqartma otlar abbreviaturalar deb yuritiladi. Bu usul bilan so`z yasash o`zbek tiliga rus tilidan o`zlashtirilgan bo`lib, nutqda ixchamlikka erishish maqsadida qo`llaniladi.

Hozirgi kunda rus tilidan aynan o`zlashtirilgan bir qator qisqartma otlar bir qatorda rus tilidagi qisqartma otlarning o`zbek tilidagi shakli ishlatilmoqda. GES, ZAGS – aynan o`zlashtirilgan, VAK – Vыsshaya Attestatsionnaya Komissiya, OAK – Oliy Attestatsiya komissiyasi, GA – gosudarstvennaya attestatsiya – DA – davlat attestatsiyasi kabilar o`zbekcha qisqartma shakli hosil qilingan. SHuningdek, o`zbek tilining o`z ichki imkoniyatlari asosida yasalgan yangi qisqartma otlar lug`at tarkibidan joy olmoqda: DTM, DAN, O`zFA kabi.

Qisqartma otlar tuzilish jihatdan quyidagicha bo`ladi:

1.Qisqartirilayotgan so`zlarning birinchi tovushlaridan tuziladi: BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti), XXR (Xitoy Xalq Respublikasi), DTM (Davlat test markazi); DAN (davlat avtomobil nazorati).

2.Qisqartirilayotgan so`zning bosh qismi va keyingi so`zlarning birinchi tovushlaridan: ToshDIU (Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti), O`zFA (O`zbekiston Fanlar Akademiyasi).

3.Birinchi so`zning bosh qismi va keyingi so`z to`liq olinadi: pedkolledj (pedagogik kolledj), pedamaliyot (pedagogik amaliyot).

4.So`zlarning bosh qismlaridan: Toshunivermag (Toshkent universal magazini), ...

**Otlarda modal shakl yasalishi**

Otlarda so`z o`zgarish, so`z yasalish xususiyatlari bir qatorda modal shakl yasash hodisasi ham mavjud.

Otlarning leksik ma’nosiga qo`shimcha modal ma’no qo`shilishi bilan hosil qilinadigan shakl modal shakl yasash deyiladi. Otlar o`z leksik ma’nosiga qo`shimcha kichraytish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik kabi modal ma’nolarni ifodalaydi.

Otlarda bu modal ma’nolar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik usul va takrorlash usuli.

Morfologik usulga ko`ra otning leksik ma’no ifoda etuvchi qismiga modal shakl yasovchi affikslarni qo`shish orqali modal ma’no yasaladi. Bu usulga ko`ra otlarning kichraytish, erkalash, hurmat kabi modal shakllari hosil qilinadi.

Otlarda modal shakl yasovchi affikslarga quyidagilar kiradi:

-cha: qizcha, uycha

-chak, -choq: kelinchak, qo`zichoq, toychoq

-loq, -aloq: joyloq, bo`taloq, qizaloq

-gina: bolagina, qizgina

-xon, -jon, -oy, -boy: otaxon, onajon, Ra’noxon, YUlduzoy, Karimboy.

Otni maxsus takrorlash yo`li bilan gumon, kamsitish, umumlashtirish, noaniqlik kabi modal ma’nolar yasaladi. Bu usulga ko`ra modal shakl hosil qilishda takrorlanuvchi qismda turli fonetik o`zgarishlar yuz beradi:

1.Ot unli tovush bilan boshlanganda, takrorlanuvchi qism boshqa p, m, s, ch, d, j, t tovush orttiriladi: un-pun, ot-pot, o`rik-mo`rik, irim-sirim, irim-chirim, imi-dimi, alang-jalang kabi.

2.Ot undosh tovush bilan boshlanganda, takrorlanuvchi qismdagi birinchi undosh p, m, s, ch, b tovushlaridan biri bilan almashtiriladi: loy-poy, mosh-posh, non-pon, bosh-mosh, poda-moda, patir-satir, meva-cheva, g`idi-bidi kabi.

3.Otning takrorlanuvchi qismida keng va cho`ziq unli qisqa va tor unli bilan almashadi: don-dun, xashak-xushak kabi.

4.Takrorlanuvchi qismda birinchi undosh ham, keng unli tovush ham almashadi: latta-putta kabi.

Ba’zan otning o`zi aynan hech o`zgarishsiz takrorlangan holda qo`llanib, kuchaytirish ma’nosini hosil qiladi: tog`-tog`, xirmon-xirmon kabi.

**Otlarning tuzilish jihatdan turlari**

Otlar tuzilishi jihatdan sodda ot, qo`shma ot, juft ot, qisqartma otlarga bo`linadi.

**1. Sodda ot** bir o`zak morfemadan tashkil topadi: daraxt, kitoblar, gulzor, uycha kabi.

**2. Qo`shma ot** ikki va undan ortiq o`zak morfemaning birikishidan hosil bo`ladi: belbog`, atirgul, oqsoqol kabi.

**3. Juft ot** ikki o`zak morfemaning o`zaro teng bog`lanishidan tuziladi: aka-uka, o`y-xayol, temir-tersak kabi.

**4. Qisqartma otlar** birikma qismlarini qisqartish yo`li bilan tuzilgan otlar: AQSH, MDH, O`zMU kabi.

**5. <u>Takroriy otlar</u>**: *choy-poy, in-iniga, tomir-tomiriga, don-dun, irim-sirim, yor-yor* (qo`shiq nomi).

Juft va takroriy otlar orasiga chiziqcha qo`yib yoziladi.

Agar juft otlar o`rtasida ikki otni bir-biri bilan bog`laydigan ***u, yu*** tovushlari bo`lsa, kirilcha yozuvda chiziqcha qo`yilmaydi: *Onayu bola - gulu lola*. Takroriy otlar bir otni takrorlash yordamida hosil qilinadi: *Aytilgan so`zlar **jon-jonidan** o`tib ketdi*. Tilimizda takrorlangan, so`zning boshida kelgan undosh ***p*** eki ***m*** **u**ndoshidan biriga almashadigan yoki unli tovushdan oldin ***p*** tovushi orttiriladigan *choy-poy, non-pon, qop-mop, osh-posh, pul-mul* kabi **takroriy** otlar ham bor.

| **Ot tahlili namunasi** | |
|---|---|
| 1. So`rog`i.<br>2. Ma'no turi (atoqli va turdosh otlar, turdosh otlar-ning turlari).<br>3. Birlik yoki ko`pligi (soni)<br>4. Kelishigi.<br>5. Egalik qo`shimchasi bo`lsa, | uning shaxs-soni aniqlanadi.<br>6. Kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma'nolari bo`lsa, aniqlanadi.<br>7. Tuzilish turi.<br>8. Tub yoki yasamaligi.<br>9. Gapdagi sintaktik vazifasi. |

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Otlardagi birlik ma'nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
2. Otlardagi ko`plik ma'nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
3. Qanday otlar faqat birlikda qo`llanadi?
4. Faqat birlikda qo`llanadigan otlarga **-lar** qo`shimchasi qo`shilsa, qanday ma'no ifodalanadi?
5. **-lar** qo`shimchasi yana qanday turkumdagi so`zlarga qo`shiladi va qanday ma'nolarni ifodalaydi?
6. Otlarning turlanishi deganda nimani tushunasiz?
7. Kelishiklarni qo`shimchalari bilan aytib bering.
8. Qaysi kelishikdagi otlar qanday so`zlarga bojlanishi haqida gapiring.
9. Belgili va belgisiz kelishiklar haqida gapiring.
10. Qaysi kelishik qo`shimchalari qisqaradi?
11. Egalik qo`shimchalari qanday ma'noni ifodalaydi?
12. Egalik qo`shimchalari bilan bojliq tovush o`zgarishlari haqida gapiring.
13. Kichraytirish, erkalash

# KLASTER

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi

**(**Klaster-tutam, bog'lam**)**-axborot xaritasini tuzish yo'li-

# KLASTERNI TUZISH QOIDASI

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang.
Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing

| **4-Ma’vzu** | **Sifat va uning grammatik, morfolik xususiyatlari hamda sintaktik vazifalari** |
|---|---|

(Ma’ruza-2soat)

| | |
|---|---|
| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Axborat ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1.Sifatlarning grammatik xususiyatlari.<br>2. Asliy va nisbiy sifatlar.<br>3. Sifat darajalari. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Sifatlarning grammatik xususiyatlari, asliy, nisbiy sifatlar va sifat darajalari haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Sifatlarning grammatik xususiyatlari. | Sifatlarning grammatik xususiyatlari haqida ma’lumot . |
| Asliy va nisbiy sifatlar. | Asliy va nisbiy sifatlar ma’lumot aytish. |
| Sifat darajalari | Sifat darajalari haqida ma’lumot berish. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki savollar blis – so’rov |

**Sifat va uning grammatik, morfolik xususiyatlari hamda sintaktik vazifalari mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**T aya n ch i b o r a s i:** Sifatlarning grammatik xususiyatlari, asliy va nisbiy sifatlar, sifat darajalari.

**Sifat**

Predmetning doimiy, o`zgarmas belgisini ifodalaydigan so`zlar sifat deyiladi.

Sifat mustaqil so`z turkumi sifatida uch xil belgiga ega:

1. Leksik-semantik belgi. Sifat belgi ma’nosini bildiradi.

2. Morfologik belgisi: Sifat qanday?, qanaqa?, qaysi? so`roqlaridan biriga javob bo`ladi. Sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi keng bo`lib, ma’nosiga ko`ra bir necha guruhga ajratiladi:

a) rang-tus ma’nosini bildiradigan sifatlar: oq, qizil, sariq, havo rang, kul rang, yashil, zangori;

b) hajmi ma’nosini bildiradi: keng, tor, baland, past, uzun, chuqur, yirik, mayda;

v) shakl va ko`rinish ma’nosini bildiradi: dumaloq, yassi, egri, qiyshiq, do`ng;

g) maza-ta’m ma’nosini bildiradi: shirin, achchiq, nordon, sho`r, taxir, chuchmal, bemaza;

d) xarakter-xususiyat ma’nosini bildiradi: muloyim, odobli, shirinso`z, chaqqon, sho`x, yalqov, dangasa, chechan, qo`rs, qaysar. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni ifodalaydi;

e) hid ma’nosini bildiradi: sassiq, qo`lansa, badbo`y, xushbo`y, muattar;

j) holat ma’nosini bildiradi. Holat bildiruvchi sifatlar ikki xil bo`ladi:

1) psixik holatni ifodalaydi: xursand, xafa, shod, kasal, injiq;

2) tabiiy holatni ifodalaydi: yosh, qari, keksa.

Sifat belgini bevosita yoki bavosita ifodalaydi. Predmetning doimiy belgisini bildiradigan belgini bevosita ifodalaydigan sifatlar asliy sifat deyiladi. Sifatning yuqoridagi ma'no turlari sifatni bevosita ifodalaydi.

Asliy sifatlar belgini darajalab ko`rsata oladi: katta, kattaroq, eng katta kabi.

Juft sifatlar asosan asliy sifatlardan tarkib topadi: yosh-qari, yaxshi-yomon kabi.

Belgini bavosita, ya'ni biror narsa va hodisaga nisbat berish, o`xshatish orqali ifodalaydigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi.

Nisbiy sifatlar boshqa so`z turkumlaridan yasaladi va xoslik, o`xshashlik, o`rin yoki paytga munosabat, mo`ljal ma'nolarini bildiradi:

a) xoslik ma'nosini ifodalaydigan sifat ot turkumidagi so`zga –iy, -viy qo`shimchasini qo`shish bilan yasaladi: zamonaviy, oilaviy, ma'naviy, siyosiy;

b) o`xshashlik ma'nosini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so`zga –simon, -sifat affikslarini qo`shish bilan yasaladi: odamsimon, hayvonsifat, devsifat;

v) o`rin va payt ma'nolarini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so`zlarga –gi, -qi, -ki, -dagi affikslarini qo`shish bilan yasaladi: qishki, yozgi, bahorgi, bulturgi, tushki, kechki;

g) mo`ljallanganlik, xoslik, o`lchov ma'nolarini ifodalovchi sifatlar ot turkumidagi so`zlarga –lik affiksini qo`shish bilan yasaladi: ko`rpalik, ko`rpachalik, toshkentlik, ko`ylaklik.

Sifat ba'zan ravish o`rnida qo`llanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin: ma'noli gapirmoq, chiroyli yozmoq, yaxshi o`qimoq kabi.

Sifatning belgisini darajalab ko`rsatishi (qizil, qizilroq, eng qizil, qip-qizil), yasalish sistemasiga egaligi otlashishi uning morfologik belgilaridan hisoblanadi.

3. Sifatning sintaktik belgisi. Sifat gapda otga, ba'zan fe'lga bitishuv usuli orqali bog`lanadi va o`zi bog`lanib kelayotgan so`zga tobelanadi.

Sifat otga bog`lanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Misol: Biz do`stlarning eng yaxshi do`sti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin. (YO.SHukurov).

Sifat fe'lga bog`lanib kelganda vaziyat holi vazifasini bajaradi. Misol: YUlduzlar odatdagidan ko`ra toza, kattaroq, yorqinroq ko`rinardi. (P.Qodirov).

## Sifat darajalari

Predmetlardagi bir xil belgini miqdorga ko`ra nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajasi deyiladi. Sifatlarda uch xil daraja bor:

1) oddiy daraja
2) qiyosiy daraja
3) orttirma daraja

Predmetning belgisi boshqa predmetdagi xudi shunday belgiga qiyos qilinmasa, oddiy darajadagi sifat deyiladi. Oddiy darajadagi sifat belgining me'yorida ekanini ko`rsatadi va u maxsus ko`rsatkichga ega bo`lmaydi: go`zal tabiat, shirin qovun, keng hovli.

2) qiyosiy daraja. Predmet belgisining boshqa predmetdagi xudi shunday belgidan ortiq yoki kam ekanligining ifodalaydigan sifatlar qiyosiy darajadagi sifat deyiladi. Qiyosiy daraja leksik-morfologik usul bilan hosil qilinadi.

Oddiy darajadagi sifatga –roq affiksini qo`shish yordamida yasaladi. Bunda gap mazmunidan chog`ishtirish, qiyoslash ma'nosi anglashilib turadi. Misol: SHu lahzada unga Farhod har vaqtdagidan donoroq va hatto savlatliroq ko`rinib ketdi. Donoroq, savlatliroq sifatlaridan oldin kelgan chiqish kelishigidagi so`z (har vaqtdagidan) qiyoslash mazmun

munosabatini ifodalayapti. O`shandan buyon halol dehqonchilik qiladi; o`rtadan ko`ra pastroq... xo`jaligi bor. (A.Qahhor). Bu misolda pastroq belgini kamligi bildiryapti, qiyoslash ma'nosini o`rtadan ko`ra so`zlari ifodalayapti.

Qiyosiy darajadagi sifat oldidan sal, picha, och, bir oz, xiyol, aytarli so`zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: sal baland, bir oz baland, picha kattaroq, xiyol achchiqroq.

Fonetik usul. Unlilar cho`zib, undoshlar esa ikkilantirilib aytiladi: baland, chuquur, tekkis kabi.

**Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar.**

Sifat belgini ozaytirib yoki kuchaytirib ifodalashiga ko`ra ikki xil bo`ladi:

a) ozaytirma sifat;

b) kuchaytirma sifat.

Ozaytirma sifat o`zakdan anglashilgan belgining me'yoridan ozligini bildiradi. Ular morfologik va leksik usullar bilan yasaladi:

1. Morfologik usul. Sifatlarga –ish, -imtir, -mtir affikslarini qo`shib ozaytirma sifat hosil qilinadi: ko`kish, qizg`ish, oqimtir, qoramtir. –ish qo`shimchasi qo`shilgan ba'zi sifatlar o`zagida tovush o`zgarishlari sodir bo`ladi: sariq+ish-sarg`ish. Bu so`zda o`zakdagi i unlisi tushib qolgan, q undoshi g` undoshiga almashgan. Qizil sifatiga -ish qo`shilishi bilan o`zakdagi –il tovushlari tushib, g` tovushi orttirilgan.

Sifatlarga –gina, -kina, -qina affikslari qo`shilib, belgilarni kuchsizlantirish ozaytirishi mumkin. Bunda –k bilan tugagan sifatlarga –kina, -q bilan tugagan sifatlarga -qina, qolgan sifat shakllariga –gina affiksi qo`shiladi. Misol: tuzukkina, oriqqina, sariqqina, kattagina.

2. Leksik usul. Sifatning oldidan och, nim so`zlarini keltirish bilan belgi kamaytiriladi: och pushti, nimqizil.

Kuchaytirma sifatlar o`zakdan anglashilgan belgining ortiqligini bildiradi. Kuchaytirma sifatlar leksik va morfologik usul bilan hosil qilinadi.

A) Morfologik usul. Bu usulda sifatni tovush o`zgarishlari orqali takrorlash yo`li bilan:

- Sifatning birinchi bo`g`ini ikkinchi bo`g`inidagi undosh bilan takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun

- Sifatning birinchi bo`g`iniga –p undoshi qo`shib takrorlanadi: sap-sariq, qip-qizil.

- Sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib unga p, m tovushlaridan biri qo`shiladi va undan keyin so`zning o`zi takrorlanadi: yap-yangi, ko`m-ko`k.

- Sifatning birinchi bo`g`inidan keyin ppa shakli qo`shiladi: soppasog`, to`ppato`g`ri.

b) Leksik usul. Sifat tovush o`zgarishlarisiz takrorlanib orttirma daraja hosil qilinadi: katta-katta

Qiyosiy darajadagi sifat oldida ma'noni kuchaytiruvchi yana, yanada, yana ham so`zlari kelishi mumkin: yanada yaxshiroq, yana ham balandroq, yana jonliroq.

3) Orttirma daraja. Predmetdagi belgining boshqa predmetdagi shunday belgiga nisbatan eng ko`p, oliy darajada ekanligini ifodalash orttirma daraja deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli leksik usul bilan ifoda qilinadi.

Oddiy darajadagi sifat oldidan eng, juda, nihoyatda, behad, g`oyat, g`oyatda, hammadan kabi so`zlarni keltirish bilan: juda chiroyli, nihoyatda shirin, g`oyatda mehribon kabi.

Leksik usulda ba'zan belgi bildiruvchi sifatlar o`rnida boshqa so`zlar ishlatilishi mumkin: zahar (garmdori), olov (sho`x).

Leksik usul.

Sifat tovush o`zgarishlarisiz takrorlash orqali ham orttirma daraja hosil qilinadi: katta-katta, shirin-shirin.

- sifat oldidan to`q, jiqqa, tim, g`irt kabi so`zlarni keltirish bilan: jiqqa ho`l, tim qora.
- sifat oldidan so`z birikmalari va iboralarni qo`llash orqali: haddan ziyod (chiroyli), quling o`rgilsin (jonon).

Morfologik usulda sifatni tovush o`zgarishlari orqali takrorlash yo`li bilan. Bunda:

- sifatning birinchi bo`g`ini ikkinchi bo`g`inidagi undosh bilan takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun kabi.
- sifatni birinchi bo`g`inidagi p undoshi qo`shib takrorlanadi: sap-sariq, qip-qizil.
- sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib, unga p,m tovushlaridan biri qo`shiladi va undan keyin so`zning o`zi takrorlanadi: yap-yangi, ko`m-ko`k.
- sifatning birinchi bo`g`inidan keyin –ppa shakli qo`shiladi: soppa-sog`, to`ppa-to`g`ri.

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Sifatning ta'rifi va so`roqlarini ayting.
2. Sifatning ma'no jihatdan turlarini misollar bilan ko`rsating.
3. Asliy va nisbiy sifatlar haqida gapiring.
4. Sifat darajalari deb... (davom ettiring).
5. Orttirma daraja hosil qilishning leksik va morfologik usullari haqida gapiring.
6. Orttirma daraja hosil qilishning semantik va fonetik usullari haqida gapiring.
7. Qiyosiy daraja qanday ifodalanadi?
8. Ozaytirma daraja qanday yasaladi?

| **5-Ma’vzu** | **Son – so’z turkumi** |
|---|---|

(Ma’ruza-2soat)

| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
|---|---|
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Axborat ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Sonning morfologik, sintaktik vazifalari va ma’no jihatdan turlari.<br>2. Sonlarning otlashishi.<br>3. Sonlarda hisob so’zlari.<br>4. Sonlarning tuzilish. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Sonning morfologik, sintaktik vazifalari va ma’no jihatdan turlari shuningdek, otlashishi, hisob so’zlari, tuzilishi haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Sonning morfologik, sintaktik vazifalari va ma’no jihatdan turlari. | Sonning morfologik, sintaktik vazifalari va ma’no jihatdan turlari haqida ma’lumot berish. |
| Sonlarning otlashishi. | Sonlarning otlashishi haqida ma’lumot berish.. |
| Sonlarda hisob so’zlari. | Sonlarda hisob so’zlari haqida ma’lumotga ega bo’lish. |
| Sonlarning tuzilish. | Sonlarning tuzilish jihatdan turlari haqida ma’lumot aytish. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki savollar blis – so’rov |

**Son – so’z turkumi  mavzusi bo‘yicha**
**texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 4 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi.<br>2.4-reja bo’yicha ma’lumot aytiladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**T a ya n ch  i b o r a s i:** Sonning morfologik, sintaktik vazifalari va ma’no jihatdan turlari, sonlarning otlashishi, tuzilishi, hisob so’zlar.

**Son**

Predmetning miqdorini, sanog`ini, joylashish tartibini, ba’zan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil so`z turkumi son deyiladi. Son necha? nechanchi? nechta? qancha? kabi so`roqlardan biriga javob beradi.

Son otga bog`lanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, ba’zan fe’lga bog`lanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: to`rtta daftar, ikki oy o`qidi, birinchi keldi kabi. Arifmetik amallarda esa son otga, fe’lga bog`lanmagan holda keladi. Bunda son ifodalagan miqdor mavhum ma’noga ega bo`ladi: ikki qo`shuv uch besh. Arifmetik hisoblashda qanday predmetlar miqdorining qo`shilishi bilan besh hosil bo`lishi aniq emas.

Sonlar ko`pincha raqamlar bilan yoziladi:

1) arab raqamlari bilan *0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.*

2) rim raqamlari bilan: ***birliklar:*** *I (1), II (2), III(3), IV(4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9);* ***o`nliklar****: X (10), XX(20), XXX(30), XL(40), L (50) LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC(90);* ***yuzliklar****: C (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900);* ***mingliklar****: M (1000), MM (2000), MMM (3000) ...*

Badiiy asarlarda sonlar so`z bilan yoziladi: ***To`rt*** *yil kutdi.*

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan **23** ta sodda son bo`lib, boshqa sonlar shularning qo`shilishidan hosil bo`ladi: *nol, bir, ikki, uch, to`rt, besh, olti, etti, sakkiz, to`qqiz, o`n, yigirma, o`ttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, to`qson, yuz, ming, million, milliard.*

Eski yozuv tilida tuman (o`n ming), lak (yuz ming) kabi sonlar bo`lgan. Tarixiy asarlarda manna shu sonlar uchraydi.

Son predmetning aniq (beshta daftar) yoki noaniq (besh-oltita daftar) miqdorini bildirishi mumkin. Lekin har ikki holda ham son yozuvda raqam bilan ifodalanagan. Ravish so`z turkumiga doir ko`p, oz, kam, mo`l kabi so`zlar ham predmetning noaniq miqdorini bildiradi, lekin bu so`zlar raqam bilan ifodalanmaydi. SHuning uchun ham bu so`zlar son so`z turkumiga oid emas.

Son so`z turkumi o`ziga xos quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega:

1. Sonning leksik-semantik xususiyati uning belgi ma’nosini ifodalashidir, ya’ni predmetning miqdor, sanoq va joylashish tartibiga ko`ra (ba’zan harakatning joylashish tartibi, miqdoriy belgisi) belgisini anglatadi. Demak, son miqdor tushunchasining nomi bo`ladi.

2. Son ma’no jihatdan predmetning sanog`ini, donasini, taxminiy miqdorini, umumiy miqdori (jamligi), taqsimlanish miqdori, joylashish tartibi; shuningdek ish-harakatning bajarilish tartibi, miqdori kabi modal ma’nolarni ifodalaydi. SHu ma’no xususiyatlariga ko`ra son ikki turga: sanoq son va tartib sonlarga bo`linadi. Sonning ma’no turlarini hosil qiluvchi maxsus modal shakl yasovchi affikslar mavjud: uchta, beshovlon, ikala, yuzlab, to`rttadan, uch-to`rt, o`ninchi kabi. Bu affikslar faqat sonlargagina qo`shiladi.

3. Son morfologik jihatdan o`zgarmaydi, ya’ni egalik, kelishik, ko`rlik affikslarni olmaydi, chunki son asosan otga bog`lanib kelib, aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Uy egasi Otabekning yoniga ikkita yostiq olib qo`ydi va bittani o`z yonboshiga ham oldi. (A.Qodiriy.)*

Son hech qachon belgi ifodalovchi so`zni o`ziga tobe qilib kelmaydi - aniqlovchi olmaydi.

Son ba’zan fe’lga bog`lanib kelib, harakatning miqdoriy belgisini anglatganda, hol vazifasini bajaradi: *Otabek qutidor tomonidan quvilganidan keyin, Marg`ilonga etti-sakkiz marta kelibdi (A.Qodiriy.)*

4. Son bog`lanib kelgan ot qo`llanmaganda, otga qo`shilib kelgan so`z o`zgartiruvchi affikslar, ya’ni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi ko`plik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan o`zgargan son otlashgan son sanalib, gapda ot bajargan ega, to`ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: *Birov tosh, birov gul, o`z joyida ikkovi ham yaxshi (SHukrullo). Bilagi zo`r birni  yiqar, bilimi zo`r mingni. (Amir Temur o`gitlari). O`nning yarmi besh.*

Otlashgan son  fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalashi uchun xizmat qiladi. (Maqol, matal, aforizmlarda ko`p uchraydi) Sonning hamma turlari ham morfologik jihatdan o`zgarmaydi (chama son –tacha, -lab, -lar kasr songa qo`shilmaydi).

5. Sonlarning hisob so`zlari (numerativlar) bilan birga qo`llanishi uni boshqa so`z turkumlaridan ajralib turuvchi o`ziga xos belgilaridan biri sanaladi. Hisob so`zlari ot so`z turkumiga doir bo`lib, u son bilan bog`lanib kelgan ot va fe’l orasida ishlatiladi: ikki tup daraxt, besh  kilogramm olma, o`n kilometr yurdi, to`rt sahifa o`qidi kabi.

Sonlar hisob so`zlari bilan ham, hisob so`zlarisiz ham qo`llanadi (Bu so`zlar haqida quyida to`xtalamiz).

6. Son  so`z yasalish tizimiga ega emas. Boshqa so`z turkumlaridan son yasalmaydi. Lekin sondan boshqa so`z turkumlari yasalishi mumkin: birlik, beshlik (ot), ikkilan (fe’l), bittalab (ravish) kabi.

***Bir* sonining o`ziga xos grammatik xususiyatlari.**

Sonlar ichida ***bir*** soni o`ziga xos grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bir soni yuqorida qayd etilgan sonlarga xos leksik-grammatik xususiyatlarga ega bo`lishi bilan birga o`ziga xos ayrim xususiyatlarga ham ega:

1. Ilgari tilga olinmagan predmet nomini ifodalaydigan ot oldida kelib, gumon noaniqlik ma’nosini ifodalaydi: Maqsud aka Oybek ikkovimizga kula-kula bir voqeani aytib bergan edi. (Z.Saidnosirova.)

Miqdor anglatadigan so`zlari so`roq olmoshlari yoki narsa so`zidan oldin bir so`zini kiritish bilan gumon, noaniqlik ma’nosidagi ravishlar yasaladi: bir necha, bir qancha, bir nima, bir narsa, bir zum, bir payt kabi.

Bir so`ziga –ov, -on, -or affiksi qo`shilishi bilan ham gumon ma’nosini bildiruvchi gumon olmoshlari yasaladi: *birov, biron, biror* kabi.

2. Bir soni fe’l, ot, sifat, ravish oldida kelib, kuchaytiruv ravishi (juda, g`oyat) va kuchaytiruv yuklamasi (hatto) kabi ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Bir chiroyli, bir yoqimli shamol turdi (Said Ahmad).*

3. Bir soni sifatlovchi-sifatlanmish orasida kelganda ham ma’noni kuchaytiradi: *Gulnor uchun ulug` <u>bir</u> baxt shu uchrashuv bo`ldi (A.Q.) Juvon asabiy bir harakat bilan ro`molini olib o`radi (A.Q.).*

4. Ayiruv chegaralov yuklamalari (-gina, faqat) vazifasini bajarib, ayirish, chegaralash kabi ma’nolarni ifodalaydi: *Kamtarlik ham <u>bir</u> xislat («Tafakkur gulshani»). Mening ishonchim <u>bir</u> sensan.* Bunda bir so`zi –gina, faqat vazifasini bajargan.

5. Bog`lovchi vazifasida kelib, uyushiq gap bo`laklarini yoki qo`shma gap qismlarini bog`lashga xizmat qiladi: *Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning (Maqol).*

6. Bir soni o`zi bog`lanib kelgan so`z bilan «hech kim», «hech qanday» olmoshlar ma’nosida keladi: *Kunlik normasini bajarmagan bir kishi qolmadi.*

7. Kesim vazifasini bajarib kelganda, birdamlik, o`xshashlik, umumiylik ma’nosini ifodalaydi: *Kemaga tushganning joni bir (Maqol). Odamning tili bilan dili bir bo`lsin.*

*Bir* sonidan olmosh, ravish, ot va fe’l yasaladi: *bir necha, bir narsa, bir zum, bir payt, bir vaqt, birlik* kabi.

**Sonning ma’no turlari**

Son ma’no jihatdan va grammatik xususiyatlarga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: sanoq sonlar va tartib sonlar.

Sanoq son predmet yoki ish-harakatning sonini, miqdorini, belgisini bildiradi: uch bola, ikkita kitob, besh tonna paxta, olti kilogramm sotib oldi kabi.

Sanoq sonlar hisob so`zlarisiz va hisob so`zlari bilan qo`llanish xususiyatiga ega: ikkita qalam, besh talaba, o`ntacha o`quvchi - hisob so`zlarisiz; olti tup daraxt, uch litr sut, o`n oy o`tdi, ikki marta chaqirdi - hisob so`zlari bilan kelgan.

Hisob so`zlari ko`p hollarda predmetning, ba’zan ish-harakatning hisobini ko`rsatuvchi o`lchov birligi bo`lib, u orqali predmetning ish harakatning miqdori belgilanadi. Hisob so`zlar sanoq son bilan sanaladigan predmet, ish-harakat anglatuvchi so`z orasida kelib, ularni og`irligiga, uzunligiga, hajmiga, vaqtiga va shunga o`xshash xususiyatlarga ko`ra o`lchovini bildiradi: ikki bosh uzum, uch kilogramm olma, bir qultum suv, ikki gektar er kabi.

O`zbek tilida hisob so`zlari ot so`z turkumiga oid bo`lib, ular qo`llanilishiga ko`ra quyidagi ma’nodagi otlarni o`z ichiga oladi:

1. Predmetni yakkalab, donalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: dona, nusxa, bosh, tun, nafar kabi.

2. Butunning bo`lagini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: burda, parcha, varaq, og`iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, xarch, qop, arava, mashina, chaqmoq kabi.

3. Juft predmetlar hisobini ko`rsatuvchi hisob so`zlari: juft, par, jo`ra kabi.

4. Og`irlikni o`lchash uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: gramm, kilogramm, tsentner, tonna kabi.

Eski o`zbek tilida misqol, qadoq, botmon kabi otlar og`irlik miqdorini hisoblash uchun ishlatilgan: Namangan va Andijon tumanlarida ikki ming botmongacha er sug`orilar edi. (A.Qodiriy)

5. Uzunlik o`lchovi uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: millimetr, santimetr, metr, kilometr, qadam, qarich, quloch kabi.

Bu hisob so`zlarining gaz, tanob, tosh, chaqirim kabi sinonimlari mavjud bo`lib, hozir bu so`zlar arxaiklashgan hisob so`zlari sanaladi.

6. Suyuqlik hajmini ifodalovchi hisob so`zlari: litr, kosa, stakan, piyola, qoshiq, xo`plam, hovuch, chelak kabi.

7. Pul qiymatini ifodalovchi hisob so`zlari: *tiyin, so`m, dollar* kabi.

*Tanga, chaqa, tilla* so`zlari ilgari pul qiymatini hisoblash uchun ishlatilgan bo`lib, hozirgi kunda arxaik so`zlar qatoridan o`rin olgan: Solix mahdum ... bir tangalik go`sht, sakkiz pullik piyoz olib hovliga kirdi (A.Qodiriy).

8. Vaqt o`lchovi uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: asr, yil, oy, hafta, sutka, kun so`zlari hamda sutkaning bo`laklarini ifodalovchi soat, daqiqa, minut, sekund kabi so`zlar kiradi.

Asr, yil, oy, hafta, sutka, kun so`zlari turli kelishik affikslarini olib kelishi, shuningdek, ko`makchilar bilan birga ham qo`llanishi mumkin: Oybek 30-yillardan boshlab Alisher Navoiy hayoti va ijodi to`g`risida materiallar yig`a boshlagan edi (Z.Saidnosirova).

9. YOsh hisobi uchun qo`llanadigan hisob so`zlari: yosh, yashar, kunlik, oylik kabi.

10. Harakat miqdorini ko`rsatish uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: marta, karra, bor, hissa, qatla, daf’a, sidra kabi.

Sanoq son ma’no xususiyatlariga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: 1) miqdor son; 2) dona son; 3) chama son; 4) jamlovchi son; 5) taqsim son.

Miqdor son bir turdagi predmetlarning umumiy miqdorini, ba’zan ish-harakatning umumiy miqdoriy belgisini anglatadi: uch kishi, ikki qop guruch, besh yil o`qimoq kabi.

Sizga munosib yigit, balki etti iqlimda ham yo`qdir (P.Qodirov). Tejamkor kishi pulini keragidan ortiqcha sarflamaydi, o`n so`mga olinadigan narsa uchun hovliqib yuz so`m sarf etmaydi («Odob bo`stoni va axloq gulistoni»).

Miqdor sonlar hisob so`zlarisiz va hisob so`zlari bilan qo`llanadi.

Miqdor sonni hosil qiluvchi shakl yasovchi affikslar mavjud emas.

Dona son bir xil predmetlarning yakkalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatadi.

Dona son miqdor son negiziga –ta affiksini qo`shish bilan yasaladi: o`nta o`quvchi, beshta daftar kabi. SHuningdek, dona son miqdor sondan so`ng donalikni ifodalaydigan dona, tup, nusxa, nafar, tuyoq, bosh kabi hisob so`zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: yuz nusxa kitob, ikki bosh qo`y, besh dona qalam, uch tup daraxt kabi.

*G`avvoslarning rahmi kelib, unga bitta qimmatbaho tosh hadya qildilar («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»). Vaqti kelsa, o`nta quruq gapdan bitta dalil, o`nta qonun-qoidadan bitta amaliy mashg`ulot a’lo (A.Soliev). Gulshan kirganida uch nafar kaniz sanoliya tikmoqda edi (AQodiriy). Javonda Abu Ali ibn Sino hazratlarining tibbiyot masalalariga oid yigirma jildlik «Kitob ush shifo»si turardi. (O.YOqubov).*

Jamlovchi son bir turdagi predmetlarning miqdorini jamlab, to`dalab ko`rsatadi.

Jamlovchi son miqdor songa quyidagi affikslarni qo`shish bilan hosil qilinadi:

1. Miqdor songa –ov affiksini (ikkidan ettigacha bo`lgan sonlarga) qo`shish bilan: ikkov, uchov, to`rtov, beshov, oltov, ettov kabi. Ba'zan o`n sonidan ham yasaladi o`novi kabi. Bu affiks bilan yasalgan son otlashgan holda kelib, doimo egalik affikslari bilan birga (I shaxs birlik egalik affiksidan tashqari) qo`llanadi. YA'ni ular ko`pchiligi predmetning miqdoriga ko`ra belgisini ko`rsatmaydi, miqdor ma'nosi bilan birga predmetlik ma'nosini anglatadi: Ular ikkovi birining og`zidan biri olib, Qobilni past urib, Anvarni maqtab ketdilar (A.Qodiriy). Maqsud akaning qaytganini eshitganimiz hamon Oybek men Mirtemir uchchovimiz suyunib yugurdik (Z.Saidnosirova).

2. Miqdor songa –ala affiksini qo`shish bilan yasaladi: ikala, uchala, to`rtala, beshala kabi. Olti va etti sonlariga ham qo`shiladi. (Ikki va olti sonlariga qo`shilganda negiz oxiridagi i unlisi tushib qoladi). To`shaboy ikala otni jilovidan ushlab tolning naryog`iga olib o`tib ketdi (S.Ahmad).

3. Miqdor songa –ovlon affiksini qo`shish bilan yasaladi: ikkovlon, uchovlon. Bu affiks ham ikkidan ettigacha bo`lgan sonlarga qo`shiladi: Oltovlon ola bo`lsa og`zidagin oldirar, to`rtovlon tugal bo`lsa tepadagin endirar (Maqol).

Otga bog`lanib kelgan jamlovchi son sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: Haqiqat uchun, Vatan uchun jonini ayamagan ikala pahlavon sal o`tmay jangda mardona halok bo`ldi. (SHukrullo)

Lekin jamlovchi son gapda ko`pincha ega, to`ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: Ikkovlari kech salqinda adir tagida bitta-bitta yurib ketishyapti (S.Ahmad.). Uchalasining maqsadi bir. Talabalarning beshoviga ham mukofot topshirildi.

Taqsim son predmetlarning miqdor jihatdan teng taqsimlanishini, guruhlanish miqdorini anglatadi.

Taqsim son quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga –tadan affiksini qo`shish bilan: Azim har elkasiga to`rttadan odam sig`adigan yigit bo`libdi (A.Qahhor).

2. Donalik anglatadigan sonni takrorlash yo`li bilan: bitta-bitta, uchta-uchta kabi. Ba'zan so`nggi qismga –dan chiqish kelishigi affiksi qo`shilishi ham mumkin: bitta-bittadan, uchta-uchtadan kabi.

3. Miqdor sonlarning takrorlanishi bilan yasaladi: ikki-ikki, uch-uch kabi.

CHama son predmetning, ish-harakatning noaniq, taxminiy miqdorini anglatadi.

CHama son quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga –tacha affiksini qo`shish bilan: beshtacha, o`ntacha, yuztacha kabi. Ikki tomonga uch qavatdan oltmishtacha joy qilingan. (A.Q.)

Hisob so`zlari bilan birga qo`llanadigan sonlarda –cha affiksi hisob so`ziga qo`shilib keladi: Ikala to`rg`ay taxminan bir-birlaridan ellik metrcha narida uchib sayrashyapti (S.Ahmad).

2. Miqdor son negiziga –larcha affiksini qo`shish bilan (miqdor jihatdan yirik sonlarga qo`shiladi): o`nlarcha, yuzlarcha, minglarcha kabi: Menga bir bechora, notavonning sevinch ko`z yoshi minglarcha qimmatbaho toshlardan afzaldir («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»).

3. Miqdor son negiziga –lab affiksini qo`shish bilan (bu affiks ham miqdor jihatdan yirik sonlarga qo`shiladi): o`nlab, yuzlab, minglab kabi: O`zbekistonda butun jahondan yig`ilgan yuzlab millatlar va elatlar yashaydi («O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh»).

4. Ketma-ket kelgan ikki sonni juft holda keltirish orqali: bir-ikki, uch-to`rt kabi: Hanifa xolaning sandig`ida bo`lajak kelinga atab yig`ilgan besh-o`n kiyimlik atlas va boshqa yaxshi matolar bor edi (B.Qodirov).

Ba'zan –ta affiksi bu juft sonlarning har bir qismiga yoki ikkinchi qismiga qo`shilib keladi: bitta-ikkita, uch-to`rtta kabi: Daraxtlar orasidan sarg`ayib bir-ikkita yulduz ko`rindi (O`.Umarbekov).

5. Hisob so`zlari bilan qo`llangan miqdor sonlarga –lar ko`plik affiksi hamda kelishik affiksini qo`shish bilan yasaladi. Bunda ko`pincha vaqt bildiruvchi hisob so`zi oldin keladi: *Saida uyga kech soat o`n birlarda qaytdi (A.Qahhor).* bunda ish-harakatning bajarilishidagi payt, vaqtga nisbatan taxmin ma'nosi ifodalanadi.

Ba'zan bu affikslar hisob so`ziga ham qo`shiladi: Ro`zimat qorong`ida ko`ziga yigirma besh yoshlarda ko`ringan edi. (A.Qahhor)

5. CHama sonlar taxmin ma'nosini ifodalovchi *chamasi*, *chog`li*, *taxminan*, *qariyb*, *shuningdek yaqin*, *ortiq*, *kamida* kabi so`zlarning ishtiroki bilan ham hosil qilinadi: *Maktabda o`n chog`li bola yig`ilgan (O). Ko`chalarning ikki yuziga sakson besh mingdan ortiqroq ko`chat o`tkazildi (A.Qahhor).*

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Qanday so`zlarga son deyiladi?
2. Sonning nomini bildiradigan sonlar qanday qo`shimchalarni olishi mumkin?
3. Narsa-buyumlarning son-sanojini bildiradigan sonlarni so`zlarga bojlab 5 ta misol keltiring.
4. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanadi?
5. Nutqimizda tez-tez qo`llanadigan 23 ta sodda sonni birma-bir sanang.
6. Eskirgan sonlarga misol keltiring.
7. Butun va kasr sonlarning o`zaro farqini tushuntiring.
8. Kasr sonning turlari haqida gapiring.
9. Aralash sonlar haqida gapiring.
10. Miqdor sonlar haqida gapiring.
11. Hisob so`zlarining ma'no guruhlari haqida gapiring.
12. "Bir" so`zining qanday ma'nolari bor?
13. Dona va tartib sonlar haqida gapiring.
14. Chama sonlar qanday hosil qilinadi?
15. Jamlovchi sonlar qanday hosil qilinadi?
16. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi?
17. Ot, sifat turkumidan yasalgan sonlarga 4 ta misol keltiring.
18. Otlashgan sonlar qanday qo`shimchalarni oladi?
19. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari haqida gapiring.
20. "Beshtacha kitob" birikmasidagi sonni yoddan to`liq tahlil qilib bering.
21. Omonimlik xususiyatiga ega bo`lgan sonlar haqida gapiring.
22. Sinonimlik xususiyatiga ega bo`lgan sonlar haqida gapiring.

| **5-Ma’vzu** | **Olmosh – so’z turkumi** |
|---|---|

(Ma’ruza-2soat)

| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
|---|---|
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Axborat ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Olmoshning morfologik, sintaktik vazifalari.<br>2. Olmoshning ma’no jihatdan turlari.<br>3. Olmoshlarning tuzilishi. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Olmoshning morfologik, sintaktik vazifalari va ma’no jihatdan turlari shuningdek, tuzilishi haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Olmoshning morfologik, sintaktik vazifalari. | Olmoshning morfologik, sintaktik vazifalari haqida ma’lumot berish. |
| Olmoshning ma’no jihatdan turlari. | Olmoshning ma’no jihatdan turlari haqida ma’lumot berish.. |
| Olmoshlarning tuzilishi. | Olmoshning tuzilishi jihatdan turlari haqida ma’lumot aytish. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki savollar blis – so’rov |

**Olmosh – so’z turkumi mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Insert” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a s i:** Olmoshning morfologik, sintaktik vazifalari, ma’no jihatdan turlari va tuzilishi.

**O L M O SH**

**1-§. Olmoshning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari**

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba’zan so`z birikmasi va gap o`rnida qo`llana oladigan, aniq lug`aviy ma’noga ega bo`lmagan so`z turkumi **olmosh** deb ataladi: 1) ot o`rnida: ***Karim*** *juda quvondi, chunki* ***u*** *o`z orzusiga erishgan edi.* 2) sifat o`rnida: ***Kechagi*** *kitobingni berib tur, men* ***shu*** *kitobdan misollar olmoqchiman.* 3) son o`rnida: *Menda* ***ikkita*** *qalam bor, senda* ***nechta*** *bor?* 4) ravish o`rnida: *Men* ***bugun*** *ketaman, sen* ***qachon*** *ketasan?* 5) so`z birikmasi o`rnida: ***YOmon so`z*** *bosh qozig`idir,* ***shunday*** *so`zni gapirmagan ma’qul.* 6) gap o`rnida: ***Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan***, ***bu*** *esa insondagi eng yomon xislatdir*. Olmoshlar turlanadi, gapda ko`pincha ega, to`ldiruvchi, aniqlovchi va undalma bo`lib keladi: *Hamma keldi. Bizni tabriklang. SHu kitobni bering. Hoy* ***sen****, beri kel!*

Olmoshlar gapda so`zlarni o`rinsiz takrorlashdan qutqaradi, fikrni ixcham, qisqa qilib ifodalashga yordam beradi. Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlariga ega: 1) so`z yasalish xususiyati yo`q (lekin olmoshlar asosida ot, fe’l, ravish, sifat yasalishi mumkin: *o`zlik, sensirama, o`zicha, menbop);* 2) juftlanib, boshqa so`z turkumi vazifasida keladi: *o`sha-o`sha, shu-shu* (ravish); 3) olmoshlar otlarga xos so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarni

olishi mumkin: *unga, shunisi;* 4) olmosh hech vaqt o`zidan oldin aniqlovchi olmaydi. Olmoshlarni gapda bajargan vazifasiga ko`ra quyidagi turlarga bo`lsa bo`ladi: **1) ot toifasidagi olmoshlar.** Bular otlarning so`roqlariga javob bo`ladi, otlarga o`xshab so`z o`zgartuvchi qo`shimchalarni qabul qiladi va gapda ot bajargan vazifalarni bajaradi. **2) sifat toifasidagi olmoshlar.** Bular sifatlarga o`xshab sifatlovchi-aniqlovchi, kesim va hol vazifalarini bajaradi, otlashish xususiyatiga ega. **3) son toifasidagi olmoshlar.** Bular miqdorni ifodalash uchun qo`llanadi va gapda sifatlovchi-aniqlovchi, kesim, ba’zan hol vazifalarini bajaradi.

## 2-§. Olmoshlarning ma’no turlari

**1. Kishilik (shaxs) olmoshlari** uchta shaxsni bildiradigan quyidagi olmoshlardir: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. ***U*** kishilik olmoshiga jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigi qo`shimchalari qo`shilganda, bir ***n*** orttiriladi: *unga, unda, undan.* Qaratqich, tushum kelishigi va qarashlilik shakli qo`shimchasi *–niki* qo`shilganida esa, ***-n*** tushiriladi: *men+ning=mening, sen+ni=seni, sen+niki=seniki.* Ayrim vaqtlarda *biz, siz, ular* olmoshlari birlik ma’nosida ham ishlatiladi, bunda *biz* olmoshi kamtarlik, bajirilgan ishda o`zining rolini oshirmaslik kabi ma’nolarni ifodalaydi. *Siz, ular* esa hurmat ma’nosini bildiradi, bunda *siz* olmoshiga ko`plikni ifodalash uchun *–lar* qo`shimchasi qo`shiladi. Bu olmoshlarga egalik qo`shimchalari deyarli qo`shilmaydi. Kishilik olmoshlari gapda ega *(Men keldim)*, to`ldiruvchi *(Senga aytaman)*, qaratqich aniqlovchi *(Uning ukasi kelibdi)*, ot-kesim *(Mening do`stim sensan)* vazifalarini bajaradi.

**2. O`zlik olmoshi** narsa-buyumni aniqlab yoki ta’kidlab ko`rsatish uchun ishlatiladigan ***o`z*** so`zidir. Bu olmosh narsa-buyumning shaxsga xosligini, tegishliligini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: *o`z uyi, o`z ukasi.* O`zlik olmoshi egalik qo`shimchasini olib, kishilik olmoshlariga sinonim bo`ladi: *o`zim - men, o`zing - sen, o`zi - u.* Bu olmosh kishilik olmoshlari bilan qo`llanganda, ularga ta’kid ma’nosini yuklaydi: *men o`zim, sen o`zing.*

O`zlik olmoshi turlanganda kelishik qo`shimchalaridan oldin egalik qo`shimchalari bo`lishi shart: *o`z**i**ga, o`z**ing**dan* va b. ***O`z*** olmoshi belgisiz kelishik ko`rinishida qo`llanishi mumkin: *O`z uying – o`zingning uying.*

**3. Ko`rsatish olmoshlari** narsa-buyumni, kimsani ko`rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar: *u, bu, shu, o`sha, ana, mana, ana u* yoki *anovi, mana bu* yoki *manavi, ushbu* (ko`tarinki, tantanali ma’no ifodalaydi). Ko`rsatish olmoshlari oldingi gap, gap ichidagi ma’lum bir so`z yoki so`z birikmasi o`rnida qo`llanadi va ularga ishora qiladi yoxud biror-bir so`zni aniqlab keladi. So`z ma’nosini aniqlab keluvchi bunday olmoshlar aniqlanayotgan so`zdan oldin keladi: *o`sha odam.*

Kishilik olmoshi ***u*** bilan ko`rsatish olmoshi ***u*** ni gapdagi ma’nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda ***u*** kishilik olmoshi *kim?* so`rog`iga *(U keldi)*, ko`rsatish olmoshi ***u*** esa *qaysi?* so`rog`iga javob bo`ladi *(U kishi keldi). U, bu, shu, o`sha* olmoshlari jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga *-day, -dek, -aqa, -cha* qo`shimchalari qo`shilganda, qo`shimcha oldidan bir ***n*** tovushi orttiriladi: *u**n**ga, bu**n**ga, shu**n**day, o`sha**n**day, u**n**cha, shu**n**aqa, o`sha**n**dek.*

*U, bu* olmoshlari juftlanib har xil narsa va shaxs, *unaqa-bunaqa* tarzida belgining ortiqligi, *uncha-muncha* tarzida oz miqdor ma’nolarini ifodalaydi. Ko`rsatish olmoshlari gapda asosan aniqlovchi *(Bu kitob ukamniki)* va kesim *(Men aytgan odam shu)* vazifalarini bajaradi. Otlashsa, ega *(SHu mening maqsadimdir)*, to`ldiruvchi *(Buni tushundim)*,

qaratqich aniqlovchi *(SHuning egasi sensan),* hol *(Bunda bulbul kitob o`qiydi)* bo`lib ham kela oladi.

**4. <u>So`roq olmoshlari</u>** biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so`roqni bildirgan olmoshlardir. So`roq olmoshlarining nimaga nisbatan so`roq bildirishini quyidagi jadvaldan bilsa bo`ladi:

| № | So`roq turi | Olmoshlar |
|---|---|---|
| 1. | Shaxsga so`roq | *Kim?* |
| 2. | Narsaga so`roq | *Nima?* |
| 3. | Belgi-xususiyatga so`roq | *Qanday? Qanaqa? Qaysi?* |
| 4. | Miqdorga so`roq | *Qancha? Necha? Nechta?* |
| 5. | Tartibga so`roq | *Nechanchi?* |
| 6. | Sabab-maqsadga so`roq | *Nega? Nimaga ?* |
| 7. | O`rin-joyga so`roq | *Qaerda? Qayda? Qayoqqa?* |
| 8. | Paytga so`roq | *Qachon?* |
| 9. | Mavjudlikka so`roq | *Qani?* |

*Kim* birlik va ko`plikda qo`llanadi, egalik va kelishik qo`shimchalarini oladi: *Kim so`zladi? Nimalarni ko`rding? Nimang bor? Nima* olmoshi belgisiz kelishik shaklida kelishi mumkin: *Nima(ni) olding?*

*Qanday, qanaqa, qaysi* olmoshlari belgini aniqlash uchun ishlatiladi: *qanaqa odam, qaysi kitob. Qaerda, qayda, qani, qayoqqa, qachon, nega* olmoshlari o`rin, payt, mavjudlik, sabab, maqsad kabilarni aniqlash uchun ishlatiladi: *Qachon keldi? Qaerda yuribdi? Ukang qani? Qayoqqa ketdi? Nega keldi?*

**5. <u>Belgilash olmoshlari</u>** predmet va shaxslarning yig`indisini bildiradi yoki ularni ayirib ko`rsatadi, shuning uchun ularni ikkiga bo`lish mumkin:
1) **jamlovchi** belgilash olmoshlariga *hamma, barcha, bari, jami, jamiyki, butun, yalpi* so`zlari kiradi. 2) **ayiruvchi belgilash** olmoshlariga <u>*har*</u> so`zining o`zi (*Har qovunlarki...*) va *har kim, har nima, har bir, har qaysi* kabi so`zlar kiradi va bu olmoshlar to`pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradi. <u>*Har*</u> so`zi ayrim yoziladi.

*Hamma, barcha, bari* olmoshlari ko`plikni anglatadi. Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, ko`plik qo`shimchalari bilan qo`llanadi: ***Hammalari*** *jim.* ***Har kimga*** *aytaverma.*

**6. <u>Bo`lishsizlik olmoshlari</u>** inkor ma’nosini bildirgan olmoshlardir. Bular <u>***hech***</u> so`zining o`zi va shu so`zning ba’zi so`roq olmoshlari bilan birikishidan hosil qilinadi, <u>***hech***</u> so`zi ayrim yoziladi. Bu olmoshlar egalik, kelishik qo`shimchalari bilan qo`llanadi: *U hech kim<u>**ni**</u> ko`rmadi. Hech kim<u>**im**</u> yo`q.*

<u>*Hech*</u> so`zi yakka holda qo`llanganda, ko`pincha fe’llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi (lekin butunlay ravish turkumiga o`tmaydi): *U* <u>***hech***</u> *qiynalmadi.*

Bo`lishsizlik olmoshlari ishtirok etgan gaplarning kesimi inkor shaklida bo`ladi: ***Hech qachon*** *unutmaydi.*

*Kimsa* so`zi ham bo`lishsizlik olmoshlari o`rnida qo`llanishi mumkin: *Buni kimsa (hech kim) bilmasligi kerak.*

**7. <u>Gumon olmoshlari</u>** narsa, belgi yoki voqea haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladigan olmosh turidir. Ular *alla-* yordamida yoki *-dir* qo`shimchasi bilan hosil qilinadi: *allakim, allanima, allanarsa (narsadir* emas*), allaqaysi, allaqaer, allaqayoq, allanechuk, allaqancha, allanechanchi, kimdir, nimadir, qachondir, qandaydir, qaerdadir, qaergadir, negadir*. Gumon olmoshlari so`roq olmoshlariga <u>*bir*</u>, <u>*ham*</u> so`zlarini qo`shish orqali yasalishi ham mumkin: *Uni* ***kim ham*** *chaqirayotgan edi-ya. Akasi unga* ***bir nima*** *deganday bo`ldi.* (Ba’zan <u>*bir nima*</u> birikmasi bo`lishsiz olmosh o`rnida kelishi mumkin: *Buni ko`rib* ***bir nima*** *demadi.*) Bu olmoshlar birlik va ko`plikda (*allakimlar)* keladi, kelishiklarda turlanadi:

*(kimnidir),* egalik qo`shimchasini oladi *(allakimim)*. *Birov* so`zi ham *kimdir, allakim* so`zlariga sinonim bo`lgani uchun gumon olmoshi hisoblanadi. ***Birov*** so`zi, shuningdek, *har kim, hech kim, bitta* degan so`zlarga ham sinonim bo`lishi mumkin.

| |
|---|
| **D i q q a t !** Ayrim darsliklarda **ot-olmoshlari** ham ajratiladi Bunga *kamina, faqir, banda* so`zlari kiritiladi. |

### 3-§. Boshqa turkumga oid so`zlarning olmoshlarga ko`chishi

Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim so`zlar olmoshga ko`chadi: 1) ot: *odam, kishi, inson, narsa, ish;* 2) sifat: *ba'zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi;* 3) son: *bir*. Umuman olganda, *bir, har, hech* so`zlari bilan keladigan ko`pgina so`zlar olmoshga ko`chishi mumkin: *hech narsa, bir narsa, har erda.*

Eski o`zbek tilida ***men*** olmoshi o`rnida ***kamina*** (hozir ham ishlatiladi), ***faqir***, ***kaminai kamtarin, qulingiz, bandai ojizingiz*** kabi so`zlar qo`llangan (25; 28).

### 4-§. Olmoshlarning tuzilish turlari

**1. Sodda olmoshlar** barcha olmoshlar guruhida mavjud: *men, shu, o`z, kim, hamma, hech, birov.*

**2. Qo`shma olmoshlar** faqat ko`rsatish, belgilash, bo`lishsizlik olmoshlari guruhida mavjud: *ana shu, har kim, hech nima.*

**3. Juft olmoshlar** faqat kishilik, ko`rsatish olmoshlari guruhida bor: *sizu biz, u-bu.*

**4. Takroriy olmoshlar** ko`rsatish, o`zlik, so`roq, belgilash olmoshlariga tegishlidir: *shu-shu, o`z-o`zini, kim-kim, barcha-barchasi.*

### BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Olmosh deb qanday so`zlarga aytiladi?
2. Olmoshlarning grammatik xususiyatlarini sanab ko`rsating.
3. Kishilik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
4. O`zlik olmoshi va uning xususiyatlari haqida gapiring.
5. Ko`rsatish olmoshlari va ularning ususiyatlari haqida gapiring.
6. So`roq olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
7. Belgilash olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
8. Bo`lishsizlik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
9. Gumon olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
10. Olmoshlar bilan bojliq tovush o`zgarishlari haqida gapiring.
11. Qaysi turkumga oid so`zlar olmoshlarga ko`chadi?
12. Olmoshlarning tuzilish turlari haqida gapiring.
13. Turlanadigan olmoshlar haqida gapiring.
14. Turlanmaydigan olmoshlarga misollar keltiring.
15. Omonim xarakterdagi olmoshlar haqida gapiring.
16. O`zaro sinonim bo`la oladigan olmoshlar haqida gapiring.
17. **–lar** qo`shimchasi qo`shilganda kuchaytirish ma'nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
18. **–lar** qo`shimchasi qo`shilganda kinoya ma'nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
19. **–lar** qo`shimchasi qo`shilganda hurmat ma'nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
20. Qaysi olmoshlar daraja ko`rsatkichlarini olishi mumkin?

# INSERT JADVALI

**Grafik tashkil etuvchining turi, ahamiyati va xususiyati**

**“INSERT” jadvali**

Mustaqil o’qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o’zlashtirgan ma’lumotlarni bog’lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

**O’quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tizilmasi**

Insert jadvalini to’ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o’zlari to’ldiradilar.

O’qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o’zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga “kiritadilar” matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq:

“V”- men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to’ldirish talab etiladi.

# INSERT JADVALI

| V | + | – | ? |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

## II YARIM YILLIK

| **1-MAVZU** | **Fe'l – so'z turkumi** |
|---|---|

(Ma'ruza- 2 soat)

**1.1Ma'ruzani olib borish texnalogiyasi**

| | |
|---|---|
| ***O'quv soati -2 soat*** | Talabalar soni 95 ta |
| ***O'quv mashg'ulot shakli*** | Axborot ma'ruza |
| ***Ma'ruza rejasi*** | 1.Fe'lning grammatik, morfologik xususiyatlari va sintaktik vaziflari.<br>2. Fe'lning ma'no jihatdan tulari.<br>3. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.<br>3.O'timli va o'timsiz fe'llar. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi*** | Fe'lning grammatik, morfologik xususiyatlari, sintaktik vaziflari, ma'no jihatdan turlari shuningdek, bo'lishli, bo'lishsiz fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar yuzasidan to'liq ma'lumot berish. |
| ***Pedagogik vazifalar:*** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Fe'lning grammatik, morfologik xususiyatlari va sintaktik vaziflari. | Fe'lning grammatik, morfologik xususiyatlari va sintaktik vaziflari haqida tushincha berish. |
| Fe'lning ma'no jihatdan tulari. | Fe'lning ma'no jihatdan tulari haqida ma'lumot aytish. |
| Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar. | Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar haqida ma'lumot aytish. |
| O'timli va o'timsiz fe'llar | O'timli va o'timsiz fe'llar *to'g'risida* tushuncha berish. |
| ***O'qitish vositalari*** | O'UM ma'ruza matni, doska, bo'r va latta |
| ***O'qitish usullari*** | Axborotni ma'ruza, blis-so'rov, pog'ona texnikasi, aqliy hujum |
| ***O'qitish shakllari*** | Frontal, kollektiv ish |
| ***O'qitish sharoiti*** | Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya |
| ***Monitoring va baholash*** | Og'zaki savollar, blis-so'rov |

**Fe'l – so'z turkumi mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi 3 ta savollarni va o'quv faoliyati natijalarini aytadi<br>1.2. Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujum usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtirish<br>1.4. Mavzuni jonlantirish uchun savollar beradi (2-ilova) | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo'lim (50 min) | 2.1.1-Reja bo'yicha mini ma'ruza qilinadi<br>2.2.Ma'ruza rejasining ikkinchisiga tushunchalar aytiladi.<br>2.3.Uchinchi reja yuzasidan ma'lumotlar beriladi. | Tinglaydilar<br><br>Tinglaydilar savollarga javob beradilar.<br>O'.U.Mga qaraydilar "Pog'ana" usulida bajariladi<br><br>Tayanch tushincha va iboralar muhokama qilinadi. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan bilis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O'.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a l a r i:** Fe'lning grammatik, morfologik xususiyatlari va sintaktik vaziflari, fe'lning ma'no jihatdan tulari, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar.

**Fe'l haqida umumiy ma'lumot**

Shaxs va predmetning ish-harakati va holatini ifodalaydigan mustaqil so`zlar fe'l deyiladi. Masalan: Men olimlarga, ilohiyotchilarga, tarixshunoslarga hurmat-ehtirom

ko`rsatdim va e'zozladim. (A.Temur). Mehnat insonda ijodiy kuch uyg`otadi (Tafakkur jurnali).

Grammatikada harakat va holat tushunchasi juda keng. YA'ni fe'l holat, belgining yuzaga kelishi, o`zgarishi kabi jarayonlarni ham harakat tarzida anglatadi: o`rik gulladi, yaproqlar sarg`aydi, bola uxlayapti kabi.

Fe'llarning barchasi bir umumiy so`roqqa nima kilmoq? so`rog`iga javob beradi.

Fe'l o`ziga xos bo`lgan morfologik belgilarga ega, ya'ni:

1) ish-harakatning predmetga (to`ldiruvchiga) munosabati fe'ldagi o`timli va o`timsizlik ma'nosini hosil qiladi: o`qimoq, yozmoq - o`timli fe'l; o`tirmoq, chiniqmoq - o`timsiz fe'l;

2) ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkorni anglashilishiga ko`ra fe'llar bo`lishli va bo`lishsizlik ma'nosini bildiradi: ayt – bo`lishli, aytma – bo`lishsiz; bilgan – bo`lishli, bilgani yo`q – bo`lishsiz fe'l;

3) ish-harakat bilan uning bajaruvchisi, ob'ekt va sub'ektlar orasidagi munosabat nisbat ma'nosini hosil qiladi: kiydi - aniq nisbat, kiyindi - o`zlik nisbat, kiyildi - majhullik nisbat, kiydirdi – orttirma nisbat;

4) ish-harakatning voqelikka munosabati mayl ma'nosida aks etadi: bordi, bormoqda, bormoqchi - aniqlik mayli; boray, borgin, borsin - buyruq-istak mayli; borsa – shart mayli;

5) ish-harakatning nutq so`zlanib turgan payt bilan munosabati fe'ldagi zamon ma'nosini hosil qiladi: o`rgandim - o`tgan zamon, o`rganayapman - hozirgi zamon, o`rganmoqchiman – kelasi zamon;

6) ish-harakatning biror grammatik shaxs (birlik yoki ko`plikda) tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligi fe'ldagi shaxs-son ma'nosida aks etadi. Fe'l shaxs-son qo`shimchalari bilan tuslanadi: qiziqdim, qiziqding, qiziqdi; qiziqdik, qiziqdingiz, qiziqdilar.

Demak, fe'l o`timli-o`timsizlik, bo`lishli-bo`lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalash kabi o`ziga xos morfologik belgilarga ega.

SHu bilan birga fe'lning sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi kabi o`ziga xos vazifadagi shakllari ham mavjud ( ishongan odam – sifatdosh; ishonib, ishongach – ravishdosh; ishonish, ishonmoq kerak - harakat nomi). Fe'lning bu vazifadagi shakllari gapda ma'lum bir gap bo`lagi vazifasini bajarishga moslashgan bo`ladi.

Fe'l o`ziga xos maxsus so`z yasalish tizimiga ham ega: bahola, ulg`ay, tinchi, suvsira – affiksatsiya usul bilan yasalgan fe'llar; xursand bo`lmoq, javob bermoq, sotib olmoq - kompozitsiya usul bilan yasalgan yasama fe'llar.

Fe'llarda modal shakl yasalishi ham mavjud, u o`z ichida turli xil qo`shimcha ma'nolarni aks ettiradi: *kulimsira* – kuchsizlik, *turtkila* – davomiylik, *yozib bo`ldi* – tugallanganlik kabi.

Fe'l o`ziga xos sintaktik vazifalarga ham ega, ya'ni:

1) sof fe'l gapda, asosan, kesim vazifasini bajarib keladi. Masalan: *Insonni mehnat, odobni yaxshi fazilat bezaydi (Hikmatlar xazinasi);*

2) fe'lning vazifadosh shakllari sifatdosh, sifatlovchi-aniqlovchi, ravishdosh, hol, harakat nomi, ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to`ldiruvchi kabi gap bo`laklari vazifasini ham bajarib keladi. Masalan: *O`zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko`r (Hadis namunalari). Dunyoda eng yomoni faqat o`zini bilib o`zgani unutib yashashdir*

*(I.Karimov). Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harkatlaridandir (Pedagogika tarixi).*

## O`timli va o`timsiz fe'llar

O`timli va o`timsiz fe'llar fe'l anglatgan harakatning predmetga munosabati orqali belgilanadi.

Fe'ldagi anglashilgan harakatning tushum kelishigi formasidagi ot bilan (yoki otlashgan so`z bilan) ifodlangan predmetga o`tganligini bildiradigan fe'llar o`timli fe'l deyiladi.

Masalan: *Hammamiz shu tuproqning suvini ichganmiz, non-tuzini eganmiz (I.Karimov).*

Bu gap ichganmiz, eganmiz fe'llaridan anglashilgan harakat bevosita tushum kelishigi shaklidagi suvini, non-tuzini so`zlari bilan ifodalangan predmetga o`tadi. Demak, o`timli fe'llar tushum kelishigi shaklidagi ot bilan bog`lanadi.

Ba'zan fe'l anglatgan harakat yoki holat predmetning bir qismiga o`tishi yoki harakat o`tgan predmet shu harakatning bajarilishida vosita bo`lishi mumkin. Bunday holda o`timli fe'llar jo`nalish va chiqish kelishigi shaklida qo`llangan otlar bilan ham birikadi. Qiyoslang: nonni oling – nondan oling, otni mining – otga mining.

Biron predmetga bevosita o`tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o`timsiz fe'l deyiladi. Masalan: *Ko`ngil quvonchi uning kuchsizligidan dalolat beradi (Tafakkur gulshani). Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi (U.Mahkamov).*

Bu gaplardagi dalolat beradi, qutqaradi fe'llaridan anglashilgan harakat bevosita tushum kelishigida kelgan otni boshqarmagan, boshqa predmetga o`tmagan, balki harakat bajaruvchining o`zida qolgan.

Fe'ldagi o`timli va o`timsizlik ma'nosi ikki xil usul bilan ifodalanadi:

1. Leksik-semantik usul.
2. Morfologik usul.

1. Fe'llar o`z leksik ma'nosiga ko`ra biror affiks olmagan, hech qanday shakl o`zgarishisiz (o`zak-negiz holida) holida o`timli yoki o`timsiz bo`ladi. Masalan: ol, och, ko`r, yoz, ich, qo`y, so`ra, ber kabilar o`timli; bor, kel, o`tir, uxla, yot, yur kabilar o`timsiz fe'llardir.

Bunday usul bilan, ya'ni fe'lning leksik ma'nosiga ko`ra o`timli-o`timsizlik ma'nosining ifodalanishiga leksik-semantik usul deyiladi.

2. Fe'l o`zak-negiziga qo`shiladigan fe'l nisbatini yasaydigan qo`shimchalar (o`zlik, majhullik, orttirma nisbat qo`shimchalari) o`timli va o`timsiz fe'llarni belgilab beradi. O`timli-o`timsizlikning fe'l nisbatini yasaydigan affikslar bilan ifodalanishi morfologik usul sanaladi. Fe'l o`zak-negiziga nisbat qo`shimchalari qo`shilganda, fe'lning o`timli-o`timsizligi quyidagicha yuz beradi:

1) o`zlik va majhullik nisbat qo`shimchalari o`timli fe'lni o`timsiz fe'lga aylantiradi: so`radi - o`timli fe'l, so`raldi - o`timsiz fe'l; ko`rdi - o`timli fe'l, ko`rindi - o`timsiz fe'l. So`radi o`timli fe'liga qo`shilgan –l majhullik nisbat qo`shimchasi, ko`rdi o`timli fe'lga qo`shilgan –in o`zlik nisbat qo`shimchasi so`radi, ko`rdi fe'llarini o`timsiz fe'llarga aylantirdi;

2) orttirma nisbat qo`shimchalari, aksincha, o`timsiz fe'lni o`timli fe'lga aylantiradi: kuldi - o`timsiz fe'l, kuldirdi - o`timli fe'l; yurdi - o`timsiz fe'l, yurgizdi -

o`timli fe'l; uxladi - o`timsiz fe'l, uxlatdi - o`timli fe'l. Ushbu kuldi fe'liga qo`shilgan –dir qo`shimchasi, yurdi fe'liga qo`shilgan –giz qo`shimchasi, uxladi fe'liga qo`shilgan –t orttirma nisbat qo`shimchalari o`timsiz fe'llarni o`timli fe'liga aylantirdi.

3) orttirma nisbat qo`shimchalari orqali o`timli fe'ldan yana o`timli fe'l hosil qilinadi: esladi - o`timli fe'l, eslatdi - o`timli fe'l; ichdi - o`timli fe'l, ichirdi - o`timli fe'llari tarkibidagi –t, -ir orttirma nisbat qo`shimchalari o`timli fe'lni yana o`timli fe'lga aylantirdi.

Qo`shma fe'llarda o`timli va o`timsizlik ma'nosi etakchi qismga qarab belgilanadi. Masalan: aytib berdi, ko`ra boshladi, yozib chiqdi qo`shma fe'llarda aytib, ko`ra, yozib etaksi qismning o`timli ekanligi shu fe'llarning o`timli ekanligini ko`rsatadi. Aksincha, qo`shma fe'llarning etakchi qismi o`timsiz fe'ldan bo`lsa, butun qo`shma fe'l o`timsiz bo`ladi: o`sa boshladi, quvonib ketdi, kulib qo`ydi kabi.

## Bo`lishli va bo`lishsiz fe'llar

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkor tushunchasi fe'ldagi bo`lishli va bo`lishsizlik ma'nosini anglatadi.

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiqni anglatuvchi fe'llar bo`lishli fe'l deyiladi. Fe'ldagi bo`lishlilik ma'nosini ifodalovchi maxsus grammatik ko`rsatkich yo`q: o`qi, eslat, qolgan, borsa, aytib bergan, o`qib chiqdi, hurmat qil kabi. Masalan: Ona so`zining o`zi har yurakka jarangli sado beradi (Hikmatlar guldastasi). O`z burchini bajarishdan mamnun odamligina erkin yashaydi (Tafakkur gulshani).

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi inkorni anglatuvchi fe'llar bo`lishsiz fe'l deyiladi. Bo`lishli fe'l bo`lishsiz fe'lni hosil qilish uchun asos bo`ladi. Fe'lning bo`lishsiz shakli quyidagicha yasaladi:

1. fe'l negiziga –ma (bu affiks urg`u olmaydi), -may, -mas, -masdan, -maslik affikslarini qo`shish bilan fe'ldagi bo`lishsizlik ma'nosi hosil qilinadi: ko`rsatma, kelmagach, bajarmadi, yoqmas, avaylamasdan, o`smaslik kabi.

Ko`rinadiki *–ma* elementi *–may, -mas, -masdan, maslik* affikslarining tarkibida uchraydi. Bu affikslar sof fe'lga va fe'l shakllariga (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) qo`shilib inkor ma'nosini ifodalashda asosiy morfologik ko`rsatkich sanaladi. Masalan: *G`ulomjon darpardasi yonidan qalin qorni g`irchillatib o`tgan dupurni ham eshitmadi. (M.Ismoiliy). Tog` arqon bilan eshilmaydi (M.Qoshg`ariy). Mehnat qilmagan rohat ko`rmas (O`zbek xalq maqoli). Uydagilarga aytmasdan do`sti bilan Qudratnikiga ketibdi. Kasal tabib kasalni davolay olmas (Abu Ali ibn Sino). Bu voqeani ko`rmaslik uchun bolalar ko`zlarini chirt yumdilar.*

*-ma, -may* affikslari qo`shma fe'llarga quyidagicha qo`shiladi:

a) asosiy qismga etakchi fe'lga qo`shiladi: eshitmay qoldi, uxlamay chiqdi, ko`rmay qoldi kabi;

b) ko`makchi fe'lga qo`shiladi: sotib olmadi, javob bermadi, o`qib chiqmadi kabi;

v) qo`shma fe'lning har ikala qismiga qo`shiladi: aytmay qo`ymaydi, bormay qolmaydi. Bunday holda bo`lishsiz shakl orqali bo`lishlilik ma'nosi anglashiladi, ya'ni aytadi, boradi kabi.

Masalan: *Buvijonimning aytishicha, astoydil yaxshi niyat qilgan odam murodi maqsadiga etmasdan qolmas ekan (X.To`xtaboev).*

Eslatma: ravishdoshning –gani (-kani, -qani) affikslari bilan yasalgan shakliga bo`lishsizlik ifodalovchi affikslar qo`shilmaydi.

2. Fe'lning ayrim sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllaridan so`ng emas, yo`q so`zlarini kiritish bilan bo`lishsiz fe'l hosil qilinadi: hayratlangan emas, boradigan emas, egib emas, tinchigani yo`q, ishonish emas kabi. Masalan: *Lekin ularning nima o`qiganini ko`rgan ham, qanday o`qiganini eshitgan ham emas (P.Tursun).*

3. Na inkor yuklamasini uyushiq bo`lak sifatida qo`llangan bo`lishi fe'ldan oldin keltirish bilan bo`lishsiz fe'l hosil qilinadi: na o`qiydi, na yozadi. Masalan: *Keksa cholning kesatiq gapidan u dong qotib qoldi: na o`tirdi, na ketdi (A.Qodiriy).*

4. Ba'zan intonatsiya yoki intonatsiya va fe'lga yuklamani *(-mi, -a, -ya)* qo`shish hamda fe'lni takrorlash orqali bo`lishsizlik ma'nosi ifodalanadi: oladi-ya oladi (olmaydi); aytasan-a, aytasan (aytmaysan) kabi.

Masalan: *Bolasi tushmagur-ey, chumchuqning uyasini buzib rohat toparmidi? (G`ayratiy). «Katta bo`lsam, akamga o`xshab, albatta komandir bo`laman», - dedi Sobir. Bo`lasan-a, bo`lasan. Komandir bo`lishga yurak kerak... (H.Nazir).*

## BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Fe'lning so`roqlari va grammatik xususiyatlari haqida gapiring.
2. Bo`lishli fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
3. Bo`lishsiz fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
4. O`timli fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
5. O`timsiz fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.

| | |
|---|---|
| **2-Ma'vzu** | **Fe'l nisbatlari, mayllari, zamonlari va ularning turlari.** |

(Ma'ruza-4 soat)

| | |
|---|---|
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Axborat ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Fe'l nisbatlari.<br>2.Fe'l mayllari.<br>3. Fe'l zamonlari. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Fe'l nisbatlari, mayllari, zamonlari va ularning turlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| 1. Fe'l nisbatlari. | Fe'l nisbatlari va ularning turlari haqida ma'lumot berish. |
| 2.Fe'l mayllari. | Fe'l mayllari va ularning turlari haqida ma'lumot olish. |
| 3. Fe'l zamonlari. | Fe'l zamonlari va ularning turlari haqida ma'lumot aytish. |

| | |
|---|---|
| O’qitish vositalari | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki savollar blis – so’rov |

**Fe’l nisbatlari, mayllari, zamonlari va ularning turlari mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a l a r i:** Fe’l nisbatlari, fe’l mayllari, fe’l zamonlari.

**Fe’l nisbatlari**

Fe’l ifodalagan harakat bilan uning bajaruvchisi (sub’ekti) va predmeti (ob’ekti) yoki bir necha bajaruvchi (sub’ektlar) orasidagi munosabatning ifodalanishi fe’l nisbati deyiladi. Harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlicha bo`ladi. Ma’lum bir shaklda harakat ega bilan ifodalangan shax syoki predmet tomonidan bajariladi. Masalan: *Bobur ota yurtidan batamom ajralganini endi astoydil his qildi (P.Qodirov).*

Boshqa bir shaklda harakatning sub'ekti (ega) ham, ob'ekti ham bir shaxsning (predmetning) o`zi bo`ladi. Masalan: *Feruzaga hovliga tushib, shabnamda qiyg`os ochilgan atirgullar ustiga egildi. (H.G`ulom).*

YAna bir ko`rinishda harakatning bajaruvchisi sub'ekt emas, ob'ekt sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo`ladi. Masalan: *Tashqarida so`riga gilam to`shaldi, ko`rpacha solindi. Dasturxon yoyildi, choy damlandi (Tog`ay Murod).*

SHuningdek, harakat bir necha sub'ekt tomonidan birgalikda bajarilishi mumkin. Masalan: *Ichkaridan birin-ketin bolalar chiqib kelishdi (Tog`ay Murod).*

YAna bir nisbat shaklida esa harakat grammatik sub'ekt (ega)ning boshqa bir sub'ekt va ob'ekt ta'siri bilan bajariladi. Masalan: *Mo`minning ovozidan qat'iyat, buyruq Laylini bo`shashtirdi (S.Z.).*

SHunga ko`ra fe'llarda besh xil nisbat ko`rinishi mavjud: 1. Aniq nisbat. 2. O`zlik nisbat. 3. Majhullik nisbati. 4. Birgalik nisbati. 5. Orttirma nisbat.

Fe'l nisbati maxsus shakl yasovchi qo`shimchalar yordami bilan yasaladi. Bu qo`shimchalar fe'lning leksik ma'nosini o`zgartirmaydi, balki unga qo`shimcha ma'no qo`shadi. YA'ni bu qo`shimchalar harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) va predmeti (ob'ekti) ni ko`rsatib, gap qurilishining qanday bo`lishini bildirib turadi. Masalan: yozdi – sub'ekt (ega)ning o`zi bajaradigan harakat, yozildi – predmet (ob'ekt) tomonidan bajarilib, sub'ekti noma'lum harakat, yozishdi – bir necha sub'ektlar bajaradigan harakat, yozdirdi – sub'ektning ob'ektga ta'siri bilan bajariladigan harakat.

### Aniq nisbat

Bu shakldagi fe'lda harakatning bajaruvchisi grammatik jihatdan ega vazifasini bajargan shaxs yoki predmet bo`ladi. To`ldiruvchi esa harakatning ob'ekti bo`ladi. Gapning bunday qurilishi tilshunoslikda aktiv konstruktsiya (faol qurilma) deb yuritiladi. Masalan: *Navoiy shiringina yasog`liq uyda tanho ishlar edi (O.).* Ushbu gapda ishlar edi harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) Navoiy bo`lib, u ega orqali ifodalangan. Harakatning ob'ekti esa uyda vositali to`ldiruvchi orqali ifodalangan.

Bunday shaklida maxsus nisbat ko`rsatkichi yo`q. Bu nisbat ma'nosi fe'l negizi orqali ifodalanadi, shuning uchun ham u boshqa nisbat shakllarini hosil qilishi uchun asos bo`la oladi (qiyoslang: o`qidi, o`qildi, o`qishdi, o`qitdi kabi).

### O`zlik nisbat

Bu nisbatdagi fe'lda harakatning sub'ekti bilan ob'ekti bir shaxsning o`zi bo`ladi. Masalan: *Men har tong Toshkentning go`zilligi, fayzi bilan zavqlanaman (U.Mahkamov)* gapida zavqlanaman fe'li tarkibida kelgan –lan qo`shimchasi harakatning sub'ekti bilan ob'ekti men shaxsi ekanligini ko`rsatib turibdi.

O`zlik nisbati quyidagi affikslar bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so`ng –n, undoshdan so`ng –in qo`shish bilan: maqta-n, o`ra-n, yuv-in, kiy-in kabi;

b) fe'l negiziga unlidan so`ng –l, undoshdan so`ng –il qo`shish bilan: surka-l, shosh-il kabi;

v) –lan (-la+-n dan tuzilgan qo`shma affiks) affiksini qo`shish bilan: zavq-lan, tinch-lan, shod-lan kabi;

g) –ish qo`shimchasini qo`shish bilan: ker-ish kabi.

Barcha fe'l negizlaridan (o`timli, ba'zi bir o`timsiz) o`zlik nisbati yasalmaydi: so`ra, bor, yugur kabi. Ba'zi fe'l negizlarining, aksincha, aniq nisbati yo`q: quvon, seskan kabi.

**Majhullik nisbati**

Bu shakldagi fe'lda harakat bajaruvchisi sub'ekt (ega) emas, ob'ekt (to`ldiruvchi) sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo`ladi.

Masalan: *Ot-aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi (H.G`.)* gapida olib kirildi harakatining bajaruvchi sub'ekti noma'lum, ot-aravalar so`zi ega vazifasida kelsa-da, ob'ekt vazifasini bajargan.

Kesimi majhullik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan gap qurilishi tilshunoslikda passiv konstruktsiya deb yuritiladi.

Majhullik nisbati quyidagi qo`shimchalar bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so`ng *–l*, undoshdan so`ng *–il* affiksini qo`shish bilan: *yasa-l(-di), ata-l(-di), yut-il(-di), sot-il(-di)* kabi;

b) fe'l negiziga unlidan so`ng *–n*, undoshdan so`ng *–in* affiksini qo`shish bilan: *bastala-n(-di), ol-in(-di)* kabi.

Majhullik nisbatdagi fe'lni hosil qilishda *–l (-il)* affiksi ko`proq qo`llaniladi. Ba'zan ayni bir fe'l negizidan *–l (-il), -n (-in)* affikslari bilan ham o`zlik, ham majhullik nisbati yasalishi mumkin. Bunday bir xil shaklda kelgan bir xil fe'l negizining o`zlik yoki majhullik nisbatda ekanligi matndan aniqlaniladi. Masalan: Zulfiya darsga tayyorlandi. Operatsiyaga meditsina uskunalari tayyorlandi.

**Birgalik nisbat**

Bu nisbatdagi fe'lda ish-harakat bir necha sub'ekt tomonidan birgalikda bajariladi. Masalan: Ayollar chaqaloqqa ko`z tegmasligi uchun qilinadigan irim-sirimlarini <u>bitirishgach</u>, bolani beshikka <u>belashdi</u> (O`.Hoshimov) gapida bitirishgach, belashdi fe'llari anglatgan harakatning bir necha sub'ekt, ya'ni ayollar tomonidan birgalikda bajarilganini anglatadi.

Birgalik nisbatdagi fe'l quyidagicha yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so`ng –sh, undoshdan so`ng –ish affiksini qo`shish bilan: sana-sh(di), yugur-ish(di) kabi;

b) so`z o`zagiga –lash (-la+-sh qo`shma affiksi) affiksini qo`shish bilan: yordam-lash(di), bahs-lash(di) kabi.

**Orttirma nisbat**

Bu nisbat shaklida harakat grammatik sub'ekt (ega)ning boshqa bir sub'ekt yoki ob'ektga ta'siri, tazyiqi bilan bajariladi.

Masalan: *Biz Hamid Olimjon bilan bunday oydin, musaffo kechalarni ko`p o`tkazganmiz (G`.G`.)* gapida ikkita sub'ekt mavjud bo`lib, asosiy sub'ekt vositali to`ldiruvchi (Hamid Olimjon bilan), ikkinchi darajali sub'ekt esa ega (Biz) vazifasida

qo`llangan bo`lib, o`tkazganmiz harakati sub'ektning sub'ektga ta'siri natijasida bajarilgan.

SHuningdek, orttirma nisbatdagi fe'lda faqat bir sub'ekt mavjud bo`ladi. Bunday holda harakat ob'ektga (to`ldiruvchiga) o`tadi. Masalan: *U kitob keltirdi* kabi.

Orttirma nisbat fe'l negiziga quyidagi affikslarni qo`shish bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga –t affiksini qo`shish bilan: qisqart, boyit kabi;

b) fe'l negiziga –tir (-dir) affikslarini qo`shish bilan: keltir, chaqirtir, kuldir, buzdir kabi;

v) sh, ch, t, undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga –ir affiksini qo`shish bilan: shoshir, ichir, botir kabi;

g) oxiri undosh bilan tugagan bir bo`g`inli fe'l negizlariga –ar affiksini qo`shish bilan: chiqar, qaytar kabi;

d) oxiri undosh bilan tugagan fe'l negizlariga -g`iz, -giz, -qaz, -g`az, -kaz, -qiz, -kiz affikslarini qo`shish bilan: turg`iz, egiz, o`tkaz, qutqaz, yutqiz, etkiz kabi;

e) oxiri m, q undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga –iz affiksini qo`shish bilan: tomiz, oqiz, boqiz kabi;

yo) fe'l negiziga –sat (-sa+-t qo`shma affiksi) affiksini qo`shish bilan: ko`rsat (faqat ko`r fe'l negiziga qo`shiladi) kabi.

**Fe'lning vazifadosh shakllari**

Fe'lning gapda ma'lum bir gap bo`lagi vazifasini bajarishga mos bo`lgan shakli uning funktsional[1] formasi deyiladi. Fe'lning funktsional formalari gapda kesim, hol, aniqlovchi, ega va to`ldiruvchi vazifalarida keladi.

O`zbek tilida fe'lning funktsional formalariga 1) sof fe'l, 2) ravishdosh, 3) sifatdosh, 4) harakat nomi kiradi.

Sof fe'l. Fe'lning tuslangan formada qo`llanib, kesim vazifasini bajarishga mos fe'l shakliga sof fe'l deyiladi. Sof fe'l har uch zamon shaklida qo`llangan aniqlik, buyruq-istak, shart mayli formasidagi fe'llarni o`z ichiga oladi. Masalan: To`g`ri so`z odam butun hayoti davomida mehr, sadoqat nurlarini tarqatadi (U.Mahkamov). Kimki oz bilsa, ozga o`rgatadi. (Tafakkur gulshani). Aqlni beaqldan o`rgan (Maqol).

Ravishdosh. Harakatning belgisini (harakat tarzidagi belgi) anglatadigan, gapda ko`pincha hol yoki ergash gapning kesimi vazifasini bajarishga mos bo`lgan fe'l shakli ravishdosh shakli deyiladi. Masalan: Ilmu hunarni Xitoydan bo`lsa ham borib o`rganinglar (Pedagogika tarixi). CHoyga fotiha o`qilgach, hamma o`rnidan turdi (S.Ahmad). Bu misollarning birinchisida borib ravishdoshi hol vazifasini, ikkinchi misoldagi o`qilgach ravishdoshi ergash gapning kesimi vazifasini bajargan.

Ravishdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) fe'l o`zak-negiziga unlidan so`ng –b, undoshdan so`ng –ib affiksini qo`shish bilan: o`qib, borib;

2) fe'l o`zak-negiziga unlidan so`ng –y, undashdan so`ng –a affiksini qo`shish bilan: o`qiy-o`qiy, bora-bora.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda, asosan, takroriy holda qo`llanadi;

---

[1] *Funktsiya – lat. function – «faoliyat», «vazifa».*

-b (-ib), -a, -y affikslari bilan yasalgan ravishdosh qo`shma fe’l (sof fe’l) tarkibida etakchi qism vazifasida ham keladi: yoza boshladi, o`qib chiqdi kabi.

3) –gani (-kani, -qani) affikslari bilan: o`qigani, aytgani kabi;

4) –gach (-kach, -qach) affikslari bilan: o`qigach, borgach kabi;

5) –guncha (-kuncha, -quncha) affikslari bilan: o`qiguncha, borguncha kabi.

Fe’l o`zak-negizi k yoki g undoshi bilan tugasa, -kani, -kach, -kuncha tarzida, q yoki g` undoshi bilan tugasa, -qani, -qach, -quncha tarzida qo`shiladi: ekkani, ekkach, ekkani, ekkuncha; chiqqani, chiqqach, chiqquncha kabi.

Fe’lning ravishdosh shakli fe’l singari harakat tushunchasini anglatib, fe’lga xos quyidagi morfologik belgilarga ega, ya’ni:

a) o`timli-o`timsizlik ma’nosini ifodalaydi: eslab - o`timli, kulib - o`timsiz ravishdosh;

b) bo`lishli-bo`lishsizlik ma’nosiga ega: ko`rib – bo`lishli, ko`rmay, ko`rmasdan – bo`lishsiz ravishdosh; kelguncha – bo`lishli, kelmaguncha – bo`lishsiz ravishdosh; o`tgach – bo`lishli, o`tmagach – bo`lishsiz ravishdosh.

-gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdoshning bo`lishsizlik shakli yo`q (-ma bo`lishsizlik qo`shimchasini olmaydi).

v) nisbat ma’nosini anglatadi: yasab - aniq nisbat, yasanib - o`zlik nisbat, yasalib - majhullik nisbati, yasashib – birgalik nisbat, yasatib – orttirma nisbat;

g) ravishdoshlar tuslovchi qo`shimchalarni olish-olmaslik xususiyatiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: tuslanadigan ravishdoshlar va tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Tuslanadigan ravishdoshlarga fe’l negiziga –b (-ib), -a, -y affikslarni qo`shish bilan shakllangan ravishdoshlar kiradi.

Bu guruhdagi ravishdoshlar tuslangan holda sof fe’lga aylanadi. Masalan: Kechaning tili qorasida yulduzlar yorqin yonadi (O). Oyoq ostimizda munchoq-munchoq oq, sariq gullar sochilib yotibdi (B.Jahongirov).

Tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda ham qo`llana oladi. Masalan: *Vohid ho`l sochlarini taray-taray boqqa sho`ng`idi (O.YOqubov). Mashina silkinib oldinga intildi (S.Ahmad).*

Ravishdoshlarning –gach (-kach, -qach), -gani (-kani, -qani), guncha (-kuncha, -quncha) affikslari yordamida hosil qilingan shakllari tuslanmaydigan ravishdoshlar sanaladi: etgach, ekkach, chiqqach; etgani, ekkani, chiqqani; etguncha, ekkuncha, chiqquncha kabi. Masalan: *Sultonali tong otguncha ikki go`dakning qo`ynini puch yong`oqqa to`ldirib chiqqan (A.Qodiriy). Uzun, qorong`i yo`lakka chiqqach, Unsin to`xtadi (O). Siz bilan maslahatlashgani keldim (B.Rahmonov).*

d) zamon ma’nosini ifodalaydi. Ravishdoshning zamon ma’nosini ifodalashi nisbiy zamon sanaladi. CHunki ravishdoshning zamoni shu gapdagi tuslangan fe’lning zamoniga nisbatan belgilanadi.

Ravishdoshlar zamon ma’nosiga ko`ra uchga bo`linadi: o`tgan zamon ravishdoshi, hozirgi zamon ravishdoshi, kelasi zamon ravishdoshi.

O`tgan zamon ravishdoshlari fe’l o`zak-negiziga –b (-ib), -gach (-kach, -qach) affikslarini qo`shish bilan hosil qilinadi: qolib, o`qib, qolgach, o`qigach kabi.

-b (-ib) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe’l ifodalagan asosiy harakatdan ilgari bo`lgan harakatni yoki asosiy harakatdan oldin boshlangandek ko`rinsa ham ammo u bilan bir vaqtda yuz bergan harakatni anglatadi. Masalan: Zulfiya javob so`rab keldi gapida javob so`rab ravishdoshi asosiy harakatdan (keldi harakatidan) oldin

ro`y bergan harakatni bildirsa, u kulib gapirmoqda gapida esa kulib ravishdoshi asosiy harakat (gapirmoqda harakati) bilan bir vaqtda yuz beradigan harakatni anglatadi.

-b (-ib) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslanganda, o`tgan zamon hikoya fe'lini hosil qiladi.

Fe'l negiziga –gach (-kach, -qach) affiksini qo`shish bilan yasalgan ravishdosh tuslanmaydigan ravishdosh bo`lib, u tuslangan fe'l ifodalagan harakatdan ilgari uning bajarilishi (yoki bajarilmaslik) sababi yoki paytini ko`rsatadigan harakatni anglatadi. Masalan: *Uch-to`rt kun mehmondorchilikda yurishgach, maktabdan qaytdilar (P.Tursun). Zorlanishdan, ichni eyishdan boshqa hech nima qo`lidan kelmagach, nima qilsin (M. Ismoiliy).*

Hozirgi zamon ravishdoshi fe'l o`zak-negiziga –a, -y affikslarini qo`shish bilan hosil qilinadi: bora-bora, ishlay-ishlay kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan asosiy harakat bilan bir vaqtda ro`y beradigan harakatni anglatib, uning bajarilish holati, paytini ko`rsatadi. Masalan: *Toma-toma ko`l bo`lur, hech tommasa cho`l bo`lur (Maqol). Tog` oralig`idagi qalin qor eriy-eriy odam bemalol kira oladigan g`or bo`lib qolibdi (S.Anorboev).*

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda odatda, takroriy so`z shaklida qo`llanadi. YAkka holda ishlatilganda, ravishdosh anglatgan harakatdan tuslangan fe'l anglatgan harakatga tezlik bilan o`tilganlik ma'nosi hosil bo`ladi. Masalan: *Sultonmurod kela o`qishga kirishdi.*

Hozirgi zamon ravishdoshi tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe'lini hosil qiladi. Masalan: *Sada tagidagi hovuzning suvida yaproqlar suzadi (S.Z.).*

Kelasi zamon ravishdoshlari fe'l negiziga –gani (-kani, -qani), -guncha (-kuncha, -quncha) affikslarini qo`shish bilan yasaladi: o`qigani, tinchiguncha kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar tuslanmaydi. Fe'l negiziga –gani (-kani, -qani) qo`shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatdan so`ng bajarilishi maqsad qilib olingan harakatni anglatadi. Masalan: *Men bugun yuragimni ochib gapirgani keldim (U.).*

Fe'l negiziga –guncha (-kuncha, -quncha) affiksini qo`shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatning davom qilish vaqtining o`lchovi sifatidagi harakatni ifodalaydi. Masalan: *Yo`lchi so`zlaguncha, Tantiboyvachcha qorong`ida yo`qoldi (O.).*

SHu bilan birga ravishdosh o`ziga xos sintaktik belgilarga ham ega, ya'ni:

a) gap tarkibida boshqa so`zlarni boshqarib kela oladi;

b) tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda hol va –b (-ib) affiksi bilan yasalgan ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi: *Gulnorning egnida kaltagina qora (lapis) kamzul yuvila-yuvila yupqalashgan (O.). Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kuldi (M.Osim). Kursi ustiga dasturxon yozilib, meva-cheva to`la patnis qo`yildi (O.).*

SHuningdek, tuslanadigan ravishdoshlar o`zlariga tobe bo`lgan so`zlar bilan sostavli hol sifatida, ravishdosh o`ram tarzida ajratilgan hol vazifasini ham bajaradi: *Bozor darvozasi yoniga kelishganida bir to`da odamni ko`rib to`xtab qolishdi (O`.Hoshimov). Aprel oqshomlaridan birida Farida ikkovlari shahar aylanib yurib stadionga kirib qolishdi (O`.Hoshimov). Keng, baland, serhasham chodirda oltin shamdonlarni qo`yib, Navoiy yaqin beklari bilan suhbatlashib o`tirardi (O.).*

v) tuslanmaydigan ravishdoshlar gapda hol, ajratilgan ikkinchi darajali bo`lak va ergash gapning kesimi vazifasini bajarib keladi: Oradan uch oy o`tib hash-pash deguncha issiq kunlar etib keldi (S.A.). U oltinsoyliklarni kanal va buloq qazigani boshlab ketdi (SH.R.). SHartning nozik va qaltisligi ko`z oldiga kelgach, yuragi orqasiga tortib ketdi (H.N.). Asalxon karvon o`tib ketguncha, yo`l yoqasida qo`l siltab turdi (H.G`.).

-gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdosh gapda faqat hol vazifasini bajaradi.

Sifatdosh. Predmetning harakat va holat belgisini bildiradigan, gapda sifatlovchi vazifasini bajarishga mos bo`lgan fe'l shakli sifatdosh deyiladi: *So`zlayotgan kishining o`ziga emas, so`ziga e'tibor qil («Tafakkur gulshani»). Ko`chaning ikki chetidagi turli mollar bilan savdo qiluvchi do`konlar joylashgan (M.Qoriev)* gaplaridagi *so`zlayotgan*, *savdo qiluvchi* sifatdoshlari *kishi*, *do`konlar* otlariga bog`lanib, uning harakat belgisini bildirib, sifatlovchi (aniqlovchining bir turi) vazifasini bajargan.

Sifatdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) fe'l o`zak-negiziga –gan (-kan, -qan) affikslarni qo`shish bilan: yuklagan, kechikkan, qiziqqan (fe'l negizi k yoki g bilan tugasa, -kan; q yoki g` bilan tugasa, -qan tarzida).

Bu affiks sifatdosh yasashda eng mahsuldor, unumli affiks sanaladi.

Eski o`zbek adabiy tilida –gan affiksining ekvivalenti –mish, -dik affikslari bilan ham yasalgan (bu affikslar hozir ham uchraydi).

2) fe'lning –a, -y affiksi bilan tugagan ravishdosh negiziga –digan, -yotgan affikslarini qo`shish bilan: kelayotgan, o`qiyotgan, boradigan, ishlaydigan kabi;

3) fe'l o`zak-negiziga –r (-ar) qo`shilishi bilan (unlidan so`ng –r, undoshdan so`ng –ar): sanar, ko`kar kabi;

4) fe'l o`zak-negiziga –vchi (-uvchi) qo`shilishi bilan (unlidan so`ng –vchi, undoshdan so`ng –uvchi): boshlovchi, kutuvchi kabi;

Eski adabiy tilda sifatdoshning bu turi –guchi, -g`uchi shaklida ham ishlatilgan aytguchi, kelguchi. Bu shakl hozir ham poeziyada uchraydi: *Kulimsirab turg`uchi toleing porloq (G`.G`.).*

Bu affiks bilan yasalgan sifatdoshning ot so`z turkumiga ko`chish holati ham uchraydi: o`quvchi, to`quvchi, yozuvchi kabi.

5) fe'l negiziga –ajak qo`shilishi bilan: kelajak, bo`lajak kabi;

6) fe'l negiziga –gusi, -g`usi qo`shilishi bilan: kelgusi, bo`lg`usi kabi.

Sifatdosh leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. SHunga ko`ra sifatdosh fe'l sanaladi va fe'lga xos bo`lgan grammatik xususiyatlarga egadir, ya'ni:

1) o`timli-o`timsizlik ma'nosini ifodalaydi: o`qigan, yozdirgan - o`timli; qolgan, qiziqtirgan - o`timsiz sifatdosh;

2) bo`lishli-bo`lishsizlik ma'nosini ifodalaydi: o`qigan – bo`lishli, o`qimagan – bo`lishsiz; aytar – bo`lishli, aytmas – bo`lishsiz sifatdosh;

3) nisbat ma'nosini anglatadi: yuvgan - aniq nisbat, yuvingan - o`zlik nisbat, yuvilgan - majhullik nisbat, yuvishgan – birgalik nisbat, yuvdirgan – orttirma nisbat;

4) sifatdoshlar tuslanganda aniqlik maylining biror zamoniga xos bo`lgan fe'lni hosil qiladi (sof fe'lga aylanadi) va kesim vazifasini bajaradi: *Bu hofiz butun olamga tanilgan (O.).*

Sifatdoshning deyarli barcha shakllari tuslanish xususiyatiga (-yotgan shaklidan tashqari) ega. –r (-ar) bilan yasalgan sifatdosh shakli esa hozirgi tilda ko`proq tuslangan shaklda ishlatiladi: o`qirman, o`qirsan, o`qir; o`qirmiz, o`qirsiz, o`qir(lar) kabi;

5) sifatdosh zamon ma’nosini ifodalaydi. Atributiv (sifatlovchi) holatida kelgan sifatdoshning zamon ma’nosi nisbiy sanaladi, chunki sifatdoshning zamoni nutq momentiga nisbatan emas, balki fe’l-kesimning zamoniga nisbatan belgilanadi: *Ko`nglini kichik tutgan, kamtarlik yo`lidan yurgan kishi ulug`likka etadi (YUsuf Xos Xojib)* gapida tuslangan fe’l etadi hozirgi-kelasi zamonni ifodalasa, ko`nglini kichik tutgan, kamtarlik yo`lidan yurgan sifatdoshlari o`tgan zamonni ifodalaydi.

Sifatdoshlar zamon ma’nosiga ko`ra uch guruhga bo`linadi: o`tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, kelasi zamon sifatdoshi. Sifatdoshlarni hosil qiluvchi maxsus grammatik ko`rsatkichlar sifatdoshning nisbiy zamon ko`rsatkichi ham sanaladi.

O`tgan zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlanib turgan vaqtdan ilgari bo`lgan harakat belgisini anglatadi. –gan (-kan, -qan) grammatik ko`rsatkichlari bilan yasalgan sifatdosh o`tgan zamon sifatdoshini hosil qiladi: *Murabbiysi bo`lmagan odamni hayot o`zi tarbiyalab qo`yadi («Otalar so`zi»).*

Hozirgi zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlashib turgan vaqtida davom etayotgan harakat belgisini anglatadi.

Hozirgi zamon sifatdoshi –yotgan, -vchi (-uvchi) affikslarini qo`shish bilan hosil bo`ladi: *Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo`lmog`i darkor (I.A.Karimov). Elmurod bu erga keluvchi mehmonlarning hammasini tanib oldi (P.Tursun).*

Kelasi zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlanib turgan vaqtdan keyin bajariladigan harakat tarzidagi belgisini anglatadi. Kelasi zamon sifatdoshi –r (-ar), -digan, -ajak affikslari bilan yasaladi: *Aytar so`zni ayt, aytmas so`zdan qayt (Maqol). Dehqon kelasi kuzda oladigan hosilining g`amini shu kuzdan ko`radi (M.Ismoiliy).*

Sifatdosh fe’l shaklining «sifatdosh» deb atalishi, uning sifat singari predmetning belgisini bildirishiga ko`radir. Sifatlar predmetning rangi, hajmi, mazasi, xususiyati kabilarni bildirsa, sifatdosh predmetning harakat va holat belgisini anglatadi.

Demak, sifatdosh sifatga xos bo`lgan grammatik xususiyatlarga ham egadir, ya’ni:

1) sifatdosh morfologik jihatdan o`zgarmaydi (egalik, kelishik, ko`plik affikslarini olmaydi);

2) sifatdosh otga bog`lanib kelib, predmetning harakat belgisini bildiradi va gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi: Ko`klam quyoshidan ko`kargan qirlar, ko`m-ko`k (H.Olimjon). Xadichabegim yurt uchun qayg`uradigan bir malika ekanini ko`rsatishni sevardi (Oybek).

3) sifatdosh otlashish xususiyatiga ega, bunday holda sifatdosh bog`lanib kelgan ot qo`llanmaydi va sifatdosh ot kabi so`z o`zgartiruvchi (egalik, kelishik, ko`plik affikslarini) affikslarni oladi, ot singari sintaktik vazifalarni (ega, to`ldiruvchi, qaratuvchi) bajaradi: Yo`lni bilgan qoqilmaydi (Maqol). Qishloq xo`jaligida bevosita ishlab chiqaruvchining o`zi xo`jayin bo`lishi shart (I.Karimov). Ko`p yurgandan so`rama, ko`p ko`rgandan so`ra (Maqol). Dushmanga nafrati bo`lmaganning Vatanga muhabbati bo`lmas (Maqol).

**Harakat nomi.** Ish-harakatning atamasi bo`lib, gapda otga xos vazifalarni bajarishga mos bo`lgan fe’l shakli harakat nomi deyiladi: Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma’naviy harakatlaridandir. CHavandoz bu gaplarni Ertoevga aytishini ham,

aytmaslikni ham bilmay turgandi (O.YOqubov). Mustaqilligimiz tufayli xalq va Vatan tarixi, boy ilmiy va adabiy merosga xolisona yondashishning guvohi va shohidi bo`lmoqdamiz (Rahim Vohidov) gaplaridagi intilish, aytishni, aytmaslikni, yondashishning fe’l shakllari harakatning atamasi (nomi) bo`lib, gapda otga xos ega, to`ldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajargan.

Harakat nomi quyidagi shakl yasovchi affikslar bilan yasaladi:

1) fe’l negiziga –sh (-ish) qo`shish bilan (unlidan so`ng –sh, undoshdan so`ng –ish): o`qish, yozish, ishlash, chiqish kabi;

Harakat nomining –sh (-ish) affiksi bilan yasalgan shakli otga yaqin turadi, shuning uchun ham bu shaklda harakat nomi otga ko`chishga moyil bo`ladi.

2) fe’l negiziga –v (-uv) qo`shish bilan (unlidan so`ng –v, undoshdan so`ng –uv): ishlov, bag`ishlov, boruv, keluv kabi;

Bu affiks bilan yasalgan harakat nomi hozirgi o`zbek tilida kam ishlatiladi;

3) fe’l negiziga -moq qo`shish bilan: o`smoq, ulg`aymoq, o`rganmoq kabi.

Harakat nomining -moq affiksi bilan yasalgan shakli fe’lga juda yaqin turadi, chunki har qanday fe’lning bosh shakli yo buyruq-istak mayli shaklida esla, shosh kabi; yoki eslamoq, shoshmoq kabi harakat nomi shaklida olinadi.

Harakat nomi leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan harakat nomi fe’lga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) o`timli-o`timsizlik ma’nosini ifodalaydi: o`rganish, ko`rmoq - o`timli harakat nomi; yugurish, ishonmoq - o`timsiz harakat nomi;

2) nisbat ma’nosiga ega: yutmoq - aniq nisbat, yasanmoq - o`zlik nisbat, baholanmoq - majhullik nisbati, qiziqtirmoq - orttirma nisbat;

3) harakat nomining bo`lishsiz shakli faqat –maslik affiksi bilan yasaladi: aytish – bo`lishli harakat nomi, aytmaslik – bo`lishsiz harakat nomi.

4) harakat nomi zamon ma’nosiga ega emas. Lekin ma’lum bir qulay sharoitda unda hozirgi-kelasi zamon ma’nosi aks etadi: Oilada farzand tarbiyasiga har tomonlama e’tibor bermoq lozim (O.Karimova).

5) boshqa fe’l shakllari singari harakat nomi boshqarish xususiyatiga ega.

SHuningdek, ish-harakatning nomini bildirish jihatdan harakat nomi otga xos bo`lgan grammatik xususiyatlarga ham ega, ya’ni:

1) harakat nomi son, egalik va kelishik affikslarini oladi;

2) harakat nomi ot singari ega, qaratqich aniqlovchi, to`ldiruvchi ko`makchili shaklda hol va kesim vazifalarini bajaradi: *Zumradning tikishi – go`zal, ipakni turlashi ham mohirona (O.). Bilim va tushunishga intil kunu tun (YUsuf Xos Xojib). Rais Jo`raboev bilan jiddiy tortishuvdan so`ng juda qattiq asabiylashdi (SH.R.). O`zini olim, fozilman deb maqtanish, shu bilan g`ururlanish jaholatning bir ko`rinishidir («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»).*

## Fe’llarning shaxs-aon qo`shimchalari bilan tuslanishi

Ish-harakat ma’lum bir grammatik shaxs tomonidan bajariladi (yoki bajarilmaydi). Grammatik shaxs so`zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o`zga (III shax syoki predmet) bo`lishi mumkin.

Grammatik shaxs grammatik son (birlik yoki ko`plik) bilan birgalikda ifodalanadi. Fe’llardagi bunday grammatik shaxs va son ma’nosi ma’lum bir grammatik

ko`rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan: o`qidim, o`qisam, o`qisang, o`qiyapman, o`qibman, o`qiy fe’llari tarkibidagi –m, -man, -y qo`shimchalari ish-harakatning I shaxs so`zlovchi, ya’ni yakka shaxs tomonidan bajarilganini ko`rsatsa; o`qidik, o`qisak, o`qiyapmiz, o`qibmiz, o`qiylik fe’llari tarkibidagi –k, -miz, -ylik affikslari ish-harakatning I shaxs, lekin ko`p so`zlovchilar (shaxslar) tomonidan bajarilganini ifodalaydi.

Demak, ish-harakatning bajaruvchisi uch shaxs va 2 son tushunchalarini aks ettiruvchi affikslarni o`z ichiga oladi. SHuning uchun ham bunday affikslar shaxs-son affikslar deb yuritiladi. Fe’llarning shaxs-son affikslari bilan o`zgarishi esa tuslanish deyiladi. SHaxs-son affikslari tilshunoslikda tuslovchi affikslar deb ham yuritiladi.

O`zbek tilida tuslovchi affikslar fe’l shakllariga turlicha ko`rinishda qo`shiladi. SHu jihatdan tuslovchi affikslar uch guruhga bo`linadi.

1. **Birinchi guruh tuslovchilar** aniqlik va shart-istak maylidagi –di, -sa qo`shimchalarini olgan sof fe’l negizidan so`ng va edi to`liqsiz fe’liga qo`shiladi: keldi-m, keldi-ng, keldi; kelsa-k, kelsa-ng, kelsa(lar) kabi.

Fe’llarning birinchi guruh tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

| SHaxs | Son | |
|---|---|---|
| | Birlik | Ko`plik |
| I | *yozdim, yozsam, yozgan edim* | *zdik, yozsak, yozgan edik* |
| II | *yozding, yozsang, yozgan eding* | *yozdingiz, yozsangiz, yozgan edingiz* |
| III | *yozdi, yozsa, yozgan edi* | *yozdi(-lar), yozsa(-lar), yozgan edi(-lar)* |

Ikkinchi guruh tuslovchi affikslar *–b(-ib), -a(-y)* qo`shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlardan, sifatdoshlardan *(-yotgan* qo`shimchasidan tashqari), shuningdek, -*yap*, -*moqda*, -*yotib*, -*moqchi* bilan shakllangan fe’l negizidan so`ng qo`shiladi. Mazkur guruhdagi tuslovchilar III shaxsdagina ikki xil ko`rinishda bo`ladi, ya’ni birinchi xil ko`rinishda *–b(-ib), -a(-y)* qo`shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlar hamda –yap, -yotib bilan shakllangan fe’llar III shaxs birlikda –di (-ti), ko`plikda –di(lar), -ti(lar) shaxs-son affikslari bilan shakllanadi.

Ikkinchi xil ko`rinishda esa fe’lning sifatdosh shakllariga *(-gan, -r(-ar), -digan, -vchi(-uvchi* bilan hosil qilingan shakllariga), -moqda, -moqchi, -yotir bilan shakllangan fe’l negizlari, shuningdek, fe’llar ekan, emish to`liqsiz fe’llari bilan birga qo`llansa, III shaxsda shaxs ko`rsatkichi shakllanmaydi (nol ko`rsatkichli shaklda keladi).

Fe’llarning ikkinchi guruh (A.B ko`rinishi) tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

«A» ko`rinishi

| Shaxs | Son | |
|---|---|---|
| | Birlik | Ko`plik |
| I | *yozib-man, yozayotib-man, yoza-man yozyap-man* | *yozib-miz, yozayotib-miz, yoza-miz, yozyap –miz* |
| II | *yozib-san, yozayotib-san,* | *yozib-siz, yozayotib-siz,* |

| | | |
|---|---|---|
| | *yoza-san, yozyap -san* | *yoza-siz, yozyap –siz* |
| III | *yozib-di, yozayotib-di, yoza-di, yozyap -ti* | *yozibdilar, zayotibdilar, yozadilar, yozyaptilar* |

«B» ko`rinishi

| Shaxs | Son | |
|---|---|---|
| | Birlik | Ko`plik |
| I | *yozgan-man, yozar-man, yozadigan-man, yozmoqda-man, yozmoqchi-man* | *yozgan-miz, yozar-miz, yozadigan-miz, yozmoqda-miz, yozmoqchi-miz* |
| II | *yozgan-san, yozar-san, yozadigan-san, yozmoqda-san, yozmoqchi-san* | *yozgan-siz, yozar-siz, yozadigan-siz, yozmoqda-siz, yozmoqchi-siz* |
| III | *yozgan, yozar, yozadigan, yozmoqda, yozmoqchi* | *yozgan-lar, yozar-lar, yozadigan-lar, yozmoqda-lar, yozmoqchi-lar* |

Uchinchi guruh tuslovchilar buyruq maylidagi sof fe’l negizidan so`ng qo`shiladi.
Fe’llarning uchinchi guruh tuslovchi bilan tuslanishi quyidagicha:

| SHaxs | Son | |
|---|---|---|
| | Birlik | Ko`plik |
| I | *yoz**ay**, yoz**ayin**, o`qi**y**, o`qi**yin*** | *yozaylik, o`qiylik* |
| II | *yoz, yozgin, o`qi, o`qigin* | *yozingiz, o`qingiz,* |
| III | *yozsin, o`qisin* | *yozsinlar, o`qisinlar,* |

**Fe’l zamonlari**

Ish-harakatning voqe bo`lishi (yoki bo`lmasligi) mantiqan zamon bilan bog`liq bo`ladi. Fe’llardagi zamon nutq so`zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi, ya’ni ish-harakat nutq so`zlanib turgan paytdan oldin, nutq so`zlanib turgan paytda, nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilishi yoki bajarilmasligi mumkin. SHunga ko`ra, fe’l uch zamon ko`rinishiga ega: 1. O`tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon. Fe’llarda zamon ma’nosi fe’l tarkibida qo`llangan grammatik ko`rsatkichlar orqali belgilanadi. Masalan: *1. Nodira ezgu ishlar bunyod etdi va o`tar dunyoda yaxshi nom qoldirdi. (R.SHog`ulomov). 2. Ko`nglini kichik tutgan, kamtarlik yo`lidan yurgan kishi ulug`likka etadi (YUsuf Xos Xojib). 3. Ilm ko`pga etkazar, hunar esa ko`kka (Maqol).* Keltirilgan misollarning birinchisida bunyod etdi, nom qoldirdi fe’llari tarkibidagi –di o`tgan zamonni, ikkinchisida etadi fe’li tarkibidagi –a ko`rsatkichi hozirgi zamonni, uchinchisida etkazar fe’lidagi –ar ko`rsatkichi esa kelasi zamon ma’nosini ifodalagan.

Har bir zamon o`z navbatida yana bir necha turga bo`linadi. CHunki har bir zamon vaqtning katta qismini ko`rsatish bilan birga o`zining ichki xususiy modal ma’nolariga (qo`shimcha ma’nolarga) ham ega. Masalan: *o`qimoqchiman, o`qiydiganman* fe’llari nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajariladigan harakatni ifodalab, vaqtning katta

qismini ko`rsatish bilan birga, bajarilishi maqsad qilib olingan harakatni anglatishi kabi o`ziga xos modal ma’noga ham ega.

O`tgan zamon fe’li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

O`tgan zamon fe’li xususiy modal ma’nolariga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

1) yaqin o`tgan zamon fe’li; 2) uzoq o`tgan zamon fe’li; 3) o`tgan zamon hikoya fe’li; 4) o`tgan zamon davom fe’li; 5) o`tgan zamon maqsad fe’li.

YAqin o`tgan zamon fe’li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan bir oz oldin, ammo so`zlovchining ko`z oldida (yoki uning faol ishtiroki bilan) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi. Masalan: Go`zal vodiydagi Gullar bog`i ko`klam libosi bilan bezandi (SH.R.).

YAqin o`tgan zamon fe’li sof fe’l negiziga –di qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan (I guruh tuslovchi) shakllanadi:

| Shaxs | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi |
| I shaxs | o`qidim | -di | -m | o`qidik | -di | -k |
| II shaxs | o`qiding | -di | -ng | o`qidingiz | -di | -ngiz |
| III shaxs | o`qidi | -di | - | o`qidilar | -di | (-lar) |

Uzoq o`tgan zamon fe’li nutq so`zlanib turgan paytdan ancha oldin bajarilgan yoki bajarilmagan, ammo bu haqda nutq so`zlanib turgan paytda xabar qilingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: SHoyi, atlas, chit, las ko`ylak; nimcha, durra, peshonabog`, xullas bor boricha yo`q holicha yasalgan (N. Safarov).

Uzoq o`tgan zamon fe’li negiziga –gan sifatdosh qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan (II guruh «B» ko`rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

| Shaxs | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi |
| I shaxs | o`qiganman | -gan | -man | o`qiganmiz | -gan | -miz |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| II shaxs | o`qigans an | -gan | -san | o`qigansi z | -gan | -siz |
| III shaxs | o`qigan | -gan | - | o`qiganla r | -gan | (-lar) |

Uzoq o`tgan zamon fe’li nutqda aniq eslash (yoki eslatish), kutilmaganda eslash, eshitilganlik kabi qo`shimcha modal ma’nolarga ham ega bo`ladi. Uzoq o`tgan zamonning bo`lib o`tgan ish-harakatni aniq eslash ma’nosi –gan sifatdoshiga edi (qisqa shaklida) to`liqsiz fe’lini biriktirib tuslash orqali: o`qigan edim, o`qigan eding, o`qigan edi; o`qigan edik, o`qigan edingiz, o`qigan edilar kabi; kutilmaganda eslash ma’nosi –gan sifatdoshiga ekan (qisqa shakli –kan) to`liqsiz fe’lini biriktirib tuslash bilan: o`qigan ekanman, o`qigan ekansan, o`qigan ekan; o`qigan ekanmiz, o`qigan ekansiz, o`qigan ekanlar kabi; bo`lib o`tgan ish-harakatning so`zlovchining boshqa shaxsdan eshitganligi –gan sifatdoshiga emish (qisqa shakli –mish) to`liqsiz fe’lini biriktirib tuslash orqali: o`qigan emishman, o`qigan emishsan, o`qigan emish; o`qigan emishmiz, o`qigan emishsiz, o`qigan emishlar kabi shakllanadi. Masalan: Nasibaning yuzidagi bo`g`riqish yo`qolib, uning o`rnida nafislik paydo bo`lgan edi (X.No``mon). Mirza Bahrom unday ma’no chiqishini sira ko`zda tutmagan ekan, o`sal bo`ldi (A.Qahhor).

O`tgan zamon hikoya fe’li kutilmaganda, qisqa vaqt ichida nutq so`zlanib turgan paytdan ilgari bajarilgan (yoki bajarilmagan) ish-harakatni hikoya qilish, tasvirlash yo`li bilan ifodalaydi. Masalan: Halol rizq istab, mehnat qilib, charchab uxlagan kishi shu kechani ma’rifat qilingan holda o`tkazibdi (Hadisdan).

O`tgan zamon hikoya fe’li fe’l negiziga –b (-ib) o`tgan zamon ravishdosh qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan (II guruh «A» ko`rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

| SHaxs | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi |
| I shaxs | o`qibman | -b | -man | o`qibmiz | -b | -miz |
| II shaxs | o`qibsan | -b | -san | o`qibsiz | -b | -siz |
| III shaxs | o`qibdi | -b | -di | o`qibdila r | -b | -di(-lar) |

O`tgan zamon hikoya fe’lining eslay (eslatish) ma’no ko`rinishi ham bor. Bu shakl o`tgan zamon –b (-ib) ravishdoshiga edi to`liqsiz fe’lini biriktirib tuslash orqali hosil bo`ladi: o`qib edim, o`qib eding, o`qib edi; o`qib edik, o`qib edingiz, o`qib edilar kabi. Masalan: Urush tugasa, biznikiga mehmongan borasiz, o`shanda ayamning qanaqaligini ko`rasiz deb edi (S.Zunnunova).

O`tgan zamon davom fe’li nutq so`zlanib turgan paytdan ilgari ma’lum bir muddat davomli bo`lgan yoki takrorlanib turgan ish-harakatni eslash ma’no ottenkasi bilan

ifodalaydi. Masalan: 1. Bu erda Boburning doim o`z kuchi bilan birga olib yuradigan kitoblari saqlanar edi (P.Qodirov). 2. Daryolardan kuylab o`tardim, Ertaklarga quloq tutardim, Hammasini tinglardim, ammo O`xshashini topmasdim aslo (H.O.). Bu misollarning birinchisida saqlanar edi fe'li o`tmishda ma'lum bir muddat davomli bo`lgach ish-harakatni ifodalasa, ikkinchisida kuylab o`tardim, quloq tutardim, tinglardim vaqti-vaqti bilan takrorlanib ish-harakatni anglatadi. O`tgan zamon davom fe'li –r(-ar), -yotgan sifatdosh fe'l negiziga hamda -moqda qo`shimchasini olgan sof fe'l negiziga edi to`liqsiz fe'lini biriktirib tuslash (I guruh tuslovchilari bilan) orqali hosil qilinadi:

| Shaxs | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | Shaxs-son qo`sh. | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`sh. |
| I shaxs | o`qir edim, o`qiyotgan edim, o`qimoqda edim | -r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi | -m | o`qir edik, o`qiyotgan edik, o`qimoqda edik | -r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi | -k |
| II shaxs | o`qir eding, o`qiyotgan eding, o`qimoqda eding | -r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi | -ng | o`qir edingiz, o`qiyotgan edingiz, o`qimoqda edingiz | -r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi | -ngiz |
| III shaxs | o`qir edi, o`qiyotgan edi, o`qimoqda edi | -r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi | - | o`qir edilar, o`qiyotgan edilar, o`qimoqda edilar | -r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi | (-lar) |

O`tgan zamon maqsad fe'li nutq so`zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo voqe bo`lmagan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: U bugun Malika

bilan xoli gaplashib, ko`nglidagi hamma sir-asrorini to`kib solmoqchi edi (E.Usmonov). Ertasiga qishloqqa chiqadigan edi.

O`tgan zamon maqsad fe'li -moqchi, -digan qo`shimchalarini olgan fe'l negiziga edi to`liqsiz fe'lini biriktirib (I guruh tuslovchilar bilan) tuslash bilan shakllanadi:

| SHaxs | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi |
| I shaxs | o`qimoqchi edim, o`qiydigan edim, | -moqchi+edi, -digan+edi | -m | o`qimoqchi edik, o`qiydigan edik, | -moqchi+edi, -digan+edi | -k |
| II shaxs | o`qimoqchi eding, o`qiydigan eding, | -moqchi+edi, -digan+edi | -ng | o`qimoqchi edingiz, o`qiydigan edingiz, | -moqchi+edi, -digan+edi | -ngiz |
| III shaxs | o`qimoqchi edi, o`qiydigan edi, | -moqchi+edi, -digan+edi | - | o`qimoqchi edilar, o`qiydigan edilar, | -moqchi+edi, -digan+edi | (-lar) |

Hozirgi zamon fe'li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytda bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

Hozirgi zamon fe'li qo`shimcha modal ma'nolariga ko`ra 2 turga bo`linadi: 1) hozirgi-kelasi zamon fe'li, 2) hozirgi zamon davom fe'li.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq so`zlanib turgan paytda va undan keyin ro`y beradigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. Masalan: Bobur bu chigal tugunlarni o`zi echilmasligini sezadi (P.Qodirov). YOshlikda zahmat chekib, ilm o`rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan (Koshifiy).

Hozirgi-kelasi zamon fe'li sof fe'l negiziga –a, -y ravishdosh qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil qilinadi:

| | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamo | Shaxs | Misol | Zamo | SHaxs |

| Shaxs | | n ko`rsat-kichi | -son qo`shim-chasi | | n ko`rsat-kichi | -son qo`shim-chasi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| I shaxs | o`qiyman, boraman | -y, -a | -man | o`qiymiz, boramiz | -y, -a | -k |
| II shaxs | o`qiysan, borasan | -y, -a | -san | o`qiysiz, borasiz | -y, -a | -ngiz |
| III shaxs | o`qiydi, boradi | -y, -a | -di | o`qiydilar, boradilar | -y, -a | -di(-lar) |

Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytda aniq davom etayotganini bildiradi: Mustaqillikka erishganimizdan so`ng xalqimizning o`z yurti, dili, tarixini bilishga qiziqish ortib bormoqda (I.Karimov).

| SHaxs | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shim-chasi | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shim-chasi |
| I shaxs | o`qiyapman, o`qimoqdaman, o`qiyotibman | -yap, -moqda, -yotib | -man | o`qiyapmiz, o`qimoqdamiz, o`qiyotibmiz | -yap, -moqda, -yotib | -miz |
| II shaxs | o`qiyapsan, o`qimoqdasan, o`qiyotibsan | -yap, -moqda, -yotib | -san | o`qiyapsiz, o`qimoqdasiz, o`qiyotibsiz | -yap, -moqda, -yotib | -siz |
| III shaxs | o`qiyapti, o`qimoqda, o`qiyotibdi | -yap, -moqda, -yotib | -ti - -di | o`qiyaptilar, o`qimoqdalar, o`qiyotibdilar | -yap, -moqda, -yotib | -ti(-lar) - -di(-lar) |

SHuningdek, murakkab fe'l tarkibida qo`llangan yot, yur, tur, o`tir ko`makchi fe'llarni tuslash bilan ham hozirgi zamon davom fe'li hosil qilinadi: o`qib yotibman, o`qib yuribman, o`qib turibman, o`qib o`tiribman kabi.

Kelasi zamon fe'li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilish yoki bajarilmasligini ifodalaydi.

Kelasi zamon fe'li qo`shimcha modal ma'nolariga ko`ra ikki turga bo`linadi:

1) kelasi zamon gumon fe'li; 2) kelasi zamon maqsad fe'li.

Kelasi zamon gumon fe'li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilish-bajarilmasligi mo`ljallanishini, taxmin qilinishini ifodalaydi. Masalan: Bugun havo ochiq bo`lar (A.Q.)

Kelasi zamon gumon fe'li ba'zan hozirgi-kelasi zamon ma'nosida kelib, aniqlik, qat'iylik ma'nolarini ham ifodalaydi: Qadrlasang, qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar (Maqol).

Kelasi zamon gumon fe'li sof fe'l negiziga –r(-ar) sifatdosh qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan shakllanadi:

| SHaxs | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shim-chasi | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shim-chasi |
| I shaxs | o`qirman, borarman | -r, -ar | -man | o`qirmiz, borarmiz | -r, -ar | -miz |
| II shaxs | o`qirsan, borarsan | -r, -ar | -san | o`qirsiz, borarsiz | -r, -ar | -siz |
| III shaxs | o`qir, borar | -r, -ar | - | o`qirlar, borarlar | -r, -ar | (-lar) |

Kelasi zamon maqsad fe'li nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilishi maqsad qilib olingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: Men kuzdan boshlab o`qishni davom ettirmoqchiman, so`ngra qishloq xo`jalik institutiga kirmoqchiman (SH.R.). Oho qora ko`z deganda, u devordan oshadigan (O.).

Kelasi zamon maqsad fe'li sof fe'l negiziga -moqchi hamda fe'lning ravishdosh (-a, -y bilan shakllangan) shakliga –digan qo`shimchasini qo`shish bilan hosil qilinadi:

| SHaxs | Son | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Birlik | | | Ko`plik | | |
| | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shimchasi | Misol | Zamon ko`rsat-kichi | SHaxs-son qo`shim-chasi |
| I | o`qimoqc | - | -man | o`qimoqc | - | -miz |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| shaxs | himan, o`qiydiganman | moqchi, -digan | | himiz, o`qiydiganmiz | moqchi, -digan | |
| II shaxs | o`qimoqchisan, o`qiydigansan | -moqchi, -digan | -san | o`qimoqchisiz, o`qiydigansiz | -moqchi, -digan | -siz |
| III shaxs | o`qimoqchi, o`qiydigan | -moqchi, -digan | - | o`qimoqchilar, o`qiydiganlar | -moqchi, -digan | (-lar) |

Fe'l mayllari

Ish-harakatning voqelikka munosabatini ko`rsatuvchi grammatik kategoriyaga fe'l mayli deyiladi. Mayl kategoriyasi grammatik zamon (o`tgan, hozirgi, kelasi) va grammatik shaxs (bajaruvchi) bilan uzviy bog`langan bo`lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish tizimiga kiradi. Fe'l mayllarida voqelik bilan bog`liq ravishda ish-harakatning bajarilish xususiyatlari turlicha bo`ladi. Masalan: 1) Havo sovuq, osmonda zahardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi (O`.Hoshimov). 2) YOshlikda zaxmat chekib, ilm o`rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan. (Koshifiy). 3) So`zlayotgan kishining o`ziga emas, so`ziga e'tibor qil (Monteske. Tafakkur gulshani). Bu misollarning birinchisida kezadi fe'li ish-harakatning aniq bajarilishini, ikkinchisida o`rgansang, egallasang fe'llari ish-harakatning bajarilishi uchun shart qilib olingan harakat ma'nosini, uchinchi misolda esa e'tibor qil fe'li ish-harakatning bajarilishi haqidagi buyruq, maslahat ma'nosini anglatgan. Demak, fe'l anglatgan ish-harakat voqelikka munosabatiga ko`ra aniqlik, shart (istak), buyruq (istak) kabi qo`shimcha modal ma'nolarni ifodalaydi. SHunga ko`ra fe'llar, asosan, 3 fe'l mayli ko`rinishiga ega: 1) aniqlik mayli, 2) shart mayli, 3) buyruq-istak mayli.

Aniqlik mayl. Bu mayldagi fe'l ish-harakatning uch zamondan birida aniq (real) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi. YA'ni aniqlik maylidagi fe'l o`tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon fe'llarining barcha ma'no ko`rinishlarini o`z ichiga qamrab oladi: o`qidim, o`qimadim - yaqin o`tgan zamon fe'li; o`qiyapman - hozirgi zamon davom fe'li; o`qimoqchiman, o`qimoqchi emasman – kelasi zamon maqsad fe'li kabi. Masalan: Men unga mustaqil odam ekanligimni ko`rsatib qo`ymoqchiman (P.Q.) gapida ko`rsatib qo`ymoqchiman fe'li ish-harakatning kelasi zamonda (kelasi zamon maqsad fe'li) I shaxs tomonidan (-man shaxs-son affiksi) aniq bajarilishini anglatadi.

Aniqlik maylidagi fe'llar I-II guruh tuslovchi affikslar bilan tuslanadi.

Buyruq-istak mayli. Bu mayldagi fe'l kelasi zamonga oid bo`lib ish-harakatni bajarish yoki bajarmaslik haqida buyurish, so`rash, istash, iltimos, maslahat, undash-chaqirish kabi ma'nolarni anglatadi va III guruh tuslovchi affikslar bilan o`zgaradi: o`qiy (o`qiyin), o`qigin (o`qi), o`qisin; o`qiylik, o`qingiz, o`qisinlar kabi.

Buyruq-istak maylining I shaxsi istak iltimos, undash-chaqirish ma’nolarini (I shaxsda buyurish, iltimos ma’nolari ifodalanmaydi); II-III shaxsi buyruq, iltimos, maslahat o`rni bilan do`q kabi ma’nolarni ifodalaydi va ma’nolarning har biri o`ziga xos intonatsiya bilan ajralib turadi. Masalan: *1. O`z shaxsiy foydangni izlama, xalqning foydasini izla, xalqqa mashaqqat yukki tushirib, uni qiynama, o`zing yuk ko`taruvchi bo`l (YUsuf Xos Xojib). 2. Naqadar buyuk zamonda yashayotganligimizni unutmaylik (I.Karimov)* birinchi misolidagi *izlama*, *izla*, *qiynama*, *bo`l* fe’llari II shaxs (nol ko`rsatkichli shaklda)da kelib maslahat, iltimos kabi ma’nolarni, ikkinchi misoldagi unutmaylik fe’li I shaxs ko`plikda kelib, shu harakatni bajarishga undash, shu bilan birga istak, xohish kabi ma’nolar bildiriladi.

SHart (istak) mayli. Bu mayldagi fe’l birinchidan, ma’lum ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo`lgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunda shart maylidagi fe’l ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Masalan: Bolalaring senga qanday munosabatda bo`lishini istasang, ota-onangga ham shunday munosabatda bo`l (Tafakkur gulshani). Ikkinchidan, bu shakldagi fe’lning o`zi orzu-istak, xohish, maslahat, iltimos kabi ma’nolarni ifodalaydi va sodda gapning yoki qo`shma gaplarda bosh gapning kesimi vazifasida qo`llanadi: *Qani endi inqilob bo`lsa-yu, mehnatkash xalq xonni ag`darib mamlakatni o`zi idora qilsa, hamma erkin nafas olsa (N.SHaripov). Qani endi bu qirlarga ko`klamda chiqsang. Onajon, shu suratni menga bersangiz (A.Q.)*

Ko`rinadiki, shart maylidagi fe’l kelasi zamon tushunchasini anglatib, shart-istak ma’nosi fe’lning buyruq-istak maylidan bosh shaklga –sa qo`shimchasini qo`shish va tuslash orqali shakllanadi: o`qisam, o`qisang, o`qisa; o`qisak, o`qisangiz, o`qisalar kabi.

SHart mayli formasidagi fe’l edi, ekan to`liqsiz fe’llar bilan; kerak, bo`lmoq, ehtimol kabi modal ma’noli so`zlar bilan birga qo`llanishi mumkin: o`qisa edi, o`qisa ekan; o`qisa kerak, o`qisa bo`ladi kabi. Bunday shaklda kelgan fe’llar tilak, orzu, gumon, noaniqlik kabi ma’nolarni bildiradi: *Nahotki Muqaddas shu yotoqxonada tursa? (O.YO.). bu erda sho`r imoratning ofati bo`lsa kerak (A.Q.). Xo`sh, endi sizlarga nima sovg`a bersam ekan (O.).*

SHuningdek, shart maylidagi fe’l qo`shma gapning bir necha turlarida ergash gapni bosh gapga bog`lash uchun xizmat qiladi: *Ertalab derazadan qarasam, hamma yoq oppoq... (O.). To`tiqiz... dugonasini o`ylasa, xolasi o`z ko`ksida panoh topgandek bag`riga kirib olgan jiyanini o`ylar edi (M. Ismoiliy).*

**BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Aniqlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
2. O`zlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
3. Majhul nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.
4. Birgalik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring. 5. Orttirma nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.
6. Maxsus qo`shimchasiz orttirma nisbat ifodalagan fe’lga misol keltiring.
7. Birdan ortiq orttirma nisbat qo`shimchasi qo`shilgan fe’llarga misollar keltiring. 8. Qaysi nisbatdagi fe’llardan orttirma nisbat hosil qilib bo`lmaydi?
9. Orttirma nisbatdagi fe’llardan qaysi nisbatdagi fe’llarni hosil qilish mumkin?
10. Birdan ortiq nisbat qo`shimchasi qo`shilgan fe’llarga 4 ta misol ayting.
11. Tuslanish nima?

12. **–m, -ng, -k, -ngiz** qo`shimchalari qanday shakldagi fe’llarga qo`shiladi?

13.**–man, -san, -miz, -siz** kabi qo`shim -chalar qanday shakldagi fe’llarga qo`shiladi?

14. **–gin, -ay, -ing(iz)** kabi qo`shimchalar qanday shakldagi fe’llarga qo`shiladi? 20. O`tgan zamon fe’llarining turlari haqida gapiring.

| **3-Ma’vzu** | **Fe’llarning yasalishi, tuzilishi va xoslangan shakllari.** |
|---|---|

(Ma’ruza-4 soat)

| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
|---|---|
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Axborat ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Fe’llarning yasalishi.<br>2.Fe’llarning tuzilishi.<br>3. Fe’llarning xoslangan shakllari. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Fe’llarning yasalishi, tuzilishi va xoslangan shakllari haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Fe’llarning yasalishi. | Fe’larning yasalish usullari haqida ma’lumot berish. |
| Fe’llarning tuzilishi. | Fe’llarning tuzilishi jihatdan turlari haqida ma’lumot olish. |
| Fe’llarning xoslangan shakllari. | Fe’llarning xoslangan shakllari, ya’ni sof fe’l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi haqida ma’lumot aytish. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki savollar blis – so’rov |

**Fe’llarning yasalishi, tuzilishi va xoslangan shakllari mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a l a r i:**
**Fe’llarning yasalishi**

O`zbek tilida fe’llar so`z yasalish xususiyatiga ega. Fe’llar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik (affiksatsiya) usuli va sintaktik (kompozitsiya) usuli.

**1. Morfologik usul**ga ko`ra, maxsus fe’l yasovchi affikslar yordamida boshqa so`z turkumlaridan (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlidiy so`zlardan) fe’l yasaladi.

Hozirgi o`zbek tilida fe’l yasashda quyidagi so`z yasovchi affikslar qo`llanadi:

-la affiksi: kuyla, bahola; tozala, oqla; sizla; tezla, sekinla; ufla, dodla; shitirla, shivirla kabi. Bu affiks unumdor fe’l yasovchi affiks sanalib, barcha so`z turkumlaridan fe’l yasaydi.

-a affiksi: tuna, o`yna; qiyna, YAsha; guldura, shildira kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, taqlid so`zlardan fe’l yasaladi.

-r (-ar) affiksi: eskir, qisqar, ko`kar kabi. Bu affiks yordamida sifat asosidagi fe’l yasaladi.

-y (-ay) affiksi: ulg`ay, kuchay, qoray; ko`kay, ozay kabi. Bu affiks sifat va ravish asosidan fe’l yasaladi.

-sira affiksi: suvsira, yotsira; sizsira, sensira kabi. Bu affiks bilan ot, sifat, olmoshdan fe’l yasaladi.

-lan affiksi: otlan, shodlan, zavqlan, ikkilan kabi. Bu affiks tuzilishiga ko`ra qo`shma (-la+n) bo`lib, ot, sifat, sondan fe’l yasaydi hamda fe’l nisbat (o`zlik)ni shakllantiradi.

-lash affiksi: gaplash, bahslash, birlash, salomlash, xayrlash kabi. Bu affiks ham tuzilishiga ko`ra qo`shma (-la+sh) bo`lib, u ot, son, undov so`zdan fe’l yasaydi hamda fe’l nisbati (birgalik nisbat)ni shakllantiradi.

-i affiksi: changi, boyi, tinchi kabi. Bu affiks bilan ot va sifatdan fe’l yasaladi.

-ik (-iq) affiksi: yo`liq, do`riq, birik, kechik kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, son, ravishdan fe’l yasaladi.

-qir, -ira, -illa affikslari: hayqir, yarqira, yaltira, miltira; taqilla, gurilla, vishilla kabi. Bu affikslar yordamida undov va taqlid so`zlardan fe’l yasaladi.

-ir (-ur) affiksi: gapir, tupur. Bu affiks ham unum so`z yasovchi affiks bo`lib, u ot va undov so`zdan fe’l yasaydi.

-ka, -sa affikslari: ham unum so`z yasovchi affikslar bo`lib, bu affikslar yordamida otdan fe’l yasaladi: iska, suvsa kabi.

**2. Sintaktik usulga** ko`ra ikki (ba’zan undan ortiq) so`z asosi birikishi bilan yangi so`z qo`shma fe’l yasaladi. Masalan: *Borlig`imizni, boyligimizni, qadriyatlarimizni dunyoga ayon qilmoqdamiz (I.Karimov). Sustkashlik oson ishni mushkullashtiradi, qiyin ishni esa, chorasiz bir ahvolga olib keladi (Tafakkur gulshani).* Bu misollardagi *ayon qilmoqdamiz, olib keladi* fe’llari sintaktik usul bilan yasalgan qo`shma fe’llardir.

Qo`shma fe’llarning qismlari qaysi so`z turkumidan tuzilishiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) ot+fe’l qolipidan qo`shma fe’llar. Bunday fe’llarda birinchi qism fe’ldan boshqa so`z turkumlari (ot, sifat, undov, taqlid)dan tuzilib, ikkinchi qismi fe’l bo`ladi: javob bermoq, qo`l qo`ymoq, nazar tashlamoq, xursand bo`lmoq, xafa qilmoq, oh urmoq, yalt etmoq kabi. 2) fe’l+fe’l qolipidan qo`shma fe’llarning har ikala qismi fe’llardan tuziladi: olib chiqmoq, sotib olmoq, yutib olmoq, ola kelmoq kabi. Bunday qo`shma fe’llarning birinchi qismi –b (-ib), -a (-y) qo`shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shaklida keladi, tuslovchi qo`shimchalar ikkinchi qismga qo`shiladi.

Fe’l+fe’l qolipidagi qo`shma fe’llar kam miqdorni tashkil etadi.

Qo`shma fe’llarning har bir qismi o`z leksik ma’nosini saqlagan holda, birgalikda bitta murakkab harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan qo`shma fe’llar ko`makchi fe’lli so`z qo`shilmalaridan (analitik shakllardan) farqlanadi, chunki bunday fe’llarda leksik ma’no uning birinchi qismi bilan ifodalanib (etakchi qism), ikkinchi qismi esa (ko`makchi fe’l) unga (etakchi qism ma’nosiga) qo`shimcha modal ma’no qo`shadi: *aytib*

*ko`r, olib tur, ko`rib chiq* kabi qo`shilmalarda *aytib, olib, ko`rib* qismi etakchi, *ko`r, tur, chiq* qismlari esa ko`makchi fe'ldir.

## Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari (formalar)

O`zbek tilida fe'l o`ziga xos turli modal ma'nolarga (qo`shimcha ma'nolarga) ega. Fe'llardagi modal ma'nolar sintetik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar vositasida ifodalanadi.

Fe'ldagi modal ma'no sintetik shakl vositasida ifodalanganda, fe'l negiziga ish-harakatning davomliligi, takroriyligi, kuchsizligi kabi qo`shimcha ma'nolarni qo`shadigan shakl yasovchi qo`shimchalarni qo`shish bilan hosil qilinadi. Fe'llarda modal ma'no yasovchi affikslar quyidagilar:

1) ***–la*** affiksi fe'l negiziga qo`shilib, takror, davomiylik ma'nosini bildiradi: *savala, ishqala, tirnala, cho`qila* kabi;

2) ***–gila (-kila, -qila, -g`ila):*** *yugurgila, turtkila, tortqila, ezg`ila* kabi. Bu affikslar ham fe'l negiziga qo`shilib, harakatning davomiyligi, takror ma'nosini bildiradi;

3) ***–(i)msira, -(i)nqira:*** *yig`lamsira, kulimsira, oqarinqira* kabi. Bu affikslar fe'l negiziga qo`shilib, harakatning kuchsizlanishini bildiradi;

4) ***–(i)sh*** affiksi ham harakatning kuchisizligini bildiradi: *oqarishdi, to`lishdi* kabi;

5) ***-qilla:*** *chopqilla.* Bu affiks fe'l negiziga qo`shilib, harakatning zudlik bilan bajarilish ma'nosini bildiradi.

Fe'ldagi modal ma'no analitik shakl vositasi bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl ko`makchi fe'llar va to`liqsiz fe'llar yordamida hosil qilinadi: yozib ko`r, aytib chiq, ko`ra qol, so`zlay boshla, borar edi, kelgan emish, olgan ekan kabi.

Ko`makchi fe'llar bilan shakllangan qo`shilmalar ikki so`z shaklidan tashkil topib, birinchi qism leksik ma'no ifodalaydi. SHu tufayli etakchi fe'l deb yuritiladi; ikkinchi qism esa unga birikib grammatik ma'no ifodalaydi va ko`makchi fe'l sanaladi. Ko`makchi fe'llar etakchi fe'lning ma'nosiga qo`shimcha modal ma'nolar qo`shadi.

Ko`makchi fe'l tarzida kel, ket, bor, yubor, chiq, o`t, tur, qol, bo`l, ol, bil, qo`y, ber, tashla, ko`r, boshla kabilar keladi. Bu fe'llar bir tomondan, harakat ma'nosini ifodalab, mustaqil holda leksik birlik sanaladi, ya'ni keldi, borgan, ko`rmoqchi, bilib kabi; ikkinchi tomondan boshqa fe'l shakliga qo`shilib, o`z leksik ma'nosini vaqtincha yo`qotib, o`zi aloqador bo`lgan fe'lning leksik ma'nosiga qo`shimcha ma'no qo`shadi va ko`makchi fe'lga aylanadi. Masalan: yoza boshladi fe'li tarkibidagi boshladi fe'li mustaqil holda boshlanish harakatini ifodalaydi, lekin bu qo`shilmada o`z leksik ma'nosini yo`qotib yozish fe'lining leksik ma'nosiga qo`shimcha ma'no, ya'ni harakatning endi boshlanish ma'nosini qo`shgan.

SHu bilan birga ko`makchi fe'l etakchi ma'nosiga davomiylik, tugallanganlik, takroriylik (yoza tur, yozib tur, aytib bo`l kabi); harakatning bajarilish imkoniyati (yozib ko`r, aytib boq kabi); harakatning boshqa shaxsdan so`zlovchiga yo`nalishi (aytib ket, olib bor, aytib chiq, ola kel, yozib ol, yozib ber), harakatning bajarilish usuli (yozib tashla, aytib yubor) kabi modal ma'nolarni qo`shadi.

Fe'llarda modal ma'no juft va takroriy shakllar vositasida ham ifodalanadi. Etakchi fe'l bilan ko`makchi fe'l bir xil shaklda kelib, juft fe'lni hosil qiladi. Bunda leksik ma'no salmog`i birinchi qismda bo`ladi: a ytdi-qo`ydi, o`tdi-ketdi, oldi-qoldi kabi.

Ko`makchi fe’llar fe’lning –b (-ib), -a (-y) bilan yasalgan ravishdosh shakllari bilan birga qo`llanadi: o`qib ber, o`qiy boshla kabi.

Etakchi va ko`makchi fe’ldan tashkil topgan fe’l shakllarida ko`makchi fe’l birdan ortiq bo`lishi ham mumkin: yozib qo`ya qol, yozib berib qo`ya qol kabi.

Ko`makchi fe’lli fe’l shakllarida shaxs-son qo`shimchalari ko`makchi fe’llarga qo`shiladi: yozib chiqdim, yozib chiqding, yozib chiqdik, yozib chiqdingiz kabi.

**To`liqsiz fe’llar**

Mustaqil holda ish-harakat ma’nosini ifodalamay, turli fe’l shakllaridan so`ng (keng ma’noda ot bilan) qo`llanib, faqat grammatik modal ma’no ifodalaydigan fe’llar to`liqsiz fe’llar deyiladi. To`liqsiz fe’llarga edi (-di), ekan (-kan), emish (-mish) kabi fe’l shakllari kiradi. YOzar edi – yozardi, yozar ekan – yozarkan, yozar emish – yozarmish kabi. Bu fe’llar aslida bir e (arxaik er) fe’l negizining turli shakllari bo`lib, ular hozir ayrim-ayrim so`z sifatida tushuniladi.

To`liqsiz fe’l sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi bilan birikib, fe’l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi. To`liqsiz fe’llar edi, ekan, emish turlicha modal ma’nolar ifodalaydi:

1) edi to`liqsiz fe’li qatnashgan fe’l shaklida ta’kidlash, eslatish, hikoya, davomiylik, takror kabi ma’nolarni bildiradi: Bo`shagan erlarning bag`rini pluglarning o`tkir tig`lari tilka-tilka qilmoqda edi (H.N.). SHu kuni endi ko`chaga chiqib edi... (M.Ismoiliy). Ular bir partada o`tirishar, birga dars tayyorlashar, maktabni bitirgandan keyin qaerga o`qishga borish haqida maslahatlashar, xayol surishar edi (S.Zunnunova).

2) ekan to`liqsiz fe’l qatnashgan shakllarda o`tmishda yuz bergan voqea-hodisaning so`zlovchiga keyinchalik ma’lum bo`lganligi va uning davomi ekanligi anglashiladi: Aytishingizdan, oradan hech gap o`tmagan ekan (A.Qahhor).

3) emish to`liqsiz fe’li esa noaniqlik, gumon, eshitilganlik ma’nolarini bildiradi: O`zgarmagan, ammo negadir ikkovining ham bo`yi juda uzun bo`lib ketgan emish (S.Ahmad).

To`liqsiz fe’llar boshqa so`z turkumlari bilan ham birikib keladi. Bu holda ot kesim tarkibida kelib, bog`lama vazifasini bajarib, tuslovchi affikslarni oladi: Uy kichkina, lekin yorug` va toza edi (O.)

Fe’llarda modal ma’no fe’lning juft va takrorik shakli bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl orqali harakatning davomliligi, takrorlanib turishi, tugallanganlik, harakatning voqe bo`lishiga turlicha munosabat (befarqlik) kabi modal ma’nolar anglashiladi: ayta-ayta, borib-borib, aytsa-aytar, uchadi-ketadi, kelsa-kelibdi, ishlasa-ishlasin kabi.

| **Fe’l tahlili namunasi** | |
|---|---|
| 1. So`rog`i.<br>2. Bo`lishli yoki bo`lishsizligi.<br>3. O`timli yoki o`timsizligi.<br>4. Nisbati.<br>5. SHaxs-soni<br>6. Zamon turi. | 8. To`liq yoki to`liqsizligi.<br>9. Etakchi, ko`makchi fe’llar aniqlanadi.<br>10. Vazifadosh (xoslangan) shakllari.<br>11. Tuzilish turi.<br>12. Tub yoki yasamaligi.<br>13. Gapdagi sintaktik |

| | |
|---|---|
| 7. Mayl turi. | vazifasi |

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

Savol yo'q

| **4-Ma'vzu** | **Ravish – so'z turkumi** |
|---|---|

(Ma'ruza-2 soat)

| | |
|---|---|
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Axborat ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Ravishning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifalari.<br>2.Ravishning ma'no jihatdan turlari.<br>3. Ravishlarning otlashishi va yasalishi.<br>4. Ravishlarning tuzilishi. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Ravishning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifalari, ma'no jihatdan turlari, otlashishi va yasalishi hamda tuzilishi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Ravishning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifalari. | Ravishning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifalari haqida ma'lumot berish. |
| Ravishning ma'no jihatdan turlari. | Ravishning ma'no jihatdan turlari haqida ma'lumot olish. |
| Ravishlarning otlashishi va yasalishi. | Ravishlarning otlashishi va yasalishi haqida ma'lumot aytish. |
| Ravishlarning tuzilishi. | Ravishlarning tuzilishi haqida ma'lumotga |

| | |
|---|---|
| | ega bo'lish. |
| **O'qitish vositalari** | O".U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og'zaki savollar blis – so'rov |

**Ravish – so'z turkumi mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi 4 ta reja va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo'lim (50 min) | 2.1-reja bo'yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma'lumot beriladi.<br>2.3-reja bo'yicha tushincha beriladi.<br>2.4-reja bo'yicha ma'lumot olish. | "Klaster" usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan bilis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida. |

| | | |
|---|---|---|
| | sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | O'.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a l a r i:** Ravishning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifalari, ravishning ma'no jihatdan turlari, ravishlarning otlashishi va yasalishi, ravishlarning tuzilishi.

**Ravish**

Harakat va holatning belgisini, belgining belgisini (sifat va ravishning), ba'zan predmetning (ot) belgisini bildiradigan mustaqil so`z turkumi ravish deyiladi. Masalan: *Qutlug`jon tez orada o`zbekcha biyron-biyron gaplasha boshladi (O.). Ko`kday bepoyon mening Vatanim (Q.Hikmat).*

Sifat so`z turkumi kabi ravish ham belgi bildiradi. Lekin sifat, asosan, predmetning belgisini, ravish esa, asosan, ish-harakatning belgisini, belgining belgisini bildiradi.

Ravish ish-harakatning bajarilish tarzi (*astoydil urindi*), payti (*hozir keldi*), o`rni (*yuqoriga intildi*), miqdori (*kam* gapirdi), darajasi (nihoyatda achindi), sababi (noiloj ko`ndi) va maqsadi (jo`rttaga indamadi)ni anglatadi.

Ayrim ravishlar ba'zan otga bog`lanib, predmetning noaniq miqdorini (ko`p kitob), sifat va ravishning o`ziga bog`lanib, belgini kuchini; darajasini, o`xshashligini (obdon pishiq, ancha ilgari, toshday qattiq) ifodalaydi. SHu ma'no xususiyatlariga ko`ra ravish qanday? qay tarzda? qachon? qaerga? qaerda? qaerdan? qancha? qay darajada? nega? nima maqsadda? kabi so`roqlariga javob bo`ladi.

Ravish o`ziga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) ravish boshqa so`z bilan bog`lanib kelganda morfologik jihatdan o`zgarmaydi (so`z o`zgartiruvchi affikslarni olmaydi). Lekin ma'lum kelishik yoki egalik kelishik shaklida (qotib qolgan holda) ravishga ko`chgan so`zlar mavjud: kunda, yiliga, kunduzi, chindan, rostdan, yaqinda, birdan, birga kabi.

2) ravish belgi bildiruvchi so`z bo`lgani uchun sifat kabi belgini (harakatning belgisini) darajalab, chog`ishtirib ko`rsatish xususiyatiga ega. Biroq ravishlarda daraja anglatish sifatlardagi kabi taraqqiy qilgan emas. Ravish ham uch daraja ko`rinishiga ega: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja. Daraja ma'nosi sifat darajalaridagi vositalarning o`zi bilan ifodalanadi. Belgini darajalab ifodalash, asosan, holat ravishlari (ayrim payt va miqdor)ga xos.

Oddiy daraja. Oddiy darajada ravish ish-harakat belgining normal holatda (chog`ishtirilmagan holatda) ekanligini bildiradi va o`ziga xos morfologik ko`rsatkichga emas: Usmonjon gunoxkorona jilmaydi (S.Z.).

Qiyosiy daraja. Qiyosiy darajadagi ravish harakat belgisining boshqa belgi bilan chog`ishtirish orqali belgining kamligi, kuchsizligi, ko`pligi, ya'ni kuchaytirish ma'nosini ko`rsatadi va ravishlarga -roq affiksini qo`shish bilan hosil qilinadi: astaroq, ozroq, barvaqtroq, keyinroq kabi: Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga kirishdi (A.Qodiriy). Ba'zan qiyosiy darajadagi ravishdan oldin sal, yana, tobora kabi ravishlar

keladi. Bunday holda kuchaytiruv va kuchsizlantiruv ekspressiv yo`l bilan yanada orttirilgan bo`ladi: Sal burunroq o`tkazilsa, ancha bo`y bergan bo`ladi (SH.Rashidov).

Orttirma daraja esa ravishdan oldin juda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so`zlarni keltirish bilan hosil qilinadi va harakat belgisining normal holatdan o`ta ortiqligini, kuchaytirilganligini ifodalaydi: Bu yurtda eng avval senda tong otar, Eng keyin tark etar seni quyoshing (E.Vohidov). Imon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-birisiz durust emas (Hadisdan).

3) ravishning fe'lga bog`lanib, gapda ko`pincha hol vazifasida kelishi, uning asosiy grammatik xususiyatlaridan biri sanaladi: Ogahiy yaratgan she'riy misralar o`zining serjiloligi bilan kishilarni hamon o`ziga rom qilib kelmoqda (Kaykovus).

4) ravish sifat va ravishga, ba'zan otga bog`lanib kelib, belgini belgisini bildiradi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasi bajaradi: Tog`day og`ir bilak berdim... (H.O.).

Ba'zi ravishlar otga ham bog`lanib, uning belgisini ko`rsatadi va sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Fe'lga bog`lanib, harakatning belgisini bildirgan sifatlar ravish so`z turkumiga o`tib ketmagani kabi, otga bog`langan ravishlar ham sifat turkumiga o`tmaydi: U ancha jo`yaklarni oraladi, ancha qovunlarni ushlab, qay birini uzishni bilmadi (O.). Etti qizning onasi haligacha kelinchak (Topishmoq).

5) ravish otlashish xususiyatiga ega, ya'ni ravish bog`lanib kelgan ot gapda qo`llanmasligi mumkin. Bunday holda ravig otga xos egalik, kelishik, ko`plik affikslarini qabul qiladi va gapda ot kabi ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to`ldiruvchi vazifalarida keladi: Ko`pni ko`rgan ko`hna dunyoda Baxt axtarib ko`plar o`tdilar (H.O.). Ilm ko`pga etkazar, hunar esa ko`kka (Maqol). Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, o`g`lim (O.).

Ravishlarda otlashish hodisasi, asosan, holat, miqdor belgisini (ba'zan payt belgisi) bildiruvchi ravishlarga xos.

6) ravish gapda hukm tushunchasini anglatib bosh bo`lak ot kesim vazifasida ham keladi: Odam har qancha olim bo`lsa ham, uning o`zi sezmagan kamchiliklari ko`p («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»).

7) ravish so`z yasalish xususiyatiga ega. Ravish yasovchi maxsus so`z yasovchi affikslar mavjud: do`stona, yangicha, tasodifan, butunlay kabi. Bunday usul bilan ravish yasalishi morfologik usul sanaladi. Ravish sintaktik usul bilan ham yasaladi: bir oz, har gal, bir yo`la, dam-badam kabi.

8) ravishlarda modal ma'no yasalishi ham mavjud. Bunday shaklda kelgan ravishlar harakat belgisining kuchsizligi, ta'kid, noaniqlik kabi ma'nolar anglatadi. Bu modal ma'no sintetik shakl orqali hosil qilinadi, ya'ni ravishga -roq, -gina (-kina, -qina) affikslarini qo`shish orqali: ko`proq, endigina, sekingina, kechagina kabi hamda ravishlarni aynan takrorlash yo`li bilan hosil qilinadi: asta-asta, tez-tez, sal-pal kabi.

Men ko`proq uni ko`rish niyatida yurar edim, lekin o`ylaganim bo`lmadi (P.Qodirov). Hasanali sekingina daricha ostig`a yotib hujra ichiga quloq soldi (A.Qodiriy). CHiqsak ham Sulton amaki bilan chiqardik. Sekin-sekin unga o`rgana boshlagandik (H.Nazir).

Ravishlarning ma'no turlari

Ravishlar ma'no jihatdan olti guruhga bo`linadi: 1) holat ravishi, 2) payt ravishi, 3) o`rin ravishi, 4) miqdor-daraja ravishi, 5) sabab ravishi, 6) maqsad ravishi.

Holat ravishi. Holat ravishi ish-harakatning qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildirib, qanday? qay tarzda? qanday qilib? kabi so`roqlarga javob bo`ladi: asta, sekin, tez, piyoda, ayov, qo`qqisdan, tasodifan, xomlay, ochin-to`kin, butunligicha, jim, darov, darhol, zo`rg`a, birdan, birga, majburan, yaqqol, harbiylarcha, o`zbekcha, yuzma-yuz, ochiq-oydin kabi.

Holat ravishlari, asosan, ravish holi otga bog`lanib kelganda sifatlovchi-aniqlovchi va kesim vazifalarida keladi: Bobur ota yurtidan ajralganini endi astoydil his qildi (P.Q.). Salqin shabadasi kelib olqishlar bizning g`olibona bayrog`imizni (A.M.). Auditoriya jimjit, hamma unga qarar (P.Q.).

Payt ravishi. Payt ravishi ish-harakatning paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? kabi so`roqlarga javob beradi. Payt ravishlariga: hozir, boya, hali, endi, oldin, burun, avval, qadim, bultur, tunov kun, yaqinda, hamisha, hanuz, hamon, bugun, indin, keyin, so`ng, yiliga, dastlab, har kuni, erta-indin, erta-kech, qishin-yozin kabilar kiradi.

Payt ravishlari asosan, payt holi, ba’zan kesim vazifasida keladi. Masalan: Sen bir birodaringning ayblarini zikr qilmoqchi bo`lsang, avval o`z ayblaringni esla! (Imom Ismoil al Buxoriy). Bugun sening tug`ilgan kuning, Bugun uying to`ladi gulga (H.O.).

O`rin ravishi. O`rin ravishi ish-harakatning bajarilish o`rnini va harakat yo`nalgan tomonni anglatadi. O`rin ravishi qaerga? qaerda? qaerdan? kabi so`roqlarga javob berib, ularga nari, beri, oldinga, pastda, tubanda, yuqoridan, quyidan, u yoqqa, bu yoqqa, yaqinda, orqadan, to`g`riga, chapda, o`ngda kabilar kiradi.

O`rin ravishlari gapda, asosan, o`rin holi ba’zan esa kesim vazifasini bajaradi: Biror kishi gapirgan paytida u yoq - bu yoqqa qarab qo`ysa, demak bu gap omonatdir (Hadisdan). YOshi ulug` Nazarali ota shu erda (G`.G`ulom).

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi ish-harakatning miqdoriy belgisi, bajarilish darajasini, shuningdek, predmetning noaniq miqdori, belgining darajasi va miqdorini anglatadi.

Miqdor-daraja ravishlari ma’no xususiyatiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: miqdor ravishi va daraja ravishi.

Miqdor ravishi miqdor tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilishida uning miqdoriy belgisini ko`rsatadi. SHu bilan birga miqdor ravishi otga ham bog`lanib kela oladigan ravish turidir, shu jihatdan bu ravishlar predmetning noaniq miqdorini ham ifodalaydi. Miqdor ravishi qancha? so`rog`iga javob berib, ularga ko`p, mo`l, kam, bir oz, sal, picha, xiyol kabilar kiradi.

Daraja ravishi daraja tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilish darajasini ko`rsatadi. Ba’zan daraja ravishlari sifat va ravishning o`ziga bog`lanib kelib, belgi ma’nosini kuchaytirib keladi. Bu ravishlar qay darajada? so`rog`iga javob berib, ularga tez, g`oyat, nihoyatda, obdon, yana, o`ta, tag`in, aslo, sira kabilar kiradi.

Daraja ravishlari belgi ma’nosini kuchaytirishiga ko`ra (juda, g`oyat) sifat va ravishlarning orttirma darajasini hosil qiladigan element sifatida ham qatnashadi.

Miqdor-daraja ravishlari, asosan, miqdor-daraja holi, ba’zan kesim vazifasini bajaradi: Mo`l-ko`l nur to`kar, ko`kdan qadrdon quyoshimiz (E.Vohidov). Biroq ko`zgu shunaqangi xira Ediki, o`zimning yuzimni zo`rg`a ko`rardim (O`.H.).

Miqdor-daraja ravishi predmetning belgisini bildirib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida ham keladi: Ko`p gap quloqqa yoqmas (Maqol).

Sabab ravishi. Sabab ravishi ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi. Sabab ravishi nega? nima uchun? nima sababdan? kabi so`roqlarga javob bo`ladi va ularga noiloj, noilojlikdan, chorasiz, chorasizlikdan kabi ravishlar kiradi.

Sabab ravishi, asosan, sabab holi vazifasini bajaradi: Qunduzoyning qistashi bilan noiloj birinchi qatorga borib o`tirdi (Oydin).

Maqsad ravishi. Maqsad ravishi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, nega? nima maqsadda? kabi so`roqlarga javob beradi. Bu ravishlarga atay(in), ataylab, jo`rttaga, qasddan kabilar kiradi. Maqsad ravishi gapda, asosan, maqsad holi vazifasini bajaradi: YUksak binolar tomon, Bordik bizlar atayin (Po`lat Mo`min).

**Ravishlarning yasalishi**

O`zbek tilida ravishlar, asosan, 2 xil usul, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli bilan ravish yasashda so`z negiziga maxsus ravish yasovchi affikslarni qo`shish bilan ravish yasaladi. Ravishning bu usul bilan yasalishida ko`pincha ot, ba’zan sifat, son, olmosh, fe’lning sifatdosh va harakat nomi shakllari, shuningdek ravishning o`zi asos bo`ladi.

Ravish yasovchi affikslar quyidagilar:

-an: taxminan, rasman, tasodifan, majburan kabi. Bu affiks ot, sifat asosidan ravish yasaydi.

-cha: o`zbekcha, yangicha, boshqacha, o`zicha, istagancha, hozircha kabi. Bu affiks ot, sifat, olmosh, sifatdosh, ravish asosidan ravish yasaydi.

-incha: ko`pincha, aksincha kabi. Bu affiks ravish, sifat asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-larcha: o`rtoqlarcha, qarindoshlarcha, aybdorlarcha, vahshiylarcha kabi. Bu affiks ot, sifat asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-ligicha: tirikligicha, xomligicha, ozligicha, xo`lligicha kabi. Bu affiks sifat, ravish asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-lay: tiriklay, butunlay kabi. Bu affiks sifat va olmosh asosidan ravish yasaydi.

-ona: do`stona, fidokorona, g`olibona, qadimona kabi. Bu affiks ot, sifat, ravish asosidan ravish yasaydi.

-lab: haftalab, yaxshilab, bittalab, ko`plab kabi. Bu affiks ot, sifat, son, ravish asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-chasiga: dehqonchasiga, eskichasiga kabi. Bu affiks ot, sifat asosiga qo`shiladi.

-siga: tikkasiga, yappisiga kabi. Bu affiks sifat, olmosh asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-n (-in): ertan, kechin, yashirin kabi. Bu affiks ravish, fe’l asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-siz, be-: tinimsiz, to`xtovsiz, beto`xtov kabi. Bu affikslar omonim affiks sifatida sifatdan tashqari ot, harakat nomi asosidan ravish yasaydi.

-day (-dek): toshdek, gulday kabi. Bu affikslar ot asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

Kompozitsiya usuliga ko`ra ikki so`z asosini ma’lum bir qolipda birikishi, tizilishi orqali harakatning bitta belgisini ifodalaydigan ravish yasaladi. Bu usul bilan qo`shma va juft ravishlar yasaladi.

Qo`shma ravish quyidagicha yasaladi:

1) har olmoshi bilan o`rin yoki payt ma’nosini bildiruvchi so`zlarni biriktirish bilan: har vaqt, har lahza, har on, har gal, har yoq, har zamon kabi;

2) ko`rsatish olmoshlariga yon, er, yoq so`zlarini qo`shish bilan: shu er, shu yoqqa, shu yonda, bu erda, bu yoqqa, o`sha yoqda, o`sha yoqqa, u erdan kabi;

3) bir soniga o`rin, payt, miqdor ma’nosini bildiruvchi so`zlarni yoki mustaqil ishlatilmaydigan so`zlarni qo`shish bilan: bir zum, bir lahza, bir zamon, bir yo`la, birmuncha, birvarakay, bir yoqqa, birato`la, bir oz kabi;

4) turli so`z turkumiga oid ikki so`z shaklining (o`z leksik ma’nosini saqlagan, ba’zan mustaqil ishlatilmaydigan so`z bilan) birikishi bilan: tez orada, hali zamon, shu zahoti, tunov kun, kuni kecha, qadim zamon, ozmuncha kabi.

Juft ravish ikki so`zning teng bog`lanishi bilan yasaladi.

Juft ravish quyidagicha yasaladi:

1) ma’nosi bir-biriga yaqin (sinonim) so`zlarning teng bog`lanishi bilan: asta-sekin, ochiq-oydin, eson-omon kabi;

2) qarama-qarshi ma’noli (antonim) so`zlarning teng bog`lanishi bilan: bugun-erta, yozin-qishin, nari-beri kabi;

3) –ma (-ba) elementlari, shuningdek, chiqish va jo`nalish (ba’zan bosh) kelishigi shaklini olgan so`zlarni takrorlash bilan: yuzma-yuz, yonma-yon, dam-badam, kundan-kunga, naridan-beri, kamdan-kam kabi;

4) turli fe’l shakllarining takrorlanishi hamda ularni bo`lishli va bo`lishsiz shaklda takrorlash bilan: qayta-qayta, sezilar-sezilmas, qo`yarda-qo`ymay, bilinar-bilinmas kabi.

**Ravishlarning tuzilishi jihatdan turlari**

Ravish tuzilishiga ko`ra: 1) sodda, 2) qo`shma, 3) juft, 4) takroriy ravishlarga bo`ladi.

Sodda ravishlar bir o`zak morfemadan tuziladi: yaqqol, ko`p, hozir, vijdonan, kamtarona kabi.

Qo`shma ravishlar ikki so`z asosining birikishi orqali tuziladi: har gal, bir vaqt, tez fursatda, shu yoqqa kabi.

Juft ravishlar ikki so`z asosining teng bog`lanishidan tuziladi: hali-beri, erta-kech, eson-omon kabi.

Takroriy ravishlar esa bir so`z asosini aynan takrorlash bilan yoki ikkinchi takrorlangan ravishda tovush o`zgarishi yuz bergan holda tuziladi: endi-endi, asta-asta, oz-moz, sal-pal, zo`rg`a-zo`rg`a kabi.

Takroriy ravishlar so`zning leksik ma’nosini o`zgartirmay, balki ortiqligi, kamligi, noaniqlik, ta’kid kabi qo`shimcha ma’nolarni ifodalab keladi.

**BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Ravishning ta’rifi va so`roqlari haqida gapiring. 2. Ravishlar qanday so`zlarga bojlanib keladi? Misollar keltiring. 3. Ravishlarning daraja ko`rsatish xususiyatlari haqida gapiring. 4. Holat ravishlari haqida gapiring. 5. Payt ravishlari haqida gapiring. 6. O`rin ravishlari haqida gapiring. 7. Sabab ravishlari haqida gapiring. 8. Maqsad ravishlari haqida gapiring. 9. Daraja-miqdor ravishlari haqida gapiring. 10. Daraja-miqdor ravishlari qanday turlarga bo`linadi? 11. Ravishlar qo`shimchalar yordamida qanday so`z turkumlaridan yasaladi? 12. Qo`shma ravishlar qanday yasaladi? 13. Qo`shma

ravishlar qaytarzda yoziladi? 14. Juft ravishlar qanday yasaladi? 15. Takroriy ravishlar qanday yasaladi? 16. O`rin-payt va chiqish kelishigi shaklida ravishga aylangan so`zlar haqida gapiring. 17. Qanday so`zlar ravishga ko`chadi? 18. Ravishlarning otlashishi haqida gapiring. 19. Sodda tub va sodda yasama ravishlarga 3 tadan misol keltiring. 20. Ham holat, ham daraja-miqdor ravishlari guruhiga kiruvchi so`z haqida gapiring. 21. Sifatga bojlanib, belgining belgisini bildirgan ravishga misol keltiring. 22. Boshqa turkum so`zlari ravishga aylan-ganda qanday qo`shimchalarni olgan bo`ladi?

| **5-Ma'vzu** | **Yordamchi – so'z turkumlari** |
|---|---|

(Ma'ruza-2 soat)

| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Axborat ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Ko'makchi.<br>2.Bog'lovchi. |

| | |
|---|---|
| | 3. Yuklama. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Ko’makchi, bog’lovchi, yuklama va ularning turalari haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Ko’makchi. | Ko’makchi va uning turalari haqida ma’lumot berish. |
| Bog’lovchi. | Bog’lovchi va uning vazifasi hamda qo’llanishiga ko’ra turlari haqida ma’lumot olish. |
| Yuklama. | Yuklama va uning ma’no jihatdan turlari, shuningdek, tuzilishiga ko’ra turlari haqida ma’lumot aytish. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki savollar blis – so’rov |

**Yordamchi – so’z turkumlari mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a l a r i:** Ko’makchi, bog’lovchi, yuklama.

**Yordamchi so`z turkumlari**

Yordamchi so`z turkumlari mustaqil so`z turkumlaridan farqlanadi. Ular lug`aviy ma’noga ega emas, morfologik jihatdan o`zgarmaydi, gapda sintaktik vazifa bajarmaydi, yasalish xususiyatiga ega emas.

Mustaqil lug`aviy ma’noga ega bo`lmay, gap bo`laklari va gaplarni o`zaro bog`lash, xilma-xil munosabatlarni ko`rsatish yoki ularga qandaydir qo`shimcha ma’no qo`shishga xizmat qiladigan so`z turkumlari yordamchi so`z turkumlari deyiladi. YOrdamchi so`z turkumlariga bog`lovchi, ko`makchi va yuklama kiradi.

**Bog`lovchi**

Gap bo`laklarini yoki qo`shma gapning qismlarini bog`laydigan yordamchi so`zlar bog`lovchi deyiladi. Bog`lovchilar gap bo`laklari va ayrim sodda gaplarni o`zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko`rsatadi. Farzand olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltiradi. («Oz-oz o`rganib dono bo`lur») Kumush ichkariga kirib ko`zdan g`oyib bo`ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa erga mixlangandek qotib turdi. (A.Qod.)

Bog`lovchilar qo`llanishiga ko`ra ikki turli bo`ladi: 1. YAkka bog`lovchilar. 2. Takroriy bog`lovchilar.

YAkka bog`lovchilar uyushgan bo`laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo`llanadi. Bular va, hamda, lekin, biroq, -ki (-kim), chunki, agar, gar, balki, go`yo, basharti, garchi, go`yoki, holbuki, vaholanki.

*Xazon qilmas Zaynabni zamon Va otashda o`rtanmas Omon (H.O.) Bu gullarni Azizxon, go`yo ona o`z farzandini ardoqlagan kabi ardoqlardi. (S. Jamol). Ahli majlis Otabekni ko`klarga ko`tarib maqtar edi, lekin Homid bu maqtashlarga ishtirok etmas va nimadandir g`ijingandek ko`rinar edi. (A.Qod.)*

Takroriy bog`lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o`rinda gap bo`laklari, shuningdek qo`shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi. Bular dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, yo..., yo, yoki..., yoki, ham..., ham, ba'zan..., ba'zan, bir...,bir. Masalan, *U goh dashtdagi otlarning kishnashiga, goh yaqin chodirdagi go`zal kanilarning mayin kulgulariga quloq solib yotarkan, olam beg`ubor bo`lib tuyular edi. (O.YO.) YO bir maslahatni aytib bo`ladi, yo ro`zg`or ishni. (CHo`lpon). Dam bobomga, dam uning o`rtog`iga tikilaman. (O.) Dadasi... erkatoy o`g`lining bu arzini eshitib, bir hayratga tushdi, bir quvondi. (O.YO.)*

Takroriy bog`lovchilardan yo,yoki yakka holda ham qo`llanishi mumkin, ham, ba'zan, bir so`zlari esa yakka holda qo`llansa bog`lovchi bo`la olmaydi. Navoiy Xuroson va Movarounnahrda yashamoqda bo`lgan yoki dunyodan ko`z yumgan yuzlarga shoirlarni xotirga oldi. (O.) Bu erda qovun tekin. Uzib beraymi yo o`zingiz uzasizmi? (S.Ahmad).

Bog`lovchilar gapdagi vazifasiga ko`ra ikki xil bo`ladi: 1) teng bog`lovchilar; 2) ergashtiruvchi bog`lovchilar.

### Teng bog`lovchilar

Teng bog`lovchilar grammatik jihatdan teng huquqli gap bo`laklarini va gaplarni o`zaro bog`lashga xizmat qiladi. Masalan, *Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. (Stefan TSveyg). Agar so`zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.O.)*

Teng bog`lovchilar biriktiruv, zidlov va ayiruv bog`lovchilariga bo`linadi.

Biriktiruv bog`lovchilari: ***va, hamda, bilan, ham***. Bu bog`lovchilar gapning uyushiq bo`laklarini, qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog`laydi. Biriktiruv bog`lovchisi ***va*** eng ko`p qo`llanadigan bog`lovchidir. Bu bog`lovchi:

1) gapning uyushiq bo`laklarini bog`laydi: Aqlli odam olimlar, fozillar va tadbirli xunarmandlarning suhbatlarida bo`ladi, ulardan bahra oladi («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»);

2) qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog`lashga xizmat qiladi va turli ma'no munosabatlarini ifodalaydi. Masalan: Hamid Rahmat bilan birga Otabekni Ziyo akanikiga taklif qilgali kelgani edi va biz ularni osh-suv qilib jo`natgan edik. (A.Qod.)

***Ham, hamda*** bog`lovchilari ham gapning uyushiq bo`laklarini va qo`shma gap qismlarini bog`lash uchun qo`llanadi. Sultonmurod ham do`st Zayniddin cheksiz quvondilar. (O.) Kun sovidi hamda erlar muzladi.

***Ham*** so`zi bog`lovchi bo`lib emas, balki gap ma'nosini yoki ayrim gap bo`laklarini ta'kidlash, kuchaytirish uchun ko`p ishlatiladi. Quyosh ham oltin to`rlarini to`kib, mag`rur ko`tariladi (O.)

Biriktiruvchi bog`lovchilari <u>bilan</u> ko`makchisi, <u>-da, -u(-yu)</u> yuklamalari ham qo`llanadi.

*Bobom asta ko`zlarini yumadi-da, allaqanday uzoq bir xayolga ketadi. (O.) Onayu bola – gulu lola. (Maqol). SHudgorda Jannatxola bilan Zebixon qoldi. (S.A.)*

## Zidlov bog`lovchilari

Zidlov bog`lovchilari: biroq, ammo, lekin, balki, xolbuki. Bu bog`lovchilar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi qo`yilgan bo`laklarni yoki gaplarni bog`lash uchun xizmat qiladi.

Biroq, ammo, lekin bog`lovchilari gap bo`laklarini bog`lab kelganda zidlik ma’nosini, shu bilan birga, gap mazmunini to`ldirish, izohlash, qiyoslash uchun ham xizmat qiladi. Qo`shma gap qismlari tarkibidagi sodda gaplarni bog`lashda esa keyingi qism avvalgi qismda aytilgan fikrga qarama-qarshi, zid faktlar ifodalanadi. SHuning uchun bu faktlar, voqea-hodisalardan faqat bittasining bo`layotganini, ikkinchisi inkor etilganigi ma’nosi anglashiladi. Masalan, *Mahallada bolalar ko`p, lekin bir-biriga o`xshamaydi. (O.) Har narsaning yangisi, ammo do`stning eskisi yaxshi. («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»). O`xshash mevalarni saralaydi, xidlaydi, biroq egisi kelmaydi. (O.)*

Zidlov bog`lovchilari gap boshida kelib, avval aytilgan fikrga zid bo`lgan yangi fikrli gapni oldingi gapga bog`laydi:

Mazmunan bir-biriga qarama-qarshi gap bo`laklari va gaplarni bog`lashda *–da, -u (-yu)* yuklamalari ham qo`llanadi. *Sobir kichkina-yu, pishiqqina (O.)*

## Ayiruv bog`lovchilari:

Bu guruhga *yo, yoki, yo..., yo, yoxud, dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, ba’zan..., ba’zan, bir-bir* kabi so`zlar kiradi.

Bu bog`lovchilar narsa, voqea-hodisalarni boshqarishdan ajratish yoki ularning galma-gal bo`lishini ko`rsatish uchun xizmat qiladi.

Bulardan *yo, yoki, yo..., yo, xoh..., xoh* bog`lovchilari uyushgan bo`laklarning birini ikkinchisidan, biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko`rsatish uchun ishlatiladi: *Poshshaxon Umrinisabibining qizini yo ko`rmadi, yo ko`rsa ham nazarga ilmadi. (CHo`lpon). «YO podshoh biron erga chiqadi yoki elchi kelishi kutiladi», - dedi Zayniddin. (O.) Xoh ishoning, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to`qqiz tonna paxta teribman. (S. A.)*

*Ba’zan..., ba’zan, dam..., dam, goh..., goh* bog`lovchilari esa galma-gallikni, navbat bilan almashinib, takrorlanib turishni ifodalaydi. *Dam tekisliklar bo`ylab balandga, dam pastga tushib boramiz. (O.) Nimqorong`i shiftga tikilib yotgancha xayol suraman: goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman. (O`.Hoshimov) Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga soldimi, har nechuk javob bermadi (A. Qod.)*

## Ergashtiruvchi bog`lovchilar

Ergashtiruvchi bog`lovchilar qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga tobelanish yo`li bilan bog`laydi.

Ergashtiruvchi bog`lovchilar grammatik aloqalarni ifodalash va ma’nolariga qarab: 1) aniqlov bog`lovchisi; 2) sabab bog`lovchilari; 3) chog`ishtiruv bog`lovchilari; 4) maqsad bog`lovchisi; 5) shart va to`liqsizlik bog`lovchilariga bo`linadi.

Aniqlov bog`lovchlari. YA'ni, -ki (-kim) aniqlov bog`lovchilari ergash gaplarni bosh gapga bog`lash uchun qo`llanadi. Bilib qo`yki, seni Vatan kutadi. Mirzo Ulug`bek joyiga o`tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi nomani tutdi. (O.YO.)

Sabab bog`lovchilari. CHunki, shuning uchun, negaki, zeroki, nainki. Bu bog`lovchilar ergash gapni bosh gapga bog`lab, sabab, payt ma'nolarini ifodalaydi. CHorasi bo`lmagan ishga kirishma, chunki undan qutilib bo`lmaydi. (Amir Temur o`gitlari) Ko`chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. (A.Qod.) U ikki, balki uch yildan buyon o`z to`yini kutar edi. (O.)

CHog`ishtiruv bog`lovchilari – *go`yo, go`yoki.* Bu bog`lovchilar bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko`rsatadi. *Sen menga baxsh etding ko`rkam bir yoshlik, go`yo qalbimda ulg`aydi quyoshday viqor. (J.Jabborov). Nihoyat chollar jim bo`lishadi, go`yo yoshliklarini sog`inganday boshlarini quyi solishadi (O.)*

Maqsad bog`lovchisi. Toki maqsad bog`lovchisi qo`shma gap tarkibidagi maqsad ma'nosini ifodalagan ergash gapni bosh gap bilan bog`laydi. *YOmonlarning jazosini berish kerak, toki ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasinlar. (H.G`.)*

SHart va to`liqsizlik bog`lovchilari. *Agar (gar), modomiki, basharti, garchi, garchand, mabodo, bordiyu.*

Bu bog`lovchilar shart va to`liqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo`lgan munosabatdagi shartni, shu bilan birga to`liqsizlik ma'nolarini anglatadi: *Agar kishining hayoti biror maqsad, biror g`oya uchun kurash bilan o`tsa, bunday hayotga hech afsus qilmaslik kerak. (M.Ibr.) Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo`lsa ham, kechagidan ko`ra qo`rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi. (O.)*

### Bog`lovchi vazifasini bajaruvchi so`zlar

Boshqa so`z turkumiga oid so`zlar ba'zi so`zlar ham bog`lovchi o`rnida qo`llanadi: *deb, degan, kim, nima, qaysi, qancha, qaerda, bordiyu.*

Masalan: *Umrim shirin o`tsin deb, tilni tiydim hamisha. Ayvonda Hurmatbibi bilan onam choy ichib, gaplashib o`tirishibdi (O.) Kim ko`p o`qisa, u ko`p biladi.*

### Yuklama

Ayrim so`z yoki gapga qo`shimcha ma'no berish uchun qo`llanadigan yordamchi so`zlar yuklamalar deb ataladi. Masalan: *Haqiqiy kasbu kamol faqat ilm bilan hosil bo`ladi. (M.Hasaniy). Quyosh ham atayin nurlarini to`kib, mag`rur ko`tarildi. (O.)*

YUklamalar tuzilishiga ko`ra ikki xil: a) qo`shimcha holatdagi yuklamalar: -mi, -chi, -a, -ya, -oq (-yoq), -da, -u (-yu), -gina (-kina, -qina), -ku; b) so`z holatidagi yuklamalar: axir, faqat, xudi, nahotki, ham, naq, xolos. To`ydan faqat Anor xabardor (H.O.) Eshik «g`irch etib ochildi-da, ruxsat so`rab ukasi Darvishali kirdi. (O.) Bir vaqi G`iyosiddin Kichkina, xudi shu erda, daricha ostida o`tirib, uni erkalatmasmidi.

Yuklamalarning turlari.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so`zlarga beradigan qo`shimcha ma'nolariga ko`ra yuklamalarni quyidagicha turlarga bo`lish mumkin.

1. So`roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya.

-mi yuklamasi so`roq, taajjub, hayrat kabi ma’nolari bildiradi. Masalan: - Kelinning suluvligi Marg`ilonda ma’lum ekanmi? (A.Qodiriy) Men dalada ishlashish kerakmishmi? (O.)

-chi yuklamasi so`roq, kuchaytiruv, harakatga undash, buyruq, iltimos, ta’kid ma’nolarini bildiradi. Masalan, - Sizga-chi, Anvar (A.Qodiriy) - O`g`ling qaytsin-chi, bo`lmasa... (A.Qod.) - Loaqal bir og`iz o`g`lingizga aytib o`tishga va’da bering-chi, -dedi (A.Qod.) - O`rtoqjon, bir narsa desang-chi. (CHo`lpon).

-a (-ya) yuklamalari so`roq, taajjub, hayratlanish ma’nolarini bildiradi. Masalan, Bu gap oramizda qolsin-a! (T.Malik) Gulnorni sevishimni bilardi-ya (O.) - Qizim, bugun mehmonlaringni Sultonxonlarnikiga olib chiqasan-a? – deb qolmasinmi! (A.Qod.)

2. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari: -ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim), ham, hatto, hattoki, axir, nahot (nahotki).

-ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim) yuklamalari ma’noni kuchaytirish, to`liqsizlik, tezlik va davomiylik ma’nolarini ifodalash uchun qo`llanadi. Masalan, SHundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo`ldim (A.Q.) - O`z qizingiz-ku, tengini topib bering-da! (CHo`lpon) Mirzo Ulug`bek maktubni o`qib tugatmasdanoq o`rnidan turib ketdi. (O.YO.) Ko`plar yomg`irdan qochib ulgirmasdayoq, oftob charaqlab ketdi. (S.A.)

Ham, axir, hatto, hattoki, nahot (nahotki) so`z yuklamalari fikrni ta’kidlash, avvalgi voqeani eslatish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, Tursunboy hamma narsadan kechganda ham birgina shu Zebidan kechmas edi. (S.A.) Oyim o`rta bo`yli, oppoq, nozik tabiat ham ipakday muloyim, istarasi issiq xotin edi. (Zarifa Saidnosirova) Axir bu qal’ani olguncha ozmuncha talofat berildimi? (P.Q.) Sizni otasi o`rnida ko`rsak-u, nahotki sizdan beso`roq ish tutsak (A.Q.) Uzoq cho`zilgan bu suhbatda Miryoqubning qulog`i bir marta g`alati dingkaydi, hatto uning qop-qora chiroyli ko`zlarida allaqanday sehrli olovlar yondi. (CH.)

Bir qissakim, buning so`ngida
Sevishganlar topishgusidir. (H.O.)

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina). Bu yuklamalar turli so`z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab ko`rsatish va ma’no jihatdan ajratish uchun qo`llanadi. Masalan, O`zi haqida o`ylamay, faqat xalqqa ilm berishga bel bog`lagan olim kishi xudi shamga o`xshaydi, sham o`zini yondiradi, xalqqa ziyo bag`ishlaydi. (M.Xasaniy) YOqimli do`stgina suhbati olis yo`lni yaqin qiladi. (M.Xasaniy) Dunyoda ko`rib o`taturgan barcha orzuimiz, havasimiz faqat sengagina qarab qolgan (A.Qod.)

Faqat yuklamasi o`rnida yolg`iz so`zi qo`llanishi ham mumkin. Miryoqubning topishi yolg`iz mingboshi orqali bo`lsa, unga «epaqa» nomini qo`yish to`g`ri bo`larmidi. (CHo`lpon)

4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq. Bu yuklamalar o`zi mansub bo`lgan so`zning ma’nosini aniqlab ko`rsatish uchun qo`llanadi. Ilm o`rganib, ilmiga amal qilmagan kishi naq er haydab, uni ekmagan kishiga o`xshaydi. (M.Xasaniy) Hayosi yo`q po`sti shilib olingan yog`och va xuddi yog`i tugagan chiroqqa o`xshaydi. (M.Xasaniy)

5. Gumon yuklamasi: -dir barcha so`z turkumlariga qo`shilib kela oladi va o`zi aloqador bo`lgan so`zga gumon, noaniqlik ma’nosini qo`shadi: - Sizga nimadir va’da bergandir-da? (Isfandiyor)

6. Inkor yuklamasi *na... na* uyushiq bo`laklar va qo`shma gap tarkibidagi ayrim gaplar oldidan kelib, ularning mazmunini inkor etadi, bo`lishsizga aylantiradi. Inkor shaklli gap bo`laklari va gaplar oldida kelganda, bo`lishsizlik kuchaytiriladi, ta'kidlanadi. Bu buyruqqa na ona e'tiroz qildi va na qiz (CHo`lpon). Na qor, na yomg`irdan darak bor. (O.)

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Ko`makchi ta'rifini ayting va misollar keltiring.
2. Ko`makchi qanday gap bo`lagi bo`lib keladi?
3. Sof ko`makchilar haqida gapiring.
4. Ko`makchi vazifasida qo`llanuvchi so`zlar haqida gapiring.
5. Ko`makchi otlar haqida gapiring.
6. Bosh kelishikdagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring.
7. Qaratqich kelishigidagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring.
8. Jo`nalish kelishigidagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring.
9. Chiqish kelishikdagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring.
10. Ko`makchi va kelishiklarning sinonimlik xususiyatlari haqida gapiring.
11. Bog'lovchining ta'rifini ayting.
12. Bojlovchilar qo`llanishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?
13. Teng bojlovchilar ta'rifini ayting.
14. Biriktiruvchi bojlovchilarning ta'rifini ayting.
15. Zidlov bojlovchilar ta'rifini ayting.
16. Ayiruv bojlovchilar ta'rifini ayting.
17. Ergashtiruvchi bojlovchilarning ta'rifini ayting.
18. Aniqlov bojlovchilari haqida so`zlang.
19. Sabab bojlovchilari haqida gapiring.
20. Shart va o`xshatish bojlovchilari haqida gapiring.

| | |
|---|---|
| **6-Ma'vzu** | **Alohida xususiyatga ega bo'lgan so'z turkumlari.** |

(Ma'ruza-2 soat)

| | |
|---|---|
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Axborat ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Modal so'zlar.<br>2.Undov so'zlar.<br>3. Taqlid so'zlar. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Modal, undov, taqlid so'zlar va ularning turalari hamda yasalishi, otlashishi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Modal so'zlar. | Modal so'zlar va uning turalari haqida ma'lumot berish. |
| Undov so'zlar. | Undov so'zlar va uning turlari yasalishi, otlashishi haqida ma'lumot olish. |
| Taqlid so'zlar. | Taqlid so'zlar va uning uning turlari yasalishi, otlashishi to'g'risida ma'lumot aytish. |
| **O'qitish vositalari** | O'.U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Monitoring va baholash** | Og'zaki savollar blis – so'rov |

**Alohida xususiyatga ega bo'lgan so'z turkumlari texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi 3 ta reja va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo'lim (50 min) | 2.1-reja bo'yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma'lumot beriladi.<br>2.3-reja bo'yicha tushincha beriladi. | "Klaster" usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan bilis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O'.U.M asosida. |

**T a ya n ch i b o r a l a r i:** Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar.

## ALOHIDA OLINGAN SO`ZLAR GURUHI

### 1-§. Modal so`zlar

So`zlovchining o`z fikriga bo`lgan munosabatini bildiradigan so`zlar **modal so`zlar** deyiladi: ***Ehtimol**, bugun etib kelar*.

Modal so`zlar ma’no jihatidan quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so`zlar:

1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arx.);* 2) fikrning qat’iyligi ta’kidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, so`zsiz* 3) ishonch: *albatta* 4) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, o`z-o`zidan,* 5) fikrning chinligi eslatiladi: *to`g`ri, xoynaxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.*

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal so`zlar:

1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chog`i;*
2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki;*
3) fikrning tusmolli ekanini bildiradi: *aftidan;*
4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay.*

3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan.*
4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan.*
5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.*
6. Achinish: *afsus, attang, esiz.*
7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim.*
8. Quvonch: *xayriyat.*
9. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yo`q.*

Bulardan tashqari: *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal so`zlar ham mavjud.

Modal so`zlarning ko`pchiligi mustaqil so`zlardan o`sib chiqqandir.

1) ot turkumidan: *aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat;* 2) sifatdan: *yaxshi(ki), to`g`ri, so`zsiz, shubhasiz, tabiiy;* 3) ravishdan: a*lbatta;* 4) fe’ldan: *xoyna-xoy* (tojikcha *xohi-naxohi* so`zidan); 4) bog`lovchidan*: balki;* 5) so`z birikmasidan: *har qalay, har holda;* 6) gapning modal so`zga aylanishi: *holbuki (Hol buki);* 7) so`z tushirish natijasida hosil bo`lgan: *o`z-o`zidan* (*aniq* so`zi tushib qoladi).

Modal so`zlar **sof** va **vazifadosh** modal so`zlarga bo`linadi. *Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, xullas, masalan, umuman, taxminan* so`zlari sof modal so`zlar hisoblansa, modal ma’noda ham qo`llanadigan *aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz* kabi so`zlar vazifadosh modal so`zlar hisoblanadi.

Modal so`zlar gap tarkibidagi so`zlardan vergul bilan ajratiladi va ko`pincha **kirish so`z** vazifasini bajarib keladi.

## 2-§. Undov so`zlar haqida ma’lumot

His-hayajon, tuyg`uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so`zlar turkumi **undov** deyiladi: *eh, uh, o, e, uf, voy, ura, barakalla, ofarin, salom, xayr, xo`sh, rahmat, balli, bay-bay, voy-bo`y, a, ax, ohho, obbo, ey, ehhe, i, ie, o`h, o`hho`, hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o`, ha, iyi.* Bu so`zlar mustaqil so`zlarga ham yordamchi so`zlarga ham kirmaydigan ayrim so`z turkumidir.

Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo`llanishi mumkin: *oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay.*

Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi.

Undovlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo`linadi:

1. **His-hayajon** undovlari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:
1) shafqat, mehribonlik: *ie, o, voy, voy-ey, eh;* 2) sevinch, xursandchilik, zavqlanish: *ho, o`h-ho`, ehe;* 3) qoyil qolish, rohatlanish: *hay-hay* (takrorlansa), *oh-oh;* 4) mamnuniyat, faxrlanish, mag`rurlanish, xayrihohlik: *e-ha, eh, ha-ya, o`;* 5) undash, ogohlantirish, tasdiq: *ha.*

Undovlar yozuvda gap bo`laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo`lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi qo`yiladi: *Eh! Havo naqadar sof va musaffo!*

Undovlarning asosiy qismi yasama emas, lekin mustaqil so`zlardan undovlarga ko`chgan so`zlar ham mavjud: 1) olmoshdan : *qani;* 2) fe'llardan: *kel, hormang, yo`qol, bor-ey, yashang, kechirasiz: Kel, bir bahslashaylik!*

His-hayajon undovlari, odatda, gap bo`lagi vazifasini bajarmaydi. Ular yo kirish so`z, yoki so`z-gap bo`lib kelishi mumkin: ***Ie,*** *men kimni ko`ryapman?* - ***Dod!*** *- ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi.*

2. **Buyruq-xitob** undovlari ikki xil bo`ladi: 1) odamlarga qaratilgan undovlar: a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo`llanadigan: *hoy, hay* (bir marta aytilsa), *hey, allo, ey;* b) ta'kid, buyurish uchun qo`llanadigan: *ma, tss, jim, marsh;* 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qo`llanadigan: *kisht, bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, beh-beh, qurey-qurey;* b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to`xtatish uchun qo`llanadigan: *ishsh, ho`k, tak;* v) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladigan: *pisht, drr, xix, hov-hov, cho`k, tek, hayt, chu.*

**3. Ko`rsatish, ta'kid** undovlari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:
1) ko`rsatish: *hu, huv, hovv;* 2) javob, tasdiq, ta'kid, mulohaza: *ha-ha-ha, xo`sh, labbay, ha.*

Bulardan tashqari, quyidagi undovlarni urf-odat undovlari (ayrim darsliklarda **nutqiy odat** undovlari deb ataladi: (25; 100.) tarzida ajratish mumkin: *rahmat, marhamat, salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qulluq* va b.

Undovlar odatda *deb* so`zi bilan qo`llanib, hol *(U "voy" deb yonboshiga yiqildi), degan* so`zi bilan qo`llanib, gapda ko`pincha sifatlovchi-aniqlovchi *(Ko`chada "dod" degan ovoz eshitildi)* bo`lib keladi. Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega *(Ularning dod-voyi osmoni falakka chiqdi.),* kesim *(Endi uning holiga voy)* to`ldiruvchi *(Uning oh-vohiga kim quloq soladi?),* qaratqich-aniqlovchi *(Dod-voyning foydasi yo`q.)* vazifalarini bajaradi.

## 3-§. Taqlid so`zlar

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so`zlar **taqlid so`zlar** deyiladi. Bunday so`zlar ma'no jihatidan ikki turga bo`linadi:

1. **Tovushga taqlid** bildiradigan so`zlar: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g`arch-g`urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov, uv, irr, mo`o`, maa, baa, mee, ing-ing, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g`a-g`a, qag`-qag`, pit-pildiq, parr, viz-viz.*

2. **Holatga taqlid** bildirgan so`zlar: *yalt-yult, apil-tapil, g`uj-g`uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, mo`lt-*

*mo`lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, g`ivir-g`ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi.

Taqlid so`zlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qo`llanadi. Juft va takrorlangan taqlid so`zlar orasiga chiziqcha qo`yiladi.

Taqlid so`zlar mustaqil so`zlar kabi gap bo`lagi bo`la oladi: *SHamol* ***g`ir-g`ir*** (hol) *esmoqda.*

Tovushga taqlid so`zlar ba'zan otlashib, ko`plik, egalik va kelishik qo`shimchalarini qabul qiladi va **ega, qaratqich aniqlovchi** hamda **to`ldiruvchi** vazifalarini bajaradi: *Odamlarning* ***g`ovur-g`ovuri*** *bosildi. YUragining* ***duk-dukini*** *eshitdi.* ***CHug`ur-chug`urning*** *to`xtashi amri mahol.*

## BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Modal so`zlarning ta'rifini ayting.
2. Modal so`zlarning ma'no jihatidan turlarini ayting.
3. Ma'lum bir guruhga kirmagan modal so`zlarni sanab ko`rsating.
4. Mustaqil so`zlardan o`sib chiqqan modal so`zlar haqida gapiring.
5. Modal so`zlar kelib chiqishiga ko`ra yana qanday bo`lishi mumkin?
6. Undov so`zlarning ta'rifini ayting.
7. Undov so`zlar qanday ko`rinishlarda qo`llanishi mumkin?
8. His-hayajon undovlari haqida gapiring.
9. Mustaqil so`zlardan his-hayajon undovlariga o`tgan so`zlarga misollar keltiring.
10. Haydash-chaqirish undovlari haqida gapiring.
11. Haydash-chaqirish undovlari qanday so`zlar bilan qo`llanadi?
12. Taqlid so`zlarning ta'rifini ayting.
13. Tovushga taqlid so`zlar haqida so`zlang.
14. Holatga taqlid so`zlar haqida so`zlang.
15. Taqlid so`zlar qanday ko`rinishlarda qo`llanadi?
16. Taqlid so`zlar mustaqil so`zlarga qaysi jihatlari bilan o`xshaydi?
17. Taqlid so`zlarning otlashishi haqida gapiring.
18. Eskirgan modal so`zlarga misollar keltiring.
19. *"O`z-o`zidan"* modal so`zi qaysi mustaqil so`z turkumlariga omonim bo`la oladi?
20. Ham tovushga, ham holatga taqlid bildiradigan so`zlarga misollar keltiring.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi

# ONA TILI

**fanidan**

# Amaly mashg’ulotlar ishlanmasi

5111700-Boshlang’ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish bakalavr yo’nalishi
II-kurs talabalari uchun

Tuzuvchi: o'qit.M.Hazratqulov.

**Bilim sohasi:** 100 000 – ta’lim

**Ta’lim sohasi:** 140 000 – o’qituvchilar tayyorlash va pedagogik fan

**Bakalavriat yo’nalishi:** 5111700 – boshlang’ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish

**Samarqand - 2013**

## Annotatsiya

Ushbu majmua 5111700 - Boshlang'ich talim va tarbiyavay ish yo'nalishi 2-bosqich talabalari uchun tuzilgan. Uslubiy majmuada asosiy e'tibor fan dasturiga kiritilgan mavzularni bevosita qamrab olgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni ushbu mavzularga oid bilim va ko'nikmalarini kengroq tushuntirib berish uchun mo'ljallangan. Har bir mavzudan so'ng topshiriqlar berilgan bo'lib, bu topshiriqlarni keng va mukammal o'rganish uchun amaliy ishlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

**1-МАВЗУ Morfemika va morfema haqida mashqlar bajarish**

(Amaliy mashg'ulot- 2 soat)

**1.1. Mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| ***O'quv soati -2 soat*** | Talabalar soni 25 ta |
| ***O'quv mashg'ulot shakli*** | Savol-javob, suhbat |
| ***Mashg'ulot rejasi*** | 1.Morfemika haqida ma'lumot<br>2.O'zak morfema<br>3.Qo'shimcha(affiks)morfema<br>4.Qo'shimcha va uning turlari<br>5.Qo'shimchaning tuzilishiga ko'ra turlari |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi*** | Ona tili fanining Morfemika bo'limi yuzasidan to'liq ma'lumot berish. |
| ***Pedagogik vazifalar:*** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| *Morfemika haqida ma'lumot.* | So'zlarning ma'noli qismlari haqida tushincha beriladi |
| *O'zak morfema* | So'zda albatta ishtirok etadigan leksik ma'no ifodalay oladigan morfema ekanligini aytib bera oladilar |
| *Oo'shimcha morfema* | Mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydigan so'zning leksik yoki grammatik ma'nolarning shakllanishida xizmat qiladigan morfema ekanligini tushuntirish |
| *Qo'shimcha va uning turlari* | Qo'shimcha va uning turlarini "Pog'ona" usulida misollar asosida yozib beriladi |
| *Qo'shimchaning tuzilishiga ko'ra turlari* | Qo'shimchaning tuzilishiga ko'ra turlarini misollar asosida tushuntirib izohlaydilar |
| ***O'qitish vositalari*** | O'UM ma'ruza matni, doska, bo'r va latta |
| ***O'qitish usullari*** | Axborotni ma'ruza, blis-so'rov, pog'ona texnikasi, aqliy hujum |
| ***O'qitish shakllari*** | Frontal, kollektiv ish |
| ***O'qitish sharoiti*** | Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya |
| ***Monitoring va baholash*** | Og'zaki savollar, blis-so'rov |

**Kirish. Morfemika (so'z tarkibi) haqida ma'lumot mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi 5 ta savollarni va o'quv faoliyati natijalarini aytadi<br>1.2. Baholash mezonlari (1-ilova) | Tinglaydilar |

| | | |
|---|---|---|
| (20 min) | 1.3. Aqliy hujum usulida mavzu bo‘yicha ma’lum bo‘lgan tushunchalarni faollashtirish<br>1.4. Mavzuni jonlantirish uchun savollar beradi (2-ilova) | |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1.1-Reja bo’yicha mini ma’ruza qilinadi<br>2.2.Ma’ruza rejasining ikkinchisiga tushunchalar aytiladi.<br>2.3.Uchinchi reja yuzasidan ma’lumotlar beriladi.<br>2.4.4-reja bo’yicha ma’lumot beriladi<br>2.5.5-reja bo’yicha tushunchalar berilibmisollar asosida isbotlanadi.<br>2.6.Talabalar ishtirokida har bir reja mustahkamlanadi. | Tinglaydilar<br>Tinglaydilar savollarga javob beradilar.<br>O’.U.Mga qaraydilar<br>“Pog’ana” usulida bajariladi<br>Tayanch tushincha va iboralar muhokama qilinadi. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br>O’.U.M asosida. |

## Mashqlar ishlash

**1-mashq.** Ushbu she’riy parchadan 3 ta so’zni tanlab asos va qo’shimchalarga ajratib, qo’shimchalarning vazifasiga ko’ra qaysi turga mansubligini aniqlang.

Yillar o’tdi, faqir xonadon,
Muhtojlikga taslim etdi jon.
G’amxonada qashshoqlik kuldi ,
Va oila tutday to’kildi. **“Zaynab va Omon” H. Olimjon**

**2-mashq**. Qo’shimchalarning turiga qarab jadvalga joylashtiring. Ular ishtirokida so’zlar hosil qiling va ularni qatnashtirib gaplar tuzib ularning tagiga chizing.

- bon, - shunos, - gi, - lik, - imiz, - li, be -, -ib, - ona, - guncha, - soz, - paz, - ga, - siz, -ga, dan.

So’z yasovchi qo’shimchalar Shakl yasovchi qo’shimchalar

**3-mashq.** So’zlarning ma’noli qismlarini toping, qanday qo’shimchalar qo’shilganligini aniqlang.

Kursdoshlarim To’qimachilik

Paxtakorlar Biroz
Qadrdonlarim Tirik
Odamgarchilik Quloqchin
Gulchilar

**4-mashq.** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ularni qaysi biri asos, qaysi qo'shimcha ekanini ayting.

Mehnat, **halollik** haqida ibratli rivoyat bor: Bir bola ulg'aygach otasi unga ishlab pul topib ***keltirishni*** buyuradi.

Lekin, **ko'ngilchan** ona: "O'g'lim qo'lini qavartirib, qiynalib yurmasin," deya eridan o'g'rincha unga pul beradi. **Sezgir** ota o'g'li keltirgan pulni **o'tga** tashlabdi. Bola **beparvo**, loqayd turaveribdi. Bu hol yana takrorlanadi. **O'g'lining** uchinchi marta olib kelgan pulini otmoqchi bo'lganda, bola uning qo'liga **yopishib**, yondirmasligini so'raydi. Ota shundagina bu safar o'g'lining haqiqiy peshona teri bilan pul topganiga ishonadi.

Mehnat bilan **topilgan** pul qadri mashaqqat bilan qo'lga kiritilgach barcha narsalar singari azizdir.

**5-mashq.** Rasmga qarab matn tuzing. Unda qatnashgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni toping.



**6-mashq.** She'riy parchadan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating.

**DO'STLIK**

Dengiz kabi cheksiz paxtazor,
Ichra seni ko'rdim men yana
Qarshi olding tong bilan o'rtoq
Do'stlik mehri qildi tantana
Chanoqdagi paxtalar go'yo
Olgin deya qilar tabassum
Ha, ol tezroq bugungi oftob
G'animatdir paxtakor do'stim.

***Barot Boyqobilov***

**7-mashq.** Ushbu so'zlarga qo'shimcha qo'shish orqali so'z tarkibini hosil qiling.

Xursand Xizmat

Supur
Mehmon
Temir
Kul
Paxta
Uzun
San’at
Katta

Ish
Yaxshi
Bino
Ov
Gul
Tinch
Gunoh

**8-mashq.** Badiiy asarlardan qo’shimchalarning tuzilishiga ko’ra turlariga misollar toping.

**9-mashq.** Topishmoqlarni toping.

**1.** Moskov boradi Ahmad
Toshkent borar Muhammad
Moskov Toshkent, Muhammad
Va Ahmad qanday so’zlar ?

**2.** Qismlari birdan ortiq,
Bir ma’noni bildirar
Atoqli turdosh holda
Nutqimizda qo’llanar ?

**3.** Toshkentlik, Farg’onalik
Oylik, ellik, sutchilik
So’zlaridan bor – lik, - chilik
Nimadir – lik ham – chilik ?

**4**. Yigitlarga vazminlik
Qizlarga bo’lsin ibo
Donoga bag’ri kenglik
Yoshlarda bo’lsin hayo
Qanday qo’shimchadir – lik,
Qanday so’z bag’ri kenglik ?

**Topishmoqlarning javoblari :**

1. Atoqli otlar
2. Qo’shma otlar
3. Ot yasovchi qo’shimchalar
4. Mavhum ot yasovchi,

**10-mashq.** ***Uyga vazifa.*** Qissa janridagi asarlardan qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra turlariga misollar toping

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

**2-Mavzu So'z yasovchi tub va yasama so'zlar.**

## So’zlarning yasalish usullari bo‘yicha mashqlar ishlash

(Amaliy mashg’ulot 2 soat)

| | |
|---|---|
| *O’quv soati -2 soat* | Talabalar soni 25 ta |
| ***O’quv mashg’ulot shakli*** | Savol-javob, suhbat |
| ***Mashg’ulot rejasi:*** | 1.Hozirgi va tarixiy so’z yasalishi<br>2.So’z yasalish usullari.<br>3.Tub va yasama so’zlar<br>4. So’zlarning tuzilishiga ko’ra turlari |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi*** | “Ona tili” fanining so’z yasalishi tuzilishi kabi bo’limlari bo’yicha to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| ***Pedagogik vazifalar:*** | O’quv faoliyati natijalari: |
| *Hozirgi va tarixiy so’z yasalishi haqida ma’lumot.* | So’zlarningfozirgi va tarixiy nuqtayi – nazardan yasalishi haqida tushinchalar berish. |
| *So’z yasalishi usullari haqida ma’lumot berish.* | O’zbek tilidagi so’zlarning qanday usullar bilan yasalishi to’g’risida bilimlar berish. |
| *So’zlarning tuzilishiga ko’ra turlari* | O’zbek tilida so’zlarning tuzilishi haqidagi tushunshalarni “Klaster” usulida misollar yordamida ko’rsatish. |
| ***O‘qitish vositalari:*** | O’.U.M m’ruza matini,darslik,doska , bo’r,latta,ko’rgazmali qurollar. |
| ***O‘qitish usullari*** | Axborotni ma’ruza, blis-so‘rov, klaster texnikasi, aqliy hujum |
| ***O‘qitish shakllari*** | Frontal, kollektiv ish |
| ***O‘qitish sharoiti*** | Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlarda ishlash usulini qo‘llash mumkin bo‘lgan auditoriya |
| ***Monitoring va baholash*** | Og‘zaki savollar, blis-so‘rov |

**So’z yasalishi va tuzilishi haqida ma’lumot mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha ber4iladi | “Инсерт” usulida |

(50 min)

| | | |
|---|---|---|
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan bilis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O'.U.M asosida. |

**Т а я н ч  и б о р а с и:** Сўз ясалиши, морфологик, синтактик, семантик, қисқартма усул, сода, қўшма, жуфт, такрорий, қисқартма.

**Mashqlar shlash**

**1-mashq. Qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlarni aniqlab, ko'chiring.**

1. Shu choq Bektemir so'l tomonda, pastlikda, o'nlab jangchilarimizning oldinga qarab yugurganini ko'rdi. (O.) 2. Ko'pdan beri kutgan, ammo shu lahzada ro'yobga chiqishidan bexabar quvonchdan Ummatali shoshib qoldi. (Sh.) 3. Shu asnoda yumaloq, xushchaqchaq, mirishkor, vazifashunos dehqon katta tarvuzni qorniga qo'yib keldi. (O.) 4. Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo'lsa ham, kechagidan ko'ra qo'rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi. (O.) 5. Bundan oldingi so'fi Ismoilboy o'ta dindor va nashavand kishi bo'lib, …o'tgan ramazonda jannati bo'lgan edi. (G'.G'.) 6. Ko'zbo'yamachilik, qalloblik, o'zim bo'lay deyish – sizningcha, shunchaki kechirib ketaveradigan bir gap ekan-da?! (O'.Usmonov) 7. Navbatdagiday bemalol, xushkayf, serchaqchaq suhbat davom etar edi. (G'.G'.)

**2-mashq. So'zlarni qo'shish va bog'lash yordamida yasalgan so'zlarni aniqlab, yozing.**

1. Qorasuv tomonda bitta Pulemas degan ariq bor ekan. (P.Q.) 2. …u tabiatan darveshsifat edi. (O.) 3. Ustidagi to'q qizil, zarin to'ni yiltirar, qo'lidagi uzun aso dastasiga qadalgan qimmatbaho toshlar qorong'i kechadagi yulduzlardek charaqlar edi. (M.Osim) 4. Shu kuni tasodifan daladan erta qaytgan, tomorqada makkajo'xori chopiq qilayotgan edi. (S.Anorboyev) 5. U signal yuqoridagi fikrimizga asosan signaloldi va signalorti signallarga parchalanadi. (To'xtamish, Hakimbek) 6. Ekkan sabzi-piyozlarimni necha bor shudgor qilib ketgan tumshug'ing qurg'urlar. (S.Anorboyev) 7. Qosh-qovog'i uyulib, basharasidan zahar tomib turibdi. (J.Abd.) 8. Atlas bo'lganda ham qanaqa atlas deng, xuddi Boltaboyning ko'nglidagi sakkiztepki… (G'.G'.)

**3-mashq. O'qing. So'zlarni qisqartirish yordamida yasalgan so'zlarni aniqlang va yoyib o'qing.**

1. O'ktamjon yigirmanchi yillarni, ya'ni Turkkomissiya haqidagi materiallarni o'rganayotganini to'lib-toshib gapirib berdi. (N.F.). 2. Nogoh komanda punkti orqasidan bir qancha komandirlar oldida sersavlat, vazminqadam general chiqib qoldi. (O.) 3. O'sha paytdagi Markazqo'm kotiblaridan biri, kimning o'rniga, dedi. (S.Ahm.) 4. Haligi MAZ to'xtamay o'tib ketgan, tevarak-atrof zim-ziyo, faqat  qayerdadir uzoqda, … miltiragan chiroqlar ko'rinardi. (O.Yo.) 5. …o'zbek, qozoq va butun jangchilar do'zaxning o'tyoqar, o'tkavlar shovvozlari kabi, favqilbashar g'ayrat va g'azab bilan ishladilar. (O.) 6. Bo'zsuv bir-ikki oy quritib qo'yilsa, uning bo'yidagi ikkita gidrostansiya to'xtab qolishi, qancha joylar cuvsizlikdan qiynalishi mumkin edi? (P.Q.) 7. U qarshisida paydo bo'lgan sohibjamolni ko'rib, shu birgina ondayoq qattiq xato qilganiga iqror bo'ldi. (X.G'.). 8. Vinzavod direktorida yuz ming topilmas ekan, degan anekdotni eshitsa, odamlar baldet qilib qolishadi. (T.Malik)

**4-mashq. Bir turkumdan boshqa turkumga ko'chish yordamida yasalgan so'zlarni aniqlab, yozing.**

1. Zulfiya qanday sevsin, erkalanganda – jerkish, yalinib-yolvorganda siltash oladi Po'latjondan. (G'.G'.) 2. El-yurtning yuziga qanday qarayman endi, bir bechora begunoh o'lib ketdi. (S.Ahm.) 3. – Bu chol, -Shokir ota qo'lini ko'ksiga urdi, - qanday mashaqqatlarni ko'rmagan! (O.) 4. Ayb kimdaligini o'tgan uchrashuvimizdayoq sezganman. (T.Malik) 5. Botirov bu xil o'zgarishlarni qo'llamay iloji yo'q edi, chunki u ham qanday bo'lmasin qurilish ishlarini tezlatishni istar edi. (J.Abd.) 6. Bu gapning qanchasi rivoyat, qanchasi haqiqat – bilmayman, lekin Ochil buva hamon hayot, bu yil qovun pishig'ida to'qson to'rtga kiradi, hali chinorday baquvvat. (As. M.) 7. Qizlari qurg'ur bir yerga ilashib ketadi. (G'.G'.)

**BLITS-SO'ROV  UCHUN SAVOLLAR**

1. So`z yasovchi qo`shimchalar yordamida qanday tur-
kumlar yasaladi? Misollar.
2. So`zlarni qo`shib, juftlab yasashda qanday so`zlar hosil bo`ladi?
3. Qisqartma usul haqida gapiring.
4. Qaysi turkumlardagi so`zlar boshqa turkumga ko`chib, yangi so`z yasaladi?
5. So`zlarni takrorlash yordamida so`z yasalishi haqida gapiring.
6. Sodda tub va sodda yasama so`zlarga misollar keltiring.
7. Qo`shma so`zlarga misollar keltiring.
8. Qisqartma so`zlarning turli ko`rinishlariga misollar keltiring.
9. Juft so`zlarning qismlari qanday xususiyatlarga ega bo`lishi mumkin?
10. Juft so`zlarning qismlari ma'no jihatdan qanday turlarga ega bo`lishi mumkin?
11. Takroriy so`zlar qanday ma'nolarni ifodalaydi?
12. Morfologiya va sintaksis bo`limlari-da qanday masalalar o`rganiladi?

**B/BX/B jadvali   (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **3-Mavzu** | **Grammatika haqida ma’lumot. So’zning sintetik, analitik va takroriy shakllariga oid mashqlar ishlash** |

(Amaliy mashg’ulot-2soat)

**1.1Maruzani olib borish texnalogiyasi**

| | |
|---|---|
| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Amaliy mashg’ulot rejasi** | 1.Grammatik ma’no, grammatik forma,grammatik kategoriya.<br>2.So’zning morfologik tuzilishi.<br>3.So’z turkumlari haqida tushuncha<br>4.So’z turkumlari va ularni o’rgatish tamoyillari. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | “Ona tili”faning eng katta bo’limlaridan biri grammatika va uning morfologiya qismi haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Grammatik ma’no Grammatik shakl(forma) Grammatik kategoriya | So’zning u yoki bu turkumga mansubligini ko’rsatuvchi, shuningdek so’zning ma’lum bir grammatik shakli ifodalaydigan ma’no haqida ma’lumot . O’zbek tilida so’z shakliuning sintetik, analitik, juft va takroriy formalari haqida ma’lumot . Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq,grammatik ma’no bilan shu ma’noni ifodalaydigan forma birgalikda grammatik kategoriyani hosil qilishi haqida ma’lumot berish. |
| So’zning morfologik tuzilishi | So’zning morfologik tuzilishi so’z formasining yasalioshida qatnashadigan qismlardan iboratligi haqida ma’lumut aytish. |
| So’z turkumlari haqida tushuncha | Ўзбек тиоилидаги сўз туркумлари ва уларнинг тарихда қандай турларга |

| | |
|---|---|
| | бўлинганлиги тўғрисида маълумот. |
| Сўз туркумлари ва уларни ўргатиш тамойиллари | Ўзбек тилида сўз туркумлари қандай тамойилларга бўлиниши ҳақида маълумот. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Grammatika. Morfologiya qismi haqida umumiy tushincha mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 4 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi.<br>2.4-режа бўйича маълумот айтилади. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan blis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash. | Baholash mezoni asosida |
| | 3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan) | Muommoli savollar asosida. |
| | 3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | O’.U.M asosida. |

**Т а я н ч и б о р а с и:** Grammatika, морфология, сўз шакли, грамматик маъно, grammatik kategoriya.

**5-mashq. Gaplardagi murakkab qo’shimchasi bor so’zlarni aniqlab yozing.**

1. Sultonmurod boshini ko'targanda, podsho ancha uzoqlashgan edi. (O.) 2. Bu odamlar Saidiyga mavzular berar va yozishda ko'maklashishga tayyor ekanini bildirar edi. (A.Q.)
3. Ayvondagi o'choq oldida o'tirgan ayol o'rnidan turdi-da, hovliga yuz o'tirdi. (P.T.)
4. Obodonchilik boshqarmasining vakili issiqda terlab ketgan, ko'zoynagi ham hovurdan xira tortgan edi. (P.Q.) 5. Bu so'zlarni eshitganida Asadbek qanday ajablangan bo'lsa, hozir Manzura ham shunday taajjublandi. (T.Malik) 6. Saidiy, haqiqatdan, talabalik vaqtida ko'p she'rlar yozgan, bularning ko'pchiligi devoriy-gazetalarda bosilgan… (A.Q.) 7. O'zim olib kelganimda kamchiliklari ko'rsatilar va bu ko'rsatmalarning keyingi ishlarim uchun yordami tegar edi. (A.Q.)

**6-mashq. Gaplar tarkibidagi qo'shma so'zlarni aniqlang.**

1. – Qiziq ekansiz-ku, Norboy ota. Biz to'g'rimizda ozmuncha ig'vo bo'ldimi? Bu ham shularning biridir-da. (P.Q.) 2. Bu boyvuchcha bo'lsa kechasi otasharavadan tushsa-yu, sahar mardonda ketmonni yelkasiga tashlab, to'qayga jo'nasa …(S.Ahm.) 3. Bu paytda Davjon bir nechta hovlining past-baland devorlaridan oshib, Chorchinor tarafga boradigan yolg'izoyoq yo'lga o'tib olgan edi. (O.Husanov) 4. Binoyi kiyingan, xushsurat bu yigit kirib kelganida tabibboshining tosh yuragi yumshagan edi. (T.Malik) 5. Shu tarzda bir yog'i ToshGRESdan Ko'kterakka, ikkinchi tomoni Toshavtomashdan Yangiyo'l rayonining chegarasiga borib tutashgan mavzelarini aylanib chiqishdi. (P.Q.)

**7-mashq. Gaplar tarkibidagi juft va takroriy so'zlarni aniqlang.**

1. Quloq-burnilaring kesilganday bundoq o'tiribsizlar, bolalar qani? (S.Nurov) 2. Hovli-joy, bola-chaqa qilib, yayrab-yashnashga nima yetsin, onam. (J.Abd.) 3. Mana, o'ziga ma'lum bo'lmagan ancha-muncha gaplardan xabar topdi. (J.Abd.) 4. Shu qaddi-qomat, shu bo'y-basting bilan boshingga urasanmi, bu motamsaro musichani! (O.Yo.) 5. Katta yo'l, qishin-yozin ot-ulov qatnab turadi. (M.Ism) 6. Ertalab qattiq uxlab yotganda eshikning qo'ng'irog'i ustma-ust jiringlab uyg'otib yubordi. (P.Q.) 7. Hamma narsani o'zi pishirdi – qo'ydi, azamat! (O'.Usm) 8. So'nggi paytlarda soch-soqoli-yu, ust-boshiga qaramay qo'ygan dadasi oyog'iga g'arch-g'urch xrom etik, boshiga yangi chust do'ppi, egniga yangi paxtalik fufayka kiyib olgan, o'ziyam soqol – mo'ylovlarini qaychilab, o'n yosh yasharib ketgandi. (O.Yo.)

**8-mashq. O'qing. Gaplar tarkibidagi yordamchi va alohida olingan so'zlarni ikki guruhga ajratib yozing.**

1. Lekin baribir xotinining pokligi va sadoqati unga ham shu darajada azizki, bu sadoqatga biron narsa ozgina soya solguday bo'lsa, to shu soya o'rtadan ko'tarilmaguncha o'zini ari talayotganday bezovta va notinch sezadi. (P.Q.) 2. Shu alfozda yarim soatdan ortiq Iskandarov goh seskanib, goh qaltirib, goh g'azabu, goh tabassum bilan mushuk-sichqon bo'ldi. (C.Ahm.) 3. Haqiqat qancha ko'p qarshilikka uchrasa, kishilarning qalbidan shuncha chuqurroq o'rin oladi. (A.Q.) 4. Mashina ketib bo'lgach, soat birdan oshib avtobuslar ham siyraklashib qolgandi. Idora, o'hho', qancha joyda. (S.Ahm.) 5. Unsin uchun – bechora qiz uchun bu qanday falokat, bu qanday mudhish motam! (O.) 6. Hozirmi? Iye, bu yog'i necha puldan tushdi. (T.Malik) 7. Ertaga nima bo'ladi, uni sira-sira qiziqtirmaydi. (S.Ahm.)

**9-mashq.** ***Uyga vazifa.*** Hikoya janridagi asarlardan so‘z yasalish usullariga misol toping.

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Grammatik ma'noni ifodalash vositalari haqida gapiring.
2. “Grammatika” va “morfologiya” so`zlarining ma'nolarini izohlang.
3. “So`z turkumlari” deganda nimani tushunasiz?
4. Mustaqil so`zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.
5. YOrdamchi so`zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | | |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **5-Ma’vzu**<br><br>(Amaliy mashg’ulot -2soat) | **Ot, otlarning grammatik ma’nosi, morfologik belgilari, sintaktik vazifalari yuzasidan mashqlar bajarish** |
| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| ***Mashg’ulot rejasi*** | 1.От ва унинг grammatik ma’носи, морфологик белгилари синтактик |

| | |
|---|---|
| | вазифалари.<br>2. Отларнинг маъно жиҳатдан турлари.<br>3. Отларда сон (бирлик ва кўплик).<br>4. Отларда эркалаш ва кичрайтириш қўшимчалари. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | "От ва нинг маъно жиҳатдан туралари бирлик ва кўпликда қўлланилиши, отларда сон haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| От ва унинг grammatik ma'носи, морфологик белгилари синтактик вазифалари. | От so'z туркумининиг grammatik маъноси, мофологик белгиси, синтактик вазифалари haqida ma'lumot . |
| Отларнинг маъно жиҳатдан турлари. | Отларнинг атоқли, турдош шунингдек аниқ ва мавҳум отларга бўлиниши haqida ma'lumut aytish. |
| Отларда сон (бирлик ва кўплик). | Ўзбек тилида от сўз туркуминнг бирлик ва кўпликда қўлланилиши тўғрисида маълумот. |
| Отларда эркалаш ва кичрайтириш қўшимчалари. | Ўзбек тилида от сўз туркуминнг эркалаш ва кичрайтириш қўшимчалари билан қўлланилиши ҳақида маълумот. |
| **O'qitish vositalari** | O".U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Otlarning grammatik xususiyatlari hamda vazifaviy shakillari mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi 3 ta reja va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |

| | | |
|---|---|---|
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | B/BX/B jadvali usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**Т а я н ч и б о р а с и:** От so’z туркумининиг grammatik маъноси, мофологик белгиси, синтактик вазифалари, атоқли, турдош, аниқ ва мавҳум отлар эркалаш ва кичрайтириш қўшимчалари.

**1-mashq.** Metogrammalarning javobini toping va ot so’z turkumiga tegishlilarini ajrating, aniq otlardan gap tuzing.

Bitta biru bitta nol
Tegirmonda bo’lar mo’l
(o’n – un)

Tezlikda tengi bo’lmas
Qadri bor misli olmos
(nur – dur)
Ko’z yosh to’kib yonadi so’z
“Sh” “K” bo’lsa bo’ladi oz
(sham, kam)
Sahro kemasi – oti
Jun buyumning ofati
(tuya, kuya)

**2-mashq.** Nuqtalar o’rniga ot yasovchi qo’shimchalardan mosini qo’ying.

***Ot yasovchi qo’shimchalar***

- chi - zor
- kor - loq
- dosh

1. Sayohat ….. uzoq yurib, ko’kalam … bir joyga yetib keldilar.
2. Sohib …. Rizomat ota yangi uzum navlarini yaratgan
3. Bolalar, siz shoirni

o’xshatmangiz to’quv … ga
qiyos qiling siz uni

oddiy bir o'quv …. chiga

**3-mashq.** O'qing. Otlarning ma'no turini aniqlab, turdosh otlarning tagiga chizing.

1. Asadbekning odamlari orasida bunaqa yigitlarni ko'rmaganman. (T.M. «Shay»).
2. Zaynabni qo'lga kiritish fikri Hosilboyvachchada ancha burun paydo bo'lgan edi. (T.M. «Shay»).
3. Haddan tashqari mag'rursiz, kimsan - zavodchi boy, dong'ingiz katta? (O. «U.y»).
4. Zumrad uyga kelganda oyisi aralashtirilgan loydan qozon-tovoq yasab o'tirardi. (O. «U.y»).
5. Xushro'y uzun bo'ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi, Zaynab esa qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanlik edi. (A.Qod. «O'. k»).
6. Ona yolg'iz, johil va bag'ritosh bir otaning chegarasiz qaysarligi va teskariligi oldida bir xotin, nimjon bir ko'ngil. (Ch. «K va k»).
7. Qushlar kuylaydi, ariqlarda suvlar, daraxtzorlarda barglar kuylaydi. (O. «Q q»).

**4-mashq.** O'qing. Atoqli otlar ishtirok etgan gaplarni toping. Shaxsga yoki predmetga atab qo'yilganini aniqlang.

1. Ikki tomonni sirib olg'on xotin - qizlar o'rtasidan Otabek kelar edi. (A.Qod. «O'tgan kunlar»).
2. Ota-ona, qarindosh – urug'lar tinchmi, xizmat? – so'radi u muloyim, shirin ohangda. (T.M. «O.d.»).
3. Mirzakarimboy shoshib-pishib uy ichiga kirgach, Gulnor chetlanib devorga qisilib, sekingina «assalom» dedi. (O. «Q q» 193-b).
4. Xotinlar gulko'rpa, choyshablarni chizmakashlardan chizdirib keldilar. (O. «U.y»).
5. Xadichabegim Toshkentga kelgandan so'ng yolg'iz bir o'g'il tuqqan, uning oti Ziyoxon, madrasada tahsil ko'rgan, hazratning istagi bo'yicha u 6 yildan buyon Buxoroda taxtni davom ettirmoqda edi. (O. «U.y»).
6. Sutchoydan so'ng qumg'onda choy kelgandi. (A.Qod. «O'.k»).
7. Gultojixo'rozlar yelpig'ichdek oftobda yonardi. (S.A. «O'fq»).
8. Ko'ziga ko'kimtir ko'zoynak taqib olibdi, garchi dalada yurgan bo'lsa ham. (O.Yo. «O.q.o.q.»).

**5-mashq.** Quyidagi so'zlarni jadvalga joylashtiring.

| Shaxs otlari | Narsa buyum otlari | O'rin joy otlari |
|---|---|---|

Binokor, darvozabon, gulzor, olma, dala, Nurota, kitob, bola, radio, payola, Dashnaobod, fazogir, qizcha.

## BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Ot turkumining ta'rifi va so`roqlarini ayting, misollar keltiring.

2. Otlarning xususiyatlari va gapdagi vazifalarini ayting.

3. Turdosh otlar deb qanday otlarga aytiladi?

4. Qanday tushunchani ifodalashiga ko`ra turdosh otlarning turlari haqida gapiring.

5. Birlik shaklda ko`plikni ifodalash-ifodalamasligiga ko`ra turdosh otlarning turlari haqida gapiring.

6. Atoqli otlarning ta'rifi va turlari haqida gapiring.

7. Turdosh otlarning atoqli otlarga, atoqli otlarning turdosh otlarga o`tishiga misollar keltiring.

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **6-Ma'vzu** | **Otlarning kelish kategoriyalari. Otlarning yasalaishi tuzilishiga oid mashqlar ishlash** |
| (Amaliy mashg'ulot -2soat) | |
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| ***Mashg'ulot rejasi*** | 1.Эгалик ва келишик категорияси.<br>2. Отларнинг тузилиши жиҳатдан турлари.<br>3. Отларнинг ясалиши. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Отларнинг эгалик, келишик тузилиши жиҳатдан турлари, шунингдек, ясалиши haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Эгалик ва келишик категорияси. | Отларнинг эгалик ва келишик категориялари haqida ma'lumot . |
| Отларнинг тузилиши жиҳатдан турлари. | Отларнинг тузилиш жиҳатдан турлари тўғрисида ma'lumut aytish. |
| Отларнинг ясалиши. | Отларнинг ясалиши ҳақида маълумот бериш. |
| **O'qitish vositalari** | O".U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Otlarning grammatik категориялари, тузилиши ва ясалиши mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br>O’.U.M asosida. |

Т а я н ч  и б о р а с и: Отларда сон egalik, kelishik kategoriyasi, otlarda modal shakl yasalishi, tuzilish jihatdan turlari.

**6-mashq.** O’qing. Ushbu berilgan gaplar orasidan atoqli otlarni so’z birikmasi tarzida yozing.

1. Qoratoy O’rozni darrov Shokir otaga yubordi. (O. «Q q»).
2. Bu gapni eshitgach, uch mo’g’ul kuydirilgan kallaga o’xshab bir-birlariga qahriy tirjayishdi. (M. «T.m.»).
3. Otabekning Marg’ilonga borib kelishi shu yo’sinda edi. (A.Qod. «O’. k.»).
4. Yolg’iz muhabbatim, sevgim bor, malikam! Pulim, molim, mulkim yo’q, kaftday bog’im yo’q. (O.).
5. Azizxon bilan Lutfinisa Qoratepadan chiqishdayoq mashinadan tushib qolishdi. (S.A. «Ufq»).
6. Bir marta davrada kechasi musallasdan ozgina totib ko’rgan edim. (O. Q.q).
7. Qutidorning Toshkentdan yolg’iz qaytib kelishi Kumushni entiktirgan edi. (A.Q. «U. k»).

8. Mirobodliklar shuncha azob – uqubat bilan suv chiqazgan joylariga qalampir ekishadi. (S.A. «Ufq»).

**7- mashq.** O'qing. Otlarni topib so'roq bering, ko'plikda qo'llanilgan otlarni aniqlab, gaplarni ko'chiring.

1. Xizmatkorlar tovoq-tovoq palov keltirdilar. (O. «U.y»).
2. Umuman aytganda, ish chakki bo'lmadi-dedi Saidahmadxon yostiqqa yonboshlab. (O. «U.y»).
3. Savdogarlar orasida mening Faxriddin otlig' Buxorolik oshnam ham bor. (M.O. «J.u.b.»).
4. Qizlar boshlarini goh osmonga ko'tarib, goh yerga bosib, koptokni kuzatib turdilar. (O. «U.y»).
5. Odamlar o'rtasida tag'in g'ala-g'ovur boshlandi. (M.Ali. «S»)
6. Qoravullar ichkariga xabar bergandan so'ng darvoza ochilib qo'rboshi ichkariga kirdi. (A.Qod. «O'.k»).
7. Kayxusrav kengash chaqirib tajribali chollarning maslahatini eshitmoqchi bo'ldi. (M.O. «J.u.b.» ).
8. Abu Bakr Kalaviy ovoz chiqqan tomonga qaragan edi, hech kimni ko'rib bo'lmaydi. (M.A. «S»).

**8-mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yigitlar urush… shunaqa qirilib tursa jamiki qizlar tul qolib ketadi. (S.A. «Ufq»).
2. Zohid Mahmudov E'sonov…. so'roqqa chaqirishga chaqirdi-yu, keyin to'g'ri qildimmi, deb boshi qotdi. (T.M. «Sh» 2-kitob.).
3. Dushman…. birvarakayiga qirmasak bo'lmaydi. (O. «U.y»).
4. Kanizak hikoya qilib berayotganda eshitar ekan, ona… qayta tug'ilganday bir holatga keldi. (M.A. «S»).
5. Mingboshi boshi…. tovoq…. ko'tarmay og'zida bir manti, qo'lida javob qildi: - O'zing bilasan! Men qaydan bilay? (Ch. «K va k» 100-b).
6. Qiz so'z…. aylantirib, men….. va'da olishga tirishar edi. (A.Qod. «O'.k»).
7. Zardangiz qursin, har vaqt do'q bilan gapirasiz. (O. «Q.q»).
8. Ra'no ayvon….. ustini…. suyanib mashg'ul edi. (A.Qod. «M.ch»).

**9- mashq.** Gaplarni o'qing. Berilgan gaplardagi morfologik mashqi bilan yasalgan otlarni ma'no xususiyatiga ko'ra qaysi guruhga mansubligini aniqlang.

1. U nomozga tayyorlangach oshxona oldiga bordi. (O. «U.y»).
2. Aravakash: - Qani tushinglar endi opalar! - deb muzaffarona bir ovoz bilan qichqirdi. (Ch. «K va k»).
3. U otni samovarchiga qoldirib, idoraga kirdi. (S.A. «Ufq»).
4. Kolxozchilarning o'riklarini tupi bilan sotib oladi. (S.A. «Ufq»).
5. Darvozabon bularning borini keyin bildi. (M.A. «S»)
6. Oshxonaning u eshigi ham yopildi. (Ch. «Q va k»).
7. U ikki otliq tepasida bir aylandi-yu qamishzorga sanchilgandek sho'ng'ib ketdi. (S.A. «Ufq»).

8. Xazinachilar sipohlar orqasidan ikki otni yetaklashib hudaychi yoniga yetdilar. (A.Qod. “O’.k”)

**10-mashq.** Gaplarni o’qing. Otlarga so’roq bering va shaxsni anglatuvchi qo’shimchani topib, tagiga chizing.

1. Darvozabon bularning borini keyin bildi. (M.A. “S”.)
2. Agar siz sodda bo’lsangiz masalaga Safar bo’zchi kabi qarab xudoy bersa shunday dersiz yana gapga tushunmassiz. (A.Qod. «M.ch.»).
3. Had-hisobsiz tobutkash qabriston tomonga burilgan edi, Tulanboy olazarak bo’lib kimnidir qidira boshladi. (S.A. «Ufq»).
4. Xitobchi barvasti mushtni ko’rgach nafasi qaytdi. (T.M. «Sh»).
5. To’g’ri aytasiz xizmatkor qulday bo’lsin–erining haligi fikrini jo’rttaga quvvatladi Nuri–bunuqasini topish qiyin. (O. «Q. q»).
6. Salim sharbatdorniki qutidorg’a nihoyatda ma’qul tushib qolg’an edi. (A.Qod.«O’.k»).
7. Saroybon esa yigitning gaplashishga tobi yo’qligini ko’rib, uning tagi-zotini surishtirib o’tirmay pastga tushib ketdi. (M.O. «J.u.b»).

**Ot tahlili namunasi**

1. So`rog`i.
2. Ma’no turi (atoqli va turdosh otlar, turdosh otlar-ning turlari).
3. Birlik yoki ko`pligi (soni)
4. Kelishigi.
5. Egalik qo`shimchasi bo`lsa, uning shaxs-soni aniqlanadi.
6. Kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma’nolari bo`lsa, aniqlanadi.
7. Tuzilish turi.
8. Tub yoki yasamaligi.
9. Gapdagi sintaktik vazifasi.

## BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Otlardagi birlik ma’nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
2. Otlardagi ko`plik ma’nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
3. Qanday otlar faqat birlikda qo`llanadi?
4. Faqat birlikda qo`llanadigan otlarga **-lar** qo`shimchasi qo`shilsa, qanday ma’no ifodalanadi?
5. **-lar** qo`shimchasi yana qanday turkumdagi so`zlarga qo`shiladi va qanday ma’nolarni ifodalaydi?
6. Otlarning turlanishi deganda nimani tushunasiz?
7. Kelishiklarni qo`shimchalari bilan aytib bering.
8. Qaysi kelishikdagi otlar qanday so`zlarga bojlanishi haqida gapiring.
9. Belgili va belgisiz kelishiklar haqida gapiring.
10. Qaysi kelishik qo`shimchalari qisqaradi?
11. Egalik qo`shimchalari qanday ma’noni ifodalaydi?
12. Egalik qo`shimchalari bilan bojliq tovush o`zgarishlari haqida gapiring.

13. Kichraytirish, erkalash

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **7-Ma'vzu** | **Sifat, uning morfologik xususiyati, sintaktik vazifalariga doir mashqlar bilan ishlash** |
| (Amaliy mashg'ulot 2soat) | |
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1.Сифатларнинг грамматик хусусиятлари. |

| | |
|---|---|
| | 2. Аслий ва нисбий сифатлар.<br>3. Сифат даражалари. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Сифатларнинг грамматик хусусиятлари, аслий, нисбий сифатлар ва сифат даражалари haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Сифатларнинг грамматик хусусиятлари. | Сифатларнинг грамматик хусусиятлари haqida ma'lumot . |
| Аслий ва нисбий сифатлар. | Аслий ва нисбий сифатлар ma'lumot aytish. |
| Сифат даражалари | Сифат даражалари ҳақида маълумот бериш. |
| **O'qitish vositalari** | O".U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Сифат ва унинг грамматик, морфолик хусусиятлари ҳамда синтактик вазифалари mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi 3 ta reja va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo'lim (50 min) | 2.1-reja bo'yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma'lumot beriladi.<br>2.3-reja bo'yicha tushincha beriladi. | "Klaster" usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan bilis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash. | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar |

| | |
|---|---|
| 3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan) | asosida. O'.U.M asosida. |
| 3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | |

**Т а я н ч  и б о р а с и:** Сифатларнинг грамматик хусусиятлари, аслий ва нисбий сифатлар, сифат даражалари.

**1-mashq.** O'qing. Sifatlarni aniqlab, qanday belgi bildirayotganini ayting. Sifatning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

1. Fotih Muzaffarov egnida o'ziga yarashib tushgan kostyum, yangi mebel bilan jihozlangan keng xonaning o'rtasida qo'llarini orqasiga qilib qaqqayib turardi. (O.Yo. «Oq. Op.q»)
2. Qurbonbibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar kamgap, damini ichiga solgan ziqna odam edi. (Ch. «K va k»).
3. U yerda yumshoq karavotu par yostiqlar yo'q. («Sh».).
4. Og'ir tabiatlilik, ulug' gavdalilik, ko'rkam va oq yuzlilik, kelishgan qora ko'zlik, qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. (A.Qod. "O'.k.").
5. Yuqoridan qaraganda daryo suvi tiniq, sokin oqayotgandek edi. (T.M. «Sh»).
6. Mahdum bo'ychan, olago'sht, siyrak mo'y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi. (A.Qod. «M.ch.»).
7. Tog' bolalari juda sho'x, jangari bo'ladi. (S.A. «Jimj»).
8. Keng dala yo'lida qatnovchilar siyrak: eski kir qalpog'ini burniga qadar tushirib, issiqdan mudragan va horg'in oriq otining yalqov qadamiga bardosh qilib shahardan qaytayotgan edi. (O. «Q.q»).

**2-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Sifatlarning tagiga chizing.

1. Nomer egasi Miryoqubni yaxshi taniydi. Uning juda mulkipisand, gumashta, injiq xaridor, zavqi qayrilgan shinavanda ekanini yaxshi biladi. (Ch. «K. va k.»).
2. Muloyim chehrasidan, katta-katta moviy ko'zlaridan tabassum arimaydigan bu yosh, xushsurat, xushbichim harbiy vrachga hamma soldatlar pinhona oshiq. (O.Yo. «Oq.o.q.»).
3. Abdurahmon tabibning qaynisi bu hashamatli uyda, shohona dasturxon atrofida, dimog'dor odamlar orasida o'zini begona his qildimi yo chindan ham shoshilinch ravishda iziga qaytmog'i lozimligi har holda bir piyola choydan iborat ziyofatdan qoniqib, o'rnidan turdi. (T.M. «Sh» 4-k.).
4. Saroyning to'rida boshqalarga qaraganda ko'rkamroq bir hujra, anovi hujraga qiyiq to'shalgan holda bu hujrada qip-qizil gilam, o'rtalarida bo'z ko'rpachalar qurilgan bo'lsa, bunda ipak va adras ko'rpalar narigilarida qora chog' sasiganda bu hujrada shamdon yonadir, o'zga hujrada yengil tabiatlilik, serchaqchaq kishilar bo'lganmi bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda.(A.Qod. «O'.k.»).
5. Osmon toza, havo beg'ubor. (T.M. «Sh»).
6. Vaziraning yashnagan, gullagan navqiron umri bekor o'tib borardi. («Ufq»).
7. Yashil bo'yoq bilan bo'yalgan, ust tomoni o'ymakor panjarali, katta va og'ir darvozaga yetganda yigitning yuragi bir oz o'ynab ketdi. (O. «Q.q»).
8. Beg'ubor shirin iljayish edi bu. (S.A."Jimj")

**3-mashq.** O'qing. Sifatlarni topib, qanday belgi bildirayotganini aniqlang.

1. To'rdagi kichkina eshik ochilib, ichkaridan to'la yuzlik, o'siq qoshliq, og'ir qorachug'i kuzlik, siyrak soqol o'rta bo'ylik, ustidan kimxob to'n kiyib, beliga qilich osqan qirq besh yoshlar chamasida bir kishi ko'rindi. (A.Q. «O'.q»).
2. Ko'rinishidan kambag'algina, soddagina kishi. (T.M. «Sh»).
3. Ichkaridan uzun bo'yli, qorin qo'ygan, bashang kiyingan Selim chiqib kelgach, o'n besh kun ilgari erini jon-jaxti bilan himoya qilgan bu xotinni tanidi. (T.M. «Sh»).
4. Azizbekning o'ng qo'li rayimdek dodhoh jin yashag'an deganlaridek qonsiz, qoramtir yuzliq, ikki chakagining ustida bir oz, iyagida bir oz siyrak ko'rimsiz qora soqollik, ko'zlari ichiga botiqroq kishi edi. (A.Qod. «O'.k.»).
5. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi. (Ch. «K va k»).
6. Ra'no kichkina ukasi bag'rida supaga chiqib o'ltirdi. (A.Qod. «M.ch.»).
7. Ko'chada uch kishi turardi: birisi zabardast, pishiq gavdasi, soqoli selkillagan, kelishgan chol, ikkinchisi Jumaboy, uchinchisi yoshroq, keng yag'rinli muloyim xayolchan bir ishchi yigit, cholning o'g'li Sattor edi. (O. «U.y.»).

**4-mashq.** O'qing. Sifatlarni aniqlang, qanday daraja shaklida qo'llanganini ayting. Oddiy, qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlarni uch ustun shaklida yozing, daraja ko'rsatkichi tagiga chizing.

1. Yigitali soddaligiga borib, tuxmat balosidan butunlay qutuldim, deb o'ylayotgan edi. (T.M. «Sh»).
2. Shu so'z bilan birga kichkinagina zanjirining shiriqlab tushgani va eshikning g'ichirlab ochilgani eshitildi. (Ch. «K va k.»).
3. Yomon gap bo'lmasa, nega xafa bo'lay? (S.A. «Ufq»).
4. Ko'ngillari nima istasa shuni qilsinlar, kichikroq xudoyi bo'lsa xudoyi, kattaroq osh bergilari kelayotgan bo'lsa, unga ham yo'l bor, beraversinlar, dedi. (T.M. «Sh»).
5. Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi. (Ch. «K va k.»).
6. Zirillama guzaridagi katta qayrag'och shoxiga ilingan radiokarnay tagiga kuniga to'rt mahal odam yig'iladi. (S.A. «Ufq»).
7. –Hokimingiz juda zolim emish, bu to'g'ri so'zmi? (A.Qod. «O'.k.»).
8. So'ng darvozaning bir tabaqasi mungli ovoz chiqarib qiya ochildida, uzun yengli ko'ylak kiygan keksa ayol ko'rindi. (T.M. «Sh»).

**5-mashq.** O'qing. Qiyosiy darajadagi sifatlar qatnashgan gaplarni ko'chiring.

1. Qiz o'n yetti-o'n sakkiz ko'rgan o'rta bo'yli, bir qadar keng va qoramtir yuzli ko'krakdor to'lagina, lo'ppigina qiz edi, burni bir oz beo'xshovroq esada, lekin uning umuman yuz bichimi kelishgan edi. (O. «Q.q.»).
2. U qattiq yugurib, ayvonga bordi. (O. «Q.q.»).
3. O'sha kuniyoq To'maris urushga yaramaydiganlar panaroq joyga yuborilsin deb buyruq berdi. (M.O. «J.u.b.»).
4. Ko'zlari o'tkir, o'zi dono, ziyrak, shaddod xotin u. (O. «B»).
5. Daraxtlar nafis barglarga burkangan. Shamol mayin va yoqimli. (O. «U.y.»).

**BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Sifatning ta’rifi va so`roqlarini ayting.
2. Sifatning ma’no jihatdan turlarini misollar bilan ko`rsating.
3. Asliy va nisbiy sifatlar haqida gapiring.
4. Sifat darajalari deb... (davom ettiring).
5. Orttirma daraja hosil qilishning leksik va morfologik usullari haqida gapiring.
6. Orttirma daraja hosil qilishning semantik va fonetik usullari haqida gapiring.
7. Qiyosiy daraja qanday ifodalanadi?
8. Ozaytirma daraja qanday yasaladi?

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **8-Ma'vzu** | **Sifatlarning otlanish, sifatlarning yasalishi va tuzilishi yuzasidan mashqlar ishlash** |
| (Amaliy mashg'ulot -2soat) | |
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1.Сифатларнинг отлашиши.<br>2. Сифатларнинг ясалиши.<br>3. Сифатларнинг тузилиши. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Сифатларнинг отлашиши, ясалиши ва тузилиши haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Сифатларнинг отлашиши. | Сифатларнинг отлашиши haqida ma'lumot бериш. |
| Сифатларнинг ясалиши. | Сифатларнинг ясалиши тўғрисида маълумот бериш.. |
| Сифатларнинг тузилиши. | Сифатларнинг тузилиши жиғатдан турлари ҳақида маълумот бериш. |
| **O'qitish vositalari** | O".U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Сифатларнинг отлашиши, ясалиши ва тузилиши mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| | | mazmuni |
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi 3 ta reja va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo'lim (50 min) | 2.1-reja bo'yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma'lumot beriladi.<br>2.3-reja bo'yicha tushincha beriladi. | "Klaster" usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan bilis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O'.U.M asosida. |

**Т а я н ч   и б о р а с и:** 1.Сифатларнинг отлашиши, сифатларнинг ясалиши, сифатларнинг тузилиши.

**6-mashq.** Mashqni o'g'ing. Ajratib ko'rsatilgan sifatlarni ko'chiring, ularning darajasini aniqlang.

1. O'sha kuniyoq To'maris urushga yaramaydiganlar panaroq joyga yuborilsin deb buyruq berdi. (M.O. «J.u.b.»).
2. Hovlisi katta, uylari pastgina (O.»B»).
3. Domla sekin uning yoniga borib, yumshoq va issiq qo'li Saidiyning qo'lini ushladi. (A.Q. «Sarob»).
4. Tepada ko'm-ko'k osmon, atrofda qovjiragan sap-sariq qamish. (S.A. «Ufq»).
5. Ular Obimashhad arig'i bo'yida yam-yashil maysalarga tiz cho'kdilar (M.Ali «S»).
6. Yerda katta yengil gilam, devorlarda suratlar, o'rtada katta stol, dasturxon, stol to'la noz-ne'mat, ichkilik…? (Ch. «K vak.»).
7. Qop-qora, is bosgan shipidan qamishlar osilib yotardi. (O. «Q.q»).
8. Ammo Ra'noning ismi-jismiga yoxud husniga juda muvrfiq tushgan edi. (A.Q. «M. ch.»).

**7-mashq.** Berilgan gaplar ichidan orttirma darajadagi sifatlarni ajratib olib ko'chiring.

1. Uy jihozga g'oyatda boy, go'yo muzeyxona tusini berar edi. (A.Qod. «O'.k.»)

2. Endi hamma iztiroblar – orqada hamma qora kunlar – o’tdi. (Ch. «K va k»).
3. Nomer egasi Miryoqubni yaxshi taniydi, uning juda mulkichpisand gumashta, injiq xaridor, zavqi qayrilgan shinavanda ekanini yaxshi biladi. (Ch. «K va k»).
4. Shunda yaroqsiz novdalarning hammasi yirik-yirik qizil gullar bilan qoplanadi. (P.Q. «H va A»)
5. O’zim ko’rmadim, - dedi Oftob oyim, qarag’anda uxshamsiz ko’rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish. (A.Qod. «O’.k.»).
6. G’alati ahvolga tushib qoldim men. (Ch. «K va k.»).
7. Havo bulut, achchiq sovuq yel to’rt tomonga yugurar, onda-sonda qor uchqunlarini quvalab, ziriqtirar edi. (A.Qod. «O’.k.»).
8. Mingboshi dodhohning xotinlari shunaqa yolvorishlariga juda balanddan turib qarardilar. (Ch. «K va k.»).

**8-mashq.** O’qing. Ozaytirma va kuchaytirma sifatli gaplarni ikki ustun shaklida ko’chirib yozing.

1. U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo’lsa, bu xushqad, xushsurat, uning vujudidan vulqonga xos kuch-g’ayrat va shiddat yorishib turardi. (O.Yo.«O.q.o.q.»).
2. Qizlar o’zlarini tappa-tappa aravadan tashlab eshikdan ichkariga kirarkan, Zebi sekingina kampirni o’yg’otdi. (Ch. «K va ka»).
3. Ularni nimqorong’u, dim, sassiq bir narsaning hidi kelib turgan bir xonaga kiritishdi. (T.M. «Sh»).
4. Sal kunda qop-qora sochlar oq kaptarning patidek bo’lib ketdi. (A.Qod. «O’.k.»).
5. Xumkalla hayallamay, tezgina yaqinlashdi. (T.M. «Sh»).
6. Kuyovning og’zi- burni qop-qora qon bo’ldi. (S.A. «Ufq»).
7. Mirkarimboy astagina o’rindan turdi. (O. «Q.q»).
8. Ayvonda bosma gulli bo’z ko’rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o’tirardi. (O. «U.y.»).

**9-mashq.** O’qing. Sifat yasovchi qo’shimchalarni topib, tagiga chizing.

1. Fotih sershovqin, serzavq sheriklari davrasida, o’sha joyga o’tarkan, Behzodni ko’rib qolib, bilinar-bilinmas bosh irg’ab salom berdi. (O.Yo. «Oq.o.q.).
2. Shu uchun kunduzlarni juda besaranjomlik bilan o’tkazib kech kirganda entika-entika ichkaridan sevinch xabarini kutardi. (Ch. «K va k»).
3. –Yo’q!- javob berdi yigit asabiy tovushda. (O. «u.y.»).
4. To’lqin bemavrid kirganini fahmlab, qanday turib ketishini bilmay qolgandi. (T.M.).
5. Azizxon juvonning ko’ngilida nimalar kechayotganidan bexabar edi. (S.A «Ufq»).
6. Mehmonlar o’rinlaridan turib, kiyinib gulzor atrofida o’zaro gaplashib, kulib beparvo yurishar edi. (O. «Q.q.»).
7. U o’rnidan turib beixtiyor tatar ona ip yigirayotgan tomonga yura boshladi. («Jimj»).
8. Shu choqqacha mung’ayib o’ltirgan Oftob oyim yalt etib eriga boqdi, yana cheksiz bir mehribonchilik nazari bilan Otabekga qaradi. (A.Qod. «O’.k.»).

**10-mashq.** Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga sifat yasovchi qo'shimchalarning mosini qo'yib ko'chiring. (be-, ba-, -siz, -day, ser, -li.).

1. Faqat erining shaharga ketib, ….darak yo'qolganiga achinardi. (Ch. «K va k.»).
2. U …. savlat, …pul shoir, kechqurun ham kelmadi. (A.Q. «Sarov»).
3. Ikromjon yig'lardi-yu, bu… davo darddan qutilish ilojini ham qidirib ko'radi. (S.A. «Ufq»).
4. Balki, muhabbat baxt.. kishilar uchun yaxshidir, lekin tajribamga baxt… kishi uchun badbaxtlikdir. (A.Q. «O'.k.»).
5. Anvarning bosh munshiylikka yaramaydirg'anini, ilm…, fazl..ligini bunga isbot qilishga tirishadi. (A.Qod. «M.ch.»).
6. O'zi o'sha odam ham ayiq… ekan-a, zo'rg'a tutdik-so'radi birinchisi sherigidan. (M.A. «S»).
7. Dahshat.. xabar kelgan kunning ertasiga To'maris tajriba.. urug'doshlarini to'plab, kengash o'tkazdi. (M.O «J.u.b.»).
8. Bir nafaslik yo'lingga to'g'on bo'ldi. (T.M. «Sh»).

| Sifat tahlili namunasi | |
|---|---|
| 1. So`rog`i.<br>2. Darajasi.<br><br>**3. Ozaytirma sifatmi yoki kuchaytirma sifatmi?** | 4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.<br>5. Tuzilish turi.<br>6. Tub yoki yasamaligi.<br>7. Gapdagi sintaktik vazifasi |

## BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Otdan yasalgan sifatlarga 5 ta misol keltiring.
2. Fe'ldan yasalgan sifatlarga 5 ta misol keltiring.
3. Boshqa so`z turkumlaridan yasalgan sifatlarga 3 ta misol keltiring.
4. Qo`shma sifatlar qanday yasaladi va yoziladi?
5. Juft sifatlar qanday yasaladi va yoziladi?
6. So`zlarni takrorlab yasalgan sifatlarga misollar keltiring.
7. Otlashgan sifatlar qanday qo`shimchalarni olishi mumkin?
8. Qaysi turkumdagi so`zlar sifat o`rnida qo`llanadi? Misollar keltiring.
9. Qo`shma sifatlar qanday so`zlardan iborat bo`ladi?
10. Birikmali sifatlar haqida gapiring va misollar keltiring.
11. Juft sifatlarning turlariga misollar keltiring.
12. Boshqa so`zlarning sifat o`rnida qo`llanishiga misollar keltiring.

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **9-mavzu** | **Son, so'zlarning grammatik ma'nosi, morfologik va sintaktik vaziflari bo'yicha mashqlar bajarish** |
| (Amaliy mashg'ulot 2soat) | |
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Соннинг морфологик, синтактик вазифалари ва маъно жиҳатдан турлари.<br>2. Сонларнинг отлашиши.<br>3. Сонларда ҳисоб сўзлари.<br>4. Сонларнинг тузилиш. |

| | |
|---|---|
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Соннинг морфологик, синтактик вазифалари ва маъно жиҳатдан турлари шунингдек, отлашиши, ҳисоб сўзлари, тузилиши haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Соннинг морфологик, синтактик вазифалари ва маъно жиҳатдан турлари. | Соннинг морфологик, синтактик вазифалари ва маъно жиҳатдан турлари haqida ma’lumot бериш. |
| Сонларнинг отлашиши. | Сонларнинг отлашиши ҳақида маълумот бериш.. |
| Сонларда ҳисоб сўзлари. | Сонларда ҳисоб сўзлари ҳақида маълумотга эга бўлиш. |
| Сонларнинг тузилиш. | Сонларнинг тузилиш жиҳатдан турлари ҳақида маълумот айтиш. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Сон – сўз туркуми mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 4 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi.<br>2.4-режа бўйича маълумот айтилади. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis | Baholash mezoni |

| | | |
|---|---|---|
| Yakunlovchi (10 min) | so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O'.U.M asosida. |

**Т а я н ч  и б о р а с и:** Соннинг морфологик, синтактик вазифалари ва маъно жиҳатдан турлари, сонларнинг отлашиши, тузилиши, ҳисоб сўзлар.

**1-mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga sonlardan mosini qo'ying, gaplarni to'ldiring va ko'chiring.

1. Yomonlikni ko'p qilgani uchun Zahhokning ikki yelkasidan … ilon o'sib chiqishdir. (P.Q. «H va A» 568-b).
2. Muborakxon hovli to'ridagi kattaroq uyda … bolasi bilan yotardi. (T.Mah. «O.d.»172-b)
3. ….. xotinidan bola bo'lmagan ekan, ikki-uch yil umr qilishganlaridan keyin xotini o'lib ketgan. (Ch. «Yana oldim s.» 60-b)
4. –Mashinasini o'g'irlatganida….-….sassiq gap aytuvchi esingdami? (T.M. «Sh»)
5. ….. ishni chala qilibmiz, shoshma! (S.A. «Ufq»299-b)
6. Hullas, u qilib, bu qilib Rasul Moskvaga ketdi, bu … yildan keyin u yerdan kandidat bo'lib qaytdi. (O.Yo. «O.q.o.q.»177-b)
7. –Bekka umr bersa, bu yil hamduna bo'lsa, to'ppa-to'g'ri …. Ishga qadam qo'yadilar. Yigirma…. Mayda bu yerga kim bilan kelgansan, nima ish qilgansan? (T.M. «Sh» 134-b)
8. Shoqosim… xotining jahli chiqsa, ….. rahmi kelganidan yuragi zirqiradi. (O.Yo. «O.q.o.q.» 96-b)

**2-mashq.** O'qing. Gaplarda berilgan sonlarning ma'no turlarini aniqlang.

1. «Bir, ikki, uch, to'rt… bir yuz sakson… bir yuz sakson sakkiz… ikki yuz … uff» deb yerga avval ikkala tuzasi bilan cho'kkalab keyin orqasidagi qopni tushirardi. (T.Mah. «O.d.»)
2. Har bir oila, garchi ro'zg'or boshlig'ini bo'lsa ham, bitta ketmon bilan xon tayin qilgan joyga yo'llay boshladi. (A.Qod. «M.ch.» 386-b)
3. O'z g'amiga bandi bo'lib u ham yigitalining birga yurganiga e'tibor bermagan edi. (T.M. «Sh»)
4. Iloji bo'lsa 150-200 metrdan baland uchmang. (O.Yo. «O.q.o.q.»)
5. Miryoqub ikkita edi: biri qochdi, biri quvladi. (Ch. «K va k.»)
6. Ikkisi necha yillik qadrdon kabi samimiy ko'rishdilar. (A.Q. "M.ch.")
7. Oftob oyim endi ikkinchi turlik yo'l bilan ketdi. (A.Qod. «O'.k.»)
8. Ko'p bo'lsa, yigiirma besh yillarda bulur, bo'lmasa  ikki,- yigirma ulardan oshqon emas! (A.Qod. "O'.k.")

**3-mashq.** O'qing. Berilgan gaplar ichidan jamlovchi son ishtirok etkan gaplarn ko'chirib yozing.

1. Ikkala o'rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland ovozlari boshqa unlarni bosib ketdi. (Ch. «K va k.» 41-b).

2. –O’n olti yoshda Mirobid o’g’il ko’rdi-a. Tavba! (O. «Q.q.» 204-b).
3. Ikkovi ham kim oldin so’z ochishini kutib, to’mtayib o’tirishardi. (Ch. A. «A.t.k.» 222-b).
4. To’rt yoshga kirgan Shero’g’lonning tobora sho’xi chiqib borardi. (M.A. «S» 202-b).
5. Ol, bir shodasini taqib ko’r. (O. «Q.q» 194-b).
6. Endi ikkovi ham churq etmasdan o’z hayollariga band sukutda o’tirishardi. (O. «U.y.» 144-b).
7. –Mahallamizda yuz ellikta uy bor, - o’tirar-o’tirmas gapni ishdan boshladi Usta kulol – ko’pchiligi kulollar. (M.A. «S» 194-b).
8. Shom tushganda uchovlon va yettinchi bir joyga to’plandilar. (Ch.A. «A.t.k.» 335-b).

**4-mashq.** O’qing. Nuqtalar o’rniga qo’shimchalardan mosini qo’yib ko’chiring.(-ta, -inchi, -nchi, -tacha, -larcha, -lar, -lab, -ov, -ala, -ovlon, -ala).

1. Ishtaha bilan ketma-ket bir-ikki … somsa yedi. (O. «U.y.»).
2. Devonda rasmiy Mirzo bo’limning uch … yilida Anvar juda katta e’tibor qozongan edi. (A.Qod. «M.ch.»).
3. Abdusamat bir o’n… xotin oldi. (I. «Ya.o.soz.»).
4. Bulardan bir.. muhtaram shu masjidning yosh imom va xotibi Abduraxmon domla bo’lib… . (A.Qod. «M.ch.»).
5. Bir ko’zini o’yib olib, ikki… ko’ziga chang solgan qora bulut! (O.Yo. «Ul.x.»)
6. Bu rasta ikki tomonda, besh-oltitadan katta do’kon bo’lib, tor yo’l bilan bazzozlikka, shohifurushlik rastasiga tutashar edi. (O. «Q.q.»).
7. Ikki… hurliqo bor. (O. «Q.q.»).
8. Uch…i ham fotihaga yuz siypashgan edilar, yana atrofni gurr etgan kulgi bosdi. (A.Q. “M.Ch”.)

**5-mashq.** O’qing. Tartib soni ishtirok etkan gaplarni topib, sonning gapdagi vazifasini ayting.

1. Eshik oldida ikki-uch kishining qorasi ko’rindi. (S.A. «Ufq»).
2. Hali birinchi qotillik ildiziga bolta urmay turib ikkinchisi mana men deb turibdi. (T.M. «Sh».).
3. Sodiq ikkilanib javob berdi: - Man keyinroq boraman. (A.Q. «O’.k.»)
4. Shorahim buni o’g’li kasalxonaga tushganining uchinchi kuni bildi. (O.Yo. «O.q.o.q.»)
5. Hojatxonaning bir tomoni jarlik, ikkinchi tomonida molxona. (T.M. «O.d.»)
6. Undan beri ikki yuz yilmi, uch yuz yilmi, besh yuz yilmi balki undan ham ko’p vaqt o’tgandir, kim bilsin, biroq Sario’zoq cho’lida Oqmoyaning pasli davom etib kelayotir. (Ch. A. «A.t.k.»)
7. Qars ikki qo’ldan chiqar ekan, ikkalamiz bir bo’lsak Sultonni tuzlaymiz. (Ch. «K va k.»).

## BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Qanday so`zlarga son deyiladi?

2. Sonning nomini bildiradigan sonlar qanday qo`shimchalarni olishi mumkin?
3. Narsa-buyumlarning son-sanojini bildiradigan sonlarni so`zlarga bojlab 5 ta misol keltiring.
4. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanadi?
5. Nutqimizda tez-tez qo`llanadigan 23 ta sodda sonni birma-bir sanang.
6. Eskirgan sonlarga misol keltiring.
7. Butun va kasr sonlarning o`zaro farqini tushuntiring.
8. Kasr sonning turlari haqida gapiring.
9. Aralash sonlar haqida gapiring.
10. Miqdor sonlar haqida gapiring.
11. Hisob so`zlarining ma'no guruhlari haqida gapiring.
12."Bir" so`zining qanday ma'nolari bor?
13. Dona va tartib sonlar haqida gapiring.
14. Chama sonlar qanday hosil qilinadi?
15. Jamlovchi sonlar qanday hosil qilinadi?
16. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi?
17. Ot, sifat turkumidan yasalgan sonlarga 4 ta misol keltiring.
18. Otlashgan sonlar qanday qo`shimchalarni oladi?
19. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari haqida gapiring.
20. "Beshtacha kitob" birikmasidagi sonni yoddan to`liq tahlil qilib bering.
21. Omonimlik xususiyatiga ega bo`lgan sonlar haqida gapiring.
22. Sinonimlik xususiyatiga ega bo`lgan sonlar haqida gapiring.

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| **Bilaman** | **Bilishni xohlayman** | **Bilib oldim** |
|---|---|---|
| | | |

| | | |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **10-Ma’vzu**<br><br>(Amaliy mashg’ulot -2soat) | **Olmosh, olmoshlarning grammatik ma’nosi, morfologik va sintaktik vazifalariga oid mashqlar ishlash** |
| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg’ulot rejasi** | 1. Олмошнинг морфологик, синтактик вазифалари.<br>2. Олмошнинг маъно жиҳатдан турлари.<br>3. Олмошларнинг тузилиши. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Олмошнинг морфологик, синтактик вазифалари ва маъно жиҳатдан турлари шунингдек, тузилиши haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Олмошнинг морфологик, синтактик вазифалари. | Олмошнинг морфологик, синтактик вазифалари haqida ma’lumot бериш. |
| Олмошнинг маъно жиҳатдан турлари. | Олмошнинг маъно жиҳатдан турлари ҳақида маълумот бериш.. |
| Олмошларнинг тузилиши. | Олмошнинг тузилиши жиҳатдан турлари ҳақида маълумот айтиш. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Олмош – сўз туркуми mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Инсерт” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**Т а я н ч  и б о р а с и:** Олмошнинг морфологик, синтактик вазифалари, маъно жиҳатдан турлари ва тузилиши.

**1-mashq.** O’qing. Berilgan gaplarni ko’chiring, olmoshlarni aniqlab, tagiga chizing.

1. Siz nima deb o’tiribsiz?! Zebixonning ovozi, ashulalari undan kattaroqlarni ham sudrab keltiradi. (Ch. «K va k.»)
2. Biz endi shunga majburmiz, qizim – dedi Hasanali. (A.Qod. «O’.k.»)
3. Bu ham oson deb kuldi Anvar men yo’q vaqtdan foydalanib, yurak bo’shatar edilar. (A.Qod. «M.ch.»)
4. Men ham odamlarga o’xshab, ota – onamning bag’rida yashaganimda, bunaqa bo’lmasdim. (T.M. «Sh»)
5. U og’zining taxir bo’lib ketganini, lablari quruqshab, tili og’zida yaxshi aylanmay qolganini endi sezdi. (P.Q. «H va A»)
6. Edigey Bo’ron o’sha voqeadan  so’ng bir necha muddat xomush bo’lib yurdi. (Ch.A. «A.t.k.»)
7. Hech kim qimirlamadi. (Ch. «K va k.»)
8. Bolalar hammasi boqqa qo’ngan, yolg’izman aylanay, - javob berdi kampir qizaribgina! (O. «O’.y.»)

**2-mashq.** O’qing. Nuqtalar o’rniga olmoshlardan mosini qo’yib ko’chiring.

1. …go’yo qish kuni muzni yorib yalang’och holda suvga tushgan kabi ishdan sovuqdan yorilgan qo’llari qamchini bazo’r tutar edi. (O. «Q.q.»)
2. …uydan pul kelmadi, aravamni o’zim tortishim kerak. (T.M. «Sh»)
3. Onam …qizil, oq yo’lli tikgan uzungina, kengina ko’ylak kiydirdi. (O. «B»)
4. …darrov o’yinga tushaman, ermak axtara boshlayman. (O. «B»)

5. …to'xtab turingchi uka! Dedi va dehqon narida to'xtadi. (A.Qod. «M.ch.»)
6. …O'zining nafis zavqiga barobar ishqini gapiradi. (O. «U.y.»)
7. …keksalarning hammasiyam o'zimizdan topiladi. (A.Qod. «M.ch.»)
8. …Arzir-arzimas narsa ustida minut sayin talashib – tortishar edilar. (O. «Q.q.»).

**3-mashq.** O'qing. Berilgan gaplarni ko'chiring, olmoshlarning ma'no jihatdan turlarini aniqlang.

1. Shu yerga kelganda Xadichaxon ko'ziga yosh oldi, shapaloq gulli obiravon ko'ylagining uzun yengi bilan ko'zlarini artdi. (Ch. «K va k.»).
2. Jadidlarning bir nechasi bir ovozdan ma'qullaydi. (O. «U.y.»)
3. Men uyimni ko'rgani kelganim yo'q, zarur ishim bor senda, dedi Xovuz polvon. (T.M. «Sh»2.)
4. Gulnor o'z dadasini tovushini bazo'r ayira bildi. (O. «Q.q.»)
5. Bu so'z Sultonali mirzoning boyagi fikriga qarshi so'zlagandek tushdi. (A.Qod. «M.ch.»)
6. Men ba'zan hamma narsadan bezib ketaman. (T.M. «Sh»)
7. Yaxshilik qilgan kishingdan hech bir yaxshilik qaytmas ekan, - dedi Mmashqmonqul. (A.Qod. «O'.k.»)
8. Har yelkasiga ikkitadan odam o'tirsa sig'adigan norg'ul navkor bakovul sudrab keltirdi.

**4-mashq.** Ko'chiring. Kishilik olmoshlarini aniqlang.

1. U ketgach, Elchin yumshoq o'rindiqqa yastanib, ko'zi ilinibdi. (T.M. «Sh»).
2. O'zingni himoya qilishingni ham birov aytib, turish kerakmi? - dedi Chuvrindi. (T.M. «Sh»)
3. O'zing-chi, joningni saqlab qolgan odamga xayr demay ketmoqchisan-ku? (T.M. «Sh»)
4. Men ertaga, to'yimiz ko'klamda bo'lsin deb javob aytaman. (A.Qod. «O'.k.»).
5. Men adashmay ketay, juda uyat bo'libdi-da, hali men mahdum pochchaning hovlilariga kirdimmi? …..Siz kimlari ? (A.Qod. «O'.k.»)
6. O'zi ham yolg'iz o'g'il-so'zga aralashdi terifurush boyvachchaning yonida o'tirgan boshqa yigit, g'ajib tashlangan oshiqday ko'rimsiz bo'lsa ham hamisha saman otda yurardi, mag'rur yigit. (O. «O'.y.»)
7. – Sen uqub ololmadingmi, attang, attang…. (A.Qod. «M.ch.»).

**5-mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshidan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Xotin …. hali eshikdagi sovchilardan xabarsizdirsan? – dedi. (A.Qod. «O'.k.»).
2. Kimning qizi emish-? (A.Qod. «O'.k.»).
3. ….. bir zum qotib, bo'zarib qolaman (O. «B»)
4. ….. shaftolini ko'zdan kechiramiz. (O. «B»)
5. O'zi … bu yoqda qanday bo'lar ekan deb turibmiz. (Ch. «K va k.»)
6. ….. bechoralarga ham bir narsa uzatsinchi!-deb qolishibdi. (Ch. «K va k.»).
7. ….. bobamga javob bermaydi. (O. «B»).
8. - …..aralashmagan shu epaqaga kelmaydi. (Ch. «K va k.»).

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Olmosh deb qanday so`zlarga aytiladi?
2. Olmoshlarning grammatik xususiyatlarini sanab ko`rsating.
3. Kishilik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
4. O`zlik olmoshi va uning xususiyatlari haqida gapiring.
5. Ko`rsatish olmoshlari va ularning ususiyatlari haqida gapiring.
6. So`roq olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
7. Belgilash olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
8. Bo`lishsizlik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
9. Gumon olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
10. Olmoshlar bilan bojliq tovush o`zgarishlari haqida gapiring.
11. Qaysi turkumga oid so`zlar olmoshlarga ko`chadi?
12. Olmoshlarning tuzilish turlari haqida gapiring.
13. Turlanadigan olmoshlar haqida gapiring.
14. Turlanmaydigan olmoshlarga misollar keltiring.
15. Omonim xarakterdagi olmoshlar haqida gapiring.
16. O`zaro sinonim bo`la oladigan olmoshlar haqida gapiring.
17. **–lar** qo`shimchasi qo`shilganda kuchaytirish ma'nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
18. **–lar** qo`shimchasi qo`shilganda kinoya ma'nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
19. **–lar** qo`shimchasi qo`shilganda hurmat ma'nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
20. Qaysi olmoshlar daraja ko`rsatkichlarini olishi mumkin?

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| **Bilaman** | **Bilishni xohlayman** | **Bilib oldim** |
|---|---|---|
| | | |

| | | |
|---|---|---|
| | | |

## II ЯРИМ ЙИЛЛИК

**1-МАВЗУ** **Fe'l, fe'lning grammatik xususiyatlari va bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga oid mashqlar bajarish, tahlil qilish**

(Amaliy mashg'ulot - 2 soat)

**1.1Ma'ruzani olib borish texnalogiyasi**

| | |
|---|---|
| ***O'quv soati -2 soat*** | Talabalar soni 25 ta |
| ***O'quv mashg'ulot shakli*** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1.Феълнинг грамматик, морфологик хусусиятлари ва синтактик вазифлари.<br>2. Феълнинг маъно жиҳатдан тулари.<br>3. Бўлишли ва бўлишсиз феъллар.<br>3.Ўтимли ва ўтимсиз феъллар. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi*** | Феълнинг грамматик, морфологик хусусиятлари, синтактик вазифлари, маъно жиҳатдан турлари |

| | |
|---|---|
| | шунингдек, бўлишли, бўлишсиз феъллар, ўтимли ва ўтимсиз феъллар yuzasidan to'liq ma'lumot berish. |
| ***Pedagogik vazifalar:*** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Феълнинг грамматик, морфологик хусусиятлари ва синтактик вазифлари. | Феълнинг грамматик, морфологик хусусиятлари ва синтактик вазифлари haqida tushincha beriш. |
| Феълнинг маъно жиҳатдан тулари. | Феълнинг маъно жиҳатдан тулари ҳақида маълумот айтиш. |
| Бўлишли ва бўлишсиз феъллар. | Бўлишли ва бўлишсиз феъллар ҳақида маълумот айтиш. |
| Ўтимли ва ўтимсиз феъллар | Ўтимли ва ўтимсиз феъллар *тўғрисида* tushunча бериш. |
| ***O'qitish vositalari*** | O'UM ma'ruza matni, doska, bo'r va latta |
| ***O'qitish usullari*** | Axborotni ma'ruza, blis-so'rov, pog'ona texnikasi, aqliy hujum |
| ***O'qitish shakllari*** | Frontal, kollektiv ish |
| ***O'qitish sharoiti*** | Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya |
| ***Monitoring va baholash*** | Og'zaki savollar, blis-so'rov |

**Феъл – сўз туркуми mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi 3 ta savollarni va o'quv faoliyati natijalarini aytadi<br>1.2. Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujum usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtirish<br>1.4. Mavzuni jonlantirish uchun savollar beradi (2-ilova) | Tinglaydilar |

| | | |
|---|---|---|
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1.1-Reja bo’yicha mini ma’ruza qilinadi<br>2.2.Ma’ruza rejasining ikkinchisiga tushunchalar aytiladi.<br>2.3.Uchinchi reja yuzasidan ma’lumotlar beriladi. | Tinglaydilar<br><br>Tinglaydilar savollarga javob beradilar.<br>O’.U.Mga qaraydilar “Pog’ana” usulida bajariladi<br><br>Tayanch tushincha va iboralar muhokama qilinadi. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**Т а я н ч  и б о р а л а р и:** Феълнинг грамматик, морфологик хусусиятлари ва синтактик вазифлари, феълнинг маъно жиҳатдан тулари, бўлишли ва бўлишсиз феъллар, ўтимли ва ўтимсиз феъллар.

**1-mashq.** O’qing. Berilgan gaplardagi bo’lishsiz fe’llarni bo’lishliga aylantirib ko’chiring.

1. Bahslashish uchun Hamidga yo’l qolmagan edi. (A.Qod. «O’.k.»).
2. Keldi – ketdi bo’lib Nizomjon uch-to’rt kun Dildor bilan bafurja uchrasholmadi. (S.A. «U»).
3. -Senga nima bo’ldi, uka, tobing aynib qolmadimi? (S.A. «U»)
4. Yo’lchi chakki odamlarni topmadi. (S.A. «U»).
5. Dildor bu to’g’rida o’ylab ko’rmagan edi. (S.A. «U»).
6. Zebi otasining kelganini payqamagan edi. (Ch. «K va k.»)
7. Hasanali Otabekning yo’q degani bilan qanoatlanmaydi. (A.Qod. «O’.k.»)
8. Uchala xotin ham bu yukning nimaligini anglab yetolmadilar. (Ch. «K va k.»)

**2-mashq.** O’qing. Berilgan gaplardan bo’lishsiz fe’llarni aniqlang.

1. Non- nasibang bizda bo’lsa qolarsan, bo’lmasa qishlog’ingga boshqa tomongami jo’narsan. (O. «Q.q.»).
2. Kumushni mehmonxonada qoldirib onasi chiqdi. (A.Qod. «O’.k.»)
3. Hozirgidek andishaga tushmagan va bunchalik diqqat etmagan edi. (A.Qod. «O’.k.»)
4. Uy ichi suv quyganday jimjit edi. (O. «B»)

5. Har xil og'ir yumushlarni qilib o'rgangan bo'lsa ham, to'nka kovlamagan edi. (O. «Q.q.»)
6. Suhbat cho'zilmadi. Ular zavoddan gaplasha boshladi. (O. «U.y.»)
7. Saidahmad ichkari kirishni xohlamadi. (O. «U.y.»)

**3-mashq.** O'qing. Fe'llarga so'roq bering. O'timsiz fe'llarni toping.

1. U Jomeda o'tirganida bugun oldiga Eshonxon kelganini aytdi. (O. «U.y.»).
2. Xotini burilib ketganidan so'ng, so'fi ham so'zlashdan to'xtadi. (Ch. «K va k.»)
3. Ali Qushchi suyukli shogirdi miram Chalabiyni tanib, yelkasidan qoqdi. (O.Yo. «Oq.o.q»)
4. Qizlardan javob kutib o'tirmasdanoq Saltanat o'zi boshlab yubordi. (Ch. «K va k.»).
5. Mirzo Ulug'bek qo'lini shogirdining yelkasiga qo'ydi. (O. «U.x.»).
6. Temur Malik xomush, boshi quyi, bu gaplarni tinglardi. (M.R. «N»).
7. Keksa Muniy orqasiga o'girilib indamay chiqib ketdi. (M.T. «M»)
8. Solih mahdum go'shtni Nigor oyimning yoniga qo'yib, o'zi zina bilan ayvonga chiqdi. (A.Qod. «M.ch.»).

**4-mashq.** O'qing. Fe'l nisbatini yasovchi qo'shimchalarining tagiga chizing.

1. Xaloyiq! Yaqin-yaqin kelib imom domlaning gapimga quloq soling (Ch. «K va k.»).
2. Otabek Oftob oyim bilan ko'rishdi. (A.Qod.«O'.k.»).
3. Madrasada ko'rarman deb o'ylagan edim janoblarini –dedi Saidahmadxon qoriga qarab (O. «U.y.»).
4. Tog'a bir yutinib oldi-da, Ikromjonning yuziga emas, qo'ltiqtayoq teshib yuborgan joyiga qarab gapini davom ettirdi. (S.A. "Ufq")
5. Kumushbibi uyning to'riga o'tqazildi. (A.Qod. «O'.k.»)
6. Hokimiyatda bo'shanglar paydo bo'lsa tamom qo'y po'stini yechiladi. (T.M. «Sh»).

**5-mashq.** O'qing. Quyidagi gaplardan o'zlik nisbati ishtirok etgan gaplarni topib ko'chiring.

1. Bibi Yulduz erkalanib yuzini ters burdi (O.Yo. «U.x.»).
2. Agar bu uyga kirib, bu maxsus a'zolarini bir marotaba ko'zdan kechirsangiz, hozirdanoq aytib qo'yish mumkin-ki, albatta esingiz chiqib ketar. (A.Qod. «O'.k.»).
3. Ali Qushchi ustaloarning ishlariga razm solib ular bilan suhbatlashib o'tirishni yaxshi ko'rar edi. (O.Yo. «U.x.») .
4. O'zi butun muddatli qiyofasi bilan yonidagi barcha ayonlardan ajralib turadi. (O.Yo. «U.x.»).
5. Dutor yoniga childirmaning chertmagi kelib qo'shilgandan keyin bazm tag'in ham jonlandi. (O.«Q.q.»)
6. Xonbobo durustroq bir joydan qarorgohga o'rin tanladi. (P.Q. «H va A»)
7. Ular daryo yoqasiga kelib jimirlab buralib oqayotgan Sayhunga soatlarcha tikilishar. (Mir. «T.M.»)

8. Salohiddin zargoh xuddi o’g’lini uradiganday mushtini tugib uning yoniga keldi. (O.Yo. «U.x.»)

**BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Fe’lning so`roqlari va grammatik xususiyatlari haqida gapiring.
2. Bo`lishli fe’llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
3. Bo`lishsiz fe’llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
4. O`timli fe’llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
5. O`timsiz fe’llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **2-Ma'vzu** | **Fe'l nisbatlari. Fe'l mayllari va ularning o'ziga xos xusustyalari. Fe'l zamonlari va ularning turlari. Fe'lning tuslanishiga oid mashqlarni ishlash** |
| (Amaliy mashg'ulot 4 soat) | |
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Феъл нисбатлари.<br>2.Феъл майллари.<br>3. Феъл замонлари. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Феъл нисбатлари, майллари, замонлари ва уларнинг турлари haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| 1. Феъл нисбатлари. | Феъл нисбатлари ва уларнинг турлари haqida ma'lumot бериш. |
| 2.Феъл майллари. | Феъл майллари ва уларнинг турлари ҳақида маълумот олиш. |
| 3. Феъл замонлари. | Феъл замонлари ва уларнинг турлари ҳақида маълумот айтиш. |
| O'qitish vositalari | O".U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Феъл нисбатлари, майллари, замонлари ва уларнинг турлари mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O’.U.M asosida. |

**Т а я н ч   и б о р а л а р и:** Феъл нисбатлари, феъл майллари, феъл замонлари.

**6-mashq.** Majhul nisbatdagi fe’lli gaplarni ko’chiring.

1. Cho’vak yuzli siyrak sarg’ish mo’ylovli irjaygan quvgina yigitga bir oz tikildi-da, boshini asta quyi soldi va ichida xo’rsindi. (O. «Q.q.»)
2. Qorong’uda ancha vaqtlarcha uning yo haq, yohu degani eshitilib turdi. (S.A. «Ufq»).
3. Kumushbibi qizarindi. (A.Qod.«O’.k.»)
4. Zelixon yana jimib qolgan Ismoilbeyning yoniga yaqinroq surildi. (T.M. «Sh»).
5. Abu Bakr Kalaviy uni muhum bir narsani aytmoqchi ekaniligini, bekorga uyiga taklif qilmaganligini sezardi, shuning uchun o’rtaga gap qo’shmaslikka urinardi. (M.Ali. «S»)
6. Hamma to’planib qadahlar to’ldirildi. (T.M. «O.d.»).
7. Anvarning qo’ltig’i ostidan arqon solini bog’landi. («M.ch.»).
8. Yigitlarning hammasiga soldat beshotari berildi. (Ch. «K va k.»).

**7-mashq.** Orttirma nisbatdagi fe’llarni ko’chirib, orttirma nisbat hosil qiluvchi qo’shimchalarning tagiga chizing.

1. U belkurak bilan otgan tuproq to’rt metr balandlikdagi supaga borib tushar, u yerdagi uch yigit pastdan irg’itilgan tuproqni kurak bilan yana uch yarim metr balandlikka otardi. (S.A. «U»)

2. Mehmonxona sahnida kutib o’tirgan yigitga o’z qo’li bilan adras to’nni kiydirdi. (A.Qod. «M.ch.»)

3. Bundan so’ng ham bosh mirzangizni emas Mirza Anvaringizni extiroli qilarsiz. («M.ch.»)

4. Al-Farobiy masalani barchaga tushuntirib beribdi. (M.A. «S»)

5. Ovqatingni tezlat xotin arpa ugra bo’lsa ham, qorin to’ysin. (O. «U.y.»)

6. Aylanay qizim, bu gapni sizga qandoq qilib eshittirishga hayronman. (Ch. « K va k»).

7. Jodida beda qirqar ekan, Yormat keldi. (O. «Q.q.»).

8. To’xta – haydama – dedi g’ilay Shomil ke bratishka o’tir. (T.M. «Sh»).

**8-mashq.** Fe’lning zamon va shaxs qo’shimchalarini toping.

1. Vafosizga men o’zimning bu maktubimni ko’z yoshlarim bilan yozaman. (A.Qod. «O’.k.»)
2. Men bo’lsam sizni farosatli yigit deb ergashtirib yuribmana. (O. «U.y.»)
3. Dasturxon shoxona ko’rinish olgach, mezbon yana ta’zim bilan paydo bo’lib shishalarning qopqog’ini ochmoqchi bo’ladi. (T.M. «Sh»).
4. - Qachon kelib eding? (Ch. «K. va k.»)
5. Do’nglikdan ikki qadam narida Ahadbey turardi. (T.M. «Sh»).
6. Abdukarim akaning gapidan men o’zimni tutib turolmadim.
7. Undan keyin katta keliningiz o’g’lingizning ko’z ochib ko’rgani. (A.Qod.»O’.k.»)
8. Mana, Abdullaxo’ja advokat nutq so’zlamoqda. (O. «U.y.»)

**9-mashq.** O’qing. Ushbu gaplardagi fe’llarning zamonlarini aniqlang.

1. Chiroyli ko’zlar atrofini ajin qoplaganini endi ko’rdi. (T.M. «Sh»).
2. Endi to’yni qovun pishig’ida qilamiz. (T.M. «Sh»).
3. Kalishlarimni oyog’imga nari-beri ilib, o’rab qochaman. (O. «B»).
4. Mirzo Ulug’bek qo’llarini ko’ksida qovushtirganicha osmonga tikilib uzoq turdi. (O.Yo. «U.x.»).
5. Miram Chalabiy qiblaga qaraganicha ko’zlarini yumib, lablari pichirlab, qasamyod o’qidi. (O.Yo. «U.x.»).
6. Bir kuni sizni Saidahmadxonnikiga olib boraman. (O. «U.y.»).
7. Yo’lingizga qarayverib o’lib bo’ldim, arpa unidan xamir qordim. (O. «U.y.»).
8. Ra’no o’pka bilan Anvarga qaradi va ichkariga jo’nadi. (A.Qod. «M.Ch.» ).

**10-mashq.** Gaplarni ko’chiring. Buyruq – istak fe’llarining tagiga chizing.

1. Jim bo’linglar, bas endi, yig’lamanglar. (Ch. A. «A.t.k.»).
2. Kimligimni aytib beray, ketib qolsam,u kim edi, nima qilib yurgan edi, deb o’ylab yurmanglar. (S.A. «Ufq»)

3. Endi o'yin bas, Akbarjon, yuring men sizga dutor chalib beray. (P.Q. «H va A»)
4. Aravakash: - Qani tushinglar endi opalar! – deb muzaffarona ovoz bilan qichqirdi. (Ch. «K va k.»).
5. Siz uchrashing, unutmang! (O. «Q.q.»)
6. So'nggi so'z mulki, shahar maydonida tun saltanatining barcha fuqarosi Chorsu maydonida jom bo'lsinlar (M.A. «S»).
7. –Tez chiqing! Akangiz… (O. "Q.q.")

**BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Aniqlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.

2. O`zlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.

3. Majhul nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.

4. Birgalik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring. 5. Orttirma nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.

6. Maxsus qo`shimchasiz orttirma nisbat ifodalagan fe'lga misol keltiring.

7. Birdan ortiq orttirma nisbat qo`shimchasi qo`shilgan fe'llarga misollar keltiring. 8. Qaysi nisbatdagi fe'llardan orttirma nisbat hosil qilib bo`lmaydi?

9. Orttirma nisbatdagi fe'llardan qaysi nisbatdagi fe'llarni hosil qilish mumkin?

10. Birdan ortiq nisbat qo`shimchasi qo`shilgan fe'llarga 4 ta misol ayting.

11. Tuslanish nima?

12. **–m, -ng, -k, -ngiz** qo`shimchalari qanday shakldagi fe'llarga qo`shiladi?

13.**–man, -san, -miz, -siz** kabi qo`shim -chalar qanday shakldagi fe'llarga qo`shiladi?

14. **–gin, -ay, -ing(iz)** kabi qo`shimchalar qanday shakldagi fe'llarga qo`shiladi? 20. O`tgan zamon fe'llarining turlari haqida gapiring.

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | | |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **3-Ma’vzu**<br><br>(Amaliy mashg’ulot -4 soat) | **Fe’llarning yasalishi va tuzilishi yuzasidan mashqlar ishlash va tahlil qilish** |
| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg’ulot rejasi** | 1. Феълларнинг ясалиши.<br>2.Феълларнинг тузилиши.<br>3. Феълларнинг хосланган шакллари. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Феълларнинг ясалиши, тузилиши ва хосланган шакллари haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Феълларнинг ясалиши. | Феъларнинг ясалиш усуллари haqida ma’lumot бериш. |
| Феълларнинг тузилиши. | Феълларнинг тузилиши жиҳатдан турлари ҳақида маълумот олиш. |
| Феълларнинг хосланган шакллари. | Феълларнинг хосланган шакллари, яъни соф феъл, равишдош, сифатдош, ҳаракат номи ҳақида маълумот айтиш. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Феълларнинг ясалиши, тузилиши ва хосланган шакллари mavzusi bo‘yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma’vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo’yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o’tiladigan ma’vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br>O’.U.M asosida. |

**11-mashq.** O’qing. Shart maylidagi fe’llarni topib qo’shimchaning tagiga chizing.

1. G’am yemang, xom bo’lsa, obdon pishiramiz, o’lmasak!. (A.Qod. «O’.k.»)
2. Endi ena, sen ham bisotingda boridan bir-ikki narsa ajrat. (Ch. «K va k.»).
3. Jinoyatchiga rahm qilsang u seni berahmlarcha o’ldirish mumkin. (T.M. «Sh»).
4. Jo’rttaga ko’ringansan yosh bo’lsang ham balosan! (O. «Q.q.»)
5. O’g’irlik qilsa ming marta rozi bo’lardim-a, singlimning qo’yniga kirmoqchi bo’lib endi ko’rpani ko’tarayotgan ekan. (S.A. «U»)
6. U hamisha paxtadan to’qilgan kiyimni yoqtirar, keyin yirtilib ketgan yeriga yamoq soldirar edi. (M.A. «Sarb»).
7. Baxtim ochilsa qo’shni bo’lamiz, orasi yaqin. (O. «U.y.»)
8. Sevikli kitobdan qaysi parchani boshlab o’qisa, oxirigacha yod bilar edi. (M.O. «J.u.b.»).

**12-mashq.** Mashqni o’qing. Berilgan namunaga qarab, shaxs va zamonini yozing.

*N: Baliq yilining hamali juda seryog’in keldi.*

*Keldi – III sh, birlik, o’tgan zamon.*

1. Baliq yilining hamali juda seryog’in keldi. (K.Isr. «Z.yor.»)
2. U bir o’ram simning uchini belbog’iga ilib suvga tushdi. (S.A. «U»).
3. Jomedan muazzin ovozi yangradi. (O. «U.y.»)
4. Simyog’ochlarning uchida yakka-yakka qushlar ko’rina boshladi. (Ch. «K va k.»)

5. Birinchi gung bilan ikkinchi gung darvozadan kirib torgina yo'lakdan ichkariga qarab yurdilar. (M.A. «Sarb»).
6. Qudalar ham kelasi kuzgacha kutishga rozi bo'lgan edilar. (A.Qod. «O'.k»).
7. Uyga kirib yana ishni davom ettira berasan. (T. Mah. «O.d.»)
8. Yuragi gurillay boshladi. (T.M. «Sh»).

**13-mashq.** ***Uyga vazifa.*** Badiiy asarlardan fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlariga misol toping va shu fe'llarni morfologik tahlil qiling.

**Fe'l tahlili namunasi**

1. So`rog`i.
2. Bo`lishli yoki bo`lishsizligi.
3. O`timli yoki o`timsizligi.
4. Nisbati.
5. SHaxs-soni
6. Zamon turi.
7. Mayl turi.
8. To`liq yoki to`liqsizligi.
9. Etakchi, ko`makchi fe'llar aniqlanadi.
10. Vazifadosh (xoslangan) shakllari.
11. Tuzilish turi.
12. Tub yoki yasamaligi.
13. Gapdagi sintaktik vazifasi

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | | |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **5-Ma'vzu** | **Ravish, ravishdoshning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va vaziflari. Ravishning yasalishi, ravishlarning tuzilish jihatdan turlariga oid mashqlar ishlash** |
| (Amaliy mashg'ulot -2 soat) | |

| | |
|---|---|
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Равишнинг грамматик маъноси, морфологик белгилари ва синтактик вазифалари.<br>2.Равишнинг маъно жиҳатдан турлари.<br>3. Равишларнинг отлашиши ва ясалиши.<br>4. Равишларнинг тузилиши. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Равишнинг грамматик маъноси, морфологик белгилари ва синтактик вазифалари, маъно жиҳатдан турлари, отлашиши ва ясалиши ҳамда тузилиши haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Равишнинг грамматик маъноси, морфологик белгилари ва синтактик вазифалари. | Равишнинг грамматик маъноси, морфологик белгилари ва синтактик вазифалари haqida ma'lumot бериш. |
| Равишнинг маъно жиҳатдан турлари. | Равишнинг маъно жиҳатдан турлари ҳақида маълумот олиш. |
| Равишларнинг отлашиши ва ясалиши. | Равишларнинг отлашиши ва ясалиши ҳақида маълумот айтиш. |
| Равишларнинг тузилиши. | Равишларнинг тузилиши ҳақида маълумотга эга бўлиш. |

| | |
|---|---|
| **O'qitish vositalari** | O".U.M. ma'ruza matini, darslik, bo'r ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Равиш – сўз туркуми mavzusi bo'yicha texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi 4 ta reja va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo'lim (50 min) | 2.1-reja bo'yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma'lumot beriladi.<br>2.3-reja bo'yicha tushincha beriladi.<br>2.4-режа бўйича маълумот олиш. | "Klaster" usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan bilis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O'.U.M asosida. |

**Т а я н ч и б о р а л а р и:** Равишнинг грамматик маъноси, морфологик белгилари ва синтактик вазифалари, равишнинг маъно жиҳатдан турлари, равишларнинг отлашиши ва ясалиши, равишларнинг тузилиши.

**1-mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga narida, sal, ziyod, g'oyat, darrov, orasida, ozgina, bittalab, to'satdan ravishlaridan mosini qo'yib, mashqni ko'chiring.

1. Ertalabgi nonushtadan… o'g'lini bog'chaga olib borgach Jamshidning uyiga qarab ketdi. (T.M. «Sh»).

2. Umrinisobibi bir… jim qolgach, yana kelinchakning bulog'iga engashdi. (Ch.«K. k.»).
3. Otabek …o'zgarib, boyagi asabiylik holatini yo'qotdi, shundog' bo'lsa ham o'zini yig'ib kulgan bo'ldi. (A.Qod. «O'.k.»).
4. Unda bir ro'mol, bunda bir mahsi … yana bir narsa xullas, uy ivirsib yotar edi. (A.Q. «M.ch..»).
5. Lekin tirikchilik mashaqqati haddan…. Xalqning ahvoli borgan sari xaroblikka ketyapti. (O. «U.y.»)
6. Yana kelib Miryoqubning bir qo'lini ikkala qo'li... soldi va silkitib-silkitib siqdi. (Ch. «K va k.»).
7. Keyin yerga qopishib to'kilgan yong'oqlarni ... teradi. (O. «B»)
8. Yigit … chanqagan edi, choyni quyib, puflab-puflab ichdi. (O. «Q.q.»)

**2-mashq.** Gaplardagi ravishlarni turlarga ajratib ko'chiring.

1. Otalari qabri tepasida yonma-yon turib endi inoq bo'lishga ahd qilganlari xayolida gavdalandi. (P.Q. «H va A»).
2. Ming qatla shukurki, poy qadamlariga sog'-solomat yetib keldik. (M.O. «J.u.b.»).
3. Mana shu vrach ertaga soat o'nda sizni kutadi. (T.M. «Sh»).
4. Shu chog'da ichiga chiroq yoqsalar ham yorishmaydirda, egachi – dedi va ko'zi liq yoshga to'ldi. (A.Qod. «O'.k.»).
5. Kelayotgan odam necha-necha yillardan beri endi topgan akasi emasdi, balki g'azabdan shavqat ko'chasidan o'tmagan bir odam edi. (M. Ali. «S»).
6. Bir parcha nonlaringizni ayamay, yetim boshini silasalaringiz – deb keldim. (A.Qod. «M.ch..») .
7. Jamila bir lagan moshkichirini ko'tarib keldi, ustiga serpiyoz qilib qovurilgan qiyma sepilgan edi. (O. «U.y.»)
8. Qanday qilay bolam, qarib qoldim, misoli bir quruq daraxtman-da. (O. «B»)

**3-mashq.** O'qing. Matndagi holat-ravish qatnashgan gaplarni ko'chiring. Ularning tagiga chizing.

1. Xotinlar qiy-chuv bilan yetti aravaga joylashdi, kambag'al urug'-aymoq, qo'ni-qo'shnilar tunda - azada semiradigan qurimsoq ayollar qorong'uda turtinib piyoda yurishdi. (O. «Q.q.»)
2. Baxtiyor siltanib Zokir g'ovning yo'lidan chiqdi va g'ildiraganday bardoga qarab chopdi. (A.Q. «M.ch..»).
3. Nuri endi o'z opasi orqali bu sirni fosh qilmoqchi bo'ldi. (O. «Q.q.»)
4. Keng qirni qarshisidagi yarim doira ufqqa cho'zilgan tog'larni tomosha qilib uzoq yurdi. (O. «B»)
5. Tomlarda, daraxtlarda  qor ancha qalinlashgan. (O. «Q.q.»)
6. Men do'konda bobomning yo'qligidan sevinaman-da, darrov kundaga mukka tushib olaman. (O. «B»)
7. Ammo yigitning yonidan o'tayotganda keskin burildi – da, uning jag'iga musht tushirdi. (T.M. «Sh-2»).
8. Qiy-chuv bilan o'tgan nochorlikdan so'ng yana bazm boshlandi. (O. «Q.q.»)

**4-mashq.** Berilgan gaplarni o’qing. Payt ravishini aniqlang.

1.Gulandom kichkina choynakdan achchiq choyni ichib zarin piyolaga oz-oz quyib nazokat bilan so’zlashib shirin o’tirish yasadi. (O. «Q.q.»)

2. Bu odamning jon berganiga yetti-sakkiz kun bo’ldi. (T.M. «Sh»).

3. Domlam cholg’uni sira yoqtirmaydi. (O. «B»)

4. Toshkandan hamma domlaxo’jalarning eshigiga bir-bir kirib chiqding. (A.Qod. «O’.k.»)

5. Taom asnosi Shaxidbek sekin-sekin madrasaga engashib keldi. (A.Qod. «M.ch.»)

6. Tog’dan esgan izg’irin odamning suyak-suyagiga o’tib ketadi. (M.O. «J.u.b.»)

7. U yerdan ancha-muncha dori-darmon keladi, - Haydar uni gardanidan ushlab ichkariga itardi. (T.M. «Sh»).

**5-mashq.** O’qing. Avval o’rin ravishi qatnashgan gaplarni, so’ng payt ravishi qatnashgan gaplarni ko’chiring.

1. Abdushukur tushida ham ko’rmagan poytaxt teatrini maqtamoqchi bo’lib endi so’z boshlagan edi. (O. «Q.q.»)
2. Mana hozir 3 kundan beri shu yerda onasining bog’ida yashaydi. (O. «Q.q.»)
3. Hosilboyvachcha esa xotirasi tiniq, o’yinga qo’shmagan kelgindi deb haqorat qilgan bu bolani u ham unutmagan. (T.M. «Sh»).
4. Nozimaxonim u yoqqa ketib, Nigorxonim bu yerga keldi. (A.Qod. «M.ch.»)
5. Hilol buvi bir oz jim qolib keyin dedi:- Rasmi ozroq pul berish kerak. (O. «U.y.»37-b)
6. Ovoz pastdagi ungurdan emas, qayerdandir yuqoridan kelardi. (O.Yo. «U.x.»).
7. Ammo hozir uning ko’ngliga kelgan masala – erining chiqish vajiga favqulotda yechilib ketish edi. (A.Qod. «M.ch.»).
8. Pastda ko’pirib jarga tushayotgan suvning gurillashi eshitilardi. (O. «U.y.»).

**BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Ravishning ta’rifi va so`roqlari haqida gapiring. 2. Ravishlar qanday so`zlarga bojlanib keladi? Misollar keltiring. 3. Ravishlarning daraja ko`rsatish xususiyatlari haqida gapiring. 4. Holat ravishlari haqida gapiring. 5. Payt ravishlari haqida gapiring. 6. O`rin ravishlari haqida gapiring. 7. Sabab ravishlari haqida gapiring. 8. Maqsad ravishlari haqida gapiring. 9. Daraja-miqdor ravishlari haqida gapiring. 10. Daraja-miqdor ravishlari qanday turlarga bo`linadi? 11. Ravishlar qo`shimchalar yordamida qanday so`z turkumlaridan yasaladi? 12. Qo`shma ravishlar qanday yasaladi? 13. Qo`shma ravishlar qaytarzda yoziladi? 14. Juft ravishlar qanday yasaladi? 15. Takroriy ravishlar qanday yasaladi? 16. O`rin-payt va chiqish kelishigi shaklida ravishga aylangan so`zlar haqida gapiring. 17. Qanday so`zlar ravishga ko`chadi? 18. Ravishlarning otlashishi haqida gapiring. 19. Sodda tub va sodda yasama ravishlarga 3 tadan misol keltiring. 20. Ham holat, ham daraja-miqdor ravishlari guruhiga kiruvchi so`z haqida gapiring. 21. Sifatga bojlanib, belgining belgisini bildirgan ravishga misol keltiring. 22. Boshqa turkum so`zlari ravishga aylan-ganda qanday qo`shimchalarni olgan bo`ladi?

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

**6-Ma'vzu** **Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama yuzasidan mashqlar bajarish**

(Amaliy mashg'ulot -2 soat)

| | |
|---|---|
| **O’quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O’quv mashg’ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg’ulot rejasi** | 1. Кўмакчи.<br>2.Боғловчи.<br>3. Юклама. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va ularning turlari haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O’quv faoliyati natijalari:** |
| Кўмакчи. | Ko‘makchi va uning turlari haqida ma’lumot berish. |
| Боғловчи. | Bog‘lovchi va uning vazifasi hamda қўлланишига кўра турлари ҳақида маълумот олиш. |
| Юклама. | Юклама ва унинг маъно жиҳатдан турлари, шунингдек, тузилишига кўра турлари ҳақида маълумот айтиш. |
| **O’qitish vositalari** | O”.U.M. ma’ruza matini, darslik, bo’r ,latta, ko’rgazmali qurol. |
| **O’qitish usullari** | Axborotli ma’ruza , blits-so’rov, aqliy hujum. |
| **O’qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O’qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Yordamchi so‘z turkumlari mavzusi bo‘yicha texnologik xarita**

| Ish bosqichlari | O‘qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi 3 ta reja va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo‘lim (50 min) | 2.1-reja bo’yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma’lumot beriladi.<br>2.3-reja bo’yicha tushincha beriladi. | “Klaster” usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma’vzu yuzasidan o’tkazilgan bilis so’rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash. | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar |

| | |
|---|---|
| 3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan) | asosida. |
| 3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | O'.U.M asosida. |

**Т а я н ч  и б о р а л а р и:** Кўмакчи, боғловчи, юклама.

**1-mashq.** Ko'makchilar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.
1. Yormat shahardan piyoda qaytib o'lguday horigani uchun otlarga Yo'lchi qaradi. (O. «Q.q»).
2 . Bir turk oqsoqoli aytgan edi, urush davrida ularni ham Vatandan haydaganlar. (T.M. «Sh»)
3. Eshonxon qaddini tik tutib, shu tomon tez yurib ketdi. (O. «Q.q»).
4. Ali Qushchi avval tortinib keyin esa xiyol dadillanib hamma so'roqlarga javob berdi. (O.Yo «O'.y.»).
5. Uyga qaytishgach, qaynonasi oshxonaga kirib kiyimini almashtirib chiqdi, so'ng xammomga kirdi. (T.M. «M.ch.»).
6. Ikkovlari ham bir-birining katta kichik iltimosilari bo'lsa qo'ldan kelgan qadar bajarardilar. (Ch. «K va k.»).
7. Uy bekasi asosiy gapni aytolmagan bo'lsa ham, Chuvrindi uning nima demoqchi ekanini angladi. (T.M. «Sh»).

**2-mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga ko'makchilardan mosini qo'yib ko'ring.
1. Dadang qancha yildan…. manda ishlaydi. (O. «Q.q»).
2. Mol olish…… kelgan bir yigitga u shunday dedi: Xo'sh mulla nega va'dani buzasiz. (O. «Q.q»).
3. Oltindan…. usta aytgan qarmoqqa nisbatan bolig'ni topmoq kerak. (O.Yo. «U.y.»).
4. Qalandar yanagi kechasi o'n-o'n besh sandiq…..uch-to'rt tuya topib kelishini va'da qilib chiqib ketdi. (O.Yo. «U.y.»).
5. Hasanali hayron bo'ldi, Xo'jabekasining marg'ilonlikka shunchalik adovati bor deb o'ylamas edi. (A.Qod. «O'.k.»).
6. Zavodning mashina bo'limidan devning qalb….gurs-gurs uzluksiz zarb eshitilib turadi. (O.Yo. «U.y.»).
7. Suhbat yarim tunga……davom etdi. (O.Yo. «U.y.»).
8. Zumrad zerikkanidan o'rnidan turib ayvonga chiqdi. (O.Yo. «U.y.»).
**1-mashq.** O'qing. Bog'lovchi qatnashgan gaplarni toping va ko'chiring.
1.Shunda ko'zlaridan yosh sizib chiqqanini ko'rdim-u, sapchib tushib yugirdim. (U.X. «I.e.o.»)
2. Huvillab qolgan cho'l go'yo Ikromjonning qalbiga cho'kkanday. (S.A. «U»)
3. Aqling borligi yaxshi ammo, biz aytgan ishni so'zsiz bajarishing kerak. (T.M. «Sh-2»).
4. Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga qaytib kirdilar. (A.Qod. «O'.k.»).
5. Eshon bu voqyeani eshitgan edi. Lekin unga o'z muridi Razzoq so'fi aralashganini bilmas edi. (Ch. «K va k»).

6. Taomga solingan ko'katlar xush bo'y taratar, ayniqsa ziraning xidi ishtahani battar oshirardi. («Sabr»).
7. Kambag'alda, sho'rlik, lekin o'tirgan yigitlar orasida sarasi o'sha! (O. «U.y.»).
8. Munavvarning boshini silab yupatgim kelar, ammo uyalardim. (U.H. «I.e.o.»).

**2-mashq.** O'qing. Gap tarkibidagi bog'lovchilarni vazifasiga ko'ra ustun shaklida yozing.
1. Bilsangiz ham yanglish anglabsiz chunki, buning siri siz o'ylagancha emas. (A.Qod. «O'.k.»).
2. Yo'lchi chindan ham nay chalishni bilar edi va yaxshi chalardi. (O. «Q.q.»)
3. «Sizni og'zi qon bir bo'ri» - dedim chunki sizda rahm yo'q. (A.Qod. «O'.k.»).
4. Xo'jayinning ayollarida ham pul topilib qolar, - dedi Yo'lchi kuyunib, - yo siz, yo man g'izillab borsak… (O. «Q.q.»)
5. Mana bir xafta bo'ldi-ki u har kecha zoyicha ko'radi, yulduzlar harakatini kuzatib o'z taqdirini bilmoqni istaydi, lekin aniq bir fikrga kelolmaydi. (O.Yo. «U.x.»).
6. Kar emasman, lekin bu taklifingiz oldida ham kar, ham ko'rman. (A.Qod. «O'.k.»).
7. Bu kungi ko'rgan tushi uni ortiq ishontirgan, shuning uchun To'ybekaning tashqari hovlida qiladurg'on yumushini ham o'zi bajarmoqda… (A.Qod. «O'.k.»).

**1-mashq.** O'qing.Ushbu berilgan garlardan yuklamalarni topib ko'chiring.
1. Buning maqsadi kart bo'lsa, ana-kart, men amriga hozir nima uchun so'z qiladi – yu ish qilmaydi. (Ch. «K va k.»).
2. Kundoshing ko'rinishidan bayovga o'xshamasa ham, pismiq ekan. (A.Qod. «O'.k.»).
3. Biz ham hammamiz sizlar singari ishonamiz faqat ….. og'zingga extiyot bo'l …. Faqat…. (Ch. «K va k.»).
4. Boshda suyub uylanganim siz aytgancha to'g'ri, ammo hozir undog' emas, - dedi. (A.Qod. «O'.k.»).
5. Aytdim-ku, hamma, bir xil gapiradi. (Ch. «K va k.»).
6. Tahoratda tartibni rioya qilish sunnat, ammo mahdum tarki sunnat qilmoqda. (A.Qod. «M.ch.»).
7. Gapini eshitdingiz-a, bugun xo'jayinning chiqib ketganini bilmay qoldi, o'zi uyda yo'q edi. (Ch. «K va k.»).
8. Xo'jayinning uyida pul topilib qolar, - dedi Yo'lchi kuyunib, -yo siz, yo man g'izillab borsak…(O. «» Q.q.).

**2-mashq.** O'qing.Affiks yuklama qatnashgan gaplarni ko'chiring.
1. –Bonu qo'lini tortib oldida oqsoqlana-oqsoqlana hovlilari tomon yugurdi. (O.Yo. «U.x.»)
2. Qalandar Qarnoqiy hamon gandiraklaganicha darvozadan chiqdi, chiqdi-yu, allaqanday bir ichki hissiyotga bo'ysunib «Mozori Kalon» tomonga yo'l oldi. (O.Yo. «U.x»).
3. –Basharti odam o'ldirish bo'lsa-chi?-deb so'radi. (A.Q. «O'.k.»).
4. –Men bir musofir g'arib – deb javob berdi-da, negadir tomishga intilgan ko'z yoshini kuch bilan to'xtatib qoldi. (A.Q. «O'.k.»).

5. U faqat Qumrining so’zini, - «Bittasi o’zimizning aravakash» degan so’nggi so’zini eshitib oldi.
6. Anvarning mo’ljalidagi yarim soat o’tgach, dahlizdagi harakatlar tindi-yu, eshik ochilib kadrlar bo’limining mudirasi ko’rindi. (T.M. «Sh»).
7. Lekin, sen izlagan ilm jamiyatga keraksiz bo’lsa-chi? (T.M. «Sh»).
8. Nihoyat aqlini boshig’a yig’ib, sirimdan voqif bir oshnamg’a kengash soldim. (A.Qod. «O’.k.»).

**BLITS-SO’ROV UCHUN SAVOLLAR**

1. Ko`makchi ta’rifini ayting va misollar keltiring.
2. Ko`makchi qanday gap bo`lagi bo`lib keladi?
3. Sof ko`makchilar haqida gapiring.
4. Ko`makchi vazifasida qo`llanuvchi so`zlar haqida gapiring.
5. Ko`makchi otlar haqida gapiring.
6. Bosh kelishikdagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring.
7. Qaratqich kelishigidagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring.
8. Jo`nalish kelishigidagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring.
9. Chiqish kelishikdagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring.
10. Ko`makchi va kelishiklarning sinonimlik xususiyatlari haqida gapiring.
11. Bog’lovchining ta’rifini ayting.
12. Bojlovchilar qo`llanishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?
13. Teng bojlovchilar ta’rifini ayting.
14. Biriktiruvchi bojlovchilarning ta’rifini ayting.
15. Zidlov bojlovchilar ta’rifini ayting.
16. Ayiruv bojlovchilar ta’rifini ayting.
17. Ergashtiruvchi bojlovchilarning ta’rifini ayting.
18. Aniqlov bojlovchilari haqida so`zlang.
19. Sabab bojlovchilari haqida gapiring.
20. Shart va o`xshatish bojlovchilari haqida gapiring.

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | | |
|---|---|---|
| | | |

| | |
|---|---|
| **7-Ma'vzu** | **Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlarga oid mashqlar ishlash** |
| (Amaliy mashg'ulot -2 soat) | |
| **O'quv soati-2soat** | Talabalar soni 25 ta |
| **O'quv mashg'ulot shakli** | Savol-javob, suhbat |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Модал сўзлар.<br>2.Ундов сўзлар.<br>3. Тақлид сўзлар. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Модал, ундов, тақлид сўзлар ва уларнинг туралари ҳамда ясалиши, отлашиши haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| Модал сўзлар. | Модал сўзлар ва унинг туралари haqida ma'lumot бериш. |
| Ундов сўзлар. | Ундов сўзлар ва унинг турлари ясалиши, отлашиши ҳақида маълумот олиш. |
| Тақлид сўзлар. | Тақлид сўзлар ва унинг унинг турлари ясалиши, отлашиши тўғрисида маълумот айтиш. |

| | |
|---|---|
| **O'qitish vositalari** | O'.U.M. ma'ruza matini, darslik, bo' ,latta, ko'rgazmali qurol. |
| **O'qitish usullari** | Axborotli ma'ruza , blits-so'rov, aqliy hujum. |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, kollektiv ish. |
| **O'qitish sharoiti** | Texnik vositalar bilan taminlangan guruhlarda ishlash |
| **Мониторинг ва баҳолаш** | Оғзаки саволлар блиц – сўров |

**Алоҳида хусусиятга эга бўлган сўз туркумлари texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1 – bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi 3 ta reja va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1-ilova)<br>1.3. Aqliy hujim asosida maruzaga oid tushinshalarni faollashtirish. | Tinglaydilar |
| 2- bosqich. Asosiy bo'lim (50 min) | 2.1-reja bo'yisha mini maruza qilish.<br>2.2-reja asosida ma'lumot beriladi.<br>2.3-reja bo'yicha tushincha beriladi. | "Klaster" usulida |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Ma'vzu yuzasidan o'tkazilgan bilis so'rovda faol ishtirok etgan talaba larni baholash.<br>3.2.Ma'vzu yuzasidan talabalarga uyga vazifa sifatida mustaqil ishlash bo'yicha savollar berish.(ilova berilgan)<br>3.3.Yangi o'tiladigan ma'vzu rejasini berish | Baholash mezoni asosida<br>Muommoli savollar asosida.<br><br>O'.U.M asosida. |

**Т а я н ч и б о р а л а р и:** Модал сўзлар, ундов сўзлар, тақлид сўзлар.

**1-mashq.** O'qing. Modal so'zlarni topib tagiga chizing.

1. Faqat birgina Lutfinisoga hech kim, hech nasa olib kelmas, boshqalar ovqatiga hadeb sherik bo'lishga iymanib o'zini chetga olar edi. (S.A. «U»).
2. Padari buzrukvori doim unga: «Sen o'g'lim kichik bo'laturib, boshingizga ko'p savdolar tushdi, hayriyatki bari yaxshilikkka tugadi» - deb aytardi. (M.A. «Sarb»).
3. Bugun yuqoridagilar kapitani burashibdi, shekilli. (T.M. «Sh»).

4. Rahmat yuzga kir, uvali-juvali bo'l, o'g'lim! (O. «Q.q.»).
5. Anvar barkashdagi mayizdan bir-ikki dona olib qo'lida ushladi: «Sizningcha ular bilan qanday muammola qilish mumkin?» (A.Qod. «M.ch.»).
6. Demak, uni bir kun oldin ko'rgansiz? (T.M. «Sh»).
7. –Odamlar ayta beradi, o'zing eshitdingmi ovozini?. (Ch. «K va k.»).

**2-mashq.** Berilgan gaplardan modal so'zlarni ma'no turlarini aniqlab, qanday ma'no anglatganini aytib bering.

1. To'g'ri biz katta boymiz – qo'lida do'ppisini olib gapirdi Fazliddin. (O. «Q.q.»).
2. Yani, bu voqea xabarini Anvarga shu beklar vositasi bilan yetkazish edi. (A.Qod. «M.ch.»).
3. To'g'ri , urganman , o'marganman, lekin, o'ldirmaganman. (T.M. «Sh»).
4. Bolalar, «ov» ni yaxshi tamomlagan shekilli, ko'rinishadi. (T.M. «Sh»).
5. Nahotki, sizlarsiz men uylansam. (S.A. «U»).
6. Mayli, alam ustida shunday qilayapti. (S.A. «U»).
7. Bu xabarni mirzo eshitsa, shubhasiz sevinadir! (A.Qod. «M.ch.»).
8. –Shuning uchun jadidlarning ko'zi uning o'nta xotinini ham ko'rmaydi, degin. (Ch. «K va k.»).

**1-mashq.** O'qing. Quyidagi gaplardan undov so'zlarni ajratib yozing.

1. Xi-xi-xi, aylanay sizdan, poshsha qiz! (A.Qod. «O'.k.»).
2. – Oh, oting ham o'zingga o'xshagan chiroyli ekan!. (A.Qod. «M.ch.»).
3. – Sen soat oltida murda yoqilgan daraxt yaqiniga kelib tur, ko'rasan!. (T.M. «Sh»).
4. – Nima qilib turibsan, kir ichkariga! (T.M. «Sh»).
5. – Tez chiqing e! …. (O. «Q.q.»)
6. E, parvadigori olam! (O.Yo. «U.x.»)
7. – Kunning issig'ini sezasizmi?! (O. «Q.q.»)

**2-mashq.** Quyidagi gaplarning qaysi birida buyruq xitob undovlari qatnashgan.

1. – Bor. Anvar akangga salom qil! (A.Qod. «M.ch.»).
2. – Hay – dedi, - Anvaringdan kishi keldi, sandig'ingni och-chi ! (A.Qod. «M.ch.»).
3. – Tuf de! – ko'zing tegadi kasofat. (O. «Q.q.»)
4. –Rafiq, sen supada o'tir! (O. «Q.q.»)
5. – Bas qil, valdirama! – o'shqirdi boy. (O. «U.y.»)
6. – Hoy bola, tush bu yoqqa! (Ch. «K va k.»)

**1-mashq.** O'qing. Quyidagi gaplar orasidan taqlid so'zlar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

1. Ra'no boshini ko'tarmay «piq-piq» yig'lar edi! (A.Qod. «M.ch.»)
2. Anvar boshqalar kabi yugurmasa ham yelib kelar edi. (A.Qod. «M.ch.»)
3. Shov – shuv ko'tarma! (O. «Q.q.»)
4. Ish? – «piq» etib kuldi Qambar. (O. «Q.q.»)
5. Ali Qushchi ko'ngli bir xil bo'lib qadamini tezlashtirdi. (O.Yo. «U.x»)
6. Sakkiz yashar Ulug'bek yuragi «gurs-gurs» urib, savlat to'kib o'tirgan sersoqol, nuroniy kampirlarga qaradi. (O.Yo. «U.x»)
7. Ko'zlari zavqdan asta yumildi. (O. «Nav»).

**2-mashq.** O'qing. Quyida berilgan taqlid so'zlardan mosini nuqtalar o'rniga qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Tag'in …… ko'z yoshlari quyilib ketdi qizning (O. «U.y.»).
2. Yalang oyoq ….. yurib ketdi. (O. «Q.q.»).
3. Ra'no … etib Anvarning qo'liga qaradi. (A.Qod. «M.ch.»).
4. Bir tomonda … bilan gulxan yonadi. (O. «Q.q.»)
5. O'g'lim deganda yuragi … etmadi, qalbida bir mehr uyg'onmadi. (O.Yo. «U.x.»).
6. Zumrad xonaga qaytib tokchadagi choynakni boshiga ko'tardi, sovuq choyni … ichib, tag'in o'zini yerga otdi. (O. «U.y.»)

## BLITS-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Modal so`zlarning ta'rifini ayting.
2. Modal so`zlarning ma'no jihatidan turlarini ayting.
3. Ma'lum bir guruhga kirmagan modal so`zlarni sanab ko`rsating.
4. Mustaqil so`zlardan o`sib chiqqan modal so`zlar haqida gapiring.
5. Modal so`zlar kelib chiqishiga ko`ra yana qanday bo`lishi mumkin?
6. Undov so`zlarning ta'rifini ayting.
7. Undov so`zlar qanday ko`rinishlarda qo`llanishi mumkin?
8. His-hayajon undovlari haqida gapiring.
9. Mustaqil so`zlardan his-hayajon undovlariga o`tgan so`zlarga misollar keltiring.
10. Haydash-chaqirish undovlari haqida gapiring.
11. Haydash-chaqirish undovlari qanday so`zlar bilan qo`llanadi?
12. Taqlid so`zlarning ta'rifini ayting.
13. Tovushga taqlid so`zlar haqida so`zlang.
14. Holatga taqlid so`zlar haqida so`zlang.
15. Taqlid so`zlar qanday ko`rinishlarda qo`llanadi?
16. Taqlid so`zlar mustaqil so`zlarga qaysi jihatlari bilan o`xshaydi?
17. Taqlid so`zlarning otlashishi haqida gapiring.
18. Eskirgan modal so`zlarga misollar keltiring.
19. *"O`z-o`zidan"* modal so`zi qaysi mustaqil so`z turkumlariga omonim bo`la oladi?
20. Ham tovushga, ham holatga taqlid bildiradigan so`zlarga misollar keltiring.

**B/BX/B jadvali (2-ilova)**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

| | | |
|---|---|---|
| | | |

## Test savollari

1 **Yuborilgan xatni oldim.** Ushbu gapda majhul nisbat shaklidagi fe`l qanday bo`lak bo`lib kelgan?
a) aniqlovchi
b) kesim
v) ega
d) to`ldiruvchi
2 Turlanish qaysi turkumga xos?
a) Ot
b) sifat
v) son
d) fe`l
3 Davomlilik ma`nosini ifodalaydigan ko`makchini toping.
a) sayin
b) sari
v) orqali
d) tomon
4 **Turg'unoyning nimchasi shunday ho`l ediki, to`xtovsiz suv oqardi.** Mazkur gapda olmosh qanday ma`no ifodalayapti.
a) Aniqlikni.
b) Miqdorni.
v) Darajani.
d) Belgining belgisini.
5 **Odamga alam qilarkan...** Ushbu gapda odamga so`zi qaysi so`z turkumiga ma`no jihatidan yaqin?
a) sifatga
b) egaga
v) olmoshga
d) songa

6 Otlashgan sifat qaysi gapda?
a) Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir.
b) Izchil mehnat hamma to`siqlarni engadi.
v) Otning yaxshisi uloqda bilinadi.
d) Ichki go`zallik bilan yo`g'irilmagan har qanday tashqi husn mukammal bo`la olmaydi.
7 Faqat birlikda qo'llaniladigan otlar qatorini toping.

a) bola, o’quvchi, temir, mis
b) Toshkent, Farg’ona, Qo’qon, Qarshi
v) ko’z, quloq, burun, g’ildirak
d) bo’ron, qo’zg’olon, qo’l, muallim
8 Sabab ravishini toping.
a) Odil avtobus bo`lmaganligidan kechikib qoldi.
b) U esa hamon o`ta qo`rqoqligi tufayli kechalari ko`chaga chiqmasdi.
v) Xayrulla bu shartga noiloj ko`ndi.
d) Mana shu mablag’ behuda sarf etilmasligi uchun komissiya qat`iy bir qarorga kelishi kerak.
9 **Biz muzeyga bordik.** Ushbu gapdagi bordik so`zining lug’aviy ma`nosi qaysi qatorda berilgan?
a) I shaxs ko`plikda.
b) kesim
v) lug’aviy ma`nosi berilmagan.
d) o`tgan zamon fe`l.
10 Modal so`zlar gapda nima bo`lib keladi?
a) kesim
b) ega
v) kirish so`z
d) to`ldiruvchi
11 Maqsad ravishini toping.
a) Men sizni olib ketgani keldim.
b) Feruza bilan Shahnoza Azizani o`ynatmoqchi bo`lib kelishgan ekan.
v) Umringa yuz bahor zamondosh bo`lsin.
d) Ovozingizni eshitish umidi bilan ataylab kelgan edim.
12 Mavhum ot yasovchi qo`shimchani toping.
a) -chi
b) -lik
v) -q - ak
d) -g’ich
13 So`zga qo`shilib yoziladigan yuklama berilgan qatorni toping.
a) -da
b) -oq
v) -u
d) -a

14 Faqat mavhum otlar qatorini toping.
a) bola, daftar, qishloq
b) shodlik sevgi, kulfat
v) asar, asal, bog’
d) gul, zafar, shahar
15 Qaysi gapda ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi yo`q?
a) To`yiga aytib ketishdi shundoq ko`shni ovuldan. (A. Oripov).
b) Yigit o`z so’ziga javob beradi.

v) Nodira dugonasini uyiga taklif etdi.
d) Odamlar asta-sekin tarqala boshladi.
16 Fe’l o`zagiga qaysi qo’shimchani qo`shib, harakat nomi hosil qilishda asosan tovush almashinishi kuzatiladi?
a) - moq.
b) -sh (ish)
v) -v, -uv
d) a va b.
17 Qaysi qatordagi so’zlar faqat ot turkumiga mansub?
a) yigirma, sekinlama, surma
b) yasama, qaynatma, to’qima
v) gazlama, childirma, ko’rsatma
d) uchirma, kulma, bog’lama
18 Kishilik olmoshlariga odatda qaysi qo`shimchalar qo`shilib kelmaydi?
a) so`z yasovchi qo`shimcha.
b) kelishik qo`shimchasi.
v) egalik qo`shimchasi.
d) -lar qo`shimchasi.
19 Atoqli ot asosida paydo bo`lgan turdosh otlar qatorini toping.
a) anor, lola, shirin, to`qson
b) a va d.
v) rentgen, xosiyatxon, michurinchilar, amper.
d) asal, rayhon, arslon, muhabbat
20 Yoqubjon tezroq borsa ekan gapidagi fe`l maylining ma`nosini aniqlang.
a) iltimos ma`nosi.
b) buyruq ma`nosi.
v) istak ma`nosi.
d) shart ma`nosi.
21 Turlanish qaysi turkumga xos?
a) son
b) fe`l
v) sifat
d) ot
22 Predmetning xususiyatini bildiruvchi sifatlar qaysi javobda?
a) devoriy, tonggi, xushbo`y
b) ko`q sariq, yashil
v) kamtar, xushfe`l, sho`x
d) novcha, og’ir, katta.
23 Qaysi grammatik ma`no maxsus ko`rsatkichga ega emas?
a) harakat nomida bo`lishsizlik.
b) v va d
v) fe`llarda bo`lishlilik.
d) otlarda birlik.
24 **Yuborilgan xatni oldim**. Ushbu gapda majhul nisbat shaklidagi fe`l qanday bo`lak bo`lib kelgan?
a) to`ldiruvchi

b) ega
v) aniqlovchi
d) kesim
25 Ravishdan yasalgan fe`lni toping.
a) Bulutlar ortidan quyosh yarqiradi.
b) Yilqilar har yili ko`paydi.
v) Kiyimlarni yuvib tozaladi.
d) Gullar suvsab qolibdi.
26 Holat ravishini aniqlang.
a) Nihoyat Ahmadjon askariy xizmatga chaqirildi.
b) U bilan jiddiy suhbatlashdik.
v) Oldinda juda jiddiy, murakkab hayot borligini qayoqdan bilaman.
d) U jo`shib gapirdi.
27 Qo`shma fe`llar qatorini toping.
a) Yozib qo`ya qoldi, o`qib berib turdi.
b) Olib turdi, ketib qoldi, kuta boshladi.
v) Kasal bo`ldi, shoshib oldi, ko`rib qo`ydi.
d) Iqror bo`ldi, qaror qildi, bayon etdi.
28 Har ikkala qismi ham mustaqil qo`llana olmaydigan so`zlardan tashkil topgan juft otlar qatorini toping.
a) choy-poy, don-dun, temir-tersaq bola-chaqa.
b) g’ala-g’avul, ikir-chikir, alg’ov-dalg’ov, poyintar-soyintar.
v) uvali-juvali, alg’ov-dalg’ov, och-yalong’och, past-baland.
d) ota-bola, aka-uka, bog’-u bo`ston, chol-kampir.
29 Bog’lovchi vazifasidagi -u (-yu) yuklamalari qaysi bog’lovchilar o`rnida qo`llanmaydi?
a) Zidlov bog’lovchilar o`rnida.
b) Ayiruv bog’lovchilari o`rnida
v) Biriktiruvchi bog’lovchilar o`rnida.
d) Biriktiruvchi va zidlovchi bog’lovchilar o`rnida.
30 Vosita ma`nosini ifodalaydigan ko`makchi qaysi qatorda qo`llangan?
a) Xatni pochta orqali jo`natdim.
b) Bu voqea qo`rqinchli tush kabi uning ko`z oldidan o`tdi.
v) Avtobus shahar markaziga kirib borgan sari yo`lovchi ko`payar edi.
d) Haligacha majlis uchun xonamiz yo`q.

31 Qo`shma olmoshlarni belgilang.
a) Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir. (Bobur)
b) Allakim eshikni taqillatdi.
v) Unda-bunda qushlarning sayragani eshitilardi.
d) Qo`shma olmoshli gap berilmagan.
32 Qaysi grammatik ma`no maxsus ko`rsatkichga ega emas?
a) harakat nomida bo`lishsizlik.
b) fe`llarda bo`lishlilik.
v) otlarda birlik.
d) b va v.

33 Quydagi gapda qo`llangan o`rin-payt kelishigidagi otning ma`nosini aniqlang. **Shu-shu Anora har kuni avtobusda ishga qatnaydi.**
a) vosita
b) payt
v) o`rin
d) masofa
34 Qaysi qator faqat kichraytirish, erkalash otlaridan iborat?
a) tugunchak qo`zichoq, kuyunchak
b) ko`rpacha, toychoq, qizilcha
v) qizaloq, yalinchoq, qo`ng'iroq
d) kelinchak bo'taloq, kitobcha
35 Qaysi qo`shimchalardan yasalgan ravishdoshlardan bo`lishsizlik shaklini hosil qilib bo`lmaydi?
a) -a (y)
b) -guncha
v) -gani
d) -gan
36 «Har» va «hech» so`zlari fe`l oldida kelsa, qanday so`z hisoblanadi?
a) ravish
b) sifat
v) olmosh
d) ot
37 Quydagi birikuvlarning qaysi biri qo`shma fe`l?
a) o`qib chiqdi
b) yozib berdi
v) sezmay turdi
d) javob bo`ldi
38 Qaysi qatordagi olmosh shaxsning tanholigini ta`kidlaydi?
a) O`zim, o`zing.
b) Hamma, barcha, bari.
v) Allakim, nimadir, birov.
d) Bu, shu, o`sha.
39 Holat ravishini aniqlang.
a) U jo`shib gapirdi.
b) Oldinda juda jiddiy, murakab hayot borligini qayoqdan bilaman.
v) U bilan jiddiy suhbatlashdik.
d) Nihoyat Ahmadjon askariy hizmatga chaqirildi.
40 Ravishdan yasalgan fe`lni toping.
a) Bulutlar ortidan quyosh yarqiradi.
b) Yilqilar har yili ko`paydi.
v) Kiyimlarni yuvib tozaladi.
d) Gullar suvsab qolibdi.
41 Faqat birlikda qo'llaniladigan otlar qatorini toping.
a) bola, o'quvchi, temir, mis
b) Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Qarshi
v) bo'ron, qo'zg'olon, qo'l, muallim

d) ko’z, quloq, burun, g’ildirak
42 Maqsad ravishini toping.
a) Umringa yuz bahor zamondosh bo`lsin.
b) Feruza bilan Shahnoza Azizani o`ynatmoqchi bo`lib kelishgan ekan.
v) Men sizni olib ketgani keldim.
d) Ovozingizni eshitish umidi bilan ataylab kelgan edim.
43 Vosita ma`nosini ifodalaydigan ko`makchi qaysi qatorda qo`llangan?
a) Bu voqea qo`rqinchli tush kabi uning ko`z oldidan o`tdi.
b) Avtobus shahar markaziga kirib borgan sari yo`lovchi ko`payar edi.
v) Haligacha majlis uchun xonamiz yo`q.
d) Xatni pochta orqali jo`natdim.
44 Faqat mavhum otlar qatorini toping.
a) shodlik sevgi, kulfat
b) asar, asal, bog’
v) bola, daftar, qishloq
d) gul, zafar, shahar
45 Kelishik qo’shimchalari qanday vazifa bajaradi?
a) Yangi so`z shakli hosil qiladi.
b) Qo`shma so`z yasaydi.
v) So`z birikmalari va gaplarda so`zlarni bog’laydi
d) Yangi so`z hosil qiladi
46 **Yo’lchi og’ir xo’rsindi.** Bu gapda qo`llangan fe`l qaysi nisbatda?
a) Majhul nisbatda.
b) Aniq nisbatda.
v) O`zlik nisbatda.
d) Birgalik nisbatda.
47 Qaysi qator faqat kichraytirish, erkalash otlaridan iborat?
a) tugunchak qo`zichoq, kuyunchak
b) kelinchak bo’taloq, kitobcha
v) ko`rpacha, toychoq, qizilcha
d) qizaloq, yalinchoq, qo`ng’iroq
48.**Yig’lasa, yig’lablar ketmaydimi?!** Gapidagi -lar qo’shimchasining vazifasini aniqlang.
a) ko’plikni anglatish
b) taxmin ma`nosini bildirish
v) bu gapda -lar davomiylik.
d) ma`noni kuchaytirish
49 **Ikkovimiz yaxshi do`st bo`lib qoldik**. Ushbu gapdagi otlashgan so`z qaysi so`z turkumiga oid?
a) fe`l
b) sifat
v) ravish
d) son
50. O`rin ravishini toping.
a) Shamol oldindan esardi.
b) Ko`pincha tog’ tomondan shamol esib turardi.

v) To`lagan chol o`rnidan turdi.
d) Xuddi ... shu do`kondan ikki respublikaning chegarasi o`tardi.
51. Ki xisob ichra bor edi o’n lak. Har lak o’n tuman kelib beshak (Navoiy) Navoiyning misralarida qo’llangan **bir lak** nechaga teng?
a) O`n ming
b) Ming
v) Yuz ming
d) Yuz
52. Fe`ldan yasalgan otlar berilgan qatorni toping.
a) qisqich, kiyim, tepki, bezak
b) o`tloq, yo`ldosh, pishiqchilik qarsak
v) qaltiroq, qiziqchi, suyanchiq
d) asrdosh, ginachi, oramgoh, misgar
53.Atoqli ot asosida paydo bo`lgan turdosh otlar qatorini toping.
a) asal, rayhon, arslon, muhabbat
b) a va v.
v) anor, lola, shirin, to`qson
d) rentgen, xosiyatxon, michurinchilar, amper.
54. **-a, -y** qo’shimchasi vositasida qaysi so`z turkumlaridan fe`l yasash mumkin?
a) otdan.
b) ravishdan.
v) sifatdan.
d) sifat, ravish va otdan.
55. Jamlash, umumlashtirish ma`nosini ifodalovchi olmoshlarni toping.
a) Har kim, har qaysi, men.
b) Barcha, hamma, bari.
v) Qay bir, hech nima, allakim.
d) Har doim, ba`zi, butun.
56. Olmoshning gapdagi vazifasi qaysi qatorda to`liqroq va to`g’ri ko`rsatilgan?
a) aniqlovchi
b) ega, to`ldiruvchi, aniqlovchi
v) ega.
d) to`ldiruvchi
57. Tilshunoslikning morfologiya bo`limiga oid atamalar qaysi qatorda?
a) faol so`zlar, sinonim so`zlar, atamalar
b) badiiy uslub, ot yasovchi qo`shimchalar, bo`g’in
v) modal so`zlar, ravishdosh, harakat nomi
d) ot-kesim, undalma, bog’lama
58. Aravaning g’ichir-g’ichiri eshitildi. Ushbu gapdagi taqlid so`z qaysi gap bo`lagi bo`lib kelgan?
a) to`ldiruvchi
b) hol
v) kesim
d) ega
59. Qo`shma otlar qatorini toping.
a) ishlab chiqmoq, oh, urmoq, nazar solmoq, payqamay qoldi.

b) sohib-jamol, tinchliksevar, ishyoqmas, o`zbilarmon.
v) allakim, allaqanday, allaqancha, kimdir.
d) gultojixo`roz, sadarayxon, namozshongul, muzyorar.
60.Sifat turkimiga oid so`zlar qaysi javobda berilgan?

a) so`nmas, oqar, sehrlovchi
b) birinchi, ishchi, to`quvchi.
v) chiniqqan, o`qigan, esayotgan
d) mayin, yoqimli, quvnoq
61 Qaysi qatorda yasama sifat yo`q?
a) topqir, beg'ubor, noloyiq
b) rahmdil, erksevar, kamgap
v) chiniqqan, o`qigan, toliqqan
d) iliq, toyg'oq, kuyunchak.
62 Qaysi qatordagi olmosh shaxsning tanholigini ta`kidlaydi?
a) O`zim, o`zing.
b) Allakim, nimadir, birov.
v) Bu, shu, o`sha.
d) Hamma, barcha, bari.
63 **Odamga alam qilarkan...** Ushbu gapda odamga so`zi qaysi so`z turkumiga ma`no jihatidan yaqin?
a) otga
b) sifatga
v) olmoshga
d) songa
64 Sodda sonlar ishtirok etgan gapni aniqiang.
a) Majlisga besh-olti ota-ona keldi.
b) O`n beshinchi kuni hovlimizga ko`chgan edik.
v) Karima to`rt-besh yil sabr qildi.
d) Yigirmanchida oxirgi imtixon bo`ldi.
65 Faqat birlikda qo'llaniladigan otlar qatorini toping.
a) ko'z, quloq, burun, g'ildirak
b) Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Qarshi
v) bo'ron, qo'zg'olon, qo'l, muallim
d) bola, o'quvchi, temir, mis
66 Borliqdagi narsa, belgi, harakat, miqdor tushunchalarini ifodalash...
a) lug'aviy ma`no
b) fonetik ma`no
v) grammatik ma`no
d) morfologik ma`no
67 Qaysi qatorda sonlarni yozishda imlo xatoga yo`l qo`yilgan?
a) bitta, ikkita
b) uchdan bir, beshdan uch.

v) besh-o`n, ellik-oltmishtacha
d) uchchala, to`rttala
68 Kasr sonini toping.
a) Navvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay.
b) Ikki xalta qo`shib yuborilgan edi.
v) ... qizarib-bo`zarib, ketmondek oyning yarimi ko`rinadi.
d) ... to`rt-beshtacha chakana havaskorlargina kelibdi.
69 So`zga qo`shilib yoziladigan yuklama berilgan qatorni toping.
a) -da
b) -a
v) -u
d) -oq
70 Kursdoshlarimga so`zidagi morfemik tarkibni ko`rsating.
a) kursdoshlar-ga
b) kurs-doshlarga
v) kursdosh-larga
d) kursdosh-lar
71 Quydagi gapda -lar qo`shimchasi qanday ma`noni anglatgan? O`rikning ertapishar navi may oyining oxirlarida pishadi.
a) taxmin, chama ma`nosini.
b) tur ma`nosini
v) kuchaytirish, ta`kid ma`nosini
d) sof ko`plik ma`nosini
72 Kishilik olmoshlariga odatda qaysi qo`shimchalar ko`shilib kelmaydi?
a) kelishik qo`shimchasi.
b) -lar qo`shimchasi.
v) egalik qo`shimchasi.
d) so`z yasovchi qo`shimcha.
73 **Ikkovimiz yaxshi do`st bo`lib qoldik.** Ushbu gapdagi otlashgan so`z qaysi so`z turkumiga oid?
a) fe`l
b) sifat
v) son
d) ravish
74 Sifat turkimiga oid so`zlar qaysi javobda berilgan?
a) mayin, yoqimli, quvnoq
b) chiniqqan, o`qigan, esayotgan
v) birinchi, ishchi, to`quvchi.
d) so`nmas, oqar, sehrlovchi
75 Ushbu gapda qaysi so`z turkumiga oid so`zlar qatnashgan? **Nasimjon birpasda o’g’lining qulog’iga hamma gapni aytdi, chamasi u yugurib chiqib ketdi.**
a) ot, fe`l, ravish, yuklama, modal so`z, olmosh
b) ot, fe`l, sifat, ravish, modal so`z, yuklama, olmosh, ko`makchi
v) ot, fe`l, ravish, ko`makchi, yuklama
d) ot, fe`l, sifat, ko`makchi, modal so`z
76. «Olmosh+-olmosh» tipidagi qo`shma olmosh ishtirok etgan gapni aniqlang.

a) Har qanday ishni bir o`zim eplayman.
b) Allaqaysi tomondan bolaning tovushi eshitildi.
v) Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir.
d) Dasturxondagi u-bu taomlardan totib ko`rgan bo`ldi.
77. Qaysi qatordagi tartib son dastlabki, ilk ma`nosida keladi?
a) Atirgullar, ko`rkam karnaygullar, xil-xil gulbeor kuzning birinchi izg'irinlarini pisand qilmaydi.
b) Ikkinchidan, ishlaydigan joyining qandayligini bilishim kerak.
v) Endi ikkinchi tomonga nazar tashlaylik.
d) Ikkinchi kattalarning so`ziga aralashma.
78. Otlashgan taqlid so`zlar gapda asosan, qanday gap bo`laklari vazifasida keladi?
a) hol va ega
b) aniqlovchi va hol .
v) ega va aniqlovchi
d) to`ldiruvchi va ega
79. **Olti, ikki** so'zidan sonlarning ma`no va grammatik turlaridan qay birini hosil qilishda tovush tushishi yuz beradi?
a) jamlovchi sonlar.
b) tartib sonlar.
v) miqdor sonlar.
d) chama sonlar.
80. Fe`ldan yasalgan otlar berilgan qatorni toping.
a) yaltiroq, qiziqchi, suyanchiq
b) qisqich, kiyim, tepki, bezak
v) asrdosh, ginachi, oramgoh, misgar
d) o`tloq, yo`ldosh, pishiqchiliq qarsak
81.**Yoqubjon tezroq borsa ekan** gapidagi fe`l maylining ma`nosini aniqlang.
a) buyruq ma`nosi.
b) iltimos ma'nosi
v) istak ma`nosi.
d) shart ma`nosi.
82. Sifat + ot ko`rinishdagi qo`shma sifatlarni belgilang.
a) kamgap, kamquvvat
b) sovuqqon, balandparvoz
v) tez oqar, erta pishar
d) dunyoqarash, toshbag'ir.
83. Qanday so`zlar morfologik jihatdan o`zgarmaydi?
a) olmosh, son
b) yordamchi so`zlar
v) mustaqil so`zlar
d) ot, fe`l
84. Quydagi omonim so`zlardan qaysi biri-shaxs-son qo`shimchalarini qabul qilish mumkin?
a) O`t (harakat)
b) O`t (fe`l)
v) O`t (o`t-o`lan)

d) a va b.
85. Kelishik qo’shimchalari qanday vazifa bajaradi?
a) Yangi so`z hosil qiladi
b) Yangi so`z shakli hosil qiladi.
v) So`z birikmalari va gaplarda so`zlarni bog’laydi
d) Qo`shma so`z yasaydi.
86. Qaysi so`zlar taqlidiy so`zlarga **–ak** qo`shimchasini qo`shish orqali yasalgan?
a) bezak g’urrak
b) qarsak terak
v) b va d
d) guldirak pirpirak
87. Belgini aniqlash uchun ishlatiladigan olmoshlar qaysi qatorda?
a) hech qanday, hech qaysi.
b) Har qaysi, har bir.
v) Qanday? Qanaqa?
d) Allanima, allanarsa.
88. Nutqimizda faol ishlatidadigan nechta sodda tub son bor?
a) 23
b) cheksiz
v) 10
d) 35
89. Qo`shma olmoshlarni belgilang.
a) Unda-bunda qushlarning sayragani eshitilardi.
b) Allakim eshikni taqillatdi.
v) Qo`shma olmoshli gap berilmagan.
d) Har kimki vafo qilsa, vafo topkusidir. (Bobur)
90. Qaysi qatorda sonlarni yozishda imlo xatoga yo`l qo`yilgan?
a) uchchala, to`rttala
b) bitta, ikkita
v) uchdan bir, beshdan uch.
d) besh-o`n, ellik-oltmishtacha

## Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

1) darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish;

2) tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish.

Talabalarning mustaqil ishlari har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ishlarning bir necha turlaridan foydalaniladi:

1) adabiyotlar bilan ishlash;
2) ijodiy ish;
3) ba'zi mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash;

## Mustaqil ish - umumiy soat: 84 soat (1-semestr)

## Variant 1

**Birinchi topshiriq**. Badiiy asarlardan kishi va shahar nomini bildirgan otlarga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

c) Atoqli otlar haqida umumiy tushuncha yozing.

d) Atoqli otlar qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Quyidagi parchani ko'chiring so'zlarning har biri nechta morfemadan tashkil topganligini aniqlang. O'zak morfema va affiksal morfemalarni belgilang.

a) Morfemika haqida umumiy tushuncha yozing .

b) Odamgarchilik, dehqonchilik so'zlarini ma'noli qismlarga ajrating va shu so'zlardan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Qudrat ota qizi Tozagul bilan Hotamjon oldida parvona edilar. Tozagul ahyon–ahyonda Rustamjon tomonga o'g'rincha ko'z tashlab qo'yar, xumor ko'zlar nogoh to'qnash kelgab paytda allaqanday ishva hadya etardi-da, akasining ko'ksiga asta boshini qo'yib ,yana bulut orasiga kirib ketgan to'liq oydek yuzini yashirar edi. Tozagul Ganjiravon qishlog'idagina emas, butun Qo'qonda husni, xush ahloqi bilan tengi yo'q bir qiz. Uning chanqab turgan quralay ko'zlari, xushqomat, xushtabas - sum, ayniqsa, xuddi sutga chayib olinganday tiniq kulcha yuzlari allaqachon Rustamjonning qalbidan joy olib, uning ea-hushini o'g'irlab qo'ygandi. (K. Ya).

## Adabiyotlar

1.Ikromova R, Azizov A, Muhammedova D. O'zbek tili - Toshkent: O'qituvchi, 1983 y. 90-91, 94-95 betlar.

2. Shoabdurahmonov SH, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Donyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y,158-167 betlar.

3. Mirzayev M, Usmonov S, Rasulov I .O'zbek tili. Tosh: O'qituvchi. 1978 y, 17-30 betlar.

4. Asqarova M, Qosimova K, Jamolxonova H. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi. 1987-yil (65-70 betlar)

## Variant 2

**Birinchi topshiriq.** Quyidagi matnlardan aniq va mavhum otlarni belgilang.

c) Aniq va mavhum otlar haqida umumiy tushuncha yozing.

d) Aniq va mavhum otlar qatnashgan ikkita gap tuzing, morfemik tahlil qiling.

G'ulom aka, bosh injenerning deyarli hamma ishlarini saranjomlab yuradi. Qo'lidan erta-yu kech telefon turupkasi tushmaydi, boshliq oldiga yuguradi. Mashina oldida soatlab o'tiradi. Ishlar silliq yurishib tursa-ku mayli-ya, biror ishkallik chiqib qolsa, yana Hoshimdan baloga qoladi. Hoshim shunaqa odam. Yana o'zini nihoyatda oqil hammadan ortiq biladigan qilib ko'rsatishini aytmaysizmi. Lekin bu faqat niqob uchungina xolos. Mana shu qarshingda turgan materiallarning ko'pi islohat talab qilyapti. Buni sendan yaxshiroq biladigani yo'q.
(J. Abdullaxonov).

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan otlarning tuzilishi jihatidan turlariga misollar toping. (Olingan manba muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart).

a) Otlarning tuzilishi jihatidan turlari haqida umumiy tushuncha yozing

b) Takroriy otlar qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Irisqulov R. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. O'qituvchi, 1992-y, 76-79 bet.

2. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Donyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y. 224-232 bet.

3. Mirzayev M, Usmonov S, Rasulov I. O'zbek tili. Toshkent, O'qituvchi. 1978-y. 83-100 bet.

4. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetaning joriy yildagi soni.

## Variant 3

**Birinchi topshiriq.** Keltirilgan so'zlarni ko'chiring, ularning tub yoki yasama ekanligini izohlang.

a) Tub va yasama so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing

b) Yasama so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Yaxshilaringni, olcha, adabiyotlarda, yumshoq, oqshomga, yoniq, barchamiz, iliq, brigadasining, yigitlar, tinch, yarmi, qoldik, shodiyona, qizg'in, oqlik, chirkin, g'amgin.

**Ikkinchi topshiriq.** Odil Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar" romanidan qo'shma otlarga o'nta misol toping.

a)Otlarning tuzilishi haqida umumiy tushuncha yozing .

b) Juft otlar ishtirok etgan ikkita gap tuzing va morfimik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Ikromova R, Azizov A, Muhammedova D, O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi. 1983-y, 90-91, 94-95 bet.

2. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Donyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'qituvchi, 1980-y 158-167 bet.

3. Mirzayev M, Usmonov S., Rasulov I., O'zbek tili, Toshkent: O'qituvchi 1978-y, 17-30 b.

4. Asqarova M, Qosimova K, Jamolxonov H. O'zbek tili–Toshkent: O'qituvchi, 1987-y, 65-70 b.

## Variant 4

**Birinchi topshiriq.** “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasidan sonning tuzilishi jihatidan turlariga oltita misol toping. (Olingan soni va sahifasi ko’rsatilishi shart)

a) Sonning tuziliushi jihatdan turlari haqida umumiy tushuncha yozing .

b) Sodda va qo’shma sonlar ishtirok etgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq .** Quyidagi matndan yakka va jamlovchi otlarni alohida – alohida ko’chiring.

a) Yakka va jamlovchi otlar, birlik va ko’plikdagi otlar haqida umumiy tushuncha yozing .

b) Yakka va jamlovchi otlar ishtirokida gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Normurot Shomurodov Suqrotning boshiday ulkan boshini silaganicha bir daqiqa jim qoldi. U Qudratxo’janing nima demoqchi ekanini go’rdan gap ochishidanoq ilg’ab oldi. Uo’limini ro’kach qiling, kishilar diliga g’ussa solishni yaxshi ko’radigan, bu bilan ham o’ziga, taskinu tasalli berib, ham g’ururi g’olib raqiblariga tahdid qilishni xushlaydigan “faylasuf”lami ko’p ko’rgan, ko’p uchratgan (O.Yo).

### Adabiyotlar


1.”O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining joriy yildagi sonlari.

2.Asqarova M, Qosimova K, Jamolxonov H O’zbek tili- Toshkent: O’qituvchi 1989-y 74-90 betlar.

3. Ikromova R, Azizov A, Muhammedova D, O’zbek tili. Toshkent: O’qituvchi. 1983-y, 90-91, 94-95 bet.

4. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Donyorov X. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent. O’qituvchi, 1980-y 158-167 bet.


## Variant 5

**Birinchi topshiriq .** Badiiy asarlardan sifatning tuzilishi jihatdan turlari va otlashgan sifatlarga misollar toping. (Olingan manbaning muallifi, sahifasi ko’rsatilishi shart .

c) Sifatning tuzilishi jihatdan turlari va otlashgan sifat haqida umumiy tushuncha yozing

d) Qo’shma sifat va otlashgan sifat qatnashgan ikkita gap tuzing .

**Ikkinchi topshiriq.** Hikoya janridagi asarlardan sifat darajalariga misollar toping. (Olingan manba va muallifi ko’rsatilishi shart.)

a) Sifat darajalari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Sifat darajalari qatnashgan gap tuzing va morfemik tahlil qiling .

### Adabiyotlar

1. Asqarova M, Qosimova K, Jamolxonov H. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y, 74-90 bet

2. Ikromova R, Azizova A, Muhammedov D. O'zbek tili. Toshkent O'qituvchi, 1983 y. 65-70 betlar.

3. Hamroyev M .A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. Toshkent: 2005 y. 39-55 betlar.

4. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Donyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'qituvchi, 1980-y 158-167 bet.

## Variant 6

**Birinchi topshiriq**. Badiiy asarlardan belgili qaratqich kelishigidagi so'zning qaralmish bilan birga ishtirok etgan o'nta gap topib yozing. (Olingan manba, uning muallifi, sahifasi ko'rsatilishi lozim)

a) Kelishik qo'shimchalari, belgili va belgisiz qaratqich kelishigi haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Belgisiz qaratqich kelishigidagi so'z ishtirok etgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling .

**Ikkinchi topshiriq.** Quyidagi parchadan sifat darajalarini toping.

a) Sifat darajalari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Orttirma darajadagi sifat ishtirokida ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

1. Do'stlik o'rtoqchilikning eng oliy darajasidir.

2. O'zining kiyimlari.Unikiga qaraganda qalin, issiqroq edi (S.An).

## Adabiyotlar

1. Asqarova M, Qosimova K, Jamolxonov H. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y, 74-90 bet

2. Ikromova R, Azizova A, Muhammedov D. O'zbek tili. Toshkent O'qituvchi, 1983 y. 65-70 betlar.

3. Hamroyev M .A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. Toshkent: 2005 y. 39-55 betlar.

4. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Donyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'qituvchi, 1980-y 158-167 bet.

## Yettinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Parchani ko'chiring. Morfologik usul bilan yasalgan so'zlarni topib, ulardagi so'z yasovchi qo'shimchalarning qo'llanish darajasi jihatidan turini izohlang (unumli, kam unum yoki unumsiz qo'shimchalar).

A) So'zlarning yasalishi haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Kam umumli qo'shimchadan hosil bo'lgan so'zlar bilan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Qishdan ming mashaqqat bilan chiqib oldim. Boy mening toza ham tinkamni quritdi. Ot qashlash, jodida beda qirqish, sug'orish, qor kurash, suv tashish, dalalarni supirish va boshqa rang-barang hunarlarni chor-nochor o'rgandim. Buning badaliga boy mendan toza ham qarg'ish eshitdi.

Shu yil avval bahorda Mirjalol guruhning o'z yerida ishlab turgan qarollar, batraklar o'rtasida unga qarshi chiqib, uning butun mulk-amlok, yer-suvlarini tortib olib boyni allaqayga haydab yubordilar. Boyning qo'rg'oni ham batraklar qo'liga o'tib ketdi. Endi ular «kolxoz quramiz», deb yuradilar (G'.G'.).

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan madal, undov va taqlid so'zlarga misollar toping. (Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart)

A) Modal, undov va taqlid so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Modal, undov va taqlid so'zlari qatnashgan uchta gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar


1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.


## Sakkizinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Keltirilgan parchadan sifatlarni aniqlab, tuzilishini jadval asosida turlarga ajrating.

a) Sifatlarning tuzilishi jihatdan turlari haqida umumiy ma'lumot yozing.

b) Sifatning tuzilishi jihatdan turlariga gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

| Sodda sifatlar | | Qo'shma sifatlar | Murakkab sifatlar | Juft |
|---|---|---|---|---|
| Tub | Yasama | | | |
| | | | | |

Kechga yaqin ular yaylov tugabb sahro boshlanadigan yerga keldilar, sarg'ish barxanlar, chiroyli gullagan saksovul butalari ko'rindi. Botayotgan quyosh nurida uzoqdan bir nima oltinday charaqladi. Bu haykal edi. Bronzadan byust. U asfalt yo'l tugab, dashtu xiyobonga, san-sanog'siz karvon yo'llari, cho'pon so'qmoqlari kirib ketadigan joyda, kichkinagina chanqoq gulzor o'rtasida, yo'nilgan xarsang o'rtasida turibdi.

Cho'qqi soqolli, keksa odam. Kechki oftobda nurlanib turgan yuzining chuqur ajinlari bu xiyobonlarning qadimiy g'olibona taqdiridan darak beradi. Kechiksa cho'pon tiz cho'ktirgina bahodirday qiziq ko'zlarini ufqlarga tikib turadi. (A.M.)

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan o'nta so'z toping va morfemalarga ajrating. (Olingan manba va muallifi ko'rsatilishi shart)

a) Morfema haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Badiiy asardan olingan so'zlarni morfemik tahlil qiling.

## Adabiyotlar


1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O’zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O’.Xoliyorov. O’zbek tilidan universal qo’llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## To’qqizinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan sonning ma’no turlariga ikkitadan misol toping. (Olingan manba va muallifi ko’rsatilishi shart.)

a) Sonning ma’no turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Sonning ma’no turlari qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Quyidagi parchani ko’chiring so’zlarning har biri nechta morfemadan tashkil topganligini aniqlang. O’zak morfema va affiksal morfemalarni belgilang.

c) Morfemika haqida umumiy tushuncha yozing .
d) Loygarchilik, to’qimachilik so’zlarini ma’noli qismlarga ajrating va shu so’zlardan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Qudrat ota qizi Tozagul bilan Hotamjon oldida parvona edilar. Tozagul ahyon–ahyonda Rustamjon tomonga o’g’rincha ko’z tashlab qo’yar, xumor ko’zlar nogoh to’qnash kelgab paytda allaqanday ishva hadya etardi-da, akasining ko’ksiga asta boshini qo’yib ,yana bulut orasiga kirib ketgan to’liq oydek yuzini yashirar edi. Tozagul Ganjiravon qishlog’idagina emas, butun Qo’qonda husni, xush ahloqi bilan tengi yo’q bir qiz. Uning chanqab turgan quralay ko’zlari, xushqomat, xushtabas - sum, ayniqsa, xuddi sutga chayib olinganday tiniq kulcha yuzlari allaqachon Rustamjonning qalbidan joy olib, uning ea-hushini o’g’irlab qo’ygandi. (K. Ya).

## Adabiyotlar

1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O’zbek tili. Toshkent: O’qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O’zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O’.Xoliyorov. O’zbek tilidan universal qo’llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## O’ninchi variant

**Birinchi topshiriq.** Berilgan parchadan morfologik va sintaktik usulda yasalgan so’zlarni ajratib yozing.

a) So’zlarning yasalishi haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Juft va takroriy usulda yasalgan so’zlarni qatnashtirib ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

O’zim ham sizlarni yig’ib, ikki og’iz gaplashmoqchi edim. Gapim shuki, kolxozimizda paxta ishiga yaraydigan odamlar qanchaligi o’zlaringa ma’lum. Shunday cho’t urib qarasam, paxta ishiga yaraydigan har bir kolxozchining har bir soati bir kilogramm paxta ekan. Shundoq bo’lgandan keyin odamlarni iloji boricha boshqa ishlardan bo’shatib, paxtaga solishimiz kerak. O’shanaqa ishlardan bittasi pillaqurt. Men beshovlaring qurt tutinglar, beshta odam bo’shasin, demoqchi emasman. Shundoq qilinglarki, paxta ishiga yaraydigan odam biron soat ham sizlarning qo’llaringizdan keladigan ishga band bo’lmasin. Agar sizlar mana shu yo’l bilan butun bir mavsumda o’n

mehnat kunini pilladan yulib, paxta terimiga yordam qilsalaring ham. Men sizlar bilan majlis qilib, mana shu masalani o'rtaga tashlamoqchi edim. Mana, majlis ochiq. Kim gapiradi (A.Q.)

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan otlashgan sifatlar ishtirok etgan o'nta gap yozing. (Olingan manbaning nomi, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Otlashgan sifatlar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Yuqoridagi gaplardan ikkitasini morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar


1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.


### O'n birinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Quyidagi so'zlarga kelishik va egalik qo'shimchalarini qo'shib o'zgartiring.

a) Kelishik va egalik qo'shimchalari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Qaratqich va tushum kelishigidagi so'zni qatnashtirib ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Qayin, nok, echki, tuya, qissa, roman, burun, qat, fizika, sen, men, u, biz, siz, ular, hamma, radio, holg'a, kuz, ot, chinor, amma, ketmon.

**Ikkinchi topshiriq.** «Zarafshon» gazetasining sonlaridan otning tuzilishiga ko'ra turlariga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Otning tuzilish jihatdan turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Otning tuzilish jihatdan turlari qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar


1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.


### O'n ikkinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Hikoya janridagi asarlardan otlashgan sifatlarga misollar toping. Olingan manbaning nomi, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

a) Otlashgan sifatlar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Otlashgan sifatlar qatnashgan bitta gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan oddiy sonning tuzilishi jihatdan turlariga misollar toping. (Olingan manbaning muallifi, nomi va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Sonning tuzilish jihatdan turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Sonning tuzilish jihatdan turlari qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Adabiyotlar**

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.

## O'n uchinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «Ma'rifat» gazetasining sonlaridan olmoshning turlariga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Olmosh va uning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Kishilik va ko'rsatish olmoshi qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Quyidagi matndan otlarni ajratib yozing.

a) Otning ma'no turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Yakka va jamlovchi otlar qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

Kun botdi. Og'ib borayotgan quyoshdan otashin harorat yog'ilar, unga kun bo'yi qizib yotgan yerdan ko'tarilayotgan toqat qilib bo'lmaydigan issiq hovur qilar edi. Quyosh va cho'l azaldan muqoyasada: kunga qarab cho'l, oftob va o'z seplarini yoygan makonning qanchalar cheksiz ekanligi bilinadi. Cho'l osmonning bepoyonligi esa kalxatlarning baland parvozlarida bir tup ayridan kalxatlar uchib yurishardi. Ular hyech nimani mo'ljalga olmay, qanotlarini yozib, bilinar-bilinmas ukpar parda bilan qoplangan, doimo salqin ko'k dengizda rohatlanib suzishardi. Xuddi ushbu vaqt va ushbu osmonning azaliyligi hamda o'zgarmasligidan xabar bergandek, ular birining orasidan boshqasi davra solib aylanishardi. (Ch.Ayt.)

**Adabiyotlar**

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
3. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.
4. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.

## O'n to'rtinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining sonlaridan sifat darajalariga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Sifat darajalari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Orttirma daraja qatnashgan ikkitta gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Qissa janridagi asarlardan hisob so'zlarga (numerativ) misollar toping. Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart.

a) Hisob so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Hisob so'zlar qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Adabiyotlar**

1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## O'n beshinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «Boshlang'ich ta'lim» jurnalidan olmoshning turlariga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Olmosh va uning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Juft va qo'shma olmoshlarga ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan sifat darajalariga misollar toping. (Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart)

a) Sifat darajalari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Sifat darajalari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
3. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.
4. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.

## O'n oltinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «Ma'rifat» gazetasidan otlarning tuzilishi jihatdan turlariga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Otning tuzilishi jihatdan turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Otning tuzilishi jihatdan turlariga gaplar tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan otlashgan son va otlashgan sifatlarga misollar toping. (Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart)

a) Otlashgan sifat va son haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Otlashgan sifat va son qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## O'n yettinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «Ma'rifat» gazetasidan yakka va jamlovchi otlarga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Yakka va jamlovchi otlar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Yakka va jamlovchi otlar qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan oddiy sonning tuzilishi jihatdan turlariga misollar toping. (Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart)

a) Sonning tuzilishi jihatdan turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Sonning tuzilishi jihatdan turlari ishtirok etgan gaplar tuzing va bittasini morfemik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
3. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.
4. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.

### O'n sakkizinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «Ma'rifat» gazetasidan морфологик усулда ясалган сўзларга misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Морфологик усулда ясалган сўзлар haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Морфологик усулда ясалган сўзлар qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan доналаб саналмайдиган отларга misollar toping. (Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart)

a) Отларнинг бирлик ва кўпликда қўлланилиши haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Доналаб саналмайдиган отлар ishtirok etgan gaplar tuzing va bittasini morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

### O'n to'qqizinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasidan синтактик усулда ясалган сўзларга misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Синтактик усулда ясалган сўзлар haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Синтактик усулда ясалган сўзлар qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Ҳикоя жанридаги asarlardan жуфт предметни билдирган отларга misollar toping. (Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart)

a) Отларнинг бирлик ва кўпликда қўлланилиши haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Жуфт предметли отлар ishtirok etgan gaplar tuzing va bittasini morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
3. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.
4. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.

## Yigirmanchi variant

**Birinchi topshiriq.** «Boshlang'ich ta'lim» jurnali sonlaridan kelishik va egalik qo'shimchalari bilan qo'llangan otlarga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Otlarning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llangan сўзлар haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llangan сўзлар qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Ҳикоя жанридаги asarlardan asliy va nisbiy sifatlarga misollar toping. (Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart)

a) Asliy va nisbiy sifatlar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Asliy va nisbiy sifatlar ishtirok etgan gaplar tuzing va bittasini morfemik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## Yigirma birinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan kishilik va ko'rsatish olmoshlariga misollar toping. (Olingan manba va muallifi ko'rsatilishi shart.)

a) Kishilik va ko'rsatish olmoshlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Kishilik va ko'rsatish olmoshlari qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** «Ma'rifat» gazetasidan ozaytirma va kuchaytirma sifatlar misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
3. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.
4. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.

## Yigirma ikkinchi variant

**<u>Birinchi topshiriq.</u>** Badiiy asarlardan o'zlik va so'roq olmoshlariga misollar toping. (Olingan manba va muallifi ko'rsatilishi shart.)

a) o'zlik va so'roq olmoshlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) o'zlik va so'roq olmoshlari qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**<u>Ikkinchi topshiriq.</u>** «Zarafshon» gazetasidan qo'shimchalarning tuzilishi jihatidan turlariga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Qo'shimchalarning tuzilishi jihatidan turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Qo'shimchalarning tuzilishi jihatidan turlari qatnashgan gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## Yigirma uchinchi variant

**<u>Birinchi topshiriq.</u>** Badiiy asarlardan belgilash va bo'lishsizlik olmoshlariga misollar toping. (Olingan manba va muallifi ko'rsatilishi shart.)

a) Belgilash va bo'lishsizlik olmoshlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Belgilash va bo'lishsizlik olmoshlari qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**<u>Ikkinchi topshiriq.</u>** «Ma'rifat» gazetasidan shakl yasovchi qo'shimchalar qatnashgan so'zlarga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Shakl yasovchi qo'shimchalar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Shakl yasovchi qo'shimchalar qatnashgan gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
3. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.
4. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.

## Yigirma to'rchinchi variant

**<u>Birinchi topshiriq.</u>** Hikoya janridagi asarlardan so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha qatnashgan so'zlarga misollar toping. (Olingan manba va muallifi ko'rsatilishi shart.)

a) So'z o'zgartiruvchi qo'shimcha haqida umumiy tushuncha yozing.

b) So'z o'zgartiruvchi qo'shimcha qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Qissa janridagi asarlardan murakkab va qo'shma sifatlar qatnashgan so'zlarga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Murakkab va qo'shma sifatlar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Murakkab va qo'shma sifatlar qatnashgan gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**Adabiyotlar**

1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## Yigirma beshinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasidan sonning ma'no turlariga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Sonning ma'no turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

b) sonning ma'no turlari qatnashgan gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Qissa janridagi asarlardan takroriy usulda yasalgan so'zlarga misollar toping. (Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.)

a) Takroriy usulda yasalgan so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

b) Takroriy usulda yasalgan so'zlar qatnashgan gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**Adabiyotlar**

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
3. M.A.Hamroyev.O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.Toshkent, 2005y.
4. N.Turniyozov. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2006 y.

## Mustaqil ish (2-semestr)

## Birinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan otlashgan ravishlarga to'rtta gap toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Otlashgan ravishlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Yuqoridagi gaplardan ikkitasini morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasidan taqlid so'zlarga misollar toping.

A) Taqlid so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Taqlid so'zlarning turlarini qatnashtirib ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Adabiyotlar**

1. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

2. L.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992 y.

3. M.Mirzayev, S.Usmonova, L.Rasulov. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.

4. Sh.Shoabdurahmonov va bosh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, 1980 y.

**Ikkinchi variant**

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan fe'l shakllariga misollar toping.

A) Fe'l shakllari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Fe'l shakllari qatnashgan uchta gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Hikoya janridagi asarlardan ko'makchi va yuklamaning turlariga misollar toping. (Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart)

A) Ko'makchi va yuklamalar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Sof ko'makchi va so'z yuklamalarini qatnashtirib to'rtta gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Adabiyotlar**

1. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

2. L.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992 y.

3. M.Mirzayev, S.Usmonova, L.Rasulov. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

**Uchinchi variant**

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan otlashgan ravishlarga to'rtta gap toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Otlashgan ravishlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Yuqoridagi gaplardan ikkitasini morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Quyidagi fe'llarni o'timli va o'timsiz fe'llarga ajratib yozing.

A) O'timli va o'timsiz fe'llar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) O'timli va o'timsiz fe'llarni qatnashtirib ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Artdi, qidirdi, toshar, chaqnar, ol, o'tir, ber, bor, ye, kel, o'qi, ko'r, uxla, yig', yugur, ter, tur, boshla, yot, qo'y, qirq.

**Adabiyotlar**

1. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

2. L.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992 y.

3. M.Mirzayev, S.Usmonov, L.Rasulov. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.

4. Sh.Shoabdurahmonov va bosh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, 1980 y.

**To'rtinchi variant**

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan undov so'zlar qatnashgan gaplarni ko'chirib yozing.

A) Undov so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Undov so'zlar qatnashtirib gap tuzing va gapdagi ayrim so'zlarni morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** «Ma'rifat» gazetasidan modal so'zlar qatnashgan gaplarni ko'chiring. Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Modal so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Yuqoridagi gaplarning ikkitasini morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Mirzayev, S.Usmonova, L.Rasulov. O'zbek tili . Toshkent: O'qituvchi, 1978 y.

3. M.A.Hamroyev. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. Toshkent, 2005.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

## Beshinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan ravishning ma'no turlarida misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi lozim.

A) Ravish haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ravishning ma'no turlarini qatnashtirib gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasidan taqlid so'zlarga misollar toping.

A) Taqlid so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Taqlid so'zlarning turlarini qatnashtirib ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

2. L.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992 y.

3. M.Mirzayev, S.Usmonova, L.Rasulov. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.

4. Sh.Shoabdurahmonov va bosh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, 1980 y.

## Oltinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Quyidagi matndan fe'l nisbatlarini aniqlang.

A) Fe'l nisbatlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Fe'l nisbatlari qatnashtirib ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan bog'lovchiga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi lozim.

## Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent: O’qituvchi, 1980 y.
2. M.Mirzayev, S.Usmonova, L.Rasulov. O’zbek tili . Toshkent: O’qituvchi, 1978 y.
3. M.A.Hamroyev. O’zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. Toshkent, 2005.
4. B.Mengliyev, O’.Xoliyorov. O’zbek tilidan universal qo’llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## Yettinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Matndan o’zbek nisbat shaklidagi fe’llarni aniqlang.

A) Fe’l nisbatlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Fe’l nisbatlari qatnashgan beshta gap tuzing va ikkitasini morfologik tahlil qiling.

Bir qorindan talashib chiqqan xalqlarning vakillarimiz. Bizning beshigimiz bir yerda bo’lgan. Qozoq onasining aytgan allasida o’zbek bolasi ham uxlagan. O’zbeklar tojiklar bilan bir hovlida yashab kelganlar. Navoiyni turkmanlar xuddi o’zbeklarday yaxshi ko’radilar, qirg’izning to’yi o’zbeksiz o’tmagan. Bizning xalqlarimiz bir-biridan qiz olib, qiz berib quda bo’lib kelganlar. Bizning cho’ponlarimiz Ayniy tog’laridan bobolarimiz bir-biriga kitob yozganlar. Bizning yigitlarimiz bir maydonda uloq chopganlar. Bizning urug’larimiz bir-biriga chatishib ketganlar. Bizning xalqlarimizni bir-biridan ajratib bo’lmaydi. O’zbek xalqining buyuk e’tiqodi shu (H.O.).

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan ko’makchining turlariga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko’rsatilishi shart.

A) Ko’makchi va uning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ko’makchining turlari qatnashgan ikkita gap tuzing va bittasini morfemik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O’zbek tili. Toshkent: O’qituvchi, 1989 y.
2. L.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O’qituvchi, 1992 y.
3. M.Mirzayev, S.Usmonova, L.Rasulov. O’zbek tili. Toshkent, 1978 y.
4. B.Mengliyev, O’.Xoliyorov. O’zbek tilidan universal qo’llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## Sakkizinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «Zarafshon» gazetasining sonlaridan fe’l shakllariga misollar toping.

A) Fe’l shakllari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Fe’l shakllari qatnashgan uchta gap tuzing morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Gaplarni ko’chiring. O’zlik va majhul fe’l nisbatlarini ustun shaklida ajratib yozing.

A) Fe’l nisbatlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ortirma nisbatdagi fe’l qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

1. Bu qiy-chuv orqasidan mehmonlarga quyuq-suyuq berildi (A.Qodiriy). 2. Olam xayolga, tafakurga berildi. Nazira buvi ko'zini ochmoqchi bo'lgan edi, faqat bittasi ochildi (A.Q.). 3. Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin ham chiqar (maqol). 4. Otabekning xayoli…Bo'lindi (A.Qodiriy). 5. Parda ko'tarilishi bilan zalda qarsak ko'tarildi (M.Jamoliddinova). 6. Xolmurodning yangi mehnat kuni boshlandi (R.P.). 7. Qizcha yotsirab, qovog'ini solib, teskari burildi. (O) 8. U yuvindi, tarandi va so'ngra ayvondagi sandalga o'tirdi (R.P.).

## Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. M.A.Hamroyev. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. Toshkent, 2005.
3. L.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

## To'qqizinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Quyidagi parchadan bo'lishsizlik fe'llarni va o'timli, o'timsiz fe'llarni aniqlang.

A) Bo'lishsizlik fe'l va o'timli, o'timsiz fe'llar haqida umumiy ma'lumot yozing.

B) Bo'lishsiz fe'l, o'timli, o'timsiz fe'l qatnashgan uchta gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

- Men ozodligimni hech qanaqa yerga alishmayman, - dedi.

- Yolg'izlikning o'zi bir tutqinlik emasmi? – dedi Salimjon kulib.

Zuhra eri to'g'risida qiziqishib gapira ketdi. Bu gaplarning tagida faqat «Mening qadrimga yetmadi», - degan bir alam yotar edi. Bu olam aftidan, uni kemirib, so'rib darmonini quritibdi va «Dunyo shu o'zi, hayotga hyech kim o'z qadrini topolmadi», degan kuyga solib qo'yibdi. Endi ma'lum bo'lishicha Zuhraning uy tutishi, kiyim-boshi, o'ziga qaramay qo'yganligi shuning oqibati, hozirgi har bir gapi, harakati shuni ta'kidlar, hatto dasturxonni yig'ishtirganida bo'sh tovoqni olib chiqib ketayotganidagi raftori, aft-angori, butun vujudi «E, olam eli. Mana ko'rdingizmi, men nechog'lik xo'rlik, zo'rlik tortayotibman!» deb turganga o'xshar edi, choy mahali hyech kimdan sado chiqmadi (A.Q.).

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan bog'lovchining turlariga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Bog'lovchi va uning turlari haqida umumiy ma'lumot yozing.

B) Bog'lovchining turlariga to'rtta gap tuzing va bitta gapni morfemik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Arziqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.
2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
3. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## O'ninchi variant

**Birinchi topshiriq.** Keltirilgan gaplardagi fe'llarni buyruq-istak va shart mayli shakllariga ajratib ko'chiring.

A) Fe'l mayllari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Buyruq-istak va shart mayllari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

1. Ommaning ichida yashangiz. Hamma narsadan xabardor bo'lingiz. Ommani tushuningiz. Uning ko'nglini topa bilingiz. Uning mutloq ishonchini qozoningiz. 2. Muhitni o'ragan qalin zulmatni kurash mash'ali yondiradi (O.). 3. Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda (Maqol). 4. Yo'qolsin manmanlik. Jiddiy ish, intizom va tashkilot uchun kurashaylmk. 5. Olim bo'lsang, olam seniki (Maqol). Hyech qachon kishiga yaxshiligidan ko'ra yomonligi ko'p deya yondoshmang. 8. Inson tafakkuri va tajribasining o'lmas xazinalari ming yillar osha so'zda jamlandi va abadiy yashaydi.

**Ikkinchi topshiriq.** Hikoya janridagi asarlardan fe'l zamonlari va uning turlariga misollar toping. Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Fe'l zamonlari va uning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

V) Hozirgi – kelasi zamon fe'lida ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
2. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O'zbek tili. Toshkent, 1978 y.
3. L.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992 y.
4. Sh.Shoabdurahmonov va bosh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, 1980 y.

## O'n birinchi variant

**Birinchi topshiriq.** «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasidan ravish turlariga misollar toping.

A) Ravish turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Holat va miqdor – daraja ravishlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan otlashgan ravishlarga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Otlashgan ravishlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar

1. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

3. M.A.Hamroyev. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. Toshkent, 2005.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## O'n ikkinchi variant

**<u>Birinchi topshiriq.</u>** Qissa janridagi asarlardan fe'llarga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**<u>Ikkinchi topshiriq.</u>** Matndagi murakkab fe'llarni topib, murakkab fe'llar o'rnida sodda fe'l ishlatib ko'ring, ma'nosidagi farqlarni aniqlang.

1. Qishloqning janub tomonida bo'zayg'ir cho'qqisi qizarib turibdi. Undan beriroqda qo'shtepa qishloqqa cho'zilib keladi. Xuddi o'sha qo'shtepaning bag'rida bir vaqtlar ikkita qaynar buloq bo'lgan. Jazirama Qizilqumdan Jizzax tomonga qo'y haydab o'tib ketayotgan cho'pon duch kelgan birinchi buloqdan suv ichib turganida, ikkinchi buloqqa ko'zi tushib qoldi-yu, bu buloqning suvidan ham ichib ko'radi.

2. Katta mis samovarga qayta-qayta suv to'ldirib, o'ti yangilandi (H.G'.). 3. Uzoqdan teplovoz qalbining guppillab urishi eshitilardi, uning manglayiga qo'ndirilgan projektorning yorqin shu'lasi ko'zni qamashtirardi (H.G'.). 4. Saroy bahor quyoshining nurlarida mavjlanadi. Darvoza bayroqlar bilan bezatilgan (L.Bat.). 5. Rayxon odmi satin kuylagini kiydi, Ma'fuzani kiyintirdi (H.G'). 6. Tanib berish uchun men chaqirtirildim. (M.R.).

## Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

## O'n uchinchi variant

**<u>Birinchi topshiriq.</u>** Badiiy asarlardan ravishdosh, harakat nomlariga misollar toping. Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Fe'l shakllari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Fe'l shakllari qatnashgan uchta gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**<u>Ikkinchi topshiriq.</u>** «Ma'rifat» gazetasidan yuklamaning turlariga misollar toping. Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Yuklama va uning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Yuklama turlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

## O'n to'rtinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Keltirilgan matndan fe'l bo'lmagan co'zlar bilan fe'lning birikishidan va fe'l bilan fe'lning birikishidan tashkil topgan qo'shma fe'llarni aniqlab, ularni alohida-alohida izohlang.

A) Fe'llarning tuzilishi haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Qo'shma fe'l qatnashgan bitta gap tuzing va uni morfologik tahlil qiling.

1. U sokin, kamtarin, muomalada nozik, lekin ulug'-sifat, butun olimlar uning ma'lumotini jamiki ilmlarda chuqur ekanligiga qoyil qolsalar ham, har yerda tasdiqlasalar ham, Navoiy ma'lumotfurushlik qilmas, ilm sohasida ko'proq o'z nuqsonlaridan gapirardi (O.). 2. Vohid uyquli ko'zlarini arta-arta perronga chiqqanida, tong nafasi sezilib qolgan, lekin ro'paradagi chorbog'ning ichi hali qorong'u, u yer – bu yerdagi chiroqlar charaqlab turardi (O.Yo.). 3. Bahor quyoshi ko'kning tiniq feruzasida Hirotning «Gavharshod» madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari shu'lalarida jonli, havoyi bir chamansoz kabi turli tuman, olov ranglar chaqnatar, gumbaz tevaragida kabutarlar, quvonch bilan inoq o'ynashardi (O.). 4. Professor chiqib ketgach, eshik yopilib koridorda vrachlarning oyoq tovushi tinar, yarador esa ko'zlarini yumganicha xayol surardi. 5. Saraton kirgan bo'lsa ham, hamma yoq ko'm-ko'k, tog' cho'qqilarini qalin qor qoplagincha turibdi (H.Numanov, A.Shoraxmedov). 6. O'zi sezib turibdiki, bu gaplarga hyech kim quloq solayotgani yo'q, har kim o'z xayoli bilan band edi (As.M.).

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan taqlid so'zlarga misollar toping. Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Taqlid so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Taqlid so'zlarning turlariga ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

## O’n beshinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Ushbu parchadan ravishlarni aniqlab turlarga ajrating.

A) Ravish va uning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Miqdor-daraja ravishiga ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Ana, oldinda osmon ufqqa tutashib ketgan joyda qandaydir uylar, qizg’ish qo’rg’onlar ko’zga chalindi, bu bo’lajak shaharchaning ilk binolari! Sal o’tmay asfalt yo’lning ikki yonidagi qum uyumlari chekinib, xuddi askarlarday saf tortgan nihollar ko’rinadi. Bir-ikki yildayoq avj olib qolgan bu tol, terak va chinor nihollari ortida yam-yashil paykallar, paykallarda o’rmalab yurgan traktorlar, ketmonlarini oftobda yarqiratib chopiq qilayotgan qiz-yigitlar ko’rindi (O.Yo.).

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan ko’makchining turlariga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko’rsatilishi shart.

A) Ko’makchi va uning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ko’makchining turlariga ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent: O’qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O’zbek tili. Toshkent: O’qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O’zbek tili. Toshkent: O’qituvchi, 1983 y.

4. B.Mengliyev, O’.Xoliyorov. O’zbek tilidan universal qo’llanma. T.2008 y

## O’n oltinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Hikoya janridagi asarlardan otlashgan sonlarga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko’rsatilishi shart.

A) Otlashgan sonlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Otlashgan son qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** «Ma’rifat» gazetasidan fe’l nisbatlariga misollar toping. Olingan soni, sahifasi ko’rsatilishi shart.

A) Fe’l nisbatlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) O’zlik va majhul nisbatiga ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Mirzayev M., Usmonova S., Rasulov L. O’zbek tili. Toshkent, 1978 y.

2. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O’zbek tili. Toshkent: O’qituvchi, 1983 y.

3. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O’zbek tili. Toshkent: O’qituvchi, 1989 y.

4.B.Mengliyev, O’.Xoliyorov. O’zbek tilidan universal qo’llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

## O’n yettinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan yakka va takroriy, teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Bog'lovchining turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Yakka va takroriy bog'lovchilarga ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** «Ma'rifat» gazetasidan fe'l nisbatlariga misollar toping. Olingan soni, sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Fe'l nisbatlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) O'zlik va majhul nisbatiga ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

## O'n sakkizinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan undov so'zlarga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Undov so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Undovning turlariga ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Hikoya janridagi asarlardan fe'l mayllariga misollar yozing. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Fe'l mayllari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Fe'l mayllari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

### Adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

## O'n to'qqizinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Ushbu matndan payt va o'rin ravishlarini toping, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

A) Ravish turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Payt va o'rin ravishi qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

Kun botdi. Og'ib borayotgan quyoshdan otashin harorat yog'ilar, unga kun bo'yi qizib yotgan yerdan ko'tarilayotgan toqat qilib bo'lmaydigan issiq hovur qilar edi. Quyosh va cho'l azaldan muqoyasada: kunga qarab cho'l, oftob va o'z seplarini yoygan makonning qanchalar cheksiz ekanligi bilinadi. Cho'l osmonning bepoyonligi esa

kalxatlarning baland parvozlaridan ayon. O'sha kunbotar cho'g'i Mo'minqum choilari uzra ko'z ilg'amas yuksaklarda bir tup ayriqum kalxatlar uchib yurishardi. Ular hyech nimani mo'ljalga olmay qanotlarini yozib, bilinar-bilinmas parda bilan qoplangan, doimo salqin ko'k dengizda rohatlanib suzishardi. Xuddi ushbu vaqt va ushbu osmonning azaliyligi hamda o'zgarmasligidan xabar bergandek, ular birining orqasidan boshqasi davra solib aylanishardi (Ch.A.).

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan ko'makchilarga misollar toping. Olingan manba, sahifasi va muallifi ko'rsatilishi shart.

A) Ko'makchi haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ko'makchining turlariga ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

## Adabiyotlar


1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.
3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y


## Yigirmanchi variant

**Birinchi topshiriq.** Quyidagi gaplardan yuklamalarni toping.

A) Yuklama va uning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Yuklamaning turlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

1. Javob berib ko'r-chi, nomard tabiat. Bunchalik go'zalni nechun yaratding!? O'zing gunohkorsan, osiysan behad, Nechun yaratding-u, o'tlarga otding! (H.O.). 2. Bu yerda na g'urbat, na ofat, ne g'am…(G'.G'.). 3. Dildorni-ku men ko'ndiraman-a, sizni ko'ndirish azob (Yo.Sh.). 4. Ular har tomonga to'lib ketishdi. Ulardan faqat birgina oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos, shundaymikan? Do'stlikchi? Hammasi eng shirin xotira bo'lib qoladi (S.Axm.). 5. Nahotki shu gaplarning bari to'g'ri-a, o'rtoq direktor? (S.Axm.). 6. Dunyodagi barcha xalqlar har jihatdan ham teppa-teng (G.Lessing). 7. Axir hyech kim dunyoga ikki marta kelmaydi-ku! (S.Z.). 8. Kambag'alning og'zi oshga yetganda burni qonaydimi? Shu insofdan emasda! (H.H.).

**Ikkinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan modal so'zlarga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Modal so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Modal so'zlar qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tahlil qiling.

## Adabiyotlar


1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.
2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.
3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.
4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y

## Yigirma birinchi variant

**<u>Birinchi topshiriq.</u>** «Ma'rifat» gazetasidan fe'l nisbatlariga misollar yozing. Olingan soni va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Fe'l nisbatlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Fe'l nisbatlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**<u>Ikkinchi topshiriq.</u>** Quyidagi gaplardan modal va yordamchi so'zlarni ustun shaklida ajratib yozing.

A) Modal va mustaqil so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Modal va yordamchi so'z qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

1. Qodir, bu odamning aftidan kasb-korini belgilay olmadi (A.G.). 2. Aftidan ular endigina zavoddan chiqqan bo'lsa kerak, bo'yoq ichi gupillab dimoqqa urib turibdi (L.R.). 3. Yo'lchi chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan do'st (O.). 4. Urush chiqishi bilan qurilish bir oy chamasi to'xtab qoldi (L.R.). 5. Bu daromadning qat'iyan kesilish ehtimoli bor edi (A.Qod.). 5. Tajjaub, uning maktubi yuragimda na sevinch o'yg'otdi, na bir achinish! (Yo.Sh.). 6. Bu taajjub odamlarda gumon tug'dirmay qolmadi (M.L.). 7. Iyul oyida havoning issiq kelishi tabiiy (O.).

## Adabiyotlar


1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.2008 y


## Yigirma ikkinchi variant

**<u>Birinchi topshiriq.</u>** Badiiy asarlardan bog'lovchining turlariga misollar toping. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Bog'lovchining turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Bog'lovchining turlari qatnashgan gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**<u>Ikkinchi topshiriq.</u>** Quyidagi gaplarni ko'chiring va yuklamalarning turlariga ko'ra jadvalga yozing.

A) Yuklama va uning turlari hakida umumiy tushuncha yozing.

B) Yuklamaning turlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfologik tuhlil qiling.

1. Katta-kichik vodiylarni qoplab yotgan tuman xuddi ko'lga o'xshab ko'rinar edi (A.G.). 2. Bilasizmi, bu qanday bo'lgan? Axir kolxozimiz katta, xo'jaligimiz kuchli, bunga rahbarlik qilish hazil gap emasda… Maqtanish emas-ku, bulturning o'zida kolxozimiz o'n yetti million so'm daromad qildi. 3. Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitiladi (L.R.). 4. Sharifa ko'zimizga qaradi-yu tezda javob bermadi (S.Z.). 5. Dehqonboyingiz ko'zimga ko'rinmasinchi, nima qilaman! (A.G.). 6. Uning ham ermagi yolg'iz kitoblar bo'ldi (O.). 7. Nega kuylamay, axir, zulmatni yenggan quyosh qalbini yoritsa-yu, she'rimga boqib tursa! (S.Z.).

| So'roq va taajjub yuklamasi | Kuchaytiruv va ta'kid yuklamasi | Aniqlov yuklamasi | Ayiruv va chegaralov yuklamasi | Inkor yuklamasi | Gumon yuklamasi |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | |

**Adabiyotlar**

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4.B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

**Yigirma uchinchi variant**

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan otlashgan ravishlarga misollar yozing. Olingan manba, muallifi va sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Otlashgan ravishlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Otlashgan ravish qatnashgan gaplar tuzing va morfemik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Undovlarni turiga ko'ra ustun shaklida yozing.

A) Undov so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Undov so'zlarning turlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

1. Men yetim o'tganman, oh u yetimlik, voy bechora jonim desam arziydi (G'.G'.). 2. Ey, ulug' naslimning yuragi, joni! Kiprigingga ilinmas yig'idan zarra. (G'.G'.) 3. Bay-bay, zap choy bo'libdi-da…(A.G.). 4. O… Uzuging juda chiroyli. Qani menga berchi? (U va L.S.). Mahkam Ochilga «Iye» deganday olayib qaradi… (A.Q.). 6. Ehhye, ish, katta-ku! (O.). 7. Uning fikrini ma'qullovchi ovozlar eshitildi. «Balli! Otangizga rahmat!» (R.P.).

**Adabiyotlar**

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4.B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.

**Yigirma to'rtinchi variant**

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan qo'shma fe'l va ko'makchi fe'li co'z qo'shilmalariga misollar toping. Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Qo'shma va ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Qo'shma va ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Hikoya janridagi asarlardan qo'makchining turlariga misollar toping. Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Ko'makchining turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ko'makchining turlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

## Adabiyotlar


1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

4.B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Fan. 2008 y.


## Yigirma beshinchi variant

**Birinchi topshiriq.** Badiiy asarlardan ravishning turlariga misollar toping. Olingan manba, muallifi, sahifasi ko'rsatilishi shart.

A) Ravishning turlari haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Ravishning turlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

**Ikkinchi topshiriq.** Keltirilgan gaplardan taqlid so'zlarning turlarini ustun shaklida ajrating.

A) Taqlid so'zlar haqida umumiy tushuncha yozing.

B) Taqlid so'zlarning turlari qatnashgan ikkita gap tuzing va morfemik tahlil qiling.

1. Havo toza, g'ir-g'ir shamol esib turibdi (S.Axm.). 2. (Xolmat) Hay, G'ofir, turey, tentak? Pichoqni shu Hasan ukang uradi-mi?! Chumchuq pir etsa, yuragi pir etadi-yu buning? (H.H.) 3. Yuragi qinidan chiqqunday duk-duk uradi (O.). 4. Hi-hi-hi, bachkanaga kuldi chol (O.). 5. Lekin kelib bunday quyrug'ingizdan ushlasa, «moo» deb qo'yasiz-da, shattalaysiz! (H.H.). 6. Ko'cha tomondan qurs-qurs oyoq tovushi keladi (S.)

## Adabiyotlar


1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, L.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980 y.

2. M.Asqarova, K.Qosimova, N.Jamolxonov. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1989 y.

3. Ikromova R., Azizova A., Muxammedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983 y.

**Oraliq va yakuniy nazorat savollari.**

1. Belgilash olmoshlari (t.i: hamma, barcha)
2. Sifat so’z turkumi (t.i: nisbiy, asliy)
3. Juft otlar (t.i: aka-uka, qozon-tavoq)
4. Morfologik tahlil: Nahotki, yer yuzida hech qachon tinchlik bo’lmasa?
5. Otlarning egalik shakllari (t.i: kitobim, daftarim)
6. Kishilik olmoshlari (t.i: men, sen)
7. Sifatlarning tuzilishi (t.i: qo’shma, juft)
8. Morfologik tahlil: Hayot bizga nimalardan dars berayapti deysiz …
9. Qo’shma otlar (t.i: belbog’, mingoyoq)
10. Otlardagi shakl yasovchi qo’shimchalar (t.i: kitoblat, uycha)
11. Ko’rsatish olmoshlari (t.i: mana, shu)
12. Morfologik tahlil: Yaxshi kitobni, yaxshi oqiyman…
13. Kishilik olmoshlari (t.i: men, biz,)
14. Juft otlar (t.i: ota-ona, aka-uka)
15. Sonlarning ma’no jihatdan turlari (t.i: birinchi, o’nta)
16. Morfologik tahlil. “2009- yil – Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili”...
17. Qo’shma otlar (t.i: mingoyoq, qo’lqop)
18. Otlardagi shakl yasovchi qo’shimchalar (t.i: kitoblar, uycha)
19. Ko’rsatish olmoshlari (t.i: u, bu)
20. Morfologik tahlil: Yuksak manaviyat - yengilmas kuch…
21. Belgilash olmoshlari (t.i: hamma, barcha)
22. Jamlovchi son (t.i: beshov, oltov)
23. Sifat darajalari (t.i: yaxshi, yaxshiroq)
24. Morfologik tahlil: Ming yillarki bulbul kalomi, o’zgarmaydi yaxlid hamisha.
25. Sonning ma`no turlari (t.i: beshinchi, oltov)
26. So’z turkumlari (t.i: sifat, ravish)
27. Sifat darajalari (t.i: katta, kattaroq)
28. Morfologik tahlil: Sanamay sakkiz dema.
29. Otlarning egalik shakllari (t.i: maktabim, ruchkang)
30. Sifatlatlarning tuzilish turlari (t.i: sodda, takroriy)
31. So’roq olmoshlari (t.i: qancha, qanday)
32. Morfologik tahlil: Osmon baland - yer qattiq…
33. Sifatlarning otlashishi (t.i: Yaxshidan bog’ qolar…)
34. Sifat yasovchi qo’shimchalar (t.i: aqlli, qaynatma)
35. Gumon olmoshlari (t.i: allakim, nimadir)
36. Morfologik tahlil: Akam bahorda harbiy xizmatdan qaytib keladi.
37. Sifat darajalari (t.i: yaxshi, yaxshiroq)
38. Gumon olmoshlari (t.i: kimdir, nimadir)
39. Sonning ma’no turlari (t.i: o’nta, to’rttala)
40. Morfologik tahlil: U sanay boshladi: men, sen, u, demak, uch kishimiz.
41. So’z turkumlari (t.i: fe’l, ravish)
42. Sifat darajalari (t.i: kattaroq, eng katta)
43. Morfologik tahlil: Do’konda yog’lar qatorlashib turibdi…
44. Olmoshning ma’no turlari (t.i: kishilik, ko’rsatish)

45. Sifat yasovchi qo'shimchalar (t.i: aqlli, qaynatma)
46. Hisob so'zlar (t.i: qop, so'm)
47. Morfologik tahlil: Mayda-mayda deysan-a, bu tashvishlarni oxiri qayda …
48. Otlarning turlanishi (t.i: kitobning, maktabga)
49. Belgilash olmoshlari (t.i: hamma, barcha)
50. Sifatlarning tuzilish turlari (t.i: sodda va juft)
51. Morfologik tahlil: Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.
52. Atoqli otlar va ularning turlari (t.i: Toshkent, Alisher)
53. Son so'z turkumi (t.i: dona son, chama son)
54. Yuklama so'z turkumi (T.i. so'z, qo'shimcha)
55. Yetakchi va ko'makchi fe'llar (T.i. o'qib chiqdi)
56. Taqlidliy so'zlar (T.i. tovushga, holatga taqlid)
57. Morfologik tahlil: Bu yil yomg'ir ko'p yog'adi.
58. So'z yuklamalar (T.i. faqat, axir)
59. Bog'lovchi (T.i. teng, ergashtiruvchi).
60. Modal so'zlar (T.i. shubhasiz, ehtimol)
61. Morfologik tahlil: Bir tup tut ekan kishi meng yil gavhar teradi.
62. Ravish yasovchi qo'shimchalar (T.i. – larcha, - lab)
63. Fe'llarning shaxs – son shakllari (T.i. tuslanish)
64. Teng bog'lovchilar (T.i. biriktiruv, zidlov)
65. Morfologik tahlil: Nahotki, yer yuzida hech qachon tinchlik bo'lmasa?
66. To'liqsiz fe'llar (T.i. edi, emish, ekan)
67. Harakat nomi (T.i. – moq, -sh, -ish)
68. Qo'shma fe'llar (T.i. sotib olmoq, tashrif buyurmoq)
69. Morfologik tahlil: Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi…
70. Taqlidiy so'zlar (T.i. tovushga, holatga taqlid)
71. To'liqsiz fe'llar (T.i. edi, emish, ekan)
72. Ergashtiruvchi bog'lovchilar (T.I.chunki, shuning uchun)
73. Morfologik tahlil: Kimga qarama osmondan keladi, men ham ko'kdan tushmayman …
74. Rashlarning ma'no jihatidan turlari (T.i. holat, payt)
75. Fe'l yasovchi qo'shimchalar (T.i. – la - sira)
76. Modal so'zlar (T.i. albatta, darhaqiqat, to'g'ri)
77. Morfologik tahlil: Har so'zni erinmay ildizini so'raydimi –ya, aflotunmidim?!..
78. Qo'shma ravishlar (T.i. O'sha yerda, bir zum)
79. Fe'llarning shaxs-son shakllari (T.i. tuslovchi qo'shimchalar)
80. Yuklamalarning yozilishi (T.i. chiziqcha, qo'shib)
81. Morfologik tahlil: Biz o'quvchilar ancha kamtar odamlarmiz, yoqsa…
82. Yuklama so'z turkumi (T.i. so'z qo'shimcha yuk.)
83. Tovushga taqlidni bildirgan so'zlar (T.i. g'a - g'a, bidir – bidir)
84. To'liqsiz fe'llar (T.i. edi, ekan, emish, emas)
85. Morfologik tahlil: Korib, korma bilib jim bo'l, bu katta dargoh, bo'tam…
86. Teng bo'lovchilar (T.i. biriktiruv, zidlov)
87. His-hayajon undovlari (T.i. voy, ho, eh)
88. Ravish yasovchi qo'shimchalar (T.i. –lab, larcha)
89. Morfologik tahlil: Arava ancha oldin jo'nab ketgan edi…

90. So’z yuklamalar (T.i. faqat axir)
91. Fe’l nisbatlari (T.i. orttirma, birgalik)
92. Ergashtiruvchi bog’lovchilar (T.i. toki, chunki, mabodo)
93. Morfologik tahlil: Kel, dugona, bitta topshiriqni ko’ramiz.
94. Bog’lovchi so’z turkumi (T.i. teng, ergashtiruvchi )
95. Qo’shma fe’llar (F.i.borib kelmoq, xitob qilmoq)
96. Undov so’zlar (T.i. his – hayajon, buyruq- xitob)
97. Morfologik tahlil: Gapning bori shuki, o’qigan xor bo’lmaydi…
98. Bog’lovchi (T.i. teng, ergashtiruvchi)
99. Fe’lning xoslangan shakllari (T.i, ravishdosh, sifatdosh)
100. Yuklamalarning yozilishi (T.i. chiziqcha, qo’shib)
101. Morfologik tahlil: Musichaning ku-kusi ancha vaqtgacha tinmadi…
102. Ravish yasovchi qo’shimchalar. ( T.i.:-lacha ,-iab…)
103. Fellarning tuzilish jihatdan turlari. ( T.I.:sodda, qo’shma.)
104. Ko’makchilarning qo’llanilishi va ma’nolari. (T.i.:kelishik, ma’no)
105. Mafologik tahlil :Ming yillarki bulbul kalomi, o’zgarmaydi yaxlid hamisha…
106. Teng bog’lovchilar. (T.i.: ham, biroq, yo.)
107. Fellarning vazifa shakllari. (T.i.:xoslangan, o’ziga xos.)
108. Yuklama so’z turkumi (T.i.:so’z, qo’shimcha yuk.)
109. Morfologik tahlil:Ko’kdagi yulduzlar ohista-ohista jimirlar edi.
110. Buyruq – xitob undovlari (T.i.:hey, allo, jim.
111. Fe’l yasovchi qo’shimchalar (T.i.:-la , -sira)
112. Otlashgan ravishlar (T.i.: Ko’pdan quyon qochib qutulmas)
113. Morfologik tahlil:Til shunchalik murakkab ekanki, kapaligimni uchurib yubordi.
114. Yuklama (T.i.: faqat, hatto –ku.)
115. Undov va taqlid so’zlarning otlashishi. (t.i.: Oh-vohini hech kim eshitmadi)
116. Ergashtiruvchi qo’shimchalar (T.i.:chunki, shuning uchun)
117. Morfologik tahlil: Alisher Navoiy – she’riyat mulkining sultoni
118. Taqlidiy so’zlar (T.i.:tovushga , holatga taqlid.)
119. Ravishlarning otlashishi (T.i.:ko’pi ketib, ozi qoldi)
120. Ko’makchi so’z turkumi (T.i.: sof, vazifadosh.)
121. Morfologik tahlil: Mayda -mayday deysana, bu tashvishlarni oxiri qayda …
122. Undov so’zlar (T.i.:his- hayajon, buyruq -xitob.)
123. Ergashtiruvchi bog’lovchilar (T.i.:chunki, shuning uchun. )
124. Fe’llarning zamon shakllari (T.i.:o’tgan, kelasi, hozirgi. )
125. Morfologik tahlil:Uch yillik ertaklarim, behisob hikmatlarim.
126. Ko’makchi so’z turkumi (T.i.:sof, vazifadosh. )
127. Teng bog’lovchilar (T.i.:ham, biroq)
128. Ravish so’z turkumi (T.i.:morfologiya, holat)
129. Morfologik tahlil: Bulutlarga aytgin dardingni, ko’zlarida suvi bor…
130. So’z yuklamalari (T.i.:faqat, axir. )
131. Taqlidiy so’zlar . (T.i.:holatga, tovushga. )
132. Buyruq-xitob undovlari (t.i.: kisht, pisht).
133. Morfologik tahlil: Shu yoshda o’qishni menga kim qo’yibdi deb ba’zan koyinaman.
134. Yuklama so’z turkumi.(T.i.:so’z, qo’shimcha. )

135. Modal so’zlar. (T.i.:aslida, o’z-o’zidan. )
136. Fe’llarning vazifa shakllari.(T.i.: sifatdosh, harakat nomi)
137. Morfologik tahlil:Bir tola sochini ham ustaga oldirmadi.
138. Ravishlarning otlashishi (t.i.: Ko’pi ketib, ozi qoldi)
139. Ravishdosh. (T.i.:-b, -ib)
140. Ergashtiruvchi bog’lovchilar. (T.i.:chunki, shuning uchun.)
141. Morfologik tahlil: G’irt yolg’onni ham eplagan to’qir ekan.
142. So’z yuklamalari. (T.i.:faqat, axir)
143. Bog’lovchi.(T.i.:teng, ergashtiruvchi)
144. Modal so’zlar. (T.i.:aslida, o’z-o’zidan.)
145. Morfologik tahlil:U nima dedi-yu, sen nima deb vaysayapsan?..
146. Qo’shma fe’llar. (T.i.:sotib olmoq, tashrif buyurmoq. )
147. Yuklama. (T.i.:faqat, hatto, -ku. )
148. Fe’l yasovchi qo’shimchilari (T.i. – la, -sira)
149. Morfologik tahlil: Axir biz ham besh olishga kecha harakat qilgan edik – ku.
150. Fe’llarning tuzilishi (T.i. sodda, qo’shma)
151. Undov so’zlar (T.i. his-hayajon, buruq-xitob)
152. Ko’makchi so’z turkumi (T.i. sof, vazifadosh)
153. Morfologik tahlil: Akamlar erta bahorda harbiy xizmatdan qaytib kelishadi.
154. Orttirma nisbat. (T.i.:fe’l, -tir)
155. Fellarning tuzilish jihatdan turlari. (T.i.:soda, qo’shma.)
156. Ravish yasovchi qo’shimchalar. (T.i.:-lab, -larcha)
157. Morfologik tahlil: Ikki kuchli dugonam qolib, men o’tib keldim.
158. So’z yuklamalari. (T.i.:faqat, axir)
159. Ko’makchi va kelishik qo’shimchalari sinonimiyasi. (T.i.:telefonda gaplashdim)
160. Fellarning tuzilish jihatdan turlari (T.i.:sodda, qo’shma.)
161. Morfologik tahlil: Hayot bizga nimalardan dars bermayapdi deysiz.
162. Ravish yasovchi qo’shimchalar. (T.i.:-lab, -larcha.0
163. Orttirma nisbat.(T.i.:-tir, -ir)
164. Fe’llarning tuslanilishi. (T.i.:shaxs, qo’shimcha. )
165. Morfologik tahlil: Shunday gaplarni aytadiki, ishonganimni bilmay qolaman.
166. Belgilash olmoshlari (t.i: barcha, hamma)
167. So’z turkumlari (t.i: olmosh, son)
168. Sonlarning ma’no turlari (t.i: tartib son, dona son)
169. Morfologik tahlil: Sen-ku ishning ko’zini bilasan, ukang-chi?

## Glossariy-asosiy atamalar lug'ati

**Ega**-ma'lum gapda ifodalangan ish-harakat belgining egasi.

**Efemizm**-qo'pol, beadab so'zlar.

**Gap**-ma'lum fikr ifodalangan, Grammatik jihatdan shakllangan so'z va so'zlar birikmasi.

**Hol**-ish harakatning qanday ro'y berishi, o'rni paytini ifodalovchi gap bo'lagi.

**Idioma**-o'z asl ma'nosidan uzoqlashgan so'z va so'zlar birikmasi.

**Kesim**- ega haqida xabar beruvchi gap bo'lagi.

**Kirish gaplar**-gapning umumiy mazmuniga fikr bildiruvchi bolak.

**Kontekst**-so'z va iboralarning ma'lum gapda qo'llanilishi.

**Matn**-ma'lum maqsad yoki firni bir necha gaplar bilan ifodalagan yaxlit nutq birligi.

**So'z birikmasi**-ikki va undan ortiq so'zlarning mazmunan va shaklan birikishi.

**Undalma**-nutq qaratilgan shaxs yoki narsani bildiruvchi bo'lak.

**Ababiyotlar ro'yxati.**

1. Karimov I A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T. O'qituvchi 2008 yil.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1998.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5-jild.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni. T.: 1997-yil
5. O'zbekiston Respublikasining Milliy dasturi.T.: 1998-yil
6. Asqarova M., Qosimova K. O'zbek tili. T. O'qituvchi. 1989-yil.
7.Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim. 2006, 5-son.
8. Qo'chqortoyev I. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. O'qituvchi. 1992-bet.
9.Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. O'qituvchi. 1980-yil.
10. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2010-yil.
11.Ikromova R. va boshqalar. O'zbek tilidan mashqlar to'plami. T. O'qituvchi. 1988-yil.
13. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T. O'qituvchi. 1996-yil.
14. Abdurahmonova.E. O'yin vositasida o'quvchilar bilimini mustahkamlash. Toshkent "O'qituvchi"1985-yil
15. Yo'ldoshev. I. Mirzarahimova.M.Ona tili va adabiyotdan noan'anaviy darslar. Toshkent-2006
16. Ziyomuhammadov.B. Tojiyev.M. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli.Toshkent."Lider Press"2010-yil
17. Ernazarov.G'. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish uslubiyati.Toshkent ."Zar Qalam"MCHJ,2005-yil
18. G'ulomova.X va boshqalar. 4-sinfda ona tili darslari.Toshkent "O'qituvchi"2003-yil
19. Qurbonov Z., Shavazova N. Ona tilidan mashq va testlar (uslubiy qo'llanma) to'plami. Samarqand. 2010-yil.

20. **Elektron ta'lim resurslari**

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz